

MILLIY G'OYA VA O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI
MEXANIZATSİYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI

O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI

**MILLIY G'OYA VA
O'ZBEKİSTONNING TARAQQIYOT
STRATEGIYASI**

O'quv qo'llanma

«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti
Toshkent – 2019

UO'K: 323(575.1)(072)

KBK 66.33(5O')

M 50

Q. Nazarov va boshq.

M 50 Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [Matn]: o'quv qo'llanma. Q.Nazarov, A.Safarov, A.Rahmonov, K.Haydarov, N.Alimuxamedova, D.O'rino boyev, B.Qandov, — T.: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2019. — 236 bet.

UO'K: 323(575.1)(072)

KBK 66.33(5O')

Ushbu o'quv qo'llanmada mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan milliy g'oya va O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining mazmun-mohiyati, xalqimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan sobitqadamlik bilan borayotgani, bu borada qanday islohotlar va amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani, ularning ilmiy-nazariy asoslari va amaliy jihatlari yoritib berilgan.

Qo'llanma O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati ilmiy-uslubiy kengashi (6-sonli bayon nomma, 2018-yil 17-dekabr) hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti «Ijtimoiy fanlar kafedrasasi» qaroriga (11-sonli bayon nomma, 2018-yil 24-dekabr) ko'ra nashrnga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

H. Hamidov — t.f.d., professor

S. Choriyev — f.f.d., professor

ISBN 978-9943-5490-0-5

K I R I S H

Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, muayyan jamiyat taraqqiyot jarayonida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishi da turmushning barcha sohalarida, xususan iqtisodiyot, ijtimoiyot va siyosatida bo'lgani kabi, g'oyaviy-mafkuraviy sohada ham muayyan muammolarni hal qilish zarurati paydo bo'ladi. Chunki o'ziga xos yangi davr, sharoit, vaziyat an'anaga aylanib qolgan g'oyalar, qarashlar, munosabatlarni o'zgartirmasdan, ma'lum mafkuraga asoslanmasdan yangi maqsadlar sari qadam tashlay olmaydi. Bu esa yangi g'oya, yangicha qarash, munosabat, mafkurani ishlab chiqishni talab etadi.

Shu bilan birga, har bir jamiyat tarixida shunday burilish davrlari bo'ladiki, unda taraqqiyot yo'lidan borayotgan xalqlar taqdiri uchun nihoyatda muhim strategik maqsadlar va muayyan rivojlanish bosqichiga xos ustuvor tamoyillarni aniqlash hayotiy ehtiyojga aylanadi.

Tajriba aynan ana shunday davrlarda ushbu ehtiyojni zukkolik bilan angloydigan, voqealar rivojini oldindan ko'rib, zamon talablariga munosib javob bera oladigan va o'z taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish yo'lidan sobitqadamlik bilan bora oladigan xalqlargina ko'zlagan maqsadlariga yetishi mumkinligidan dalolat beradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni¹ ushbu hayot haqiqatini va hozirgi davr talablarini yaqqol ifodalaydi.

Bugungi kunda ushbu Farmon va u bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyatini yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish, bu boradagi targ'ibot va tashviqot ishlarining samaradorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur

¹ «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujatlari to'plami, 2017-yil, 6-son.

kitobda ana shu tarixiy hujjatlarning nazariy va amaliy masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, O'zbekiston 1991-yilda o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng o'z taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Bugun bosib o'tilgan ana shu yo'l, erishilgan yutuq va natijalarga xolisona baho berib aytish mumkinki, islohotlarning ushbu tadrijiy yo'li tanlab olingani tufayli xalqimizni og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy to'fonlardan asrab qolindi.

Shu bilan birga, istiqlol yillarda o'sish sur'atlariga erishilgani, jamiyatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy barqarorlik ta'minlangani, uning ma'naviy-ma'rifiy negizlari mustahkamlangani, umuman jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan yangilanish va o'zgarishlar, mamlakatni modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Mazkur kitobda milliy g'oya va yurtimizning rivojlanish strategiyasi, so'nggi yillarda jamiyatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish borasida erishilgan yutuq va natijalar tahlil etilgan. Shu asosda «Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» o'quv kursining maqsadi va vazifalari, asosiy mavzularining mazmun-mohiyatini yoritish, uni o'rganishning ahamiyatini ko'rsatib berishga harakat qilingan.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda amalda o'zini to'la oqlagan islohotlarning mashhur besh tamoyili ishlab chiqildi va joriy etildi. Bugungi kunda ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, shahar va qishloqlarimizning ko'rkalashuvi, xalqimizning turmush tarzi farovonlashib borishi ushbu tamoyilning naqadar to'g'ri ekanini isbotlamoqda.

Mustaqillik davrida mazkur sohalarda erishilgan ulkan yutuq va natijalarni sarhisob qilib shu bilan birga, yutuqlarga mahliyo

bo'lib qolmaslik, xotirjamlik kayfiyatiga berilmaslik hamda globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tangidiy baholash, hayot talablariga javob berish, davr bilan hamqadam bo'lish, istiqboldagi ustuvor vazifalarni aniq-tiniq belgilab olish va ularni amalga oshirish bo'yicha izehil choralarini ko'rish masalalariga ham kitobda keng o'rin berilgan.

To'plamda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni u bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyati va asosiy yo'nalishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Ayni paytda, Prezidentimiz asarlarida ilgari surilgan g'oya va xulosalar, taklif va tashabbuslar asosida davlat boshqaruvini demokratlashtirish, parlamentarizm va ko'p partiyaviylik tizimlarini, fuqarolik jamiyatini takomillashtirishning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlash, axborot sohasini demokratlashtirish, so'z va axborot erkinligini ta'minlash, bozor islohotlarini chuqurlashtirish kabi masalalarga e'tibor berilgan.

Xullas, «Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» maxsus o'quv kursini o'rganishga bag'ishlangan mazkur kitobga kiritilgan barcha mavzularda ana shu asosiy masalalarning mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Negaki, aynan ushbu mavzularma mlakatimiz rivojlanish strategiyasining maqsadi, asosiy yo'nalishlari va dolzarb vazifalarini belgilaydi, mazkur o'quv kursini o'rganishning ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi. Bu borada mustaqil taraqqiyot yillarida hayotimiz sifati, mamlakatimiz qiyofasida qanday o'zgarishlar yuz berayotgani, erkin demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida qanday yutuq va natijalar qo'lga kiritilayotgani xususida fikr yuritish o'quv kursining mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

1-mavzu. «Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» maxsus o'quv kursining predmeti, maqsadi va vazifalari

Mavzuning asosiy savollari. «Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» kursining predmeti, maqsadi va vazifalari. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining milliy g'oya bilan uzviy bog'liqligi. «Strateg» va «strategiya» tushunchalarining g'oyaviy-ijtimoiy mazmuni. Mustaqillikni qo'lga kiritish va uni mustahkamlash jarayonini o'rganish zarurligi. Mustaqillik tafakkuri hamda yangi dunyoqarash shakllanishi va rivojlanishida ushbu o'quv kursini o'rganishning ilmiy-ahamiyati.

Mavzuning asosiy mazmuni. Biz bugun tarixiy davrda – istiqlol yillarda amalga oshirilgan islohotlarning samarasini to'la-to'kis namoyon bo'layotgan, xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Istiqlol yillarda yuqori o'sish sur'atlariga erishilgani, jamiyatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy barqarorlik ta'minlangani, uning ma'naviy-ma'rifiy negizlari mustahkamlangani, umuman hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan yangilanish va o'zgarishlar, mamlakatni modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlar dunyo jamoatchiligi, nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Ayni paytda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev asarlarida ana shu tadrijiy jarayonning mazmun-mohiyati, xalqimizning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etish yo'lida qanday yutuq va natijalarga erishayotgani, aholining ongi va tafakkuri qanday o'zgarib borayotgani, jumladan, ma'naviyat, fan va ta'lim-tarbiya sohalaridagi islohotlarning maqsad-muddaolariga alohida

c'tibor qaratilgan. Ushbu asarlarda istiqlol arafasi va mustaqillik yillarda Respublikamizning Birinchi Prezidenti rahbarligida O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot modelini tanlab olgani va bu yo'ldan sobitqadamlik bilan borayotgani, keng ko'lamlar islohotlar va o'zgarishlarni amalga oshirilayotgani, ularning falsafiy va g'oyaviy omillari har taraflama chuqr yoritilgan.

Prezidentimizning tarixiy dalil va raqamlarga, teran ilmiy fikr va xulosalarga tayangan, mamlakatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lini butun murakkabligi va keng qamrovi har tomonlama yoritilgan, demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va O'zbekistonning eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirish istiqbollari ko'rsatib berilgan asarlari vatanimizning istiqlol tarixini va jamiyatimizning bugungi kundagi taraqqiyot bosqichlarini falsafiy o'rganishda, xususan mustaqillik falsafasining shakllanishi, rivoji bilan bog'liq masalalarni anglashda mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qilayotgani shubhasiz.

Shu bilan birga Prezidentimiz asarlarida uzoq muddatli strategik maqsadlarimizga erishish, ya'ni zamonaviy rivojlangan davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o'sishini ta'minlash, hayot sifatini tubdan yaxshilash va jahon hamjamatiidan munosib o'rinnegallash borasidagi sa'y-harakatlarimizga xolisona baho berish, davlat va jamiyatimiz hayotida demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor vazifalari belgilab berilgan.

Shu ma'noda, alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda rivojlanib borayotgan ijtimoiy fanlar, jumladan «Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» o'quv kursining nazariy asoslari ham Prezidentimiz asarlarida o'z ifodasini topgan. Agar xalqimizning mustaqillikka erishish davri, istiqolimizni qo'liga kiritish va uni muttasil mustahkamlash jarayoni qanday sharoitda kechgani haqida yaxlit va jiddiy falsafiy tahliliy tadqiqotlar kamligini, xususan haligacha O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining shakllanishi va rivojlanish jarayonini maz-

kur asarlar asosida o'rganishga imkon beradigan darslik va o'quv qo'llanmalarining yo'qligini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur yo'nalishdagi izlanishlarning ham ilmiy, ham amaliy ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi.

Bu borada avvalo, «strateg», «strategiya», «strategema» kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini chuqur bilib olish «Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» o'quv kursining nazariy asoslarini anglab olishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash joizdir.

«Strateg» (yunoncha «stratos» — lashkar, qo'shin, «ago» yetaklayman, boshqaraman, ergashtiraman) — Qadimgi Yunonistonda keng huquqlarga ega bo'lgan harbiy rahbar, lashkarboshi ma'nosi anglatadi. Hozirgi davrda «strateg» tushunchasining mazmu ni ancha kengaygan va nafaqat harbiy, balki davlat boshliqlari va jamoat arboblariga nisbatan ham qo'llaniladi.

«Strategiya» qadimgi davrda harbiy san'at sohasi, muayyan davlat harbiy doktrinasiga asosan shakllanadigan va harbiy siyosatning tarkibiy qismi tarzida talqin qilingan tushunchadir. Ilk lug'aviy ma'nosiga ko'ra strategiya qo'shinni, lashkarni boshqarishga oid bilimlar, harbiy ilm sohasi sifatida shakllangan bo'lsa da, jahon falsafasi va insoniyat tafakkuri tarixida strategiyani maxsus fikrlash va tafakkur kuchi bilan raqibni yengish ilmi sifatida talqin qilish hollari uchraydi.

Hozirgi davrda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalariiga tatbiq qilinadi va keng qamrovli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy yo'nalishdagi dasturlar hamda rejalar majmuuni anglatadi. Platonning «Davlat», Aristotelning «Siyosat», Forobiying «Fozil odamlar shahri», Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Amir Temurga nisbat beriladigan «Temur tuzuklari» kabi asarlar «Strategiologiya» fani tarixi va nazariyasida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Har bir jamiyat tarixida shunday burilish davrlari bo'ladiki, unda taraqqiyot yo'lidan borayotgan xalqlar taqdiri uchun dorilamon bo'lgan va muayyan rivojlanish bosqichiga xos strategi-

ya, ya'ni ustuvor tamoyillar hamda dolzarb vazifalarni aniqlash hayotiy ehtiyojga aylanadi. Tajriba aynan ana shunday davrlarda ushbu ehtiyojni zukkolik bilan anglaydigan va davr talablariiga, voqealar rivojini oldindan ko'rib, javob bera oladigan xalqlargina ko'zlagan maqsadlarga yetishi mumkinligidan dalolat beradi. Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagisi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni ushbu hayot haqiqatini ifodalaydi.

Har qanday strategiya muayyan strategemalarga tayanadi. Ya'ni, strategemalar har bir strategiya uchun nazariy paradigmalar rolini o'taydi. Bu jihatdan, «Strategema insonning aqlu idroki bilan boshqariladigan, muayyan maqsad va muddaoлага xizmat qiladigan va ularga erishish imkonini beradigan, rejali va chuqur o'yangan xatti-harakatlari va faoliyati tayanadigan asosiy tushunchani ifodalaydigan atamadir».

Ilm-fanda strategemalar tarixi Qadimgi Xitoy mutafakkirlari Lao-tszi, Konfutsiy, Men-tszi va boshqalar merosi bilan bog'lanadi. Garchand Xitoy tilida «strategema» tushunchasi yo'q bo'lsada, uni xitoycha «tszi» iborasida nazarda tutilgan mazmun to'g'ri ifodalaydi, deb hisoblanadi. Ushbu iborani ustamonlik, aqlilik-ayyorlik, quvlik, deb tushunish mumkin. Bu borada Qadimgi Xitoy mutafakkiri Lao-tszi qarashlari asosida shakllangan dao falsafasi strategemali fikrlashning yorqin namunasidir. Unga ko'ra dao inson tug'ilganidan so'nggi nafasigacha bosib o'tadigan hayot so'qmog'i, umri bo'yи izlaydigan va harakatlari natijasida erishiladigan maqsadlarga olib boradigan yo'ldir. Har bir kishi bu yo'lidan borar ekan ana shu maqsadlarni to'g'ri belgilashi va ular tomon sobitqadamlik bilan borishi lozim. Bu yo'lida odamzodni yo'lidan adashtirishga, o'z yo'liga solishga intiladiganlar, chalg'itadiganlar bo'lishi tabiiy. Shu nuqtayi nazardan, Lao-tszi jamoaviy fikrni emas shaxsiy intilishni, jamoaviylikni emas individuallikni, an'anaviylikni emas yangilanishni, konformizmni emas shaxsiy tashabbuskorlikni e'zozlaydi. «Strategema»ga ko'ra, o'zining nimaga qodirligini, o'z aqlu idrokining imkoniyatlarini

anglamaydigan shaxslar hayot nimaligini, umr nima uchun berilganini, o‘zining qanday ideallarga intilishi va ularga qanday erishishni bilmaydigan, nodon va kaltafahm kishilardir. Aksariyat hollarda ana shunday kishilar ko‘pchilikni tashkil qiladi va ular boshqalarning strategemalari qurboni bo‘ladi, o‘zgalarning irodasiga bo‘ysunib umrini o‘tkazadi va ularning ideallariga er-gashib (yetaklanib, boshqarilib) yashashga majbur bo‘ladi.

Bu borada Laodan ko‘ra sal ilgariroq yashagan va yanada mashhurroq bo‘lgan dono faylasuf Konfutsiy qarashlari jamiyat taraqqiyoti va xalq tafakkuri uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Laodan farqli ravishda Konfutsiy asarları va u tomonidan yaratilgan strategemalarda jamoaviylik elementlari kuchliroq namoyon bo‘ladi. Uning «Tabiat – barchamizning onamiz, onaga xiyonat qilish – qabohat, uni avaylash esa barchamizning burchimizdir», «Jamiyat – umumiy xonodon, uning tartiblari – muqaddas qonun, ularga amal qilish esa barcha uchun eng asosiy mas’uliyatdir», «Farovonlik – maqsad, tinchlik va barqarorlik – unga yetish uchun shart-sharoit, islohotlar esa bunga erishishning eng asosiy vositasidir», degan mazmundagi strategemalari nafaqat Qadimgi davr, balki hozirgi zamонавиј Xitoy xalqining ham qalbi va ongiga singib ketgan. Xitoyda ana shunday mezonlar ta’sirida shakllangan ba’zi islohotlar strategiyalari yuz yilgacha davom etgan va ular bir necha avlod tomonidan amalga oshirilgan. Shu jihatdan, konfutsizmning ikki ming yil davomida Xitoy xalqining davlat maskurasi bo‘lib kelgani ham aslo tasodif emas.

O‘tkir aql-idrokli kishilarga xos quvlik, aqlilik-ayyorlik asosidagi bunday strategemalardan foydalanish haqidagi dalil va missollar nafaqat Xitoy, balki boshqa xalqlarda, insoniyatning barcha aqliy faoliyat sohalari va shakllarida uchraydi. Dunyo xalqlari og‘zaki ijodi, adabiyoti va san’atida o‘zini go‘l, sodda ko‘rsatib, ishini ustalik bilan bitirgan Nasriddin Afandi, Aldarko’sa, Birbal kabi obrazlarga duch kelamiz. O‘zbek tilida bu tushuncha «Intilganga tole yor», «O‘limdan boshqa hamma narsaning chorasi bor», «Aql ila idrok kishini hokimu sulton qilur», «Aql bilan har

qanday masalani yechish mumkin» kabi maqol va hikmatlarning umumiy ma’nosini ifodalaydi.

Zamonaviy falsafada strategemalarni o’rganishga XX asr oxirlarida kirishildi va nemis olimi X.F.Zenger va ingliz faylasufi R. Grin ushbu tushunchani iste’molga olib kirgan bu boradagi yetuk mutaxassislar hisoblanadi. To‘g’ri, ushbu tadqiqotchilardan oldin ham ayrim izlanishlar olib borilgan, ilmiy, ommabop jurnal va to’plamlarda maqolalar chop etilgan. Biroq, aynan ana shu olimlar xitoy strategemalarini to’la ilmiy ma’noda Yevropaga tanitdilar va ularning umuminsoniy hodisalar ekanini ochib berdilar. Xarro fon Zenger 1999-yili «Strategeme. Band 1.» («Strategemalar. 1-jild»), 2004-yili esa «Strategeme. Band 2.» («Strategemalar. Xitoycha yashash va omon qolish san’ati. 2-jild») deb atalgan asarlarini nashr qildirgan. Robert Grinesha 1998-yili «The 48 Laws of ‘ower» («Hokimlikning 48 qoidasi») va 2006-yili «The 33 strategies of War» («Urushning 33 strategiyasi») asarlarini chop ettiradi. Ushbu kitoblar shu sohadagi ilk yirik va mashhur asarlar hisoblanadi. Keyingi yillarda olimlar «Strategologiya» fani shakllanishi haqida gapira boshladilar va aynan X.F.Zenger hamda R. Grinlarning asarlari bu boradagi dastlabki ilmiy adabiyotlar sifatida e’tirof etilmoqda.

Alovida ta’kidlash lozimki, milliy g’oya va O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasining bugungi maqsad va vazifalarini anglashda 2017–2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu sababdan ham, o’quv kursining pirovardida mazkur strategiyaning mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish jarayonidagi o’rni va ahamiyati, shuningdek jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy-ma’riy tarraqqiyotining istiqbollarini tahlil etishga doir mavzular joy olgani maqsadga muvofiqli.

«Milliy g’oya va O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» – bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish, dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar qa-

toriga ko'tarilishdek oliy maqsadni o'rganish imkoni ochilgan yangi maxsus o'quv kursidir. Mazkur maxsus o'quv kursining maqsadi – ezgu g'oyalardan va sog'lom mafkuradan mahrum bironbir millat va jamiyatning uzoqqa bora olmasligini, har qanday xalq va davlat o'z taraqqiyotini milliy manfaatlarimizni, uzoq va davomli maqsadlarimizni ko'zlab, iqtisodiyotimizning barqaror sur'atlar bilan o'sishini ta'minlash, aholi farovonligini, xalqaro maydonda vatanimizning obro'-e'tiborini munosib darajaga ko'tarish ekanini yoshlarning qalbi va ongiga singdirishdan iboratdir. Bu esa, kelajagimizni yaqqol tasavvur etish, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy poydevorini mustahkamlash, yot mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish, g'oyaviy bo'shliq bo'lishi-ga yo'l qo'ymaslik, va nihoyat, yurtimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish strategiyasini chuqur o'rganish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda istiqlol yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan tub o'zgarish va islohotlarni falsafiy anglash, bu jarayoning tarkibiy qismi va ijtimoiy tafakkurdagi in'ikosi bo'lgan milliy g'oyaning O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi amaliyotida namoyon bo'lishining dolzarb masalalarini o'rganish barkamol avlodni tarbiyalashda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni hisobga olgan holda 2007-yildan boshlab Prezident huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida «O'zbekistonning rivojlanish strategiyasi» bo'yicha maxsus o'quv kursi ishlab chiqilgan va ushbu muassasa ta'lim tizimiga joriy etilgan edi. Mazkur o'quv kursi qariyb o'n yil davomida sinovlardan o'tgan bo'lib, qo'lingizdagи kitobda ushbu sohadagi tajriba ham hisobga olingan.

Milliy g'oya va O'zbekistonning Harakatlar strategiyasini o'rganish va uni amaliyotga qo'llashning mazmun-mohiyatini belgilaydigan, bu boradagi ta'lim-tarbiya jarayonida yoshlarning qalbi va ongiga singdirish lozim bo'lgan quyidagi falsafiy tezislar mazkur kitobga kiritilgan mavzularning mazmun-mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Alohidə ta'kidlash joizki, mustaqil O'zbekistonning paydo ho'lishi tasodif emas, balki totalitar tuzum va kommunistik mafkuraga xos ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar jürayonining tarixiy hosilasi sifatida sodir bo'lgan qonuniyatdir. Mustaqillik oson va o'z-o'zidan qo'lga kiritilmagan, u Respublikamiz Birinchi Prezidenti rahbarligidagi sobitqadam va sermashaqqat faoliyatning natijasidir. Shu ma'noda, O'zbekistonning istiqlolni tasodifiy hodisa yoki kimningdir in'omi emas, balki muttasil kurashlar natijasida qo'lga kiritilgan ulkan tarixiy yutuqdir.

Ikkinchidan, mamlakatimiz istiqlolga erishgan dastlabki kundardan boshlab o'zi uchun huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan mustaqil taraqqiyot yo'lini aniq belgilab oldi. Ushbu yo'l, ya'ni jamiyat hayotini tubdan isloq qilish, iqtisodiy rivojlanish va hayotni erkinlashtirish, jamiyatni demokratlashtirish va bosqichma-bosqich modernizatsiyalash modeli bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda, eng muhimi – amalda o'zini oqlamoqda.

Uchinchidan, mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab o'z umrini o'tab bo'lgan eski mustabid tuzumdan voz kechilib, mamlakatimizda demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun asos bo'lgan islohotlarning mashhur besh tamoyili ishlab chiqildi va joriy etildi.

Avvalo, tarixan qisqa bu davr, bir o'spirin yoshiga teng vaqt davomida davlatimiz uchun siyosiy sohada, davlat va jamiyat qurilishi borasida har tomonlama rivojlanish va yuksalish davri bo'lgani bugun hech kimga sir emas. Bugungi kunda xalqaro hamjamiyatning e'tirofiga ko'ra, jamiyat hayotini tubdan isloq qilish, jahonda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bo'lib turganiga qaramay, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy hayotni erkinlashtirish, jamiyatni demokratlashtirish va bosqichma-bosqich modernizatsiyalash modeli amalda o'zini to'la oqlamoqda.

To'rtinchidan, O'zbekistonda faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davom etmoqda. Bun-

da jamiyatimizning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishini yanada isloh etish, xususan, Konstitutsiyada belgilab berilgan inson manfaatlari, erkinligi va farovonligini to'la ta'minlash, parlamentarizm va ko'p partiyaviylikning siyosiy hayotda to'laroq joriy etilishi g'oyat muhim rol o'ynameqda.

Beshinchidan, mazkur tamoyillar mamlakatimizni isloh etish bo'yicha aniq maqsad va vazifalarni belgilab olish imkonini yaradi, dunyoda yuz berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar davrida ham mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga turki bo'ldi. Aynan ana shu tamoyillar asosida paydo bo'lgan «Islohotlar – islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun» degan shior bugun ko'pchilikka yod bo'lib ketdi.

Oltinchidan, mamlakatimizning siyosiy hayotini yana da demokratlashtirish, davlat va jamiyat qurilishini isloh etish va yangilashga qaratilgan tub o'zgarishlarni amalga oshirishda milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga katta e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda milliy davlatchiligidan hamda zamonaviy demokratik davlat qurishning o'zini oqlagan jahon tajribasini chuqur o'rganish va qabul qilish ham davlatimiz faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi.

Mazkur o'quv kursining barcha mavzularida ana shu asosiy tezislarning mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Negaki, aynan ushbu tezislardan Milliy g'oya va O'zbekistonning Harakatlar strategiyasining maqsadi va dolzarb vazifalarini belgilaydi, uni o'rganishning ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Yurtimizning bugungi kunga qadar bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'l ini bir necha davrlarga bo'lib o'rganishning maqsadga muvofiqligidan dalolat beradi:

– birinchi davr – 1991–2000-yillarni o'z ichiga oladi. Bu yangi jamiyatga o'tish va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish davridir;

- ikkinchi davr — 2001-yildan 2010-yilgacha bo‘lgan muddatni o‘z ichiga oladi. Bu faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davridir;
- uchinchi davr — «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» amaliyotga joriy etilayotgan hozirgi jarayonni o‘zida qamrab oladi.
- to‘rtinchi davr — hozirgi kunlarda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yurtimizda keng ko‘lamli islohotlar olib borilayotgan, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi amalga oshirilayotgan davrdir.

Aynan ana shu davrlar xalqimizning yangi tafakkuri, Milliy g‘oya va O‘zbekistonning harakatlar strategiyasi shakllanishi jarayonining mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Ushbu o‘quv kursini o‘rganishda yana shunga e’tibor berish kerakki, mamlakatimizni isloh etish va yangilashga qaratilgan tub o‘zgarishlarni amalga oshirishda milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an‘analarimizni saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga katta e’tibor qaratildi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda zamonaviy demokratik davlat qurishning o‘zini oqlagan jahon tajribasini chuqr o‘rganish va qabul qilish, fuqarolik jamiyatini barpo etish, aholining siyosiy faolligini yanada oshirish, ijtimoiy institatlarning roli va ahamiyatini kuchaytirish ham davlatimiz faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi.

Milliy g‘oya va O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini o‘rganishda istiqlol yillarda amalga oshirilgan tub islohotlar nafaqat jamiyat hayoti, balki xalqimizning ongi va tafakkurida, ma’naviyati va falsafasida ham ulkan o‘zgarishlar ro‘y berishiga sabab bo‘lganiga e’tibor berish lozim. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy fanlar, jumladan falsafiy fanlarning yangi tizimi shakllanishi uchun shart-sharoit va imkoniyat yaratdi.

Bu borada strategiyada ilgari surilgan g'oya va fikr-mulohaza-larga tayangan holda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokrat-lashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsi-pini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro ti-yib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, shuningdek boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vakolatlarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazish, ikki palatali parlamentni shakllantirish, ko'ppartiyaviylik tizimini joriy etish va mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini o'rganishda sud-huquq tizimini liberallashtirish va mustaqilligini ta'minlash hamda uni inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi institutga aylantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida tahlil qilish zarur. Shu bilan birga, axborot sohasini isloh etish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash sohasida fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini, ommaviy axborot vositalari rivojini ta'minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to'la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasini yaratish hamda O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchilagini rivojlantirish sohasida mamlakatimizda samarali, demokratik saylov tizimini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan qonunchilik asoslarini vujudga keltirish va takomillashtirib borishga ahamiyat qaratish lozim.

«Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»ni o'rganishda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish sohasida aholi barcha qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan fuqarolik institutlari va nodavlat-notijorat tashkilotlarini tashkil etish va samarali faoliyat yuritishi uchun institut-

sional, tashkiliy-huquqiy baza yaratish, mazkur tashkilotlarni davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan nazoratini amalga oshirishdagi rolini kuchaytirishga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish sohasida asosiy e'tibor markazlashtirilgan ma'muriy buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyoti asoslarini, avvalo qonunchilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratish bo'yicha dolzarb chora-tadbirlarni anglab olishga intilish o'quv kursini yanada chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

O'quv kursi predmeti. Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini o'rganish Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldag'i «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni asosida shakllanayotgan yangicha tafakkur va zamonaviy dunyoqarashning ma'no-mazmunini xalqimizning istiqlolga erishish jarayoni, O'zbekiston tanlab olgan taraqqiyot modelining mohiyati, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish, bu jarayonga xos qonuniyatlar va xususiyatlar bilan bog'liq holda chuqur falsafiy tahlil qilish, yosh avlodning qalbi va ongiga milliy istiqlol g'oyalarini, vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini singdirishga xizmat qiladi. Bu borada yoshlarni mustaqil taraqqiyot yillarida hayotimiz sifati, mamlakatimiz qiyofasida qanday o'zgarishlar yuz berayotgani, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida qanday yutuq va natijalar qo'lga kiritilayotgani xususida fikr yuritishga o'rgatish o'quv kursining predmetini tashkil qiladi va uning asosiy mazmun-mohiyatini ochib berishga imkoniyat yaratadi.

O'quv kursini o'qitishning maqsadi – mamlakatimizda shakllanayotgan yangicha tafakkur va dunyoqarashning ma'no-mazmunini, xalqimizning istiqlolga erishish jarayoni, O'zbekiston tanlab olgan taraqqiyot modelining mohiyati, uni bosqich-

ma-bosqich amalga oshirish jarayoniga xos qonuniyatlar va xususiyatlarni chuqr falsafiy tahlil qilish, yosh avlodning qalbi va ongiga milliy istiqlol g'oyalarini, vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini singdirishdan iboratdir.

O'quv kursini o'qitishning vazifalari quyidagilardan iborat:

— milliy g'oya nazariyasi asosida istiqlol yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan tub islohotlarning maqsad-muddaolari va bu borada erishilgan yutuqlarning xalqimiz hayoti, buguni va kelajagi uchun naqadar muhimligini chuqr anglash, bu jarayonning tarkibiy qismi bo'lgan O'zbekistonning taraqqiyot yo'li va rivojlanish strategiyasining mazmun-mohiyati va uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini yoshlarga har tomonlama tushuntirish;

— yurtimiz tinchligi, vatanimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligi yo'lida faol xizmat qiladigan, kim uchun va nima uchun yashayotganini yaxshi anglaydigan, ertangi kunimizni yanada yuksaltirishga mustahkam zamin yaratish, boshlangan buyuk ishlarni davom ettirishga qurbi yetadigan, hech kimdan kam bo'lmasdan hayotga kirib kelayotgan yetuk va barkamol, mustaqil fikrlaydigan yangi avlodni kamol toptirish;

— globallahib borayotgan bugungi dunyoda ongli yashaydigan, siyosiy, huquqiy va ma'naviy saviyasi tobora o'sib borayotgan, o'z kelajagini aniq tasavvur etadigan, milliy manfaatlarimiz va jamiyatimiz xavfsizligini ta'minlash zarurligini yaxshi anglaydigan, xalqimiz hayotining osoyishtaligi va barqarorligini asrab-avaylaydigan yoshlarni tarbiyalash;

— mustaqillik davrida erishilgan ulkan yutuq va natijalarga mahliyo bo'lib qolmaydigan va xotirjamlik kayfiyatiga berilmaydigan, globallahuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholay oladigan, islohotlarda faol qatnashadigan, o'zgarishlar va yangilanishlarga daxldorligini chuqr his qiladigan, ogoh va hushyor avlodni voyaga yetkazish.

«Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» maxsus o'quv kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida ijtimoiy voqelikda kechayotgan jarayonlarni falsafiy mushohada etish, narsa-hodisalarni ilmiylik va mantiqiylik asosida o'rganish, mustaqil va zamonaviy fikr lash, kundalik faoliyatda atrofda roy berayotgan jarayonlarga nisbatan o'ziga xos malaka va ko'nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda, bugungi hayot talablariga javob berish, davr bilan hamqadam bo'lish, istiqboldagi ustuvor vazifalarni aniq-tiniq belgilab olish va ularni amalga oshirish boyicha izchil choralarни ko'rish masalalari ham «Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» o'quv kursining tarkibiy qismidir.

Ushbu maxsus o'quv kursi falsafa, tarix, huquqshunoslik, ma'naviyat asoslari, siyosatshunoslik, pedagogika, iqtisodiyot, psixologiya kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bevosita aloqa-dordir. «Milliy g'oya: O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi» fanini o'rganish orqali egallangan bilimlar yosh-larning mafkuraviy immunitetini, siyosiy madaniyati, ogohligini oshirishga, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarni tahlil qilishga o'rgatadi.

Mazkur maxsus o'quv kursini o'qitish jarayonida mantiqiylik, tarixiylik, obyektivlik tamoyillariga amal qilingan holda ta'limni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etishning noan'anaviy usullaridan foydalanish, ayniqsa «Aqliy hujum», «FSMU», «Keys-stadis», «Bumerang», «Klaster», «Matbuot konferensiysi» kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xullas, jamiyatimiz taraqqiyotining umumiyl qonuniyatları va vatanimiz istiqlolining bugungi kuniga xos demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidagi islohotlarning o'ziga xos jihatlarini falsafiy o'rganish, xususan ushuu jarayonning «Milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» shakllanishi va uning rivoji bilan bog'liq masalalarini chuqur anglash nihoyatda

muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa, barchamizni ushbu sohada faol va omilkor bo'lishga undaydi, yosh avlodni tarbiyalash va kamolotga yetaklashda zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

2 mavzu. O'zbekiston taraqqiyoti va Harakatlar strategiyasining milliy g'oya nazariyasi va amaliyoti bilan uyg'unligi

Mavzuning asosiy savollari. Insoniyat hayoti va jamiyat taraqqiyotida g'oyaviy omilning o'rni va ahamiyati. Milliy g'oya nazariyasi — O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining metodologik asosi. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat, uni yanada takomillashtirishning g'oyaviy omillari. O'zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari, ularning nazariya va amaliyot bilan uzviy bog'liqligi. Mamlakatimiz taraqqiyoti va barqaror rivojlanishini ta'minlashning g'oyaviy asoslarini mustahkamlash zarurligi va uning istiqbollari.

Mavzuning asosiy mazmuni. XX asr oxirida xalqimizning asriy orzulari ro'yobga chiqdi, 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishdi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylandi. Mamlakatimizda yangi jamiyat qurish uchun tub o'zgarish va islohotlar amalga oshirila boshlandi. Bu jarayoning milliy g'oya nazariyasi, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor tamoyillari bilan aloqasini o'rganish, uning umumiy qonuniylari va o'ziga xos xususiyatlarini anglab olish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Avvalo, ta'kidlash joizki, inson hayoti va jamiyat taraqqiyotida turli-tuman g'oyalarning o'rni va ahamiyati mavzusi nihoyatda muhim falsafiy masalalardan biridir. Negaki, inson va jamiyat muayyan g'oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oлади. O'zi yaratgan g'oyalalar insonning ongi va shuurini, tafakkuri va e'tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. Yuksak g'oyalalar odamlarni olijanob maqsadlar sari, jamiyatni ezgu amallar tomon

yetaklaydi. G'oyasi yetuk, e'tiqodi butun, qadriyatları yüksak insongına mardlik namunalarını ko'rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitteladi. Xalqimizning Shiroq va To'maris, Spetamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Boburmirzo kabi mard farzandlari – buyuk g'oya sohiblari. Ming yillar o'tsa ham, ulug' ajdodlarimizning matonati va qahramonligi xalqning xotirasidan o'chmaydi. Chunki ular yuksak g'oyalar – vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu-urfon rivoji yo'l ida jon fido qilganlar. Ahmad Yassaviy butun umrini haq ishqida o'tkazganida ham, Najmuddin Kubro mo'g'il bosqinchilariga qarshi jang qilganda ham ulug'vor g'oyalar ularga sabr-bardosh va matonat ato etgan. Jordano Bruno jismu jonini egallagan buyuk g'oya tufayli gulxan alangasida ham o'z e'tiqodidan qaytmagan, Nasimiyni tovonidan so'ysalar ham, ishqilohiy deb jon bergen.

Jahon tarixidan, jumladan xalqimizning o'tmishidan ham, qaysi sohada bo'lmasin, mardlik va jasorat ko'rsatish uchun insonga albatta ulug'vor g'oya kerakligiga ko'plab misollar topildi. Muayyan bir g'oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgani, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois, umuminsoniy haqiqatga aylanadi. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zaxmat chekkanini ko'ramiz. Suqrot va Platon, Konfutsiy va Zardusht, Alisher Navoiy va Maxatma Gandhi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdig'idir.

Ularning har biri o'z davrida o'zi mansub xalqni birlashtiradigan ulkan ahamiyatga molik g'oyalarni yaratganlar. Bu g'oyalarga tayanib bunyodkorlik yo'lida, ezgu maqsadlarga erishish uchun xormay-tolmay mehnat qilganlar. Bu borada insoniyatga «o'zini anglamoq buyuk saodat» ekanini anglatgan Suqrot ham,

«xalqni yakqalam qildim», deya qoniqish hissini tuygan Navoiy ham, Hindiston va Pokiston ozodligi yo'liga umrini baxshida aylagan Maxatma Gandhi ham bugungi avlodlar uchun ibrat namunasini bo'lgan ulug' insonlardir.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch – bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalari hamisha o'zaro kurashadi. Bunyodkor g'oya insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanot bag'ishlaydi. Sohibqiron Amir Temuring parokanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezgu g'oyalari asos bo'lgan. Buzg'unchi g'oya va mafkuralar esa xalqlar boshiga so'ngsiz kulfatlar keltiradi. Bunga olis va yaqin tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin. O'rta asrlardagi salb yurishlari, diniy fanatizm va ateizm, fashizm va bolshevizmga asos bo'lgan g'ayri insoniy g'oyalari shular jumlasidandir.

Toki dunyoda taraqqiyotga intilish, bunyodkorlik hissi bor ekan, jamiyatda ilg'or g'oyalari tug'ilaveradi. Buzg'unchi g'oyalarning vujudga kelishiga esa vayronkor intilishlar sabab bo'ladi. Shunday ekan, ularga qarshi kurashga tayyor turish, ya'ni doimo hushyor va ogoh bo'lib yashamoq hayotning asosiy zarurati bo'lib qolaveradi.

Milliy g'oya ham o'zida gumanizm talablarini, xalqning iroda va intilishlarini aks ettirgan taqdirda jamiyatni birlashtirib, uning salohiyat va imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqarishda beqiyos omil bo'ladi, masalan, XX asrda dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingen yaponcha taraqqiyot modelini olaylik. Yapon milliy mafkurasi «milliy davlatchilik tizimi» (kokutay), «fuqarolik burchi», «yapon ruhi», «tadbirkorlik», «umummilliylilik», «fidoyilik», «vatanparvarlik», «paternalizm», «jamoaga sadoqat», «modernizatsiya» kabi g'oya va tushunchalar ushbu mamlakatning bugungi kunda erishilgan yuksak natijalariga poydevor bo'ldi.

G'oyaviy zaiflik va beqarorlik esa millatning birdamligi, davlatning qudratiga putur yetkazadi, uning taraqqiyotini orqaga surib yuboradi. Masalan, Chingizzon bosqini, chor istilosini davr-

larida ayrim hukmdorlarning xalqni birlashtirib kurashga safar-bar etmagani o'lkamizning qaramlik changaliga tushib qolishiga sabab bo'lgan.

Xullas, insoniyat tarixi xilma-xil g'oya va mafkuralarning vujudga kelishi, amaliyoti, bir-biri bilan munosabatidan iborat uzlusiz jarayondir. Bu jarayonda turli g'oyalar yoki kuchlarga xizmat qilishi, o'ziga ishongan kishilarni qanday maqsadlar tomon yetaklashiga qarab bir-biridan farqlanadi. Ezgu maqsadlar ga xizmat qiladigan mafkuralarga bunyodkor g'oyalar asos bo'lsa, vayronkor g'oyalarga tayangan mafkuralar xalqlar va davlatlarni tanazzulga yetaklaydi, odamlar uchun son-sanoqsiz kulfatlar kelтирadi. Bu esa, o'z navbatida, g'oyaviy jarayonlar tarixini o'rghanish, ular zamiridagi mazmun-mohiyatni bilib olishni zaruratga aylantiradi.

Vatanimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, ijtimoiy siyosiy hayotimizda tub o'zgarishlar yuz berdi, xalqimiz tabiatini dunyoqarashiga yot bo'lgan mustabidlik mafkurasi barham topdi. O'z umrini o'tab bo'lgan eski mafkura o'rnida yangi ijtimoiy munosabatlarni, xalqning asl maqsad-muddaolarini ifoda etuvchi ilg'or va bunyodkor mafkura shakllanmas ekan, jamiyatda g'oyaviy vakuum – bo'shliq yuzaga keladi. Bunday bo'shliq ilg'or, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur g'oyalar bilan to'ldirilmasa, uni xalq hayoti uchun yot va begona mafkuraviy ta'sirlar egallab olishi mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy ong va tafakkur tezda o'zgarib, yangicha dunyoqarash osonlikcha shakllanavermaydi. Ayniqsa, bu hali yetarli hayotiy tajribaga ega bo'limgan, soddabil, ishonuvchan, g'o'r yoshlar tarbiyasida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda turli yo'nalishdagi mafkuraviy tahdidlar ayrim odamlarning qalbini egallab, o'z milliy qadriyatlarimiz hamda umumbashariy sivilizatsiya yutuqlaridan mahrum etish, yurtimiz aholisi tafakkurini bo'ysundirishga harakat qilgan edi.

Bu borada quyidagi fikr nihoyatda muhim ahamiyatga ega: «millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va

erkinligi, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siri-ga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar.

Shu ma'noda, bunday xavf-xatarlarga qarshi asosiy qurol sifatida yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo unib-o'sib kela-yotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baqvavat, iyemoni butun bo'lib voyaga yetishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtaida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir».

Mamlakatimiz aholisini turli balo-qazolardan himoyalananish uchun tajovuzkor g'oyalarga qarshi immunitet hosil qilish, kishilarimizni jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini to'liq aks ettiradigan sog'lom, insonparvar mafkura bilan qurollantirish zarur edi. Zero, har qanday jamiyat o'z rivojlanish yo'li, o'ziga xos g'oyaviy asos va mafkuraviy tamoyillariga ega bo'lishi lozim. Ayniqsa, bu o'ta murakkab va qaltis tarixiy sharoitda xalqimizning tarixiy yutug'i – O'zbekiston mustaqilligini ko'z qorachig'idek asrash, pirovard maqsadlar yo'lida odamlarni safarbar qilish, uyushtirish, jipslashtirish uchun ana shunday sog'lom mafkura niho-yatda zarur. «O'zining hayotini, oldiga qoygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura bo'lmasa har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar»

Buni juda yaxshi anglagan yurtimizda mustaqillikning birinchi kunlaridanoq bu borada zarur chora-tadbirlar ishlab chiqishga katta e'tibor berildi. Shu bois, eski mafkuradan voz kechish natijasida paydo bo'lgan bo'shliqni yangi – milliy g'oya bilan to'ldirish va shu tariqa zararli g'oyaviy tajovuzlarning oldini olishga kirishildi.

Bu oliyanob maqsadlar jamiyat hayotining barcha sohalari-ga daxldor ko'pdan-ko'p siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi. Eng muhimi pirovard

maqsadlarga yetish uchun mamlakatimizda boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish, ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot yo'lida yanada faol va fidoiy bo'lishimiz lozim.

Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak bizning maqsadimiz – bozor iqtisodiyotiga asoslangan, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini qurishdir. Dunyodagi taraqqiy etgan mamlakatlarda bo'lgani kabi, xalqimizning farovon turmush darajasini ta'minlash bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Biz bu yo'lida xalqimizning asriy an'analariga, muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatiga, milliy qadriyatlarimizga tayanib, rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalaridan ijodiy foydalanib, o'zimiz tanlagan taraqqiyot tamoyillariga tayanib, ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot asoslarini barpo etmoqdamiz.

Milliy g'oya xalqimizni ana shu maqsad atrofida birlashtirib, ulug' ishlarga safarbar etadigan bizga tayanch va ko'mak bo'ladi-gan ma'naviy mezondir. Mustaqillik yillarda shakllanish yo'liga kirgan milliy g'oya xalqimizning asriy an'ana va qadriyatlarini, milliy o'zligimizni o'zida mujassamlashtirib, ularni umuminsoniy qadriyatlar, dunyo sivilizatsiyasi yutuqlari hamda ilg'or, taraqqiy-parvar g'oyalar bilan boyitib, mamlakatimiz o'z oldiga qoygan ezgu maqsad va vazifalarni aniq-ravshan aks ettiradi. Uning vositasida har bir vatandoshimiz biz qanday jamiyat, qanday davlat, qanday tuzum barpo etmoqdamiz, uning ijtimoiy-iqtisodiy, si-yosiy-ma'naviy asoslari nimalardan iborat, degan savollarga javob topa oladi.

Milliy g'oya va xalqimizning bosh strategik maqsadi – ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, ko'pmulkchilikka va ular o'rtasidagi raqobatga taynadi. Unda mulkning barcha qonuniy shakllari teng huquqqa ega bo'lib, bu huquq davlat tomonidan kafolatlanadi. Iqtisodiy taraqqiyotni bozordagi talab va taklif yo'lga soladi va boshqara boshlaydi. Uni markazdan turib boshqarishga, mablag' va fondlarni rejali taqsimlashga hojat qolmaydi. Sobiq sotsialistik mamlakat-

larning tajribasi shuni ko'rsatadiki, markazdan turib boshqariladigan rejali iqtisodiyot oxir-oqibatda tanazzulga yuz tutadi.

Ko'pmulkchilikka asoslangan bozor iqtisodiyotini joriy qilish orqali yurtimizda yashaydigan barcha insonlar uchun millati, tilli va dinidan qat'i nazar, munosib hayot sharoitini yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarni ta'minlash — davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Lekin bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish va ularni amalda joriy qilishning tayyor andozasi yo'q. Bu borada biz hatto jahondagi eng yuksak rivojlangan mamlakatlar tajribasini ham ko'r-ko'rona qo'llay olmas edik. Chunki bizning mamlakatimiz iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi, qazilma boyliklari va iqlim sharoiti, tabiiy resurslari, xalqimizning mentaliteti, aholi tarkibi va o'sishi biror mamlakatnikiga aynan o'xshamaydi. Boshqa davlatlarda yaxshigina samara beradigan taraqqiyot modeli bizda hech qanday natija bermasligi yoki aksincha, inqirozni yanada chuqurlashtirishi mumkin edi (masalan, ayrim hamdo'stlik mamlakatlarining shok terapiyasi usulini qo'llab, qiyin ahvolga tushib qolganini eslang).

Shu bois xalqimiz irodasi bilan tanlab olingan va o'zimizga mos rivojlanish bu ijtimoiy larzalarsiz, inqilobiy sakrashlarsiz, tadrijiy tarzda olg'a borishni taqozo etadigan yo'ldir. Milliy g'oya ana shu yo'lda fuqarolarni birlashtiradi, yakdil va hamfikr bo'lishlariga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini qat'iy belgilab olib, asosiy kuch va imkoniyatlarni bir joyga to'plab, avvalo ana shu ustuvor yo'nalishlar boyicha taraqqiyotni ta'minlash, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali bozor munosabatlariga asoslangan demokratik odil jamiyat barpo etish O'zbekiston tanlagan yo'lning ma'nomazmanunini tashkil etadi.

Tanlab olingan bu yo'l hamda unga xos milliy g'oyaning strategik maqsadlari jamiyat hayotining barcha sohalariga daxildor bo'lgan quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Siyosiy sohada jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, uning izchilligi va samaradorligini ta'minlash — mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishitdir.

Birinchidan, mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalari ni, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, unda milliy va umumbashariy qadriyatlariga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish. Milliy istiqlol g'oyasining siyosiy sohadagi xususiyatlarining mohiyati ana shularda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Xalqning mentaliteti, siyosiy madaniyati, o'z haq-huquqlarini, tub manfaatlarini anglash darajasi, xullas, siyosiy va ma'naviy yetukligining davlat qurilishida qanchalik faol ishtirok etishini belgilaydi.

Binobarin, siyosiy hayotni erkinlashtirishning asosiy shartlaridan biri xalqning siyosiy ongini o'stirish, unga demokratik erkinliklarning ma'no-mohiyatini to'g'ri tushunib olish va o'zlashtirishga imkon yaratishdan iboratdir.

Siyosiy madaniyat, bir tomondan fuqarolarning, ikkinchi tomon dan, davlat idoralari va jamoat tashkilotlari hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning qonunga bo'y sunishidan boshlandi. Demak, biz barpo etayotgan jamiyatda nafaqat aholi huquqiy bilimlarining oshishi, uning ongi yuksalishiga, balki hokimiyatning barcha mustaqil tarmoqlari, nodavlat tashkilotlari va ijtimoiy institutlarining faoliyat samaradorligi ortishiga ham jiddiy e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy taraqqiyotga intilayotgan, siyosiy va iqtisodiy hayotni erkinlashtirish yo'lidan borayotgan har qanday jamiyat huquqiy madaniyati yuksak, ozod va erkin shaxsni tarbiyalashga intiladi. Zero, shundagina demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, pluralizm va inson huquqlarini ta'minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yashash tamoyili jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylanadi. Chunki demokratiyaning ijodkori, amalg a

oshiruvchisi, rivojlantiruvchisi – insondir. Demokratiya – faqat xalq hokimiyati bo‘lib qolmay, u ayni paytda har bir inson, har bir jamoa va butun xalqning o‘z mamlakati kelajagi, o‘z taqdiri oldidagi mas‘uliyati hamdir.

Demokratiya va siyosiy hayotni erkinlashtirish zaruratini oxlokratiyadan (oxlos – to‘da, olomon), ya’ni turli guruhlarning siyosiy o‘zboshimchaligidan, hokimiyat idoralariga noo‘rin tabablar qo‘yishidan, tazyiq o‘tkazishidan farq qilish lozim. Bu o‘z navbatida demokratiya, siyosiy hayotni erkinlashtirish orqali fuqarolardan o‘z manfaatlarini davlat va jamiyat manfaati bilan uyg‘unlashtirishni, yuksak siyosiy madaniyatga ega bo‘lishni talab qiladi.

Ikkinchidan, jamiyatimizdagi turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish, siyosiy hayotda haqiqiy ma’nodagi ko‘ppartiyaviylik tamoyilini qaror toptirish. Mazkur jihatlar milliy istiqlol g‘oyasining siyosiy sohadagi o‘ziga xos tamoyillarini ifodalaydi.

Mulkchilikning rang-barang shakllari qaror topayotgani, ular teng huquqliligining davlat tomonidan kafolatlanayotgani jamiyatning ijtimoiy-tabaqaviy tarkibini o‘zgartirmoqda. Bugun yangi ijtimoiy qatlam va guruhlar – sarmoyadorlar, tadbirkorlar va o‘rta sinf vujudga kelmoqda. Mulk shakllari xilma-xilligi va ijtimoiy tabaqalanish jarayoniga mos holda turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar hamda harakatlar ham paydo bo‘lmoqda. Mamlakatimizda ko‘ppartiyaviylik tizimining shakllangani buning yaqqol dalilidir, ular kundan-kunga kuchga to‘lib o‘z mavqelarini oshirib bormoqda.

Turli partiyalararo manfaatlar, qarama-qarshi kuch va harakatlar muvozanatini ta’minlaydigan ma’naviy omil bu – milliy g‘oyadir. U ijtimoiy guruhlar manfaati va mafkurasidagi umumiylikni, ya’ni umummilliy manfaatlarni va yagona oliv maqsadni aks ettiruvchi g‘oyadir. U millatning jipsligiga xizmat qiluvchi ma’naviy kuchdir. Shu bois mamlakatimiz mustaqilligi, kela-

jak taraqqiyotimiz uni xalqimiz ongiga muntazam va bosqichma-bosqich singdirib borishni taqozo etadi. Milliy g'oya negizida milliy mafkura shakllanadi.

Uchinchidan, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun yanada kengroq shart-sharoit yaratish, hokimiyatning konstitutsiyaviy bo'linishi tamoyiliga qat'iy amal qilish, jamiyat a'zolarining barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini, tashabbus erkinligini ro'yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni ishga solish taqozo etiladi.

Bu mamlakatimizda demokratiya tamoyillariga asoslangan, hech qanday siyosiy kuchning subyektiv xohish irodasiga qaram bo'lmasdan ishni faol tashkil qiladigan, o'z mohiyatiga ko'ra, jamiyatning olg'a siljishiga xalaqit berayotgan illat va asoratlarni bartaraf etishga qodir bo'lgan samarali tizimni shakllantirish demakdir.

Bunday samarali tizim – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatidir. Huquqiy davlatda nafaqat hokimiyatning uch tarmog'i – qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiysi bir-biridan ajratiladi va bir-biridan mustaqil harakat qiladi, balki omma-viy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy institutlar ham erkin va mustaqil bo'lib, hech qanday kuchga qaram bo'lmaydi. Hokimiyat bo'g'inlari va ijtimoiy institutlar faqat konstitutsiya va amaldagi qonunchilikka tayanib ish tutadi. Ularning o'zaro munosabati va hamkorlik mexanizmi ham konstitutsiya va amaldagi qonunlar orqali belgilab qo'yildi. Ularning mustaqilligi, bir-biriga bevosita bo'ysunmasligi, faqat qonun oldida mas'ulligi, amalda ularni butun jamiyat oldida mas'ul qilib qo'yadi.

To'rtinchedan, mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyat doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o'tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilmalarining huquqi va nufuzini oshirishni ko'zda tutadigan «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» konsepsiyasini amalga oshirish.

Bu odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari, davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalar va

fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi, ularga ko‘proq huquqlar berilishi demakdir.

Nodavlat, jamoat tashkilotlarining ko‘payishi, ularning kundalik hayotimizdagi ahamiyati ortib borayotgani fuqarolik jamiyatni asoslari tobora mustahkamlanib, rivojlanayotganidan dalolat beradi. Aynan shunday tashkilotlarning faoliyati va mas’uliyatining ortgani, fuqarolarning ongi va tasavvurida, kundalik hayotida ular tobora ko‘proq ishtirok etayotgani «Kuchli davlatdan — kuchli jamiyat sari» konsepsiyasini hayotga tatbiq etishning muhim sharti va shaklidir. «Kuchli jamiyat» tushunchasining mohiyati shundan iboratki, xalq jamoat tashkilotlari orqali davlat idoralari faoliyatini nazorat qiladi, ularning o‘z vazifalari va jamiyat oldidagi burchlarini to‘g‘ri va samarali bajarishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Beshinchidan, davlatning islohotchilik vazifalarini demokratik talablar asosida, xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos holda amalga oshiradigan iste’dodli, izlanuvchan, chuqur bilimli va yuksak malakali, vatanga, ona zaminimizga sadoqatli yosh kadrlarni tanlash joy-joyiga qo‘yish va yangilashga imkon beradigan tizimni takomillashtirish. Bu hech qaysi zamonda osonlikcha hal bo‘lmaydigan, odamlarning tafakkuri va dunyoqarashi o‘zgarishini taqozo etadigan, odatda subyektivizm, manfaatparastlik, urug‘-aymoqchilik kabi ko‘p illatlarni bartaraf etish, jamiyatni tubdan yangilashni talab qiladigan jarayondir.

Vatanparvarlik va milliy g‘oyaga sodiqlik rahbarning faoliyatini, izlanishlarini yuksak ma’no-mazmun bilan to‘ldiradi. U yo‘lida uchraydigan qiyinchiliklarni, ba’zi bir omadsizliklarni psixologik jihatdan osonroq yengadi, tushkunlikka tushmaydi, yutuqlardan esankiramaydi. U o‘z faoliyatiga va jamoasi erishgan yutuqlarga doimo eng yuksak mezonlar bilan yondashib, unga tanqidiy baho beradi. U eng ilg‘or tajribalarni ko‘zlab ish yuritadi, ularni jamoasi faoliyatida joriy etishga urinadi.

Iqtisodiy sohada: iqtisodiyotnnig barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va

olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligini yanada oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘lidagi mavjud to‘siqlarni bartaraf etish bu sohadagi o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlaridir. Mazkur o‘zgarish va yo‘nalishlar milliy istiqlol g‘oyasining iqtisodiy sohadagi xususiyat va tamoyillarini belgilaydi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa eng avvalo, davlatning boshqaruvchilik vazifalarini – funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo‘jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklashdir. Bu xususiy biznesga, umuman, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlari ga ko‘proq erkinlik berish, buning uchun tegishli huquqiy zamin, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoit va kafolatlarni yaratish, institutsional o‘zgarishlar, moliya va bank tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish, rivojlangan bozor infratuzilmasini barpo etish, raqobat muhitini shakllantirishga asosiy e’tiborni qarash demakdir.

Mustaqillik davrida mulkchilikning turli shakllari, jumladan xususiy mulk rivojlanishi uchun zarur huquqiy kafolatlar va amaliy mexanizm yaratildi. Masalan, tovar, xomashyo, fond birlarli, tijorat banklar tizimi va boshqa bozor infratuzilmasi tarmog‘i shakllantirildi. Mulkning aksariyat qismi davlat tasarrufidan chiqarildi. Nodavlat shakldagi mulkchilikning aksiyadorlik jamiyatları, korporatsiyalar, kompaniyalar, firmalar, shirkatlar, qo‘shma korxonalar, xususiy korxonalar, fermer va dehqon xo‘jaliklari, o‘rta va kichik korxonalar kabi tarmog‘i vujudga keldi.

Iqtisodiyotga xorij sarmoyasini, avvalo bevosita yo‘naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu salohiyatlari xorijiy sheriklar bilan faol hamkorlik qilish, ular bilan birga zamонави, xalqimiz ehtiyojiga mos, dunyo bozorida raqobatga bardosh bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni amalga oshirish demakdir. Yangi jamiyat barpo etish jarayonida O‘zbekistonda chet ellik investorlarning manfaatlarini

kafolatlaydigan, ularning tadbirkorlik faoliyatları uchun ma'lum muddatga imtiozlar beradigan tegishli qonunlar qabul qilinib, zarur huquqiy baza yaratildi va u muttasil kengayib bormoqda.

Mamlakat eksport salohiyatini oshirish, uning xalqaro mehnat taqsimotida teng huquqli va o'zaro manfaatli shartlar asosida ishtirok etishi, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini yanada kuchaytirish vatanimizning dunyo bozoridagi o'rni va nufuzini, fuqarolarimizning o'z yurti iqtisodiy salohiyati va qudrati bilan faxrlanish tuyg'usini yuksaltirish demakdir. Shu bois, O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatda uning eksport salohiyatini oshirishga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish uchun nafaqat an'anaviy mahsulotlar hajmini ko'paytirish, balki ilgari O'zbekistonda ishlab chiqarilmagan mahsulotlarni o'zlashtirib, eksport qilishga erishmoq lozim. Bizda esa bunday imkoniyat yuksakligini qisqa muddatda avtomobilsozlik sanoati vujudga kelgani, avtomobillarimizni xorijga sotilayotgani va shunga o'xshash boshqa misollar ko'rsatib turibdi.

Iqtisodiyotdagagi tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettrish ham bu sohadagi asosiy yo'nalishlardan biridir. Bu boy tabbiy zaxiralarimiz, intellektual hamda ilmiy texnikaviy salohiyatimizdan to'liq va samarali foydalanish, iqtisodiyotda mukammal texnologik jarayonni o'z ichiga oladigan, tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan, mineral va qishloq xo'jaligi xomashyosini sifatlari qayta ishlaydigan quvvatlar yetakchi o'rin tutishini ta'minlash, xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, ularning iqtisodiyotdagagi o'rnini kuchaytirish, qishloqda yangi ish o'rinlarini yaratish demakdir.

Ushbu yo'nalishda jahon mamlakatlari bilan kafolatli aloqa, savdo-sotiqni, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish uchun bir necha yo'nalishlarda transport aloqa tizimi barpo etilmoqda. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ayniqsa qishloqqa sanoatni olib borish, birinchi galda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashga mo'ljallangan o'rta va kichik

korxonalar tarmog‘ini rivojlantirish davlatimiz iqtisodiy siyosatida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy sohada jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar amalga oshirilayotgan, bozor munosabatlari ustuvor bo‘lib borayotgan hozirgi sharoitda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish taraqqiyotimizning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib qolaveradi. Bu esa milliy istiqlol g‘oyasining ijtimoiy sohadagi tamoyillarini belgilaydi, ularning amalga oshishiga xizmat qiladi.

Kuchli ijtimoiy siyosat deganda, xalq to‘g‘risida har bir ijtimoiy guruh, qatlam, tabaqa, har bir fuqaro, yoshu keksa, erkagu ayol — barcha-barcha yurtdoshlarimiz to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiliш, islohotlarni, iqtisodiy tadbirlarni xalq manfaatlarini ko‘zlagan holda o‘tkazish, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ilm-fan sohalariga e’tiborni susaytirmaslik tushuniladi. Bu borada islohotlar islohotlar uchun emas, xalq uchun, uning turmush farovonligi o‘sishi, munosib hayot kechirishi uchun, degan xulosa kuchli ijtimoiy siyosat o‘tkazishning ma’no-mazmunini tashkil etadi. Bu davlatimiz siyosatining insonparvarlik mohiyatidan kelib chiqadi.

Ma’naviy sohada qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o‘zligimizni chuqurroq anglash, milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishlarga yo‘l qoymaslik bu boradagi asosiy vazifalardir. Ushbu vazifalar milliy g‘oyaning ma’naviy sohada namoyon bo‘lishining asosiy tamoyillarini belgilaydi.

Yangi jamiyatni barpo etish jarayonida, eng avvalo, ma’naviy qadriyatlarni to‘g‘ri baholay olishni, soxta qadriyatlardan yoki tarixan eskirgan, o‘zidagi bunyodkorlik va ijobjiy salohiyatni sarflab bo‘lgan qadriyatlardan haqiqiy hayotbaxsh qadriyatni ajrata olishni o‘rganish lozim. Biror qadriyatga baho berilar ekan, uning mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, e’tiqodiy va axloqiy asoslarini qay darajada mustahkamlay olishi,

xalqimizning umumjahon ijtimoiy taraqqiyotining faol subyektiga aylanishiga xizmat qila olishi bosh mezon bo'lishi kerak.

Milliy qadriyatlarga, jumladan madaniy merosga ilmiy asosda to'g'ri yondashishning asosiy tamoyillariga xos mezonlar – insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqchillik va taraqqiyparvarlikdir. Bu mezonlarning har birida milliylik va umuminsoniylik mujassamlashgan. Ular mohiyatan umuminsoniy xarakterga ega bo'lsa-da, har bir tarixiy davrda muayyan xalqlarning ehtiyojlarini yuzaga chiqaradi va ularni qondirishga xizmat qiladi. Shu bois ularning zamirida mujassam bo'lgan umuminsoniylik mohiyati, milliy ehtiyojlarni muayyan milliy shaklda ifodalab va o'z mazmunini ularga moslashtirgan holda yuzaga chiqadi. Mazkur mezonlarga nafaqat milliylik va umuminsoniylik, balki tarixiylik ham xos. Ya'ni ular shaklan va mazmunan qotib qolgan andozalar mos holda emas, balki davr talablariga, jamiyat oldida turgan yangi vazifalarga mutanosib tarzda boyib, takomillashib boradi.

Milliy g'oya nazariyasi va uning O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi amaliyotida yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatları, tili, madaniyati, diniy e'tiqodi, urfdot va an'analarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirishga ko'maklashish muhim o'rinnegallaydi. Bu ko'p millatli mamlakatimiz fuqarolari orasida, ularning milliy va diniy mansubligidan qat'i nazar, hamjihatlik va birodarlik tuyg'ularini kuchaytirish, «Shu aziz vatan barchamizniki» g'oyasining amalgao shishini ta'minlash demakdir.

Umumiylar maqsad – vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligini mustahkamlash istagi umumiylar taqdir va kelajak, O'zbekistonda yashaydigan barcha xalqlarni yanada hamjihat va jiips bo'lishga, o'zlarini bir butun xalq o'zbekistonlik deb, O'zbekiston uchun o'zini mas'ul deb his qilishga, taraqqiyotda yanada yuksak pog'onaga ko'tarilishga da'vat etadi. Bugungi hayotiy, zarurat shuni taqozo etmoqda. «Shu aziz vatan barchamizniki» tamoyili amalda ana shu umummilliylar g'oyanining xususiy ko'rinishlaridan biridir.

Jamiyatimiz o‘z oldiga qoygan oliy maqsad – kelajagi buyuk O‘zbekistonni ozod, obod vatanni yaratish va umuman islohotlarning taqdiri oxir-oqibatda bugun shakllanayotgan avlodning dunyoqarashiga, ijtimoiy mo‘ljallariga, zamonaviy ilm-fan va kasblarni egallashiga, amaliy tashkilotchiligiga bevosita bog‘liq.

Shu bois, aqlan yetuk, ruhan tetik va sog‘lom, erkin va tanqidiy fikrlovchi, ayni paytda ijtimoiy mas‘uliyatni to‘g‘ri his etadigan, muayyan hunar-kasbni egallagan barkamol avlodni tarbiyalash O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining tarkibiy qismiga, asosiy shart-sharoitiga va maqsadiga aylandi. Mana shunday murakkab vazifani uddalash uchun ta’lim sohasi tubdan isloh qilinmoqda. Bu islohotlar Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Bunday dasturning andozasi jahonda biror-bir mamlakatda yo‘q. Uning asosida yurtimizda amalda ta’limning yangi modeli joriy etildi. Milliy dasturning to‘liq amalga oshirilishi yigit va qizlarning kasbiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan tezroq mustaqil bo‘lib olishiga, aniq maqsadni ko‘zlab, hayotdan o‘z o‘rnini topib olishiga imkon yaratmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini bajarish boyicha qilinayotgan tashkiliy ishlar, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi barcha ishlar vatanimizning keljakda jahon maydonida mustahkam va nufuzli o‘rinni egallashidan, biz bugungi va kelgusi avlod vakillari ota-bobolarimizdan meros mana shu muborak zaminda kelajagi buyuk davlat, ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga qodir ekanimizdan dalolat beradi.

Mazkur yo‘nalishlar milliy g‘oya va O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining nazariya va amaliyat bilan uzviy bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatadi. Bu jarayonda amal qilayotgan milliy g‘oya va uning tamoyillari, o‘z navbatida, mamlakatimiz taraqqiyot yo‘lining asosini, o‘tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Ularning amalga oshirilishi mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarini izchil joriy etishni ta‘minlamoqda. Mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish jarayonida bu

g'oya xalqimizni pirovard maqsadlar yo'lida uyuştiruvchi omil, ijtimoiy faoliyatning ma'naviy mezoni sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolaveradi.

3-mavzu. Mustaqil taraqqiyotning strategik tamoyillari va uning milliy g'oyaviy asoslari

Mavzuning asosiy savollari. Mustaqillik – demokratik islohotlar, mamlakatni yangilash va modernizatsiyalash kafolati. O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillardagi ijtimoiy-siyosiy jaryonlar. Milliy davlatchiligidan tiklanishi, uning rivojlanishi va istiqlolni mustahkamlash jarayoni. Mamlakatimizning mustaqillik yillardagi taraqqiyot bosqichlari va erishgan ulkan natijalari.

Mavzuning asosiy mazmuni. Mamlakatimizning XX asr so'ngida istiqlolga erishishi va mustaqil O'zbekiston davlatining paydo bo'lishi xalqimizning tarixiy g'alabasidir. O'tgan yillar mobaynida yurtimiz hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida ulkan ishlar amalga oshirildi. Tarixan qisqa davrda milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, iqtisodiyotni bozor munosabatlarga o'tkazish o'z-o'zidan oson kechmadi, albatta.

Mustaqillik – xalqimizning ulkan yutug'idir. Zero, mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikka erishish, aholini ijtimoiy himoyalash, tub siyosiy islohotlar o'tkazish, millatlararo va dinlararo ziddiyatlarning oldini olish, ichki va tashqi buzg'unchi kuchlarni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan keskin choralar va ularning ahamiyati vaqt o'tibgina yanada qadri bo'lmoqda. Mamlakatni isloh etish strategiyasining ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi barqaror taraqqiyotimizni uzoq yillarga ta'minladi. Bunda mustaqil rivojlanishning dastlabki davrida milliy davlatchilik va barqaror taraqqiyot poydevorining barpo etilishi asos bo'lib xizmat qildi.

Shu bilan birga, mustaqillik yillarda amalga oshirgan barcha ishlar uzoq muddatli yuksak maqsadga – rivojlangan zamonaviy

demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib hayot sharoiti yaratish va uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan olis va murakkab yo'l ning faqat bir qismi, shu boradagi dastlabki qadamlar, xolos.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldag'i «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmonida ta'kidlanganidek, «... bugungi globallashuv asrida, birinchi navbatda erishgan natijalari bilan kifoyalanmasdan, dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonidagi o'z o'rniga haqqoniy va tanqidiy baho beradigan, davrning tobora ortib borayotgan talablariга uyg'un va hamohang bo'lib qadam tashlaydigan mamlakatgina muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Mantiqning o'zi, taraqqiyotimiz qonuniyatlari, erishilgan marralar, o'z oldimizga qo'yayotgan maqsad jamiyatimizning izchil rivojlanishiga, mamlakatimizning nufuziga tuzatib bo'lmaydigan ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan havolanishga, qo'lga kiritilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib, xotirjamlik kayfiyatiga berilmasdan, demokratik islohotlarni davom ettirishni talab qilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki davrlarida ishlab chiqilgan taraqqiyot yo'li o'z milliy davlatchiligidan, iqtisodiyotimizni va ma'naviyatimizni kamolot cho'qqisiga olib borishga qaratilgan edi. Unda maqsadlar aniq belgilab olingan bo'lib, bu madaniy va barqaror bozor iqtisodiyotiga, oshkora tashqi siyosatga asoslangan fuqarolik jamiyati, demokratik huquqiy davlat barpo etishdir. Faqat zamondoshlarimizning taqdirigina emas, balki bizdan keyin shu zamonda yashaydigan bo'lg'usi kelajak avlodlarimizning taqdiri ham bizning qanday davlat qurishimizga bog'liq edi. O'shanda yoq bu davlat O'zbekiston xalqining munosib hayot kechirishini, uning huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy qadriyatlar va madaniyati tiklanishini, ma'naviy kamol topishini ta'minlashi kerakligi belgilab olingani bejiz emas.

Istiqlol o'z taqdiriga egalik qilish huquqi, ma'naviy qadriyatlar va milliy an'analarga tayanib yashash va yurtimiz boyliklaridan

xalqimiz va vatanimiz manfaatlari yo'lida foydalanish imkoniyati ekanligi bugungi kunda barchamiz anglayotgan haqiqatdir. Mana shu sa'y-harakatlar tufayli bugun mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida munosib o'rinn egalladi.

Mustaqillik — demokratik islohotlar kafolati, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar tub siyosi, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar muqarrarligi, mamlakatni yangilash va modernizatsiyalash tadrijiylik va izchillikka erishish kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bu esa ko'p yillarga mo'ljallangan dastur negizi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqillik yillari qad rostlash, o'zlikni anglash, istiqbol rejalarini belgilash hamda ulug'vor maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan islohotlar pallasi bo'ldi. Sarhisob qilinadigan bo'lsa, iqtisodiy, siyosi, ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda e'tiborga molik yutuqlarni qo'lga kiritidik. Jumladan, mustaqillik bizga tilimizni qaytardi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Vijdon va e'tiqod erkinligi konstitutsiyaviy asosga hamda qonuniy kafolatga ega bo'ldi. Bugungi kunda uch ming yillik milliy tariximizni qayta tiklayapmiz va xolisona o'rganyapmiz, tarixiy haqiqatni anglamoqdamiz. Istiqlol sharofati bilan sobiq sovet tuzumi davrida taqiqlab qoyilgan boy milliy-tarixiy ma'naviy xazinamiz sarchashmalaridan bahramand bo'lmoqdamiz. Insoniyat sivilizatsiyasiga, dunyo ilmfani va madaniyatiga benazir hissa qo'shgan bobokalonlarimiz Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Al-Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa ko'plab ajdodlarimiz» yurtga qaytdilar».

Mustaqillik tufayli O'zbekiston fuqarolari o'z davlatining egasi, yagona xalq tarzida davlat hokimiyatining birdan-bir manbai siyatida maydonga chiqmoqdalar. Fuqarolarning shaxsiy, siyosi, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklari Konstitutsiya hamda boshqa qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan. Darhaqiqat, inson o'z

huquqlarini anglash va ro'yobga chiqarish orqali erkin, mustaqil hamkatlanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu serqirra jarayonning tarixi va boshlanishiga ko'ra, 1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida qabul qilingan Davlat Mustaqilligi to'g'risidagi bayonoti mamlakatimiz istiqlolga erishganini butun dunyoga ma'lum qildi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilinar ekan, har bir sohada keng miqyosli islohotlar amalga oshirilishiga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada mamlakatimizni yangilash va rivojlantirishda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini asrab avaylash va yanada takomillashtirish, islohotlar jarayonida har bir insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi kabi tamoyillarga tayanilishi o'sha davr uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu davrda jamiyatni demokratik tamoyillar asosida yangilash masalasi mazkur jarayonning tarkibiy qismi, xalq ma'naviy hayoti dinamikasini ta'minlash omiliga aylanib bordi. Bunday serqirra ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta'sirida dunyoviy demokratik davlat barpo etish tamoyillariga amal qilindi hamda ushbu yo'nalishda xalqaro talablar va me'yorlar doirasida o'z qiyofasini namoyon etmog'i lozim edi va ushbu yo'nalishda ham muhim yangilanishlar amalga oshirildi¹. O'zbekiston o'z ramzlariga, Konstitutsiyasi, madhiyasi, gerbi va bayrog'iga ega bo'ldi.

Bularning barchasini ro'yobga chiqarishda yurtimizda yashayotgan barcha kishilar, butun O'zbekiston xalqining ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish davlat va jamiyatning eng muhim vazifasi sifatida belgilab olindi. Ushbu yo'nalishda esa, mamlakatimizning siyosiy hayotini yanada demokratlashtirish, davlat va jamiyat qurilishini isloh etish va yangilashga qaratilgan tub o'zgarishlarni amalga oshirishda milliy qadriyatlarimiz, urfodat va an'analarimizni saqlashga, xalqimizning asrlar davomi-

¹ Mustaqil O'zbekiston tarixi. – T.: Akademiya, 2013. – 67-bet.

da shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga katta e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, mamlakatimizni isloh etish va yangilashga qaratilgan tub o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida milliy davlatchiligidan hamda zamonaviy demokratik davlat qurishning o'zini oqlagan jahon tajribasini chuqur o'rganish va qabul qilish ham davlatimiz faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lsa, bu sohadagi milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analarimizni saqlashga, xalqimizning asrlar davomida shakllangan mentalitetiga hurmat bilan munosabatda bo'lishga katta e'tibor qaratilgani ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat davlatimiz siyosatida, balki jamiyatning ma'naviy hayoti, xalqimizning ongi va tafakkurida ham ulkan o'zgarishlar ro'y berishiga sabab bo'ldi.

Bu jihatdan, 1992-yilda mamlakatimizning Asosiy qonuni – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingani niyatda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning jahon andozalariga, dunyo xalqlarining demokratik taraqqiyot tamoyillariga mos keladigan ushbu Konstitutsiya qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i maruzasida alohida ta'kidlanganidek, istiqlol davrining o'tgan yigirma besh yili – «tarix uchun bir lahma, xolos. Shu qisqa davrda jonajon O'zbekistonimiz mustaqil va suveren davlat sifatida shakllanib, jahon hamjamiyatidan munosib o'rinni egalladi, tom ma'noda ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Ana shu mashaqqatli va sharafli yo'lda erishgan barcha yutuqlarimizni, eng avvalo, Konstitutsiyamiz bilan bog'lashimiz, albatta, bejiz emas. Negaga deganda, asosiy qonunimiz xalqimiz uzoq yillar orzu qilgan milliy mustaqilligimiz va rivojlanish yo'limiz, inson huquq va erkinliklari kafolatlarini belgilab berdi. To'la ishonch bilan aytilish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Bozor

munosabatlariiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchi fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda»¹.

Istiqlolning dastlabki yillaridayoq, mazkur Konstitutsiyada ilgari surilgan g'oya va qoidalarga tayangan holda, avvalo butun jamiyat hayotining barcha sohalari kabi, ma'naviy qadriyatlar sohasida ham katta ahamiyatga molik bo'lgan davlat hokimiyati va boshqaruvi sohasida nihoyatda muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi, sobiq ittifoqdan mutlaqo yangi siyosiy tizimga o'tish, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish va bu borada hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirishga qaratilgan edi.

O'tgan yillar mobaynida davlat idoralari tizimida zamonaviy parlamentarizm an'analariga mos tarzda faoliyat yurituvchi, ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan oliy vakillik organi, qonun chiqaruvchi idora — Oliy Majlis qaror topdi. Sud hokimiyati idoralari ham yangi qonunlar asosida shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining ta'sis etilgani huquqiy davlat sari qo'yilgan muhim qadam bo'ldi. Bunday sud O'zbekiston tarixida ilk bor qaror topdi va bu o'ta muhim huquqiy demokratik qadriyat sifatida baholandi. Konstitutsiyaviy sudning eng asosiy vazifasi — Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlash; qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining O'zbekiston Konstitutsiyasiga mosligini nazorat qilish va bu xususda o'z xulosasini berishdan iborat.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, 07.12.2017, <http://www.president.uz/> uz/lists/view/1328
2/16

Bugungi kunda ijtimoiy hayotimizning ajralmas qismiga aylangan institutsional-huquqiy qadriyatlar qatorida Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili Ombudsman instituti, inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi, Amaldagi qonunchilik monitoringi instituti va boshqalarni e'tirof etish lozim. Ayni vaqtda, Respublikamizda huquqni muhofaza etuvchi davlat organlari va inson huquqlari himoyasini o'z faoliyatining asosiy mezoni deb hisoblovchi qator nodavlat tuzilmalar amal qilmoqda. Bu idora va tashkilotlar tizimi inson huquqlarini muhofaza etishning yagona mexanizmini tashkil qiladi.

Joylarda mahalliy vakillik davlat idoralari – Xalq deputatlari Kengashlari va hokimliklarning vujudga keltirilgani, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shu jumladan, mahallalarning qayta shakllantirilgani aholi keng qatlamlarini davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga faol jalb etishga, siyosiy faollik va siyosiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiluvchi demokratik qadriyat hisoblanadi.

Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida siyosiy hurfikrlilik, ko'ppartiyaviylik muhitining vujudga keltirilgani demokratiyaning muhim tantanasidir. Hozirgi kunda O'zbekistonda to'rtta siyosiy partiya: O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi, Adolat sotsial demokratik partiyasi, Milliy Tiklanish partiyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Siyosiy partiyalar o'z saflarida minglab fuqarolarni birlashtirib, ular uchun demokratiya maktabi vazifasini o'tamoqda. Konstitutsiyamizda ta'kidlanganidek, O'zbekiston fuqarolari siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushib, o'zlarining siyosiy hayotdagi o'rinalarini topadilar, muayyan manfaat va ehtiyojlarini qondiradilar.

Bugungi kunda O'zbekistonning barcha fuqarolari manfaatlariga xizmat qiladigan milliy g'oya mamlakatimiz taraqqiyoti, uning rivoji va yanada gullab-yashnashi bilan uzviy bog'lanadi. Bu har bir fuqaro, butun jamiyat faol harakat qilishini, Respublika mustaqilligi belgilab bergen maqsad va vazifalarni ro'yobga

chiqarish uchun bor kuch imkoniyatlarni safarbar etishni taqozo qiladi.

Bu mamlakatni izchil rivojlantirish, jamiyat hayotini demokratlashtirish va modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, O'zbekistonning taraqqiy etgan davlatlar safiga olib chiqishga qaratilgan izchil islohotlarni davom ettirish davridir.

Bu davr mamlakatimiz tarixida o'ziga xos va mos muhim o'rinnegallaydi. Shu bilan birga, aynan ana shu davr xalqimizning yangi tafakkuri va mustaqillik falsafasi shakllanishi jarayonining mazmun-mohiyatini belgilaydi. Ma'lumki, yangi jamiyat o'z-o'zidan barpo bo'lmaydi, balki bu muayyan vaqt talab etadigan uzlusiz jarayondir. Uning muvaffaqiyati, birinchi galda, davlat va jamiyat qurilishidagi o'zgarishlar, fuqarolar ongi va fikrlash tarzining o'zgarish sur'ati, kishilar tafakkurida demokratik qadriyatlar qanchalik mustahkam o'rashayotganiga bog'liqdir.

Ushbu jarayonning tahlili shundan dalolat beradiki, birinchi navbatdagi islohotlar, o'tish davridagi o'zgarishlar hamda milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bosqichida yangi mustaqil demokratik davlat poydevori yaratildi, davlat boshqaruvi tizimi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud bo'g'lnlari tashkil qilindi, milliy davlatchilik tiklanishining ishonchli huquqiy poydevori barpo etildi, ijtimoiy va fuqarolik institutlari shakllanishiga asos solindi, erkin bozor iqtisodiyoti yo'liga o'tildi. Tub ma'muriy islohotlar o'tkazildi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar da hokimlik instituti joriy etildi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimi – Mahalla institutini rivojlantirish va mustahkamlashga katta e'tibor qaratildi.

Qisqa muddatlarda mamlakatda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan xavfsizlikni ta'minlashning yaxlit tizimi shakllantirildi va buning uchun mustahkam huquqiy asos yaratgan boshqa hujjalalar turkumi qabul qilindi. Qator fuqarolik va ijtimoiy institutlarni shakllantirish bilan bog'liq masalalar ham o'z yechimini topdi. Shaxs, oila huquqi va manfaatlarini himoyalash, aholining huquqiy madaniyati

va huquqiy ongini o'stirish haqiqiy demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyat qurishning nafaqat maqsadi, balki eng muhim sharti etib belgilandi.

Shunday qilib, bu davrda fuqarolar huquq va erkinliklarining zaruriy kafolatlarini ta'minlovchi demokratik tamoyillarni amalga oshirish, hayotga tatbiq qilish bo'yicha asosiy vazifalar hal qilindi. Jamiyat qurilishining ushbu davri davlatning faol islo-hotchilik rolini, asosiy vakolatlarni shakllantirish jarayoni borayotgan o'tish davrida aholining turli qatlamlari manfaatlarini ifodalovchisi bo'lgan erkin saylovlari, ko'ppartiyaviylik tizimi va boshqa jamoat tashkilotlari singari demokratik institutlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatni faol demokratik yangilash va modernizatsiyalash, kuchli fuqarolik jamiyatiga izchil va bosqichma-bosqich o'tish davrida esa, birinchi navbatda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlarini kengaytirish, aholining turli qatlaml va guruhlari manfaatlarini ifodalovchi, himoyalovchi siyosiy va ijtimoiy institutlarning rolini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur jarayon davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda, ularning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalarida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholining keng qatlamlari qo'llab-quvvatlaydigan, xalq orasida chuqur ildizga ega bo'lgan mustaqil, mustahkam, barqaror, ixcham turli-tuman fuqarolik jamiyat institutlarini rivojlantirish ham O'zbekistonda rivojlangan bozor iqtisodiyoti bilan demokratik jamiyat qurishning eng muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Xalqning an'analari va madaniyatini aks ettiruvchi asrlar mobaynida shakllangan o'zini o'zi boshqarish tajribasi zamonaviy demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashib bermoqda. Yurtimizda qadimdan mavjud bo'lgan mahalla singari o'zini o'zi boshqarishning noyob shakli kishilar, oilalar o'rtasida aloqalarning mustahkamligi va ishonchliligi, jamiyat qurilishida ijtimoiy ado-

Jahli demokratik tizimning takomillashuviga xizmat qiladigan muhim omilga aylandi.

Izchil yuqori o'sish sur'atlari, yurtimizda barpo etilgan bankmoliya tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan yangilanish va o'zgarishlar, umuman, mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, Xalqaro valyuta jumg'armasi, Juhon banki, Osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda.

Haqiqatan ham, mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e'tiborga sazovordir. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan marralar — aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida onalar o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o'rtacha umr ko'rishi 75 yoshga yetgani quvonarli natijalar sifatida baholashga arziyi.

2008–2016-yillarda, ya'ni dunyoning aksariyat mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari sezilarli ravishda tushib ketgan, ishlab chiqarish pasaygan bir vaqtda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 2008-yilda 9 foizni, 2009-yilda 8,1 foizni, 2010-yilda 8,5 foizni tashkil etgani, 2016-yilda esa 8 foiz darajasida bo'lishi belgilab olingani ko'pgina xalqaro tuzilmalar, ekspert va mutaxassislarda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Dunyoda, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda davlatning tashqi qarzları ko'payib borayotgani jiddiy xavotir tug'dirayotgan bir paytda O'zbekistonning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotning 10 foizidan oshmay, davlat byudjeti esa so'nggi besh yilda profisit bilan bajarib kelinmoqda.

Ulkan qiyinchiliklarga, ayniqsa mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki yillarda yengib o'tishga to'g'ri kelgan muammolar, tah-

did va sinovlarga qaramasdan, O'zbekiston iqtisodiyoti o'tgan 25 yil mobaynida qariyb 4 barobar o'sdi, yalpi ichki mahsulot aholi jon boshiga 3 barobar, o'rtacha ish haqi 22 barobar oshdi.

Davlatning ijtimoiy himoya sohasi uchun sarflagan xarajatlari, aholi jon boshiga hisoblaganda, 5 martadan ko'proq oshdi, har yili davlat byudjetining qariyb 60 foizi sog'liqni saqlash, ta'lif, kommunal xo'jalik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog'liq boshqa sohalarni rivojlantirish uchun yo'naltirilmoqda.

Mustaqil rivojlanish yillarida — tarixan qisqa davrda yurtimiz yangi va ulkan marralarni qo'lga kiritdi, buning natijasida mamlakatimizning qiyofasi butunlay o'zgarib, jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi yuksalib bormoqda. Istiqlol yillarida mulkchilikning tuzilishida tub o'zgarishlar ro'y berdi, ko'p ukladli iqtisodiyot amalda shakllanib, uning tarkibida xususiy mulk ustuvor rivojlandi. Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik mamlakatimiz iqtisodiyotida nafaqat hal qiluvchi o'rin egalladi, ayni vaqtida bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, odamlarning daromadlari va farovonligi oshib borishining asosiy manbaiga, aholi bandligi o'shining eng muhim omiliga aylandi.

Bunday sharoitda, ushbu ishlarni davom ettirish bilan birga, keng miqyosdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohot va o'zgarishlarni amalda o'zini to'la oqlagan modelga muvofiq ravishda davom ettirish davlat va jamiyatning barqarorligi va zarur rivojlanish sur'atlarini ta'minlash, hayot sifatini oshirish, xalqaro maydonda o'zimizga munosib o'rin egallash imkonini beradi.

«Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» g'oyasining mazmun-mohiyati shundan iboratki, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy qudrati mustahkamlanib, uning siyosiy-huquqiy madaniyat saviyasi yuksalib borgani sari mamlakatni isloh qilishning tanlab olingen shakli mantig'inining o'zi kelgusidagi demokratik yangilanish va eng avvalo, boshqarishda fuqarolarning rolini kuchaytirish borasidagi vazifalarni ilgari sura boshlaydi. Bu, birinchi navbatda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish

organlarining vakolatlarini kengaytirish, aholining turli qatlamlari va guruhlari manfaatlarini ifodalovchi, himoyalovchi siyosiy va ijtimoiy institutlarning rolini oshirishga doir masalalariga tegishlidir. Mazkur jarayon davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda, ularning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalarida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholining keng qatlamlari qo'llab-quvvatlaydigan, xalq orasida chuqur ildizga ega bo'lgan mustaqil, mustahkam, barqaror, ixcham turli-tuman fuqarolik jamiyat institutlarini rivojlantirish ham O'zbekistonda rivojlangan bozor iqtisodiyoti bilan demokratik jamiyat qurishning eng muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Xalqning an'analari va madaniyatini aks ettiruvchi asrlar mobaynida shakllangan o'zini o'zi boshqarish tajribasi zamonaviy demokratik jarayonlarga ham o'z tusini bermoqda. Yurtimizda mahalla singari o'zini o'zi boshqarishning noyob shakli qadimdan mavjud bo'lgan va hanuzgacha saqlanib kelinmoqda. Mahalla kishilar, oilalar o'rtasida aloqalarning mustahkamligi va ishonchliligi, jamiyat qurilishida ijtimoiy adolatli tizimning vujudga kelishi uchun muhim omilga aylandi.

Davlat va jamiyat qurilishi bo'yicha mamlakatimiz Konstitutsiyasida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishning eng muhim yakunlarini nazarda tutib, bugungi kunda davlat hokimiyati va boshqaruv tizimini izchil, bosqichma-bosqich isloh qilish hokimiyatning qonunchilik, ijroiya va sud bo'g'indagi o'rta-sidagi mutanosib va barqaror tenglikni ta'minlamoqda, deb ta'kidlash uchun barcha asoslar bor.

Xullas, O'zbekiston taraqqiyotining natijalari o'tgan davr mobaynida yurtimiz tarixidagi yangilanish jarayonlarining mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyati va rivojlanish bosqichlari hamda erishilgan natijalar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda amalga oshirilgan tub islohotlarning ahamiyatini yaqqol ko'rsatishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa o'z navbatida, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strate-

giyasining shu yillar davomidagi odimlarini aniq bilib olish va to'la-to'kis anglash imkonini beradi.

Alovida ta'kidlash joizki, sobiq ittifoq tanazzuli davrida va istiqlolning dastlabki yillarda ma'naviy sohada muayyan tush-kunlik kayfiyati mavjud bo'ldi. Turli ma'naviyat uchun mas'ul idoralar va bu sohadagi xizmatchilar yengil tijoratbop faoliyatga ruju qo'ydi, ko'plab nashriyot va tahririyatlar ham bozorbop mahsulotlarni ishlab chiqarishga zo'r bera boshladи. Bularning barchasi ma'naviy hayot o'zgarishlarini salbiy o'zanga solib yuborilishi ko'plab ma'naviy mezonlarni siyqalashtirib yuborishi mumkin edi.

O'sha davrda ma'naviyatning jamiyatdagи o'rni va ahamiyati biroz pasayib, ijtimoiy hayot markaziga bozor munosabatlari, pul va boylikka intilish bilan bog'liq mayllar kuchayib borayotgan edi. Bunday sharoitda jamiyat ma'naviy hayoti o'zgarishlar dinamikasida iqtisodiy ehtiyojlarning ta'siri kuchayib, xalq tafakkurida bozor qonuniyatlari ustuvor ahamiyat kasb eta boshladи.

Ayni paytda, alovida qayd etish kerakki, ijtimoiy himoyalangan bozor iqtisodiga o'tish istiqlolning dastlabki yillarda unga xos va mos ma'naviy tamoyillar endigina shakllanayotgan jamiyatning hayotiy zaruratiga aylandi. Bu boradagi ishlar ko'lami ni-hoyatda serqirra va ko'p tarmoqli bo'lib, «ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'naliishiga aylandi. ...Ma'naviyati yuksak millat va davlatning kelajagi buyuk bo'lishi mumkinligi omma ongiga singdirildi»¹. Bu o'z navbatida, murakkab vazifalarni bajarish bilan bog'liq turli jabhalarni mujassam-lashtirish uchun tizimli ish olib borishni talab qilar edi.

O'sha davrda ma'naviy hayot o'zgarishlarini birlashtiradigan va umumlashtiradigan hamda istiqlol boshlab bergen yangi zamon talablariga mos ijtimoiy tuzilmaga ehtiyoj tug'ilgan edi. Ana shu ehtiyoj davlat miqyosidagi ustuvor siyosatning amaliy tasdig'i sifatida 1992-yilda mutlaqo yangi ijtimoiy institut — Respublika

¹ Mustaqil O'zbekiston tarixi. — Toshkent: Akademiya, 2013. — 363-bet.

«Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi va uning viloyat va tuman bo’limlari tashkil etildi. Ushbu markaz o’z faoliyatini sobiq ittifoq davridagi «Bilim jamiyati»dan mutlaqo boshqacha tashkil qildi va pirovardida O’zbekistonni yangilash va rivojlantirish jarayoniga o’z hissasini qo’sha boshladi.

Ma’naviy-ma’rifiy sohada amalga oshirilgan bunday ishlarning barchasi aslida, jamiyatimiz a’zolarining istiqlolga xos va mos keladigan tafakkurga ega bo’lishi, mustaqil fikrlashga o’rganishi, o’ziga ishonchining orta borishi bilan bog’liq muhim masalaga qaratilgan edi. O’sha davr ma’naviy hayot o’zgarishlari dinamikasining bosh tamoyilini aks ettirgan mazkur jarayon ushbu yo’nalishdagi faoliyatning mazmun-mohiyatini ifodalaydi, albattra. Shu bilan birga, mamlakatimizda istiqlochning ilk yillaridanoq ma’naviy hayot o’zgarishlarining iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga harakat qilindi.

O’sha davrdagi jamiyat o’zgarishlar dinamikasining ijtimoiy-siyosiy asoslarini mustahkamlashda O’zbekiston Prezidentining 1995-yil oktyabridagi «O’zbekistonda teatr hamda musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash va rag’batlan-tirish to’g’risida», 1996-yil 31-dekabrdagi «Respublikada musiqiy ta’limni, ma’naviyat va san’at o’quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to’g’risida», 1997-yil 8-yanvardagi «O’zbekistonda milliy raqs va xoreografiya san’atini rivojlantirish to’g’risida», 1998-yil 26-martdagи «O’zbekistonda teatr san’atini rivojlantirish to’g’risida»gi Farmonlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo’ldi. 1992-yil 16-martda O’zbekiston Teleradiokompaniyasi va 1996-yilda «O’zbekkino» Davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etilgani ham ana shu yo’nalishdagi tizimli o’zgarishlarning tarkibiy qismi bo’ldi, deyish mumkin. Ayni paytda, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bu borada «O’zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasi tashkil etish to’g’risida (1996), «O’zbekiston – Vatanim manim» qo’shiqlar bayramini o’tkazish to’g’risida (1996), «Respublikada musiqiy ta’limni yaxshilash to’g’risida» (1996), «O’zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish to’g’risida» (1997), «O’zbekis-

tonda estrada san'atini yanada rivojlantirish to‘g‘risida»gi (1998) Qarorlarida aks etgan tamoyillar ma’naviy hayot o‘zgarishlari dinamikasini bu boradagi ustuvor yo‘nalishlarini belgilab bergenini alohida ta‘kidlosh lozim. 1997-yildan boshlab Samarcandda «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali, 1996-yildan boshlab «O‘zbekiston – Vatanim manim» qo‘shiqlar tanlovi tashkil top-gani, «Nihol» sovrini ta’sis etilishi ham bu jabhadagi muhim tad-birlar amalga oshirilganidan dalolat beradi.

Bularning barchasi 2000-yilga qadar jamiyat ma’naviy hayot o‘zgarishlar jarayonlarining tadrijiy amalga oshgani va uning mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar bilan hamohang bo‘lganining o‘ziga xos ifodasi bo‘lganidan dalolat beradi. Ushbu sohalardagi yuqorida qayd etilgan Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi tuzilishi, madaniyat, san’at, televideniya, kino, ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq yangi shakl va mazmundagi tuzilmalarining vujudga kelishi istiqlol davrining birinchi bosqichiga xos ma’naviy hayot o‘zgarishlari dinamikasi ijtimoiy-siyosiy qiyofasini belgilaydi. Ayni paytda bu, ushbu sohani boshqarish va amalga oshirilayotgan faoliyatni tashkillashtirish jarayonidagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning tadrijiy tarzda amalga oshganini yaqqol ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, islohotlarning 1-bosqichini qamrab olgan 1991–2000-yillarda tom ma’nodagi demokratik tamoyillar asosida tashkil etilgan ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar «Mahalla», «Nuroniy», «Yoshlar ittifoqi» kabi fuqarolik institutlari jamiyat ma’naviy hayoti yangilanishi, odamlarning ongi va tafakkuri o‘zgarishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida, yangi asrga mos avlodni shakllantirishga, zamon talablariga javob beradigan yoshlarni tarbiyalashga xizmat qildi. Holbuki, XXI asr nafaqat globallashuv va axborot asri, balki yuksak ma’rifat va ilm-fan, madaniyat va axborot asri sifatida ikkinchi ming yillik ibtisodiayoq boshlangan ma’naviy hayot o‘zgarishlari dinamikasi bilan uzviy aloqador jarayonlarni boshlab yuborgan yangilanishlar bilan tavsiflangani ma’lum.

Xullas, mustaqillikka erishish va undan keyin xalqimiz bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'lining birinchi bosqichi, yuqorida aytib o'tilganidek, faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish boshlangan istiqolning ilk taraqqiyot davridir. Bu jihatdan mamlakatimizda jamiyat hayotini modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari borilgan bu istilohlar nafqat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, balki ma'naviy-ma'rifiy va ijodiy sohalarga ham bevosita taalluqli bo'lgani shubhasiz, albatta.

Bundan tashqari, demokratik yangilanishlarning faollashuviga ma'naviyat, ma'rifat, badiiy ijod sohalariga davlat e'tiborini kuchaytirdi, bu boradagi o'zgarishlarga mustaqillikni mustahkamlashga katta ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida qarala boshlandi. Shunga mos ravishda ommaviy axborot vositalarining, turi va soni ortib bordi, nashriyotlar, gazeta va jurnallar ko'paydi. Ayni paytda ushbu o'zgarishlarga mos ijtimoiy-siyosiy yangilanishlarni ifodalaydigan yangi va zamonaviy tuzilmalarni takomillashtirish, ma'naviyatning tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini mustahkamlashga e'tibor qaratildi. Jamiyat hayotining ko'plab sohalardagi bunday serqirra jarayonda nafaqat ijtimoiy darajada, balki shaxsiy darajada ham ma'naviy barkamollik va siyosiy madaniyatning o'sishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu jihatdan, O'zbekiston Prezidentining 2006-yil 25-avgustdagи «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlар samaradorligini oshirish to'g'risida»gi Qaroriga binoan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi faoliyati hamda tarkibiy tuzilishi qayta ko'rib chiqilgani va 2009-yilda «Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati» chop etilganini alohida qayd etish lozim¹.

Ushbu qarorga binoan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining ilmiy-amaliy yo'nalishda faoliyat olib boradigan va dav-

¹ Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati / Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. — T., G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2009. — 278-bet.

lat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan «Milliy g‘oya va maf-kura ilmiy-amaliy markazi» tashkil etildi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining amaliy targ‘ibot yo‘nalishida faoliyat olib boradigan Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi shakllantirildi. Barcha viloyatlarda hokimlarning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha yordamchilari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mahalla oqsoqollari va fuqarolar yig‘inlari raislarining ma’rifiy ishlar bo‘yicha maslahatchilari tizimi shakllantirildi.

Bu borada nafaqat ta’lim tizimi, balki butun mamlakatimizda-gi ma’naviy-ma’rifiy ishlarga mas’ul bo‘lgan muassasalar faoliyatini tizimli tashkil etish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi. Yuqorida ta’kidlanganidek, haligacha mamlakatimizda bu vazifani ko‘plab davlat va nodavlat tashkilotlari yordami va hamkorligida, asosan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi, uning tarkibidagi «Ma’naviyat» targ‘ibot markazi va «Milliy g‘oya» ilmiy-amaliy markazi bajarib keldi. Ushbu tashkilotlarning bu sohadagi faoliyatida muayyan natijalarga erishilganini alohida qayd etish lozim.

Istiqlol yillarda bu borada ma’naviy meros va qadriyatlarning ahamiyati kattaligini hisobga olgan holda xalq merosi qadriyatlarini tiklash jarayonida vorisiylik va an‘anaviylikni saqlab qolish va yangi qadriyatlar tizimini vujudga keltirish nihoyatda muhim vazifa hisoblanganining boisi shunda. Bu davrda xalqimizning eski, unutib yuborilgan urf-odatlari, an‘analari tiklandi, uzoq yillar davomida ko‘z qorachig‘idek asrab kelingan va sobiq ittifoq davrida boshqa maqsadlarda ishlatilgan qadamjolar, tarixiy obidalar, madrasalar va masjidlar qayta tiklandi, ta’mirlandi, ularni asli holiga keltirish uchun juda katta ishlar amalga oshirildi.

Lekin jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy jabha bilan bog‘liq jarayonlar bir joyda to‘xtab qolmaydi, albatta. Ma’lumki, keyingi yillarda milliy g‘oya tarbiyasi hamda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot yo‘nalishida ishlarning ko‘lami bir necha barobar oshdi, masalar ko‘lami va vazifalar zalvori kundan-kunga ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-iyuldagい
-Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi Qarori aynan ana shu jarayonning nihoyatda to'g'ri va o'z vaqtida anglanganini yaqqol ko'rsatadi¹.

Mazkur tarixiy hujjatda alohida ta'kidlangani kabi, mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tizimi shakllandı. Bu borada Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi hamda uning joylardagi bo'limlari tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi.

Ayni vaqtida dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, yangi tahdid va tajovuz o'choqlari ko'payib, yanada xatarli darajada namoyon bo'layotgani ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarishni talab etmoqda. Bu esa, sohada to'planib qolgan qator muammolarni hal qilishni taqozo etadi.

Bugungi kun ehtiyojlari va davr talablari sohadagi ushbu tizimli kamchiliklarni bartaraf etish, milliy mustaqilligimizni mustahkamlashning ma'naviy-g'oyaviy omillarini kuchaytirish hamda 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanadirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni bajarishga doir omilkor faoliyat olib borishni taqozo etayotgani shubhasiz. Ana shu

¹ «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.
— O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2017-yil 30-iyul,
<http://www.president.uz/uz/lists/view/>

maqsadda Prezident qarorida bu boradagi qator ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan¹.

Qarorda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ma’naviy-ma’rifiy ishlarini tubdan isloh etish va samaradorligini oshirishga qaratilgan Harakat dasturini ishlab chiqishi ko‘zda tutilgani esa, bu sohadagi faoliyatning rejali amalga oshishini anglatadi. Ushbu jarayonga Markazning matbuot nashrlari hisoblangan «Tafakkur», «Jahon adabiyoti» va «Ma’naviy hayot» jurnallarining faol jalg qilinishi esa, bu jabhadagi serqirra faoliyatni ommaviy axborot vositalarida yoritishda targ‘ibot va tashviqotning barcha zamonaviy talablariga javob beradigan ushbu nashrlarning keng ishtirokini ta’minlaydi, albatta. Ushbu qarorga ko‘ra, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda taniqli olimlar va jamoat arboblaridan iborat «Ma’rifat» targ‘ibotchilar jamiyati tuzilishi bu boradagi amaliyot uchun muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, qarorda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va Xalq ta’limi vazirligining Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan birgalikda Milliy g‘oya turkumidagi o‘quv fanlari dasturlari mazmunini bugungi zamon talablari asosida tubdan qayta ko‘rib chiqishi hamda qayta ishlanib, takomillashtirilgan dasturlar 2018–2019-o‘quv yildan boshlab amaliyotga joriy qilinishi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo‘yilishining nafaqat ushbu soha, balki butun ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot yo‘nalishi uchun ahamiyati nihoyatda katta ekanligi shubhasiz².

1 «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.
— O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2017-yil 30-iyul,
<http://www.president.uz/uz/lists/view/>

2 «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.
— O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2017-yil 30-iyul,
<http://www.president.uz/uz/lists/view/>

Negaki, milliy g'oya turkumidagi o'quv fanlari dasturlari mazmunini bugungi zamон talablari asosida tubdan qayta ko'rib chiqishi hamda takomillashtirilgan dasturlarning amaliyatga joriy qilinishi masalasi bir necha yillardan buyon o'z dolzarbligini saqlab kelayotgan vazifalardan biri edi. Garchand, bu borada ta'lim vazirliklari ilgarigi yillarda ayrim ishlarni bajargan bo'lsalarda, ammo vazifa to'la ado etilmagan, qayta ko'rib chiqilgan va takomillashtirilgan dasturlarning amaliyatga joriy qilinishi kechikib qolayotgan edi. Prezident qarori ushbu kemtiklikka barham berishda ham muhim hujjat sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda va bu sohada olimlar, mutaxassislar, mutasaddilar oldida yana bir imkoniyat yaratdi va o'z navbatida ularning mas'uliyatini yanada oshirdi.

Alohibda ta'kidlash joizki, hozirgi globallashuv sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lgan jamiyatning barqaror rivoji jarayoni har bir insonning kamolotiga kuchli ta'sir ko'rsatadi hamda jamiyatning milliy o'ziga xosligini saqlaydi, uning g'oyaviy va ma'naviy rivojlanishi uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Milliy g'oyaning targ'iboti jarayoni talab darajasida bo'limgan holatda esa turli muammolar ko'payadi, xilma-xil ijtimoiy illatlar yashovchan bo'lib qoladi.

Shu sababli bugungi kunda jamiyatimizda milliy g'oyaning istiqlol davridagi o'ziga xos darajalarini belgilashda islohotlarning amalga oshishi bilan bog'liq real sharoit va muammolarning asl sabablarini hisobga olish nihoyatda muhim ahamiyatga egadir. Ayni paytda, ba'zi mutaxassislarning fikriga ko'ra, bugungi globallashuv sharoitida jamiyat miqyosida yuksak g'oyaviylikni saqlash, mafkuraviy xuruj, umuminsoniy tamoyillar va demokratik qadriyatlarni qaror toptirish masalalariga e'tibor qaratish lozim. Shu asosda milliy g'oya bilan bog'liq omillarni tahlil qilish, undan kelib chiqadigan natijalar samarasini belgilashda real sharoit va holatlardan kelib chiqish maqsadga muvofiqligi har tomonlama ayon bo'ladi.

Bu jihatdan, milliy g'oyaning ta'siridagi ijtimoiy o'zgarishlar dinamikasi jamiyatimizning yuksalishi, taraqqiyoti va hozirgi davrda xalqimiz o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan manfaatlar va ularni qondirish bilan bog'liq jarayondir. Zero, milliy g'oya o'z mohiyati, e'tiboriga ko'ra, jamiyat hayotining ma'naviy mezoni bo'lib, tafakkur o'zgarishi, odamlar ongida yangicha dunyoqarashning shakllanishi va ijtimoiy fikr rivoji uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Bularning barchasi bugungi kunga kelib xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o'zida ifodalaydigan milliy istiqlol g'oyasi ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy taraqqiyotimizning muhim sharti bo'lib qolganidan dalolat beradi. Bu g'oya jamiyatimiz o'z oldiga qo'ygan maqsad-muddaolarga yetishish, begona va yot g'oyalarning xurujidan himoyalanish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazishga yordam beradigan g'oyaviy omilga aylandi. Ayni paytda milliy istiqlol g'oyasining ta'sirchanligini yanada oshirish, ushbu jarayonning samarasini ta'minlaydigan imkoniyatlarni izlab topish shu sohadagi ustuvor vazifalarning mazmun-mohiyatini tashkil qiladi.

Xullas, bularning barchasi O'zbekistonning istiqlolga erishiши va mustaqil taraqqiyot yo'lidan sobitqadamlik bilan boriishi ma'naviy taraqqiyotning asosi sifatidagi tahlili o'tgan davr mobaynida mamlakatimiz tarixidagi yangilanish jarayonlarining mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyati va rivojlanish bosqichlarini aniq dalillar asosida o'rghanish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda amalga oshirilgan tub islohotlarning mohiyatini tushunib olish uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lganini anglatadi.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarda ma'naviy hayot sohasida amalga oshirilgan barcha ishlar uzoq muddatli ezgu maqsadga — mamlakatimizda farovon jamiyat va xalqimiz uchun munosib hayot sharoitini yaratish, davlatimizning

jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashini ta’minlashga xizmat qilishi shubhasiz. Bunday murakkab va olis yo‘ldagi dastlabki qadamlar sarhisob qilingan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi»ning qabul qilinishi bilan yurtimiz taraqqiyotining 2010-yildan keyingi bosqichi boshlanadi. Bu bosqichda amalga oshirilgan islohotlar va yangilanishlarning ma’naviy hayotdagi tadriji hozir davom etayotgan o‘n yillikda mamlakatimizda ma’naviyatni taraqqiy ettirish jarayonining bosqichma-bosqich amalga oshishi bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda jamiyat ma’naviy hayotining tarkibiy qismi bo‘lgan mazkur jarayonni xalqimizning ezgu maqsadlariga mosligini ta’minalash, bu borada mas’ul bo‘lgan boshqaruva va tashkiliy tuzilmalar tizimining faoliyatini samarali tashkil qilish, shu sohadagi ishlarning natijadorligiga erishish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy usullar va imkoniyatlarni izlab topish ushbu jabhada-gi izlanishlarning davomini belgilaydi.

Mamlakatimizda ma’naviy taraqqiyotni tashkil etish tizimi va uning elementlarini ijtimoiy-siyosiy mexanizmlar kompleksi sifatida, markaz va joylarda hokimiyatni tashkil etish shakli, vakolatlarni taqsimlash va amalga oshirish jarayoni bilan bog‘liq omillar majmui tarzida takomillashtirish kutilgan natijani berishi mumkin.

4-mavzu. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot tamoyillari – Harakatlar strategiyasining muhim asosi

Mavzuning asosiy savollari. «Taraqqiyotning o‘zbek modeli» va uning asosiy tamoyillarini ishlab chiqilishi. «O‘zbek modeli» – mamlakatimiz milliy taraqqiyot strategiyasining konseptual asosi. Uni amalga oshirishning iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va siyosiy mexanizmlari. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlari ga o‘tishning umumiyligini qonuniyatlarini va o‘ziga xos xususiyatlari. Hozirgi davrda demokratik bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish imkoniyatlari va istiqbollari.

Mavzuning asosiy mazmuni. Mamlakatimizda istiqlol yilla-
rida hayotning barcha sohalari qatori, iqtisodiy sohada ham tub
islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston 1991-yili o'z mustaqil-
ligini qo'lga kiritganidan so'ng umrini o'tab bo'lgan mustabid,
ma'muriy-buyruqbozlik, rejali taqsimot tizimidan voz kechib,
«O'zbek modeli» deb nom olgan o'z taraqqiyot yo'llini tanlab ol-
di. Mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohot-
lar va o'ziga xos taraqqiyot modeli, nafaqat hamdo'stlik respub-
likalari, balki taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda ham katta
qiziqish uyg'otmoqda. O'zbekistonda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy,
madaniy sohalarda ro'y berayotgan o'zgarishlarni chuqur tahlil
qilayotgan ko'plab chet ellik nufuzli mutaxassislar ham taraqqi-
yotning «O'zbek modeli» atamasini e'tirof etmoqdalar.

Ushbu model va taraqqiyot yo'lining mohiyati quyidagi fikr-
da o'z ifodasini topgan: «Biz ishlab chiqqan va bugungi kun-
da hayotga tatbiq etayotgan ushbu modelning ma'no-mazmuni –
davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumni tubdan o'zgartirish
va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosat-
dan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini
ta'minlashi, ya'ni islohotlar tashabbuskori bo'lishi va ularni mu-
vofiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ij-
timoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil
olib borish tamoyillariga asoslanadigan siyosiy, iqtisodiy va ijti-
moiy islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir¹.

O'zbekiston tanlab olgan ushbu o'ziga xos mustaqil taraqqiyot
yo'li, ya'ni jahonda «O'zbek modeli» deb tan olingen rivojlanish
yo'lining ratsional mag'zi jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki
evolyutsion – tadrijiy ravishda isloh etishni nazarda tutadi.

«O'zbek modeli»ning ko'pchilik boshqa milliy modellardan
farq qiladigan xususiyati shundaki, u faqat iqtisodiy rivojlanish

¹ I.A. Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashti-
rish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. — Toshkent: «O'zbekis-
ton», 2010.

emas, balki keng ma'nodagi milliy tiklanish va ijtimoiy taraqqiyot modelidir. Shu sababdan u iqtisodiyot bilan bir qatorda davlat qurilishi, ijtimoiy soha va ma'naviyatni, jamiyat hayotining barsha sohalarini qamrab oladi.

«O'zbek modeli» tushunchasi, avvalo, O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyoti qanday bo'lishi lozimligini asoslaydigan, uni muayyan maqsadlarga yo'naltiradigan eng umumiylazariy xulosalar va mo'ljallar bilan davlatning belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan amaliy siyosatining mushtarakligini anglatadi (davlat siyosati deganda hokimiyatning har uchala bo'g'ini faoliyati nazarda tutilmoqda).

Demak, ushbu taraqqiyot modeli o'zining nazariy va amaliy jihatlariga ega. Uning nazariy jihatni mamlakatning yuzaga chiqqan salohiyat va imkoniyatlari, ishlab chiqaruvchi kuchlari rivoji, infratuzilmasi, yurtimizning tabiiy boyliklari, demografik vaziyati, aholining ongi, bilimi, kasbiy salohiyati kabi omillarni hisobga olgan holda rivojlanish konsepsiyasini, oddiy til bilan aytganda, bizning o'zimizga xos va o'zimizga mos yo'limizni asoslaydi. U bir necha nisbatan mustaqil yo'nalishlardan iborat: iqtisodiy siyosat tamoyillari va makroiqtisodiy nazariya; davlat qurilishi va jamiyatni demokratiyalash tamoyillari; mulkdorlar sinfini shakllantirish va ijtimoiy stratifikatsiyani (jamiyatning ijtimoiy, tabaqaviy tuzilmasi) takomillashtirish tamoyillari; milliy g'oya, milliy mafkura konsepsiysi va ma'naviy-madaniy rivojlanish masalalari; tashqi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar tamoyillari va hokazo.

Modelning amaliy tomoni ham bir necha yo'nalishlarga ega:

- islohotlarning huquqiy bazasini yaratish va mustahkamlashga qaratilgan siyosat;
- davlatning nazariy xulosalarni, mo'ljallarni amalgalashish yuzasidan tashkilotchilik ishlari va aniq ijro mexanizmini o'zida aks ettirgan farmonlar, qarorlar, maqsadli dasturlarni (shu jumladan, investitsiya dasturlarini) qabul qilishi;
- amaldagi investitsiya siyosati, soliq siyosati, moliya-credit siyosati, iqtisodiy-tarkibiy siyosat, fond bozorini, qimmat-

li qog'ozlar bozorini shakllantirish va rivojlantirish, iste'mol bo-zoriga ta'sir ko'rsatish va hokazo;

• farmonlar va hukumat qarorlari mohiyatini odamlarga to'g'ri yetkazish, ularni birlashtirish, ularda eski tuzum inersiyasi-sini yengishga qodir irodani shakllantirish borasida targ'ibot-tash-viqot va tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish.

Xo'sh, «O'zbek modeli»ning asosiy ustuvor xususiyatlari nimalardan iborat? O'zbekiston mustaqillikka erishgach, nafaqat iqtisodiy taraqqiyot masalalarini, balki milliy davlatchilik asoslarini, milliy qadriyatlarini, xalqning o'zligi va g'ururini qayta tiklashi, rivojlantirishi, jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilmasini tubdan yangilashi va mustaqillik g'oyalarini amalga oshirish uchun mutlaqo yangicha fikrlab, yangicha ish yuritadigan kadrlarni tarbiyalash kabi masalalarni ham hal etishi lozim edi.

Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Fransiya, Xitoy kabi mamlakatlarning taraqqiyot modellari ko'proq iqtisodiy modellar edi. Ular siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotni tubdan yangilashni nazarda tutgan emas. Ushbu mamlakatlarning birortasida, iqtisodiy islohotlar davrida, milliy davlatchilikni, madaniy merosni va ona tilini tiklash singari masalalar ham dolzarb bo'limgan (faqat Janubiy Koreyada davlat qurilishi muhim ahamiyat kasb etgan).

Shunday qilib, «O'zbek modeli» iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish bilan birga, davlat qurilishi, jamiyatni demokratiyalashtirish, mulkdorlar sinfini va xususan, o'rta sinfni shakllantirish, ijtimoiy-sinfiy tuzilmani takomillashtirish va kadrlar tayyorlash, madaniy meros va ma'naviyat bilan bog'liq bir qator keng qamrovli hayot sohalarini qamrab oladi. Bu uning o'ziga xos ustuvor xususiyatlaridan biridir.

Istiqlolning dastlabki yillarda islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Bunda taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o'tish tajribasi, mamlakatimiz boshdan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa jamiyatni isloh etish-

ning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili vujudga
k e l d i : .

Ikinchi tamoyil – iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Iqtisodiy idohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo‘ysundirilishi mumkin emas. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlar mafkuradan xoli bo‘lishi lozim. I. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi va mafkuradan xoliligi «O‘zbek modeli»ning tamoyili sifatida nafaqat mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning mazmun-mohiyatini aks ettiradi, balki yurtimiz iqtisodiy hayotining yangiliklarga, ilg‘or tajribalar va oqilona tashabbuslarga ochiqligini ham ko‘rsatadi. Iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish iqtisodiy munosabatlarni to‘g‘ri tushunish va ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishning omilidir. U obyektiv iqtisodiy qonunlarni tan olishga, mulkchilik shakllariga, taqsimotga nisbatan subyektiv munosabatdan qutułishga ma’naviy shart-sharoit yaratadi. Islom Karimov ta’kidlagani kabi: «Mafkuraviy aqidalarni bartaraf etish xo‘jalik yuritishning turli ijtimoiy shakllariga nisbatan xayrixoh ijtimoiy fikrning, bozor munosabatlariaga mos bo‘lgan psixologiyaning va shunga xos iqtisodiy tafakkurning idrok etilishiga ko‘maklashadi». Mazkur tamoyil iqtisodiy rivojlanishda ma’naviyatning ahamiyati nechog‘liq muhim ekanini, uning nozik qirralarini ochib beradi .

Ikkinci tamoyil – Davlat – bosh islohotchi. U islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishi, yangilanish va o‘zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi lozim.

Mustabid tuzum asoratlaridan xalos bo‘lish jarayonida o‘zini o‘zi tartibga soladigan yetuk rivojlangan iqtisodiy mexanizm birdaniga vujudga kelib qolmaydi. Shu bois ma’muriy-buyruqbozlikka, markazlashgan iqtisodiyotga asoslangan tuzum qoldiqlarini bos-qichma-bosqich bartaraf etish, bu yo‘ldagi turli ziddiyat va qarshiliklarni yengib o‘tish, yangi munosabatlarni qaror toptirish uchun o‘tish davri kerak. Ziddiyatlarga boy bo‘lgan o‘tish davri

sharoitida iqtisodiyotni, islohotlarni o‘z xoliga tashlab qo‘yib bo‘lmaydi. «O‘tish davrida davlat xalq xo‘jaligining, ayniqsa, uning asosini, tizimini belgilaydigan tarmoqlarning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi, narx-navolarni tartibga solib turishi, shuningdek bevosita yordam berishda imtiyozlar yaratishi, bevosita yordam ko‘rsatish yo‘li bilan ana shu tarmoqlarga madad berishi lozim»¹.

Bu so‘zlar davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifasi nimadan iborat ekanini asoslab beradi va ayni paytda turli ijtimoiy guruhlarning, nodavlat va jamoatchilik tashkilotlarining, alohida shaxslarning islohotchilik tashabbuslari va faoliyatları cheklanmasligini, aksincha davlat ularga yordam berishini bildiradi.

Uchinchi tamoyil – jamiyat hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligi. Demokratik yo‘l bilan qabul qilingan Konstitutiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og‘ishmay rioya etishi lozim.

Birinchidan, mazkur tamoyil turli mulk shakllarining teng huquqiy asosda rivojlanishini ta’minlaydi. Mulkchilik shakllari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi munosabatlari, raqobat qat‘iy huquqiy me’yorlar yordamida tartibga solinadi. Iqtisodiyotni boshqarishda o‘zboshimchalik va subyektivizmga, turli iqtisodiy zo‘ravonliklarga yo‘l qoymaslik uchun zarur huquqiy shart-sharoit vujudga keladi. Ikkinchidan, demokratiya rivojlandi, aholining siyosiy madaniyati va faolligi oshadi. Fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi rivoji, mafkuraviy plyuralizm qaror topishi uchun huquqiy kafolat paydo bo‘ladi. Inson huquqlari ta’minlanadi. Noqonuniy imtiyozlarga yoki aksincha, kamsitilishlarga chek qo‘yiladi. Uchinchidan, alohida shaxsning, barcha ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlari to‘liqroq hisobga olinadi va ularning yaratuvchilik imkoniyatlari, ijodiy sa-lohiyati samaraliroq ro‘yobga chiqadi. Jamoat tashkilotlarining

¹ Islom Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – Toshkent: «O‘zbekiston», 1996.

o'tni va ahamiyati yil sayin ortib boradi. Fuqarolik jamiyat shakllanadi. Demak, qonun ustuvorligi tamoyili, keng ma'noda, O'zbekistonda ijtimoiy taraqqiyotga, jamiyat yangilanishiga, inson shaxsining yuksalishiga xizmat qiladi.

«O'zbek modeli»ning mazkurtamoyili o'zidan avvalgi tamoyil bilan chambarchas bog'liq. Zero, davlat bosh islohotchi sifatida ijtimoiy barqarorlik, qonuniylik va huquq-tartibotning asosiy kafili bo'ladi.

Ushbu tamoyil jamiyat hayotida birdaniga to'liq qaror topmaydi. U nisbatan uzoq muddat talab qiladigan, bosqichma-bosqich va doimiy rivojlanib boradigan jarayon. Uning to'liq qaror topishi uchun quyidagi o'zaro mushtarak uch omil muhim ahamiyat kasb etadi: jamiyatning, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oladigan poydevor va zaruratga qarab o'zgaruvchi qonunlar majmuasining vujudga kelishi va doimiy takomillashib borishi; jamiyat a'zolarining huquqiy savodxonligi darajasi va qonunga itoatgo'yligining yuksak bo'lishi; mavjud qonunlarni hayotga tatbiq etishning zarur iqtisodiy shart-sharoiti, siyosiy-ma'muriy va ijtimoiy mexanizmini yaratish.

To'rtinchitamoyil. Aholining demografiktarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini, ayniqsa kam ta'minlangan oilalarni, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rlishi lozim.

Kuchli ijtimoiy siyosatning tarkibiy qismlari va yo'nalishlari ko'p. Ular ijtimoiy ta'minot, yangi ish o'rinalarini yaratish, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, madaniyat, sport va jismoniy tarbiya sohalari faoliyatini mablag' bilan ta'minlash va isloh qilishdan tortib, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquq-tartibotni ta'minlash-gacha bo'lgan masalalarni qamrab oladi.

Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish va aholining turli qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish «O'zbek modeli»ning insonparvarlik mohiyatini belgilovchi tamoyillardan biridir.

Beshinchitamoyil. Bozoriqtisodiyotiga obyektiviqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda, poydevor

bo‘ylab, bosqichma-bosqich o‘tish. Bu ish islohotlarning huquqiy asoslari va kafolatlarini vujudga keltirish, aholini ijtimoiy himoy-alash va uning yangicha iqtisodiy tafakkurini shakllantirish bilan birga olib borilishi lozim. «Faqat farmonlar, farmoyishlar chiqarish bilan bozor iqtisodiyotini barpo etib bo‘lmaydi. U uzoq tarixiy taraqqiyotning natijasi bo‘lib, tegishli infrastrukturani va huquqiy asosni yaratishnigina emas, shu bilan birga, qadriyatlar tizimida chuqur o‘zgarishlarni, xo‘jalik faoliyati va amaliy munosabatlarni asoslashni ham ko‘zda tutadi»¹.

O‘zbekistonda aynan shunday yo‘ltutildi. Bundaysiyosat yuritish nafaqat mablag‘lardan samarali foydalanish imkonini bermoqda, shuningdek odamlarning safarbarligini oshirmoqda, ijtimoiy larzalarning oldini olmoqda, mulkchilik shakllarini bosqichma-bosqich rivojlantirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o‘tish va mam-lakat hayotining barcha jabhalarini isloh qilishning nazariy asoslari hamda amaliy dasturlari Birinchi Prezident I.A.Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li», «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat», «O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li», «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida», «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kabi asarlarida shakllantirilgan.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi yo‘llari va bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining nazariy metodologik asosini hamda mam-lakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida ta’kidlanishicha: «... biz oldimizga qo‘yan uzoq muddatli strategik maqsadlar, ya’ni zamонавиј ривојланган демократик давлатлар қаторига кириш, иқтисодијотимизнинг барқарор о‘сішіни та’минлаш, һайот сифатини яхшилаш ва яхон һамжамиятіда муносиб о‘рин егалиш борасида-

¹ Islom Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – Toshkent: «O‘zbekiston», 1996 yil. – 315-bet.

gi sa'y-harakatlarimizga bugungi kun nuqtayi nazaridan xolisona baho berishimiz tabiiydir»¹. Shuningdek, iqtisodiy o'zgartirishlar strategiyasi mafkuradan butunlay, ozod etilishi kerak; chunki iqtisodiyotning mafkuraga, siyosatga qaram holda olib borilishi ko'p mamlakatlarda salbiy natijalar berdi. Buni sobiq ittifoq misolida ham ko'rsa bo'ladi. Shu bilan birga demokratik asosda iqtisodiy islohotlar olib borilayotgan mamlakatlarda uning aksi, ya'ni iqtisodiy islohotlarning olib borilishi uchun moddiy texnika asoslari yaratilmoqda, chunki iqtisodiyot hech qanday siyosiy kuch tazyiqlari assosida rivojlanishi mumkin emas. Demokratiya – boshqaruvning barcha bosqichlaridagi erkinlikdir. Shuning uchun ham avvalo iqtisodiy-ijtimoiy o'zgartirishlarning aniq maqsadini belgilab olish bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosh strategiyasini tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti ma'lum bashariy hodisa bo'lib, jahon tsivilizatsiyasi rivojlanishi yo'lidagi muqarrar bosqichdir. Faqat bozor iqtisodiyoti xalqning ijobiyligi va mehnat qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, tashabbuskorlikka, ishbilarmonlikka asoslangan ishlab chiqarishdan manfaatdorlik darajasini oshirgan holda iqtisodiyot rivojini ta'minlaydi.

Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining turmush farovonligini oshirish uchun sharoitlar yaratib beradi. Respublikamizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti davlat mustaqilligining iqtisodiy asosi sifatida olingan bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi sharoitlariga eng ko'p darajada mos keladi. Bunday ko'rinishdagi bozor iqtisodiyoti korxonalarini va jismoniy shaxslarning ish faoliyatlarini erkin yurgizishlari uchun, ularning ishbilarmonlik, tadbirkorlik faoliyatlarini davlat qonunlari, huquqiy kafolatlar asosida, moddiy rag'batlantirishlar asosida olib borishni ta'minlashi lozim. Barcha turdag'i mulklarning qonuniy va huquqiy asosda tengligini,

¹ I.A.Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. – Toshkent: «O'zbekiston», 2010.

ish yurituvchilar erkinligini, respublikadagi milliy an'ana, urfodat va qadriyatlarni e'tiborga olishi, insonlarning faoliyatlarini to'liq shart-sharoitlar bilan ta'minlashi lozim.

Davlat bozor iqtisodiyotiga o'tishda iqtisodiy faoliyatning huquqiy asoslarini ishlab chiqib, iqtisodiy erkinlikni qabul qilin-gan Konstitutsiya va qonunlar asosida mustahkamlab bormoqda.

Respublikada bozor iqtisodiyotini shakllantirish ma'lum bir davrni hamda juda katta mas'uliyatni talab etdi. Chunki mavjud sobiq markazlashtirilgan, rejalashtirilgan iqtisodiyot bilan bozor iqtisodiyoti bir-biriga yot xo'jalik tizimidir. Ana shu ikki xo'jalik tizimlari o'rtafiga kurash mamlakat hayotida juda ko'p islohotlarni amalga oshirishni, qiyinchiliklarni boshdan kechirishni talab etdi. Albatta, eski tizimni birdaniga, ya'ni revolyutsion yo'l bilan yo'qotish maqsadga muvofiq emas; uni evolyutsion yo'l orqali sekin-asta, bosqichma-bosqich yangi tizimga almashtirish kerak. To'g'ri, revolyutsion yo'l bilan bozor iqtisodiyoti tizimini tadbiq etgan mamlakatlar ham yo'q emas. Bu yo'l «falaj qilib davolash» usuli hisoblanib, siyosiy, iqtisodiy oqibatlari ancha og'ir kechadigan jarayondir. Masalan, Yugoslaviyada ushbu «falaj qilib davolash» usulining qo'llanilishi 1991-yilda sanoat ishlab chiqarilishini 20 foizga, sarmoya sarflashni 17 foizga kamayishi-ga, pirovardida federatsiyaning parchalanishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham respublikada vujudga kelgan iqtisodiy vaziyat aksariyat ko'pchilik oilalarning turmush darajasi pastligini e'tiborga olib, O'zbekiston uchun bozor iqtisodiyotiga o'tishda «falaj qilib davolash» usulining ma'qul emasligini ko'rsatdi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti tomon sakrashlarsiz, inqilobiy o'zgartirishlar yo'li bilan emas, balki izchillik bilan bosqichma-bosqich borish kerak. O'zbekistonning bozorga o'tish yo'lining o'ziga xos xususiyati ham shundadir.

Davlat iqtisodiyotni sog'lomlashtirish muammolarini hal etish uchun bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqib, qonunlar chiqaradi va qarorlar qabul qiladi. Bu yo'l bilan eski iqtisodiy munosabatlarni, eski qonun va qararlarni almashtirish evaziga bo-

zor iqtisodiyoti uchun ijtimoiy-siyosiy sharoitlar vujudga keltiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Mustaqillikning dastlabki yillardan buyon davom etib kelayotgan bu jarayon 2010-yilda yaratilgan «mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi»da yana bir bor o'z isbotini topdi.

Ushbu konsepsiya ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishishi tufayligina mustabid va mafkuralashgan tuzum kishanlaridan, xo'jalik yuritishning ma'muriy buyruqbozlik tizimidan ozod bo'lib, o'z taraqqiyot yo'lida mustaqil tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Istiqlol xalqimizga o'z vatanining haqiqiy egasi tuyg'usini qaytarib, toptalgan madaniy meroslar, ulkan tabiiy mineral, xomashyo, insoniy, ishlab chiqarish va intellektual salohiyatidan o'z xalqimiz manfaatlari yo'lida foydalanish imkoniyatini berdi. Davlat mustaqillikka erishgandan keyin jahon hamjamiatida o'z o'rniغا ega bo'ldi, iqtisodiyotni, ijtimoiy sohalarni jamiyat hayotining barcha jabhalarini chuqur isloh qilishga imkon yaratdi.

Davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish ishlarining amalga oshirilishi oqibatida nodavlat xususiy iqtisodiy sektor va xususiy mulk hamda mulkdorlar mavqeい oshib bordi. Iqtisodiyot barqarorligining o'ziga xos ko'rsatkichi, belgilangan islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy mezoni bo'lган o'z valyutamizni mustahkamlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarninggina emas, balki ijtimoiy islohotlarning ham eng ustuvor yo'nalişidir.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Xo'jalik yuritishning sovet davridan qolgan, o'zini oqlamagan shakllaridan voz kechilib, ularning o'rniغا butun dunyoda keng joriy etilgan xususiy fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Qishloq xo'jaligi sohasining bosh bo'g'ini bo'lган xususiy fermer xo'jaliklarini tashkil etish va yanada rivojlantirish lozim.

Kuchli va adresli ijtimoiy siyosat yuritilishi, aholini ijtimoiy himoya qilishning butunlay yangi tartiblari joriy etilishi so'nggi

yillarda faqatgina odamlar turmush darajasining o'sishiga emas, balki ularning daromadlari o'sishiga ham olib keldi.

Iqtisodiyot barqarorligining o'ziga xos ko'rsatkichi, belgilangan islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy mezonini bo'lgan o'z valyutamizni mustahkamlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarninggina emas, balki ijtimoiy islohotlarning ham eng ustuvor yo'nalishitidir. Respublika iste'mol bozorini tovarlar bilan to'ldirish uning sanoatini rivojlantirish milliy valyutaning tovarlar bilan ta'minlanishiga, bu esa, natijada milliy valyutaning qadrini saqlab turishga olib keladi.

Mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009–2012-yillarga mo'ljallab qabul qilingan inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'naliishi bo'lib qoldi.

O'zbekistonda mamlakat mustaqillikka erishgandan so'ng ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida mamlakatning mustaqil moliya bank tizimini shakllantirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mustaqillikning ilk yillarda mamlakat bank-moliya tizimida olib borilgan qat'iy pul-kredit siyosati barqaror bank-moliya tizimini yaratish uchun zamin bo'lib xizmat qildi. 2010-yil 26-noyabrda «2011–2015-yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloq qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalichlari to'g'risida» 1438-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarordan kelib chiqqan holda Respublikamizning moliya-bank tizimini isloq qilish va barqarorligini oshirishning asosiy yo'nalichlari belgilab olingan.

Keyingi yillarda mamlakatimizda byudjet-soliq sohasida tayaygina ishlar amalga oshirildi. 2008-yilning 1-yanvaridan yangi Soliq Kodeksi amaliyatga joriy etildi. Bu bilan soliq va soliqqa tortish sohasida katta o'zgarishlar va imtiyozlar yuzaga keldi. Yangi Soliq Kodeksi oldingi Soliq Kodeksidan juda farqli ravishda soliq to'lovchilar uchun ancha qulay va tushunarli tilda ba-

yon etildi. Bu o‘z navbatida soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarga ancha qulayliklar tug‘dirdi. Oxirgi yillarda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, soliq stavkalarini pasaytirish va soliqdan imtiyozlar berish hamda ishlab chiqarishning o‘sishi natijasida soliq yuki darajasi mamlakatimizda ancha pasaydi. Bu esa YaIM hajmining o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunderidan boshlab, jamiyatda tadbirkorlik ruhini qaror toptirib, shu usosda odamlarda mulkdorlik tuyg‘usini uyg‘otishga jiddiy e’tibor qaratildi. Bu borada «birinchi navbatda, xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritgan yoki yaratgan o‘z mulkinining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini ta’minlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratishimiz zarur. Har bir tadbirkor avvalo shuni aniq-ravshan bilib olishi kerakki, davlat xususiy mulk huquqi ularning himoyachisidir. Shuning uchun ham tadbirkorlar o‘z biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot hajmi va olayotgan daromadini ko‘paytirishi, o‘z mulkiga o‘zi egalik qilishi, foydalanishi, tasarruf etishi lozim»¹.

Istiqlol yillarda tadbirkor va ishbilarmonlarning bunyodkorlik harakatlari mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lida olib borilayotgan islohotlarning ajralmas qismi sifatida o‘zining ijobjiy samarasini bera boshladi. Pirovardida, kichik biznesning shakllari kengayib, aholining mulkka egalik tuyg‘usi uyg‘ona boshladi. Bu hol o‘rta mulkdorlar sinfining shakllanishiga keng yo‘l ochib bermoqda.

Mustaqillik davrining ikkinchi bosqichida bundan boshqa sohalarda ham ezgu g‘oyalari asosidagi savob ishlar davom etdi. Masalan, sobiq ittifoq davrida har yili G‘alaba kuni sifati-

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. — Toshkent: «O‘zbekiston», 2011. — 48–49-bet.

da bayram qilingan va dabdabali harbiy paradlar o'tkaziladi-gan 9-may sanasiga asl munosabat qayta tiklangani ham jamiyat ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar borasidagi yorqin misollardan biridir. Bu borada nafaqat Toshkent, balki boshqa yirik shaharlarda ham Xotira maydoni tashkil etilib, Motamsaro ona haykali o'rnatilgani, 9-mayning «Xotira va qadrlash kuni» sifatida belgilab qo'yilgani jamiyat ma'naviy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan voqealardan biri sifatida qadrlanadi. Shu kuni ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan yurtdoshlarimizning nomlari maxsus lavhalarga zarhal harflar bilan yozib qo'yilgan xotira maydonlarining odamlar bilan gavjum bo'lishi, ular orasida yoshlarning ko'pligi ham buni yaqqol isbotlaydi.

Ma'lumki, Vatanimiz poytaxti, ko'hna va navqiron Toshkent shahri yurtimizning eng mo'tabar maskanlardan biri bo'lib hisoblanadi. Ana shu mo'tabar maskan mustaqillik yillarda yangi qiyofa kashf etdi, u mustaqillikning, ajdodlarimiz asrlar davomida intilib yashagan xalqimiz ozodligining ramziga aylandi, desak xato qilmaymiz. Ushbu shaharning barcha go'shalari qatori, uning qoq markazidagi mustaqillik maydoni va unga tutash hududda 2000—2015-yillarda ham keng ko'lamdag'i bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Senat binosi, Ezgulik arkasi, Vazirlar Mahkama-si, Tasviriy san'at galereyasи, Biznes markazi, Yoshlar ijodiyot markazi kabi binolar qurildi va ular shahar ko'rkiga ko'rк qo'shdi.

Ushbu maydondan unchalik uzoq bo'limgan va ilgari «Skver» deb nomlangan maydon qiyofasi ham butunlay o'zgardi. Unga «Amir Temur xiyoboni» nomi berildi, buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temurga muazzam haykal o'rnatildi. Shu tariqa, bu maydon nafaqat yurtdoshlarimiz, balki mamlakatimizga keladigan ko'plab mehmonlar va sayyoohlar uchun yurtimiz istiqlolining timsollari dan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, ushbu xiyobonga tutashgan maydonda Amir Temur va temuriylar zamoniga bag'ishlangan maxsus muzey tashkil etilgani ham bu boradagi ishlarning tarkibiy qismi sifatida jamiyat ma'naviy hayotidan joy olganini alohida ta'kidlash joiz. Ushbu muzey xalqimizning ta-

rixiy xotirasini tiklash, yoshlarni o'tgan avlodlar ruhiga sadoqatli etib tarbiyalash, unga tashrif buyurgan yurtdoshlarimizda buyuk o'tmishimizdan g'ururlanish va alloma bobolarimiz merosidan faxrlanish, kelajak oldida ma'naviy qarzdorlik tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xalqimiz hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan bunday bunyodkorlik ishlari bilan bir qatorda, Toshkentda yangi, zamonaviy Davlat konservatoriysi barpo etilgani, O'zbekiston milliy akademik drama teatri, Rus akademik drama teatri, Toshkent davlat san'at va madaniyat instituti, Tasviriy san'at galereyasi uchun muhtasham binolar qurib berilgani ham ushbu yo'nalishdagi faoliyatning bardavomligidan dalolat beradi. Holbuki, nafaqat Toshkent, balki mamlakatimizning barcha shaharlari va qishloqlarida amalga oshirilgan obodonchilik va qurilish ishlari haqida ham shunday deyish mumkin.

Bularning barchasi, istiqlolga erishish va mustaqillikning birinchi o'n yilliklaridagi o'zgarish va yangilanishlarning tadrijiy tarzda amalga oshganini isbotlash uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'sha serqirra va sermashaqqat davrning mustaqillikka erishgan xalqimiz ma'naviyati taraqqiyotida muhim bosqich sifatidagi o'rni va ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston mustaqil taraqqiyotining ikkinchi bosqichi – tarixiy nuqtayi nazardan 2000-yildan so'nggi 10 yillikni qamrab oladi va ayni ana shu yillar izchil va barqaror o'zgarishlar davri hisoblanadi. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» qabul qilingunigacha bo'lgan mazkur davrda hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlar va bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgan faol demokratik yangilangan jamiyat ma'naviy hayotini izchil isloh qilishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan¹.

¹ Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. — Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2010.

Aynan ana shu davrda mustaqillikning oldingi yillari mobaynida yaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyot asoslari zamонавиј тајрибалар билан boyitilib, ularning tadrijiy yangilanishiga erishildi. Bu boradagi tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, mustaqillik yillarda O'zbekistonda ma'naviyat taraqqiyoti va unga ta'sir ko'rsatadigan omillar samarasini oshirish, mamlakatimizda bu sohadagi mayjud tajribani umum-lashtirish hamda uni bugungi hayotimizda qo'llash amaliyoti bir-biri bilan uzviy aloqador va o'zaro bog'liq jarayon ekanidan dalolat beradi.

Bu esa, o'z navbatida, davlatimiz siyosatida mazkur yo'nalishda ham insoniyat tomonidan yaratilgan ilg'or tajribalar va o'ziga xos milliy an'analar bilan bog'liq ma'naviy hayot voqeliklariga tayanib ish olib borayotganini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida OAV soni oshdi, ularning hayotdag'i ta'sirchanligi tobora ortib borayotgani, ular butun mamlakatimiz aholisi uchun axborot manbai sifatida katta ahamiyat kasb etayotganidan dalolat bera-di. Shu bilan birga, ular o'z navbatida mamlakatimizda fikrlar xilma-xilligi yanada kuchayib, yurtimizda faoliyat yuritayotgan har bir OAVning hayotda o'z o'rniга ega bo'lib borayotgani, bu sohadagi o'zgarishlar va islohotlarning ma'naviy hayot yangila-nishiga ta'siri ortayotganini anglatadi.

Bu jihatdan 2000–2015-yillarda davlatning axborot va so'z erkinligini ta'minlash va OAVni yanada taraqqiy ettirish sohasida-gi siyosatida bir tomonidan, islohotlarning ochiqligini ta'minlaydi-gan demokratik tamoyillarni so'zda yoki qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan esa bu borada OAVni odamlar o'z fikr va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan haqiqiy minbarga aylantirish muhim vazifaga ay-landi.

Bunda ayniqsa, «Davlat hokimiysi va boshqaruvi organ-lari faoliyatining ochiqligi to'g'risida», «Teleradioeshittirish-

lar to‘g‘risida», «Ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy asoslari to‘g‘risida», «Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunlarning qabul qilinishi hamda «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida», «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida» kabi qator qonun hujjatlariga tegishli o‘zgartish va qo‘srimchalar kirilgani soha taraqqiyotining huquqiy asoslарini yanada mustahkamladi.

Jamiyat rivojining XXI asr ikkinchi o‘n yilligiga kelib butun jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari tasavvurimizdagi «Ommaviy axborot vositasi» degan tushunchani butunlay o‘zgartirib yubormoqda, xilma-xil kompyuter texnikasi, internet tiziimi, telekommunikatsiya vositalari orqali aholiga mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning turli usullari va yo’llari qo‘llanmoqda. Jamiyat hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan «ommaviy ma’naviyat» niqobi ostida aholining keng qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongini egallahsha qaratilgan axborot oqimi va axborot xurujlarining soni va salmog‘i ortmoqda. Ular bilan bog‘liq tahididlar turli xil qiyofada namoyon bo‘lmoqda. Ko‘plab mutaxassislar ta’kidlaganidek, bugungi kundagi axborotlashgan jamiyat barpo etishning eng nozik muammolaridan biri – axborot xavfsizligi masalasi nihoyatda jiddiy masalaga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda nafaqat ba’zi OAV dunyoda ro‘y berayotgan keng ko‘lamli globallashuv ta’sirida milliy qadriyatlarimiz va ma’naviyatimizga yot va begona g‘oyalarni beixtiyor tarqatib qo‘yishdan ehtiyyot bo‘lishlari davr talabidir. Bunda ham ogoh va hushyor bo‘lish, mamlakatimiz manfaatlarini himoya qilish muhim ijtimoiy-siyosiy zaruriyat va yuksak mas’uliyat ekanini unutmaslik lozim.

Ana shunday dolzarb masalalarni qamrab olgan OAV hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yanada rivojlantirish esa ushbu yo‘nalishda yetuk mutaxassislarni tarbiyalash, zamonaviy kadrlar tayyorlashni taqozo qilishi tabiiy. Bu bora-da O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 2-iyundagi PQ-91-sonli «Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash

tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qarori¹ga muvofiq Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) va uning Samarqand, Farg‘ona, Urganch, Nukus va Qarshi filiallari tashkil etilgani buning yaqqol misolidir. Keyingi yillarda TATUning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasi kadrlar tayyorlash bo‘yicha yetakchi oliy ta‘lim dargohiga aylangani ham fikrimizni isbotlaydi.

Mamlakatimizda axborotlashgan jamiyat barpo etilayotgan davrda uni eng rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarish bunday yetuk kadrlarning tizimli tayyorlanishi davlatimizning ijtimoiy-siyosatida bugungi davr talabi hisobga olinayotganidan dalolat beradi. Bularning barchasi ma’naviy hayotda OAV rolining ortib borishi bilan bog‘liq serqirra jarayonning mamlakatimizda axborotlashgan jamiyatga o‘tishi, bu sohada zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari bilan bog‘liq innovatsion usullar va vositalarning ahamiyati yanada oshayotganini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida, haqiqiy «to‘rtinchi hokimiyat», ya’ni tom ma’noda mustaqil va demokratik matbuotning shakllanishi hamda matbuot va so‘z erkinligini ta’minlashga yordam beradi.

OAVning 2000-yildan keyingi jamiyatimiz rivoji bilan aloqador masalalar va ular bilan bog‘liq tamoyillar va omillarining xilma-xil shakllarini, uning mohiyati va mazmuni tahlilini yanada davom ettirish mumkin. Ammo biz bu sohadagi masalalarning barcha jihatlarini ko‘rib chiqishni vazifa qilib qo‘ymaganmiz, albatta. Bundagi asosiy intilish OAVlarning ma’naviyat bilan bog‘liq aloqasini tushunishdagi eng asosiy, muhim jihatlarni aks ettirishdan iboratdir.

Pirovard natijada bunday jarayonlar jamiyat ma’naviy hayoti o‘zgarishlar dinamikasiga nihoyatda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» 2005-yil 2-iyundagi PQ-91-sonli Qarori.

paytda esa, ushbu sohadagi yangilanishni yanada takomillashtirish va o'zgarishlar jarayonlarini har tomonlama chuqur, yuksak ma'naviyat tamoyillarini aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimizga singdirish borasida barchamizning zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Xullas, mamlakatimiz mustaqillikka erishgan 1991-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davr xalqimiz tarixida o'ziga xos va mos muhim o'rinni egallaydi. Nihoyatda serqirra va murakkab ushbu jarayonning tahlili shundan dalolat beradiki, o'tish davridagi birinchi navbatdagi islohotlar va o'zgarishlar milliy davlatchilik asoslарini shakllantirish va mustaqil demokratik davlat poydevorini yaratishga qaratildi va bu ma'naviy hayat o'zgarishlari dinamikasiga muqarrar tarzda ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-siyosiy omillarning ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qildi.

Ayni paytda, bunga mos ravishda davlat boshqaruvi tizimi, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud bo'g'lnlari shakllantirilishi barobarida, ushbu sohaning mustahkam huquqiy asoslari yaratildi, yangi davlat tashkilotlari tizimi bilan bir qatorda ko'plab fuqarolik institutlari vujudga keldi.

Erkin bozor iqtisodiyoti yo'liga o'tilishi asnosida, davlatimizning siyosiy qiyofasini o'zgartirgan ma'muriy islohotlar o'tkazildi, viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hokimlik instituti joriy etildi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish tizimi – mahalla institutini rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi.

Ana shu davrda to'plangan tajriba yangi jamiyat o'z-o'zidan barpo bo'lmaysligi, balki buning uchun muayyan vaqt talab etiladigan uzluksiz jarayon ro'y berishi lozimligini ko'rsatdi. Ushbu jarayonning sur'ati va sifati, pirovard natijada esa samarasи va muvaffaqiyati ma'naviy hayat o'zgarishlari dinamikasini belgilaydigan ijtimoiy-siyosiy omillar mustahkamlanib borishini taqozo qilgani o'sha davrning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'ldi, deyish mumkin.

Shu bilan birga, aynan ana shu davr xalqimizning yangi tafakkuri va unga mos ma'naviy hayat tamoyillari shakllanishi, ushbu

sohaga ta'sir etadigan ijtimoiy-siyosiy omillarning mustahkamlanishi jarayonining mazmun-mohiyatini ham belgilaydi.

O'tgan asr so'nggida o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan mamlakatimiz umrini o'tab bo'lgan mustabid tuzumdan voz kechib, o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlab olgani barchamizga ma'lum. Bu borada ma'naviy hayot o'zgarishlari dinamikasi tadrijiy tarzda amalga oshirilgan davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumni tubdan o'zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, ya'ni islohotlar tashabbuskori bo'lishi va ularni muvofiqlashtirib borishi, qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish kabi tamoyillarga tayangan edi. Ana shu asosda, ma'naviy va ma'rifiy sohalarda ham tub islohotlar amalga oshirildi, shahar va qishloqlar hayoti bilan birga jamiyatning ma'naviy qiyofasi o'zgardi, milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi va tadrijiy taraqqiyot yo'li o'z samarasini ko'rsatdi.

Shuning uchun ham hozirgacha o'tgan tarixan qisqa bu davrni xalqimiz uchun davlat va jamiyat qurilishi sohasida ham, ma'naviy va ma'rifiy jabhalarda ham barqaror o'zgarishlar davri bo'ldi, deyish mumkin. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimiz taraqqiyotining muhim omili bo'lgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariiga o'tilishi va bu sohadagi muhim tamoyillarning samarali joriy etilgani ham hayot o'zgarishlariga o'z ta'sirini o'tkazgani bilan bog'liq misollar, aniq raqamlar va dalillar asosida o'z isbotini topmoqda. Ushbu ko'rsatib o'tilganlarning barchasi mustaqillikni hayotning barcha sohalari taraqqiyotining tamal toshi, bu boradagi islohotlarning boshlang'ich nuqtasi ekanini yaqqol isbotlaydi. Bu davrdagi islohotlar barqaror taraqqiyotimizni va mamlakatimiz rivojining uzlusizligini ta'minladi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida demokratianing rivojlanishi tufayli ko'pgina mamlakatlarda davlat hokimiyatini taqsimlashda tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar ko'plab mamlakatlarda markaziy hokimiyatning o'z vazifa, vakolat

va majburiyat, javobgarligini mahalliy hokimiyat, fuqarolarning o‘z o‘zini boshqarish organlariga, nodavlat va jamoat tashkilotlari uzatishi, ya’ni nomarkazlashtirish tendensiyasi kuzatilmogda.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish, avvalo ijtimoiy-iqtisodiy junyonlar bilan bog‘liq muayyan masalalarini hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o‘tkaza borishni ko‘zda tutadi¹. • Fuqarolik jamiyatining eng asosiy belgisi — davlatning vazifa vakolatlarini jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish orqali fuqarolarning ijtimoiy faolligini, siyosiy madaniyatini oshirishdan iborat².

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sohasiga markaziy hukumat, ya’ni Vazirlar Mahkamasi umumiyligi rahbarlikni amalga oshiradi. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» nomli ma’ruzasida Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutiyasining 98-moddasining yangi taxririni taklif etar ekan «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Bosh vaziri, o‘rindbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislididan iborat. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshlig‘i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi³, — deb ta’kidlagan. Shuningdek, O‘zbekiston Res-

¹ O‘zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo‘lida. — T.: Akademiya. 2005. 77-bet.

² Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish. — T.: «O‘zbekiston». 2005.

³ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. — T.: «O‘zbekiston». 2011. 10–11-betlar.

publikasi Konstitutiyasining 98-moddasiga saylovlarda yutib chiqqan siyosiy partiya taqdim etgan bosh vazir nomzodining parlament tomonidan ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi haqida Konstitutsiyaviy tartibning belgilanishi, hukumatning parlamentga hisobot berishi, hukumatga nisbatan ishonchszilik votumini joriy etish, bosh vazir taqdimiga binoan Vazirlar Mahkamasi a'zolarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanishi to'g'risidagi o'zgartirishlar taklifi bayon qilingan.

Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish boshqaruв organlarini boshqaruв obyektlariga yaqinlashtiradi, shu bilan uning aholiga yanada sifatli xizmat ko'rsatishini ta'minlaydi. Shuningdek, nomarkazlashtirish qaror qabul qilish jarayonini davlatdan mulkni xususiylashtirish, nazorat funksiyalarini qisqartirish orqali xususiy korxonalarga, hududlar va mahalliy hamjamiyat-larga ularning funksiyalarini kengaytirish va kishilar resurslar va xizmatlar olish, jamiyatni boshqarishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishni bildiradi.

O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orgali oldimizga qo'yilgan uzoq davomli milliy manfaatlarimizni hamda ularni amalga oshirish vazifalari ko'rsatib berilgan. Iqtisodiy islohotlar deganda, tub sifat o'zgarishlarni kelтирib chiqaradigan, mamlakat miqyosida bozor munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tushunilar ekan, ularni amalga oshirish hozirgi davrda moliyaviy inqirozdan kelib chiqqan muammolarni hal qilishda muhim hisoblanadi.

Xullas, milliy g'oya va O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi rivojlanishning «O'zbek modeli» va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish bilan uzviy bog'liqidir. Bu jarayon bugungi kunda nafaqat bozor munosabatlari, balki davlat qurilishi, jamiyatni demokratiyalashtirish, mulkdorlar sifini va xususan, o'rta sifni shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmlarni takomillashtirish singari bir qator keng qamrovli hayot sohalarini ham qamrab ola-di. Mazkur taraqqiyot yo'li va rivojlanish modelining qonuniyatları va xususiyatlarını chuqr o'rganish, o'z navbatida, milliy

g'oya va O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasining mazmun-mohiyutini yanada kengroq va teranroq anglashga yordam beradi.

5-mavzu. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi — faoliyatimiz dasturulamalি

Mavzuning asosiy savollari. O'zbekistonning mustaqillik yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yakunlari. Davlat hokimiyyati va boshqaruvini erkinlashtirish. Sud-huquq tizimini isloh etish. Axborot sohasini isloh qilish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash. O'zbekistonda saylov huquqi erkinligini ta'minlash va saylov qonunchiligini rivojlantirish. Fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish. Demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotini liberalallashtirishni yanada chuqurlashtirish. Ijtimoiy sohani rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Mavzuning asosiy mazmuni. Tarix saboqlariga ko'ra har bir jamiyat tarixida shunday burilish davrlar bo'ladiki, unda taraqqiyot yo'lidan borayotgan xalqlar taqdiri uchun dorilomon va muayyan rivojlanish bosqichiga xos ustuvor tamoyillar hamda dolzarb vazifalarni aniqlash hayotiy ehtiyoja aylanadi.

Bugungi davr xuddi ana shunday milliy davlatchiliginin tiklab, mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan xalqimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi uchun ustuvor yo'nalishlar va dolzarb vazifalar belgilab olinayotgan, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, mamlakatimizni eng ilg'or davlatlar qatoriga olib chiqish uchun keng imkoniyatlar ochilgan davrdir.

Avvalo ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillarda O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari ustuvor bo'lgan demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Mazkur jarayonda insonga oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'lish, uning manfaatlarini islohot-

larning asosiy mezoni tarzida tushunish muhim ahamiyat kasb etdi

Tarixan bu qisqa davr xalqimiz uchun iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarda bo'lgani kabi, mamlakatimiz va xalqimiz uchun har tomonlama rivojlanish va yuksalish davri bo'lganini bugun hech kim inkor etolmaydi. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyil va talablarga asoslangan huquqiy makon vujudga keltirildi. Mustabid tuzumning tazyiq va zo'ravonligidan jahon andozalriga mos keladigan huquqiy me'yorlar sari keskin burilish yasaldi. Mamlakatimiz qonunlarini inson huquqlari sohasidagi umum-insoniy me'yor va andozalarga muvofiqlashtirish, bu sohada milliy harakat dasturini ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish, inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo'shilishda davom etib, ular bo'yicha majburiyatlarni bajarishning samarali mexanizmi yaratildi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Konstituyasida inson va fuqarolarning huquqlari, erkinlik va burchlari kafolatlari belgilab berilgan.

Istiqlol yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanish uchun zarur iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy asoslar shakllandi.

Iqtisodiy asoslar. Bu borada, ta'kidlash joizki, eski sobiq ittifoq davridagi iqtisodiyot yangi jamiyatni shakllantirish uchun asos bo'la olmas edi. Istiqlol yillarda bu sohada nihoyatda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Yangi iqtisodiy tizim va mulkchilikning xilma-xil shakllari vujudga keldi. Bozor munosabatlari va iqtisodiy plyuralizm bunda bosh yo'naliш qilib olingan bo'lsada, aholini ijtimoiy himoyalash ustuvor jihat sifatida belgilandi. Ana shularning barchasi mamlakatimizda bu sohadagi yangilanish va zamonaviy tamoyillarni shakllantirish borasidagi tub o'zgarishlarning iqtisod bilan bog'liq asoslarini yaratish imkonini berdi.

Ijtimoiy-siyosiy asoslari. Yangi jamiyatni barpo etishning siyosiy asoslari mustahkam bo'lishi zarurligi tarixiy taraqqiyot jarayonida ko'p bor isbotlangan haqiqatdir. Bugungi kunda jahon ham-jamiyatining teng huquqli a'zosiga aylangan O'zbekistonda yangi mazmun va shakldagi siyosiy tizim hamda tuzilmalar vujudga kel-di. Xalqaro andozalarga to'la mos keladigan saylov tizimi shakl-landi, qonun ustuvor bo'lgan demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatining asoslari mustahkamlandi, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash tizimi yanada takomillashdi. Ana shularning barchasi yurtimizda islohotlarning ijobjiy natijalarini ta'minlay-digan ijtimoiy-siyosiy asoslarni yaratish imkoniyatini ochdi. Har qanday jamiyat va mamlakatda xalqning turli qatlamlari, partiyalar, milliy-etnik birliklarning ijtimoiy ongi o'zgarmasa, shu joyda yashaydigan xalq va millat o'zining pirovard maqsadlarini amalga oshirishi qiyin. Istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ana shu masalalarni uyg'un holda hal qilish bu boradagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishga imkon beradigan ijtimoiy-siyosiy asoslarni shakllantirishga yordam berdi.

Ma'naviy asoslар qonun ustuvorligi ta'minlangan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mamlakatda amalga oshayotgan ma'naviy sohadagi o'zgarishlar bu yo'nalishdagi islohotlarning tarkibiy qismidir. Xalq ma'naviyatining yuksalishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab-avaylash, kelajakka yetkazish bilan bog'liq sa'y-harakatlar bu borada katta ahamiyat-ga ega. Ayniqsa, milliy qadriyatlar, xalqimizning tarixiy xotirasi, o'tmish ajodolarimiz yaratgan boy madaniy merosdan to'la-to'kis foydalanish imkoniyati yaratilganini alohida ta'kidlash lozim. Shu bilan birga, u mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat, har bir shaxs, turli qatlam vakillarining umumiy maqsad-muddaolarini ifodalaydi. Bu esa davlatimiz siyosatining jahondagi demokratik jarayonlar, tinchlik va barqarorlik, inson huquqlari va vijdon erkinligi kabi umumbashariy qadriyatlar mazmuniga mosligini ko'rsatadi.

Ammo hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi. Shu bois, avvalo ro'y berishi mumkin bo'lgan turli falokatlar, jahon iqtisodiyotining yuksalishi va inqirozini oldindan ko'rish imkonini beradigan, har tomonlama chuqur o'ylangan, aniq maqsad va ustuvor yo'naliishlarni o'z ichiga olgan taraqqiyot dasturi va uni amalga oshirish strategiyasiga ega bo'lgan mamlakat va xalq pirovard natijada muvaffaqiyatga erishadi. Mustaqil taraqqiyotning o'tgan davrida amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilar ekanmiz, ularni haqqoniy baholash va islohotlar dasturiga ma'lum o'zgartishlar kiritish bilan birga, birinchi navbatda ertangi kun talablaridan kelib chiqqan holda, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'lidagi izchil harakatlarimizni kuchaytirishimiz, ularni yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarish zarurligi davr talabi ekanligi shubhasiz.

Ushbu masalalar har tomonlama va chuqur tahlil qilin-gan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldag'i «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni u bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasi mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy hayoti bilan bog'liq strategik maqsad va vazifalarni belgilab, islohotlarning yangi davrini boshlab bergani bilan nihoyatda muhim tarixiy ahamiyatga egadir.

Aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzARB masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi quyidagilarni nazarda tutadi:

— davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'nali-tirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalar ning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivoj-

lantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

— qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloq qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchilagini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi sumarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

— iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institusional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investisiyaviy muhitni yaxshilash orqali mam-lakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

— ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarini rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan,

adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

– ijtimoiy sohani rivojlantirish xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'yangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.

Agar xalqimizning milliy davlatchilikni tiklash, mustaqillikni mustahkamlash, va mamlakatimiz tanlab olgan taraqqiyot modelini amalga oshirish jarayoni qanday sharoitda kechgani haqidagi yaxlit va jiddiy tahliliy tadqiqotlar kamligini inobatga oladigan bo'lsak, bu Harakat strategiyasining ham ilmiy, ham amaliy jihatdan qanchalik katta ahamiyatga ega ekani yanada yaqqol ayon bo'ladi. Ushbu ma'ruza istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekistonda yangi davlat va jamiyat barpo etish yo'lida qanday amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilgani, bu ser-qirra jarayonning ilmiy-tarixiy, mantiqiy va qonuniy zamini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy omillari, har bir taraqqiyot bosqichining o'ziga xos xususiyatlari – bularning barchasini har taraflama chuqur yoritib va isbotlab berishga qaratilgan ilmiy xulosa va tahlillar bugungi kunda ham o'zining dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotmaganini yana bir bor tasdiqladi.

Shu ma'noda, mazkur tarixiy hujjatni chuqur va har tomonlama o'rganish, unda aks etgan g'oya va tushunchalarni aholining barcha qatlamlari qalbi va ongiga singdirish muhim vazifa-ga aylandi. Bunda avvalo, butun mamlakat miqyosida davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Ayni paytda davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat»

tzimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish ham ana shu sohadagi ustivor vazifalardan biriga aylandi.

O‘z navbatida, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda omma-viy axborot vositalari rolini kuchaytirish kabi yo‘nalishlar ushbu islohotlar jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi tarixiy nutqida alohida ta’kidlungan «Bizning maqsadimiz – yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdan iborat» – degan fikri ayni hayot haqiqatini ifodalaydi va Harakatlar strategiyasining mazkur sohadagi amaliyotining mohiyatini yaqqol ko‘rsatadi.

Ushbu yo‘nalishdagi yangilanishlar mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyat doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o‘tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilmalarining huquqi va nufuzini oshirishni ko‘zda tutadigan «Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak» tamoyilini samarali amalga oshirish imkonini yaratdi.

Bu odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari, davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi, ularga ko‘proq huquqlar berilishi demakdir. Nodavlat, jamoat tashkilotlarining ko‘payishi, ularning kundalik hayotimizdagi ahamiyati ortib borayotgani fuqarolik jamiyati asoslari tobora mustahkamlanib, rivojlanayotgandan dalolat beradi. Aynan shunday tashkilotlarning faolligi va mas’uliyatining ortgani, fuqarolarning ongi va tasavvurida, kundalik hayotida ular tobora ko‘proq ishtirok etayotgani «Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak» tamoyilini hayotga tatbiq etishning muhim sharti va shaklidir.

Bu haqda so‘z yuritganda, avvalo O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 28-dekabrda qabul qilingan «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi¹ Farmonini tilga olish o‘rinli bo‘ladi. Chunki bu farmon huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni barpo etishning eng muhim sharti bo‘lgan xalqning xohish irodasini, uning orzu-intilish va manfaatlarini har tomonlama hisobga olgan holda, davlat hokimiyyati idoralari faoliyatini yo‘lga qo‘yishni, xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerakligini nazarda tutadi.

Albatta, bugunga qadar ham O‘zbekistonda fuqarolarning murojaatlari bilan ishslashni ko‘zda tutadigan qonun hujjatlari bor edi. Lekin ular mamlakatimizdagi yuzaga kelgan yangi ijtimoiy-siyosiy reallik talablariga, fuqarolarning eng muhim talab va ehtiyojlariga javob bermas edi. Masalan, 2014-yil 3-dekabrda qabul qilingan «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonunda murojaatlar bilan qanday ishslash, aholining haqli talablarini qanday hal qilish bo‘yicha aniq va samarali mexanizmlar belgilanmagani uchun u to‘liq ishlamadi va kutilgan natijani bermadi. Ko‘pchilik fuqarolar bunday qonun borligini bilmas ham edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmonida esa ana shu murojaatlar bilan nafaqat ishslash va ularni hal etish mexanizmlari, balki bu borada institutsional yangiliklarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan edi. Mamlakatimizning barcha hududlarida O‘zbekiston Respublikasi Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxonasini tashkil etish, ularning huquqiy maqomi, funksional vazifalari haqidagi huquqiy normalar bu fikrning da'lilidir.

¹ «Xalq so‘zi» gazetasi, 2017-yil 3-oktyabr.

Xususan, Farmonga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni Ishlar boshqarmasining Fuqarolar qabulxonasi negizida tuzildi. Bu esa fuqarolarning Xalq qabulxonasiga qilgan har bir murojaati davlat rahbarining nazorati darajasida ko'rib chiqilishini anglatadi. Shuningdek, Farmon bilan Xalq qabulxonalari nafaqat markazda, balki Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shuningdek, har bir tuman va shaharda tuzilishi belgilanganligi keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish va xur-sandchilik bilan kutib olindi.

Shu bilan birga, jismoniy va yuridik shaxslarga murojaatlarni amalga oshirishda qulayliklar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi ham tuzildi. Unga ko'ra, fuqarolar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali mazkur virtual qabulxonaga murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Farmonga muvofiq Xalq qabulxonalari va virtual qabulxonaning asosiy vazifalari etib, aholi bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslashning sifat jihatidan yangi va samarali tizimi faoliyatini ta'minlash, fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, Oliy Majlisga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga, Hukumatga, davlat boshqaruvi organlariga, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, boshqa davlat tashkilotlari va xo'jalik boshqaruvi organlariga murojaat qilishga oid konstitutsiyaviy huquqlarining so'zsiz amalga oshirilishi uchun sharoitlar yaratiladi.

Farmonga ko'ra, mazkur jarayonlarni nazorat qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni tarkibiy tuzilmasida alohida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati ham tashkil etildi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, Farmon-

ga muvofiq barcha darajadagi Xalq qabulxonalarini xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni xodimlari hisoblanadi.

Ta’kidlash kerakki, bu tuzilmalar davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan va asoslab berilgan xalq bilan muloqot institutining eng ta’sirchan, demokratik mexanizmi va instrumenti sifatida tez orada haqiqiy xalqchil idoralarga aylandi. Bundan atigi bir necha yil oldin odamlar o‘z dardu hasratini nafaqat davlat idoralariga, balki eng yaqin do’sti, qadrdoniga aytishga ham tortinar edi. Prezidentimizning xalq bilan muloqot borasidagi amaliy siyosati, Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxona faoliyati oddiy xalqning ongu tafakkurini shunchalik o‘zgartirib, uning ijtimoiy muammolari, ayni vaqtida o‘z mahallasi, jamoasi, farzandlarining bog‘chasi, maktabiga taalluqli bo‘lgan masalalar haqida ham dadil fikrlar aytmoqda. Shuning uchun yuqorida zikr etilgan farmon ijobiy ma’nodagi ulkan ijtimoiy portlash effektiga ega bo‘lgan qonun hujjati bo‘ldi, desak adashmagan bo‘lamiz.

Mamlakatimizda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari sohasida ana shunday mustahkam huquqiy baza yaratilgani, hech shubhasiz, fuqarolik jamiyatni barpo etish jarayonlariga yangicha mazmun va sifat bag‘ishlaydi. Chunki aynan ana shunday qonunchilik poydevori fuqarolar va fuqarolik institutlarining ijtimoiy faolligini kuchaytiradi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, davlatni boshqarish sohasida ularning ishtirokini kengaytirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Haqiqatan ham, oddiy fuqaro o‘z murojaati bilan Xalq qabulxonasi yoki Virtual qabulxonaga murojaat qilib, o‘z hayoti yoki jamiyat taraqqiyotidagi muhim bir muammoni ko‘tarib chiqsa, uni hal qilishda tashabbuskor bo‘lsa, bu undagi faoliyot, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini yanada oshirishga olib keladi.

Bularning barchasi, mamlakatimizda demokratik institutlarining mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun yanada kengroq shart-sharoit yaratish, hokimiyatning konstitutsiyaviy bo‘linishi tamoyiliga qat’iy amal qilish, jamiyat a’zolarining barcha siyosiy,

ijtimoiy salohiyatini, tashabbus erkinligini va ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish uchun barcha zarur imkoniyatlar ishga solinayotganini anglatadi.

Bu o‘z navbatida, Shavkat Mirziyoyev g‘oyalari asosida mam-lakatimizda demokratiya tamoyillariga asoslangan, hech qanday siyosiy kuchning subyektiv xohish irodasiga qaram bo‘lmasdan ishni faol tashkil qiladigan, o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalqimizning olg‘a siljishiga xalaqit berayotgan illat va asoratlarni bartaraf etishga qodir bo‘lgan samarali tizimni shakllantirish jarayonini yaqqol namoyon qiladi. Ayni paytda bunday samarali tizim – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, haqiqatan ham «Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak» tamoyilini hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi va hokimiyatning uch tarmog‘i – qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatining mustaqilligini ta‘minlaydi hamda ularni amalda butun jamiyat oldidagi mas’ulligini yanada oshiradi.

Ushbu yo‘nalishda yana O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilning 12-dekabr kuni «Ahолига давлат хизматлари ко‘рсатишнинг миллий тизимини тубдан ислоҳ қилиш чора-тадбirlari to‘g‘risida»gi Farmoni va «Адлия vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi Qarorni imzolaganini alohida qayd etish lozim. Ushbu hujjatlar ga ko‘ra, Davlat organlari aholiga «Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi» tamoyili asosida xizmat ko‘rsatadi, Davlat xizmatlari markazlari 60 ga yaqin davlat xizmatlarini amalga oshiradi. Shu maqsadda 2018-yilning 1-yanvaridan barcha Xalq qabulxonalarini huzurida mazkur sohadagi davlat siyosatini amalga oshirishga mas’uliyat yuklangan alohida davlat organi – Davlat xizmatlari agentligi hududiy bo‘linmalari bilan tashkil etildi. Bu amalga oshirilayotgan islohotlarning uyg‘unligi va izchilligini ta‘minlaydi, davlat xizmatlarini sifatli bajarish uchun vakolatli organlar va tashkilotlarning javobgarligini oshiradi. Shu bilan birga, aholiga davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida boshqaruvni amalga

oshirishning aniq tashkiliy-institutsional asoslarini shakllantirish ta'minlanmoqda.

Endilikda «yagona darcha» tamoyili nafaqat tadbirkorlik sub-yektlariga, balki bevosita fuqarolarga ham xizmat ko'rsatishda amal qiladi. Davlat xizmatchilari bilan bevosita muloqot qilmasdan hamkorlikni ta'minlash aholi uchun davlat xizmatlarini korrupsiya xavfisiz tezkorlik bilan ko'rsatish imkonini beradi, fuqarolarning kundalik hayotini jiddiy ravishda yengillashtiradi, buyukrokti va sansalorlik holatlarini bartaraft etadi.

O'z navbatida Xalq qabulxonalarini va Davlat xizmatlari markazlari tuman (shahar) miqyosida yagona yaxlit faoliyat olib borib, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarali tizimini shakllantirish imkonini beradi. Davlat xizmatlari markazlari faoliyatini samarali tashkil etishdan tashqari, axborot almashinuvi bo'yicha idoralararo, eng avvalo, elektron hamkorlikning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish mazkur sohada muvaffaqiyatga erishish uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Shu munosabat bilan farmonda Davlat xizmatlari yagona re-estrini tashkil etish, davlat xizmatlarining har bir turi bo'yicha yagona ma'muriy reglamentlar ishlab chiqish, Agentlik, uning hududiy boshqarmalari va davlat xizmatlari markazlarida axborot tizimlari, resurslari, ma'lumotlar bazalari hamda dasturiy mahsulotlarni, shuningdek, apparat-dasturiy majmualarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Bu davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida «Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi» degan muhim tamoyilni joriy etish imkonini beradi. Internet va mobil texnologiyalarning faol joriy etilishi xizmatdan foydalanuvchilar davlat organlariga zarur hollarda borishlari, odatiy hollarda esa xizmatlar masofadan elektron tartibda ko'rsatilishi bilan bog'liq g'oyalarning istiqbolda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, Prezidentimiz Farmoni bilan Davlat xizmatlari markazlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, davlat xizmatla-

Shuning sonini, ayniqsa, fuqarolar uchun bosqichma-bosqich jiddiy ravishda oshirishni hisobga olgan holda xizmatdan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatiladigan bino va inshootlarni to'liq yangilashga zarurat mavjud. Shu munosabat bilan mas'ul idoralarga Davlat xizmatlari markazlarining yangi qiyofasini ishlab chiqish topshirilgan, mahalliy hokimiyat organlari esa farmon talablarini hisobga olgan holda binolarni bosqichma-bosqich yangilashni ta'minlaydi.

Davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida, shu jumladan sog'liqni muqlash, litsenziyalash, soliq, bojxona va boshqa sohalarda jadal sifat jihatidan yaxshilashning muhim mexanizmlari, shuningdek, davlat xizmatlari bo'yicha mobil ilovalarni ishlab chiqish, xizmatlarni olis joylarga chiqqan holda ko'rsatish, aholi bilan tezkor aloqalar, rasmiy veb-saytlardagi internet-botlar, ijtimoiy tarmoqlar yordamida qayta aloqaning samarali tizimini tashkil etishni nazarida tutuvchi kompleks chora-tadbirlar tasdiqlandi. Shuningdek, 2018–2020-yillarda joriy etilishiga qarab Davlat xizmatlari markazlarida «yagona darcha» tamoyili bo'yicha ko'rsatiladigan 58 ta davlat xizmatining ro'yxati tasdiqlandi. Ularning qatorida uy-joylarning suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti va boshqa muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish, y akka tartibda uy-joy qurishni amalga oshirishga ruxsatnoma, turar joyi bo'yicha ro'yxatga olish (propiska), ro'yxatdan chiqarish va hisobga qo'yish, turli arxiv ma'lumotnomalari, patentlar, gubernomalar va rasmiy hujjatlar dublikatlarini olish kabi aholining talabi yuqori bo'lgan xizmatlar mavjud.

Bularning barchasi Prezidentimiz tomonidan davlat xizmatlari ko'rsatishning mutlaqo yangi tashkiliy asoslari joriy etilayotgani, davlat va aholi o'zaro hamkorligining zamonaviy konsepsiyasiga poydevor qo'yilayotganidan dalolat beradi. 2018-yilning 29-martida Respublika Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tomonidan «Aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatish: milliy tajriba va xalqaro amaliyot» mavzuida o'tkazilgan matbuot anjumani buni yaqqol ko'rsatadi.

Ushbu anjumanda qayd qilinganidek «Davlatimiz rahbari tomonidan xalqning og‘irini yengil qilish, ularga «davlat – fuqaro» munosabatlarida qulaylik yaratish va shaffoflikni ta’minlash maqsadida davlat xizmatlari ko‘rsatishning yangi konsepsiysi ilgari surildi. Bunda asosiy e’tibor navbatda turishlarni keskin kamaytirish, sansalorlikning oldini olish, xalqning davlat idoralari dan rozi bo‘lishiga qaratildi. Bundan buyon farzandning dunyoga kelishi, bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalariga joylashtirish bilan bog‘liq hujjatlarni rasmiylashtirish kabi yumushlar ham Davlat xizmatlari markazlari orqali amalga oshiriladi. Bu nafaqat sarf-xarajatlarni, balki inson uchun qimmatli bo‘lgan vaqt ni te-jash imkonini ham yaratadi».

Ma’lumotlarga ko‘ra, hozir respublikamizdagi davlat xizmatlari markazlarida aholiga innovatsion texnologiyalar va zamon talablariga mos ravishda 37 turdagи xizmatlar ko‘rsatilib kelinmoqda. Joriy yilning birinchi apreldidan ularning soni 50 taga yetkazilishi nazarda tutilmoxda. Yana bir yangilik – davlat xizmatlari yuridik shaxslar bilan bir qatorda, jismoniy shaxslarga ham ko‘rsatiladi. O’tgan qisqa vaqt ichida tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlari tomonidan aholiga jami 46 ming 380 dan ortiq davlat xizmatlari ko‘rsatildi.

Bularning barchasi esa, O‘zbekistonni 2017–2021-yillar davomida rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida ko‘zda tutilgan ustuvor yo‘nalishlar va dolzarb vazifalarni samarali amalga oshirish uchun puxta zamin yaratilganidan dalolat beradi.

Ayni paytda bu boradagi yutuqlar va samarali natijalar Harakatlar strategiyasining yana bir muhim yo‘nalishi bo‘lgan «qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo‘naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish, yuridik

yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash» bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni bajarish uchun mustahkam asos yaratadi.

Ma‘lumki, har bir xalq erkin, farovon yashash huquqiga ega va buni aziz deb biladi. Jumladan, har bir inson ham bunday huquqqa ega. BMT tomonidan 70 ga yaqin, Yevropa Kengashi Bosh assambleyasini tomonidan 160 dan ziyod, YuNESKO tomonidan 70 dan ortiq, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti tomonidan 30 dan ko‘proq inson huquqlariga taalluqli xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilingan. Hozirgi paytda inson huquqlari bo‘yicha 400 ga yaqin xalqaro hujjat mavjud.

Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligidan kelib chiqadigan, xalqaro miqyosda qabul qilingan yangi yuridik tamoyil va talablarga asoslangan huquqiy makon vujudga keltirildi. Mamlakatimiz qonunlarini inson huquqlari sohasidagi umuminsoniy me’yor va andozalarga muvofiqlashtirish, bu sohada milliy harakat dasturini ishlab chiqish, inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish, inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo‘shilishda davom etib, ular bo‘yicha majburiyatlarni bajarishning samarali mexanizmi yaratildi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning huquqlari, erkinlik va burchlari kafolatlari belgilab berilgan.

Bugungi kunda ana shu tamoyillar asosida mamlakatimizda yuksak talabchanlik bilan olib borilayotgan sud-huquq islohotlari zamirida fuqarolarimiz huquqi, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini munosib himoya etishdek insonparvar g‘oya mujassamligi yaxshi ma’lum. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmonidan so‘ng bu masalaga yanada jiddiy e’tibor qaratila boshlandi.

Ma‘lumki, ushbu farmonda ko‘zda tutilgan bosh maqsad sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklariga rio-

ya etilishi, jinoyat protsessual va jinoyat-ijroiya qonunchiligini yanada takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash, ya'ni qonun oldida hammaning tengligini amalda namoyon etishdan iboratdir. Afsuski, o'tgan davrda fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar tomonidan qator kamchiliklarga yo'l qo'yilgani, bu holat aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'lgani biz saboq chiqarib olishimiz kerak bo'lgan achchiq haqiqatdir. Farmonda ta'kidlanganidek, jinoyat ishlarini tergov qilish va ko'rib chiqish jarayonida dalillarni toplash, mustahkamlash, tekshirish va bahoreshda qonuniylik hamda xolislikni ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi huquqiy bo'shliq mavjudligini huquqni qo'llash amaliyoti tahlili yaqqol ko'rsatdi.

Bugungi talab shundan iboratki, sud organlarining birinchi darajadagi e'tibori O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari himoyasi bo'yicha kafolatlangan barcha tartib qoidalarga, aniqrog'i, konstitutsion prinsiplarga og'ishmay amal qilish kerak bo'ladi. Qonunning bu normalariga rioya qilishdan har qanday chekinish jinoyat protsessida qonuniylikni buzish hisoblanadi. O'z navbatida, bunday xatti-harakatlar tegishli javobgarlikka sabab bo'ladi.

Farmonning 2-bandи talablariga e'tibor qarataylik. Unda «jinoyat ishtirokchilari yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qyinoqqa solish, psixologik tazyiq va qadr-qimmatini kamsituvchi muomala turlarini qo'llab» shaxsni erkin fikrlash, haqiqatni bayon etish kabi imkoniyatidan foydalanishga bosim o'tkazish yo'li bilan olingen ko'rsatuvlardan dalil sifatida foydalanishga yo'l qo'yimasligi belgilangan. Sud-tergov faoliyatini amalga oshirish jarayonida bu kabi holatlarga duch kelingan vaqtida yoki ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan shikoyatlar bo'lganda, sudyalar bu holatlarni albatta tekshirib ko'rishi, buning uchun bir qancha protsessual harakatlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi. Masalan, shaxsni hibsda saqlab turgan hibsxona ma'muriyatining

tibbiy yordam qismiga yoki shaxs murojaat qilgan tibbiy muassasiga yozma ravishda so'rovnoma yuborishi, olingan tan jarohati yuzasidan ma'lumot mavjudligini aniqlashga kirishishi kerak. Agar tan jarohati izlari saqlanib qolgan bo'lsa, bu jarohatlar yetkazilgan vaqtini aniqlash maqsadida tibbiy ekspertiza tayinlanadi.

Shuningdek, hibsda saqlanayotgan shaxs o'ziga nisbatan sodir etilgan noqonuniy harakatlar yuzasidan qaysi nazorat etuvchi organga murojaat qilganligi haqida surishtiriladi. Shuni ham aytilish kerakki, shaxsning murojaati haqiqat ekanini tasdiqlovchi birinchi belgilar sud-tergov faoliyatiga yetib kelmay yo'qolib ketgan hollar oz emas. Ayni vaziyatda sud islohotlari haqida gap ketganimda, sudning bosh vazifasi insonni jazolash emas, balki uning huquqini himoya etish ekanligi takror va takror aytilmoqda. Birroq hayotda shunday holatlar yuz beradiki, birinchi marta tergov berayotgan yoki sudlanayotgan shaxs o'zining konstitutsion huquq va majburiyatlarini yaxshi bilmasligi, huquqiy savodxonligi yetarli emasligi oqibatida advokat yoki tarjimon xizmatidan foydalanishni shart emas, deb hisoblab, o'zini o'zi qiyin ahvolga solib qo'yishi, haqiqiy holat aniqlanishini murakkablashtirib yuborishi, gohida esa dalillar yo'qolib ketishiga sababchi bo'lishi mumkin. Buning oqibatida sodir etilgan harakatlarni qonuniy baholash qiyinlashadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonining mohiyatiga ko'ra, endilikda yuqorida sanab o'tilgan holatlar amaliyotda uchragan taqdirda, ular yuridik kuchga ega bo'limgan ma'lumotlar deb hisoblanadi, jinoyat ishlarini ko'rish davrida ular dan dalil sifatida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Farmonning 5-bandida sudlarga sudlanuvchilardan dalillarni yig'ishda ruxsat berilmagan uslublar qo'llanilganligi to'g'risidagi murojaatlar kelib tushgan taqdirda ular qonun bilan belgilangan tartibda majburiy tekshirilishi shart ekanligi ko'rsatilgan. O'zlariga e'lon qilingan aybdan norozi bo'lgan, hibsda saqlanayotgan shaxslar aksariyat

holatlarda ariza va shikoyatlarini tergov izolyatori orqali sudsiga yo'llaganliklari kabi misol sud amaliyotida ko'p uchraydi. Lekin bunday arizalar sudgacha yetib kelmagan holatlar ham ko'plab topiladi. Endilikda bunday ariza va shikoyatlar prokuror tomonidan majburiy tarzda tekshirilishi mazkur farmon bilan mustahkamlandi. Bu talab-qoidalar fuqarolarimizning huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda fuqarolardan sudsiga bo'layotgan murojaatlardan ko'rinish turibdiki, aholining huquqiy madaniyati va biliomi oshib bormoqda, sud-huquq idoralariga ishonch ham mustahkamlanmoqda. Bu o'zgarishlarning asosiy omillari sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning ijrosi yuzasidan amaliy ishlar olib borilayotganida ekanligini e'tirof etish kerak. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, 2017-yilning 10 oyi davomida sudsalar tomonidan 191 nafar shaxsga nisbatan oqlov hukmi chiqarilganligi, vaholanki, ungacha oxirgi besh yilda atigi 7 nafar shaxs oqlangani Farmonning sharhida alohida ta'kidlandi. Bundan tashqari, joriy yilda dastlabki tergov organlari tomonidan reabilitatsiya va boshqa asoslar bo'yicha 3511 nafar jinoyat ishi tugatilgan.

Demak, sud mustaqilligini ta'minlash orqali fuqarolar huquqlari qonuniy himoyasini mustahkamlash borasida muhim qadamlar tashlanmoqda. Shuni ham aytish kerakki, fuqarolarmizning huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha insonparvarlik tamoyillariga asoslangan huquqiy hujjatlar yaratilmoqda. Ammo ular hayotga qanday joriy etilishi biz sud-huquq organlari xodimlarining bilimi, mahorati, qathiyatligi va xolisligiga bog'liq.

Shuningdek, bu boradagi strategik islohotlar boshqaruva sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vakolatlarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazish bilan birga, sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash hamda uni inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi institutga aylantirish imkonini yanada

ottirmoqda. Ayni paytda bu, demokratik talab va standartlariga to‘la mos keladigan mustahkam qonunchilik bazasini yaratish hamda aholining barcha qatlamlari manfaatlarini aks ettiradi-gan fuqarolik institutlari va nodavlat-notijorat tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi va ularning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirishga ham alohida e’tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Bularning barchasi, hozirgi kunda O‘zbekistonda inson huquqlari va erkinliklari ustuvor bo‘lgan demokratik davlat qu’rish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasida ulkan yutuqlar qo‘lga kiritilayotganini ko‘rsatadi. Ayni paytda bu, o‘z navbatida, «Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak» tamoyilini samarali amalga oshirish jarayonida insonga oliv qadriyat sifatida munosabatda bo‘lish, uning manfaatlarini islohotlarning asosiy mezoni tarzi-da tushunish muhim ahamiyat kasb etayotganidan dalolat beradi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida alohida ta’kidlanganidek: «Bugungi kunda O‘zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an’analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat’iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, ular dan ko‘zlangan maqsad – «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborats!»¹.

Harakatlar strategiyasi Vatanimizning zamonaviy tarixini, jamiyatimizning taraqqiyot bosqichlari, bugungi kundagi ustuvor vazifalar mohiyati va mazmunini chuqr o‘rganish, ushbu milliy tajribaning o‘ziga xos xususiyatlari va zamonaviy imkoniyatlarini

¹ O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. — «Xalq so‘zi», 2017-yil 20-sentyabr.

yanada yaqqolroq anglashda, hech shubhasiz, mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu esa o'z navbatida, xalqimiz tomonidan istiqlol yillarida bosib o'tilgan tarixiy yo'l, barcha sohalarda qo'lga kiritilgan yutuq va marralar, mamlakatimizning barqaqor taraqqiyot das turini yaqqol aks ettirgan mazkur strategiyaning ahamiyatini har bir zamondoshimiz qalbi va ongiga singdirish ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nali shiga aylanganidan dalolat beradi.

Shu ma'noda, xalqimiz tomonidan istiqlol yillarida bosib o'tilgan tarixiy yo'l, barcha sohalarda qo'lga kiritilgan ulkan yutuq va marralar, mamlakatimizning barqaqor taraqqiyot yo'nali shlari va imkoniyatlarini yaqqol aks ettirgan ushbu strategiyaning ahamiyatini har bir zamondoshimiz qalbi va ongiga singdirish bugungi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nali shiga aylandi. Bu esa aholining turli qatlamlari, ayniqsa yosh avlod tafakkurida jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish borasida barchamizning zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

6-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, inson omili va kuchli ijtimoiy siyosat

Mavzuning asosiy savollari. Istiqlolning ilk davrida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning omillariga yangi konseptual qarashlarning asoslanishi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida inson omiliga nisbatan o'zgarishlar va ularning mohiyati. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor islohotlari sharoitida inson omili. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda inson manfaatlari ustuvorligi. «Islohotlar islohot uchun emas, inson uchun» g'oyasining ahamiyati. Jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy omillariga yangicha qarash, uning nazariy-ilmiy asoslari.

Mavzuning asosiy mazmuni. Inson omili, shaxs manfaatlari muammosi hamma davrlarda hamjamiyatda adolatli taqsimot ta moyilini taqozo etib kelgan. G'arbdagi moddiy, real manfaatlar

ustuvorligi qadriyatidan farqli o'laroq, Sharq xalqlari uchun bosh qadriyat ma'naviy omillar, ayniqsa inson sha'ni, obro'-e'tibori, nafsoniyati, oriyati, vijdoni hisoblanib kelgan.

Mutafakkirlar inson omilini faollashtirishda uch asosiy tamoyil, ya'ni, ma'naviyat, ma'rifat va odob-axloq omillarining favqulodda zarurligini alohida qayd etadi. Ayni chog'da mazkur tamoyillarning o'zaro mutanosibligi, ichki uyg'unligi, oqilona me'yordarda tagsimlanish masalasi ham muhim ahamiyatga egadir.

Binobarin, o‘z taraqqiyot strategiyasini belgilab olgan O‘zbekiston demokratiyaning asl mohiyati jamiyatda adolat tamoyilini qaror toptirishdan iborat ekanini e’tiborga olsak, mamlakatimizda mazkur jihat quyidagi omillarda yaqqol ko‘rinadi: birinchidan, fuqarolarning tinchligi va millatlararo totuvlik tamoyili umumjamiyat miqyosida yalpi qaror topganida; ikkinchidan, fuqarolarning turli ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy jamiyatlarga birlashish erkinligi kafolatlangani va real amal qilayotganida; uchinchidan, ma’naviyat, ma’rifat va odob-axloq tamoyillari orqali insonning insonligini o‘ziga anglatishdan iborat umum jamiyat harakatining izchil amalga oshirilayotgani-da; to‘rtinchidan, bozor iqtisodiyotiga insonni kuchli ijtimoiy himoya qilish orqali bahamjihat kirib borish siyosatiga qat’iy amal qilinayotganida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Mazkur omillarning umumiyligi va pirovard majmuyi esa mamlakatimizda adolat tamoyilining o‘ziga xos va o‘ziga mos tantanasini ifoda etadi. Zero, demokratiya nafaqat shaxs haq-huquqlarini himoyalash, balki uning boshqalarga xalal bermay yashash, jamoaga doimiy ravishda ijtimoiy naf keltirib borish omili hamdir.

G'arb dunyosi jamiyatda ijtimoiy tenglikka erishish uchun yuz yillar davomida kurash olib bordi. Bu yo'lda ba'zan azaliy, sof insoniy munosabatlar, samimiyat,adolat, insof, uyat, hayo singari fazilatlar qurbon ham bo'ldi. Bunday kurashlar muayyan ma'naviy qadriyatlarning unutilishi, insoniylik, ezgulik singari tamoyillar ahamiyatining susayishiga olib kelganidan qat'i nazar, G'arb mamlakatlari uchun umumiy yuksak taraqqiyotga eri-

shish imkoniyatlarini tug'dirganini e'tirof etmay ilojimiz yo'q. Ayni chog'da yalpi tenglikka erishish jarayonlari oqibatida odamlararo munosabatlardagi iliqlik, ma'naviy qadriyatlar, samimiyat, ezentilik, hamdardlik singari tamoyillarning hayotdagи ahamiyati ning susayishiga olib kelganini ham inkor etib bo'lmaydi. Bungi G'arb dunyosi uchun individualizm, egoizm, konformizm, marginallik, shafqatsizlik xususiyatlari ba'zan shaxsning asosiy sifatlariga aylanib qolayotganini ommaviy axborot vositalari tashvish bilan qayd etmoqda.

Hozirgi paytda shaxsning siyosiy, iqtisodiy va ekologik jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari oshgani munosabati bilan dunyoda inson omiliga yangicha qarash tendensiyasi kuchaydi. Insonga yondashish, uni o'rganish va takomillashtirish masalalari atroflicha o'rganila boshlandi. Inson omilini faollash tirish muammosiga yurtimizda istiqlolimizning dastlabki yillari danoq ustuvor masala sifatida yondashib kelinmoqda.

Bu demografik va boshqa milliy xususiyatlarni hisobga olgan qolda kuchli ijtimoiy siyosatni taqozo qiladigan masala. Shu bois O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardanoq mamlakat Prezidenti va hukumati onalik va bolalikni ijtimoiy himoya qilish, bolalar va o'smirlarni har taraflama barkamol bo'lib o'sishi uchun, ularni umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasida shart-sharoitlar yaratish masalalarini ustuvor vazifa qilib qo'ydi. Respublika Prezidenti o'tish davrining og'ir sharoitlarida, moliyaviy imkoniyatlar cheklanganiga qaramay, aholining turmushi bilan, ya'ni uning yashashi, mehnat qiliши, yangi avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishi, sog'liqni saqlash kabi dolzarb vazifalar bilan bog'liq masalalarni davlat siyosati dajaraniga ko'tardi. Shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar fuqarolarimizning ijtimoiy jihatdan ishonchli himoyalashiga qaratilgan. Masalan, o'rta va kichik tadbirdorlikni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish natijasida jamiyatda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamga mansub odamlar keskin kamayib boradi.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat inson omili masalasida o‘z natijasini bermoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Ona va bola» dasturi, «Sog‘lom avlod uchun» harakati hamda ushbu yo‘nalishdagi faoliyatlar aholining tub manfaatiga xizmat qiladi.

Respublika aholisining yarmiga yaqinini 18 yoshgacha bo‘lgan aholi tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich Rossiya, Ukraina, Belarus davlatlari ko‘rsatkichidan 2 marta, Yaponiya va Germaniya davlatidan esa 2,5 marta ko‘p. O‘zbekistondagi bunday demografik holat XXI asrning birinchi yarmi oxiriga qadar kuzatilishi mumkin. Shuning uchun yurtimizda o‘smir va yoshlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Istiqlol yo‘lidan sobit qadam tashlab borayotgan yurtimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va ma’rifiy tizimlarni jiddiy isloq qilishga kirishildi. Islohotlar samaradorligi esa inson ongi va tafakkuridagi o‘zgarishlarga, uning intellektual salohiyatiga bevosita bog‘liqdir. Shu bois ham yangilanayotgan davr talablari asosida inson omilini faollashtirishda, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, fuqarolarni mahalliy hokimiyat organlari orqali o‘zini o‘zi boshqarishga o‘rgatish va shu yo‘l bilan fuqarolik jamiyatini barpo etish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi davrida strategik rivojlanish bilan bog‘liq yo‘nalishlar orasida iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy ma’rifiy islohotlarni amalga oshirish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi faoliyatning asosiy yo‘nalishlari Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldaagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni va u bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasida quyidagicha o‘z aksini topgan: — iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish

va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investisiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish.

Avvalo ta'kidlash lozimki, mustaqillik yillarda Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining barcha yo'nalishlari qatori, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohadagi yangilanish tamoyillarini hayotga samarali tadbiq etish uchun zarur asoslar va shart-sharoitlar shakllantirilgan.

Ma'lumki, bu borada eski sobiq ittifoq davridagi iqtisodiyot mustaqillik davriga xos bo'lgan yangi jamiyatni shakllantirish uchun asos bo'la olmas edi. Istiqlol yillarda bu sohada nihoyatda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, mamlakatimizda Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bosh vazir sifatida ishlay boshlagan 2000-yillar boshlaridan bu borada tub o'zgarishlar ro'y berdi, mutlaqo yangi iqtisodiy tizim va mulkchilikning xilma-xil shakllari vujudga keldi. Bozor munosabatlari va iqtisodiy plyuralizm bunda bosh yo'nalish qilib olingan bo'lsa-da, aholini ijtimoiy himoyalashga ustuvor jihat sifatida qarala boshlandi.

Ana shularning barchasi bugungi kunda Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizda ro'y berayotgan yangilanish va islohotlarni amalga oshirish borasidagi tub o'zgarishlarning iqtisod bilan bog'liq mustahkam asoslari yaratilganidan dalolat beradi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan 2017-yil 14-yavardagi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi «Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyati-

ning kundalik qoidasi bo‘lishi kerak» nomli ma’ruzasida qayd etilgan xulosa va ko‘rsatmalar hamda vazifalar, belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlar barcha vazirliklar va idoralar, tashkilot, korxona hamda muassasalarda dasturulamal sifatida qabul qilingib, o‘tgan davrda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu ma’ruza yakunida Prezidentimiz tomonidan bildirilgan quyidagi fikr belgilangan vazifalarni bajarishda barcha bo‘g‘in rahbarlari va mutasaddi xodimlar uchun umumiy mezon vazifasini bajaradi: «Hammamizga bir haqiqat ravshan bo‘lishi lozim: biz mavjud rivojlanish sur’atlari bilan o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak maqsadlarga erisha olmaymiz. Bugun zamon o‘zgarmoqda, uning talabi, oldimizga qo‘yayotgan vazifalari tobora ortib bormoqda. Mana shunday murakkab sharoitda «Sen – menga tegma, men – senga tegmayman» degan kayfiyat bilan ishslashning vaqt o‘tdi. Biz «vaziyat yomon, vaziyat og‘ir» deb bahona qidirishga o‘rganib qolganmiz. Lekin shu vaziyatni kim o‘zgartiradi, kim izga soladi, degan savolni, keeling, o‘zimizga beraylik. Vaziyatni o‘zimiz, o‘z aql-zakovatimiz, mehnatimiz bilan o‘zgartirmasak, hech kim chetdan kelib bu ishni biz uchun qilib bermaydi... Eng muhim vazifamiz – mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz, avvalo biz – rahbarlarning faoliyatidan rozi bo‘lishi kerak. Buning uchun har bir rahbar o‘z aravasini o‘zi tortishi, o‘z sohasidagi ishlarning ahvoli uchun o‘zi shaxsan javob berishi kerak. Shundan keyin jamiyatimizda o‘zgarish bo‘ladi, rivojlanish bo‘ladi»¹.

¹ Mirsiyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar – Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. – 52–53-betlar.

Bu borada Prezidentimizning 2017-yil 28-apreldagi PQ-2934-son Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi zimmasiga yuklangan ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'yicha belgilab bergen strategik vazifalar mamlakatimiz iqtisodini yanada rivojlantirish uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bular orasida mamlakatni qisqa, o'rta va uzoq muddatli davrda barqaror va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlashga, aholi farovonligini oshirish va uning eng muhim muammolarini hal etishga qaratilgan konsepsiylar, kompleks, maqsadli, tarmoq va hududiy dasturlarini ishlab chiqish alohida o'rinni egallaydi.

Bugungi kunda mamlakatimiz liderining ushbu Qarorda aks etgan g'oyalari asosida, jahon bozorlaridagi vaziyatni hamda butun dunyodagi global iqtisodiyot rivojlanishining uzoq muddatli istiqbollarini hisobga olgan holda, davlatimiz iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgartirishlar amalga oshirilmoqda, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlash, ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni chuqurlashtirish asosida yurtimizning eksport salohiyatini yanada yuksaltirish, iqtisodiyotning importga qaramligini kamaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilmoxqda.

Bularning barchasi mamlakatimizni istiqbolli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni isloh qilish va liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkning ustuvorligini ta'minlash, tadbirkorlarning huquq va manfaatlari himoyasini kuchaytirish bo'yicha yanada keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ayni paytda bu, respublika hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarkibi va aholi turmush darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf qilishni ta'minlaydigan hududlarni intensiv va kompleks rivojlantirish hamda ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish hamda shu asosda mamlakatimiz aholisining daromad-

lari va bandligini izchil o'stirish mexanizmining samarali ishlashini ta'minlamoqda.

Bu borada ta'kidlash joizki, hozirgi davrda butun jahon iqtisodiyotidagi turg'unlikka qaramasdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining faol sa'y-harakatlari o'tgan qisqa davrdayoq zarur natijalarni bera boshladi. Bunda, ayniqsa, O'zbekiston iqtisodiyotini yanada liberallashtirish, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar, shuningdek, valyutaning erkin konvertatsiyasi mamlakatdagi yangilanishlarning bugungi davrida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yaqin o'tgan davrda dunyoning ba'zi mamlakatlari, masalan, Xitoya Den Syaopin 1978-yildan «islohotlar hamda ochiqlik» siyosatini joriy qilgan edi. Unga ko'ra, tashqi hamkorlarga nisbatan «ochiq eshiklar siyosati» tamoyili, iqtisodiyotini liberallasshtirish, valyutaning erkin konvertatsiyasi hamda maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning tamal toshi bo'lgani ma'lum. Bu borada aynan ushbu yo'nalishlar, ayniqsa, maxsus iqtisodiy zonalar keyingi o'ttiz yil davomida Xitoya yalpi ichki mahsulotning ikki xonali raqamlarda o'sishiga imkon berdi. Xuddi shunday, O'zbekistonda tashkil qilin-gan maxsus sanoat va iqtisodiy zonalar ham o'z samarasini be-ra boshladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston lideri tomonidan amalga oshirilayotgan eng muhim o'zgarishlardan yana biri jamiyatimiz hayotining barcha sohalari qatori, iqtisodiyot jabhasidagi islohotlarning shaffofligi, ularga keng xalq ommasining bevosita daxldorligi ta'minlanayotganidir. O'z navbatida bu, mazkur yo'nalishdag'i barcha davlat hokimiyati va tashkilotlari, ularning tarkibiy bo'linmalari ishlarining usul va shakllarini tizimli asosda doimiy takomillashtirish, amaliy faoliyatda byurokratizm va sansalorlikka yo'l qo'ymaslik, fuqarolar murojaatlariga o'z vaqtida javob qaytarish, ularning huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha mas'uliyatini yanada oshirishga asos bo'lmoqda.

Buni birligina, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan 2017-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlash-tirish borasida amalga oshirilgan ishlar yakuni haqidagi quyidagi ma'lumotlar ham yaqqol tasdiqlaydi: yil davomida butun respublika bo'yicha 67 trln. 208 mld. so'mlik (2016-yilda 50,2 trln. so'm) yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarilib, o'tgan yilga nisbatan 101,9 foizlik o'sishga erishilgan. Boshqoli don ishlab chiqarish 8 mln. 116 ming tonnani (2016-yilga nisbatan 98,2 %), sabzavot ishlab chiqarish 11 mln. 434 ming tonnani (101,4 %), kartoshka 3 mln. 15 ming tonnani (101,9 %), poliz 2 mln. 95 ming tonnani, meva 3 mln. 76 ming tonnani, uzum yetishtirish 1 mln. 749 ming tonnani tashkil etdi. Chorvachilik sohasida ham barqaror o'sish ko'rsatkichlari ta'minlandi. Jumladan, go'sht yetishtirish 2 mln. 281 ming tonnani, sut yetishtirish 10 mln. 83 ming tonnani, tuxum ishlab chiqarish 6 mld. 605 ming donani tashkil qildi. Qishloq va suv xo'jaligi tizimida taqqlaslama baholarda 52 mld. 515 mln. so'mlik (2016-yilga nisbatan o'sish 108,1%) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi, davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 443 mld. kapital mablag'lar ajratilib, 464,1 mld. so'mlik kapital qurilish ishlari bajarildi. 2017-yilgi Investitsiya dasturi doirasida Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimida Respublika Hukumati kafolati ostida 13 ta loyiha bo'yicha ishlar amalga oshirishi rejalashtirilgan bo'lib, mazkur loyihalar doirasida yil yakuni bilan rejalashtirilgan 181,5 mln. dollar o'rniga amalda 198,8 mln. dollar investitsiya mablag'lari o'zlashtirildi va prognoz ko'rsatkichlar 109,5% ga bajarilgan. «Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi» bo'yicha 2017-yilda jami 455,0 mld. so'mlik (2016-yilda 428 mld. so'm) byudjet mablag'lari o'zlashtiriliishi rejalashtirilib, hisobot davrida ushbu mablag'lar to'liq o'zlashtirildi va keng miqyosda melioratsiya tadbirlari amalga oshirildi.

Bularning barchasi bugungi kunda Prezidentimiz rahbarligida qishloq xo'jaligida ro'y berayotgan yangilanish va islohotlarni amalga oshirish borasidagi tub o'zgarishlarning amaliy natijalari samarali bo'layotganidan dalolat beradi.

Ayni paytda, aholining yashash va ishlash shart-sharoitlarini yaxshilash, qishloqlarning qiyofasini yangilash, ularni zamon tahlilari darajasiga ko'tarish borasida ham tizimli ishlar tashkil etildi. Junladan, bu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagи «Obod qishloq» dasturi to'g'risida»gi Farmoni va «Obod qishloq» dasturini 2018-yilda amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori hamda ular bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar buning yaqqol dalilidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan va amalga oshirilayotgan ushbu hujjatlarda «...qishloq aholi punktlarining me'moriy qiyofasini tubdan yangilash, hududlarni kompleks rivojlantirish, yo'l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish hamda shu asosda aholining turmush madaniyatini yuksaltirish» bilan bog'liq ko'plab dolzarb vazifalarni bajarishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Prezidentimizning mazkur Farmoni va Qaroriga ko'ra, 2018-yilning 1-apreldidan boshlab respublikaning har bir tuman va shaharida, avvalo, olis va tabiiy iqlim sharoiti og'ir hududlarda 2018-yilda 2 tadan va kelgusi yillarda 3 tadan qishloqda (mahallada) aholining yashash sharoitlarini bosqichma-bosqich tubdan yaxshilash, turmush tarzi va darajasida sezilarli ijobjiy o'zgarishlarni ta'minlashga, mazkur qishloqlarning (mahallalarning) qiyofasini zamonaviylashtirishga va qishloq aholisi uchun ish joylarini yaratishga qaratilgan «Obod qishloq» dasturi amalga oshiriladi. 2018-yilda mamlakatimizning 174 ta tumanidagi 368 ta mahalla fuqarolar yig'ini hududlarini kompleks ravishda yangilash chora-tadbirlari qabul qilingan dasturning ustuvor maqsadlari sifatida belgilangan. Dasturda, ayniqsa, 127143 ta uy-joyni ta'mirlash, ularning tomini, tashqi ko'rinishi, yon-atrofini obodonlashtirish ishlari alohida o'rinnegallagan.

Bu borada Prezidentimizning Farmoni va Qarorida ko'zda tutilgan ushbu ustuvor yo'nalishlar bilan birga ijtimoiy ahamiyatiga ega xizmatlarni tubdan yaxshilash «Obod qishloq» dasturining

asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda bolalar bog'chasi, maktab, oilaviy poliklinikalar va shu kabi boshqa jami 736 ta ijtimoiy soha obyektini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari bajarilib, laboratoriya va zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanadi. Albatta, joylarda bozor infratuzilmasi obyektlari va servis shoxobchalarini, jumladan, hammom va kichik bozor shoxobchalarini tadbirkorlik asosida bunyod etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Dasturni amalga oshirish vazifalariga to'xtaladigan bo'lsak, birgina joriy yilda dastur doirasida nazarda tutilgan ishlarga barcha manbalar hisobidan 3 trillion 40 milliard so'mdan ziyod mablag'lar ishonchli va muntazam ravishda yo'naltiriladi. Dasturda o'z aksini topgan yo'nalishlarni amalga oshirish yuzasidan tegishli loyiha-smeta hujjatlarining me'moriy va texnik yechimlari asosida puxta ishlab chiqilishini ta'minlash maqsadida 189 dan ortiq tajribali va malakali loyiha instituti jalb qilinishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «Obod qishloq» dasturining qabul qilinishi va hayotga izchil tatbiq etilishi qishloq joylari va mahallalarni obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish, xalqimizning bu boradagi ezgu an'analarini izchil davom ettirgan holda barcha hududlarda keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarini bajarish orqali qishloq aholisi uchun munosib sharoitlar yaratish va ularning turmush madaniyatini yanada yuksaltirish, eng asosiysi, barcha fuqarolar, ayniqsa yoshlarni xayrli ishlarga da'vat etishga xizmat qiladi.

Bu yo'nalish Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni va u bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasida quyidagicha o'z aksini topgan: «... ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-trans-

port, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish».

Ushbu yo'nalishda mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridanoq samarali faoliyat yuritish tajribasi shakllangani ma'lum. Zero, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida aholining himoyaga muhtoj qismini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning kafolatli tizimi yaratilmas ekan, bu og'ir ijtimoiy mushkulotlarga olib kelishi mumkin edi. Shu sababdan, ijtimoiy sohaga e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyati xalqaro ekspertlar tarafidan aynan «ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish» deb nomlangani ham bejiz emas.

O'tgan yillarda mamlakatimizda aholining muhtoj qatlama va guruhlariga moddiy yordam ko'rsatishning o'ziga xos miliy mechanizmi ishlab chiqildi, ijtimoiy muhofaza qilishning samarali tizimi shakllandidi. Buni adolatli amalga oshirishda qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlarining mas'uliyati oshirildi. Inflyatsiyani inobatga olgan holda har yili bir davlat byudjetidan ajratiladigan maoshlar, pensiya va stipendiyalar oshirib borilyapti. Muhtoj qatlama va guruhlarga nodavlat va jamoat tashkilotlari tarafidan moddiy yordam ko'rsatishning ham turli-turli shakllari paydo bo'ldi va bu jarayon tobora takomillashib bormoqda.

Bugunga kelib mamlakatimiz o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga kirdi. Ijtimoiy siyosat borasida istiqlol yillaridagi katta tajribalarga suyangan, mavjud an'analarni izchil davom ettirgan holda yangi-yangi qadamlar tashlanyapti. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida»gi Farmoni bilan 94 nafar shaxs davlatimiz fuqarosi bo'ldi. Undan keyin qabul qilingan bir necha farmonlar asosida yana qanchadan-qancha

kishilar fuqarolikka o'tdi. Bu ham mamlakat tarixida muhim ijtimoiy voqelik sifatida baholanadi, albatta.

«2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident Farmoyishida bu borada ham hozirgacha amalga oshirilgan muayyan ishlar sarhisob qilindi. Jumladan, ijtimoiy sohadagi eng muhim ishlar ham o'z aksini topgan. Unda qayd etilishicha, «faqatgina joriy yilning birinchi yarmida 2,7 ming kilometr avtomobil yo'llari qurildi va ta'mirlandi, 84 ming 300 ta ish o'rni yaratildi. 2017–2020-yillarda shaharlarda energiya jihatdan samarador arzon ko'p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturi amalga oshirilmoqda, uning doirasida 50 ming 286 ta xonadondan iborat 1 ming 136 ta ko'p qavatli uylarni, bundan tashqari, namunaviy loyiha asosida qishloq joylari da 75 ming turar joylarni qurish mo'ljallangan».

Agar Harakatlar strategiyasi qabul qilingandan buyon o'tgan davrga nazar tashlasak, bu borada ana shu qisqa fursat ichida mamlakatimizda qanchalar katta ishlar hayotga tatbiq etilgанин guvohi bo'lamiz. Buning uchun ana shu to'rtinchi ustuvor yo'nalish hisoblanmish ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha belgilangan yetti vazifaning ijrosi yuzasidan qilingan ishlarga yana bir karra nazar tashlashga to'g'ri keladi.

Aholi bandligi va real daromadlarni izchil oshirib borishni olib ko'raylik. 2017-yilda bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtiri va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (24.05) Farmoni qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar nati-jadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksni hududiy organlari rahbarlarini shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» (06.05),

• Kasanachilikni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (24.05), «Madaniyat san‘at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘srimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida» (14.08), «2018–2019-yillar, turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida» (16.08) va boshqa Qarorlari chiqdi.

Ayniqsa, aholi ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha ham ko‘p ish qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (16.03), «Uyjoy communal xizmat ko‘rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (18.04), «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи huzurida Ichimlik suvidan loydalanishni nazorat qilish davlat inspekteziyasini tashkil etish to‘g‘risida» (18.04), «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» (21.04), «Davlat veterinariya xizmati boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (01.06) va boshqa Farmonlari qabul qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (01.04), «Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida» (04.04), «Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (04.04), «2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko‘rsatishni takomillashtirish chora-tadbir to‘g‘risida» (04.04), «2017–2021-yillarda ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida» (20.04), «2018–2022-yillarda issiqlik ta‘minoti tizimini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida» (20.04), «2017–2021-yillarda ko‘p xonodonli uy-joy fondini saqlash

va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (24.04), «2017–2021-yillarda yer osti suvlari zaxiralardan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (04.05), «Toshkent shahri aholisiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish hamda uning samaradorligi uchun rahbarlar va mutaxassislarning kasbiy mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (06.06), «O‘zbekiston Respublikasi aholisiga 2017–2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (20.06), «Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta‘minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» (17.07) boshqa Qarorlari hamda «Nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (01.08) Farmoyishi chiqdi.

Arzon uy-joylar barpo etish mamlakatimizda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan ishlarning insonparvarligini ko‘rsatib turibdi. Uy-joylar arzon narxlarda qurilsa, uni sotib oluvchilar soni ko‘payadi. Eng muhim, bu birinchi galda aholining uy-joyga o‘ta muhtoj qatlaming manfaatlarini o‘ylagan holda yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi paytda mamlakatimiz barcha mintaqalarida ikki sotixli namunali qishloq uylarini, shuningdek, ikki-uch xonali ko‘p qavatli uylarni qurish jadal davom ettirilyapti.

Bu borada jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan mahallalarning o‘rni va o‘zini o‘zi boshqarish tartibini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ijtimoiy himoyani yanada kuchaytirish, yangi bosqichga ko‘tarish obyektiv ehtiyoj bo‘lib qoldi. Shu munosabat bilan yalpi ijtimoiy himoyalash tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini aniq maqsadli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga izchillik bilan o‘tish maqsadga muvofiq deb topildi.

Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti o‘zining mohiyati e’tiboriga ko‘ra odamlarning individuallashuvini talab etadi, ayni chog‘da inson

imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish asnosida uning ijtimoiy, siyosiy faolligiga ham yo'l ochadi. Bozordagi talab va taklif jayronlarida mavqeni qo'ldan bermaslik ehtiyoji ham o'z navbatida odamlarning jo'shqinligi va harakatchanligini doimiy ravishda taqozo etib turadi.

Istiqlol tufayli odamlarning o'z taqdirini o'zi belgilash imkoniyatlariga ham keng yo'l ochildi. Shu yo'nalishda odamlarning individual ravishda kamolotga, farovonlik va to'kinlikka intilish xususiyatlari ham ravshan namoyon bo'la boshladi. Ayni chog'da shuni ham tan olish joizki, jamiyatimizdagi ba'zi odamlar ijtimoiy-ma'naviy, intellektual yangilanishlar jarayonlarida yetarli darajada faol ishtirok etmayapti. Buning asosiy sabablari quyidagilar: birinchidan, odamlarda sobiq tuzum asoratlari, eski-cha fikrlash tarzining saqlanib qolayotgani; ikkinchidan, odamlarda tashabbuskorlik, yangi-yangi faoliyatlarni boshlab yuborishdan cho'chish, hadiksirash tuyg'usining mavjudligi; uchinchidan, yangi faoliyatni boshlash uchun bilim va malakaning yetishmasligi, xorijiy tillarni bilmaslik va zamonaviy aloqalarga kirishish vositalari, turli kommunikatsiyalar tizimlariga bog'lanib harakat qilish ko'nikmasining yetishmasligi; to'rtinchidan va eng taassuflii ana shu kamchiliklarni tez bartaraf etib, amaliy ishga kirishtirish borasida shioqatning sustligidir.

Islohotlar davrida insonlarning yangiliklarga intilishi, ularni tezkorlik bilan o'zlashtirishi, ijtimoiy-siyosiy faolligi, ijodkorlik, yangi, ozod odamlarga xos fazilatlar, me'yorlar va bilimlariga egaligi, mehnat va ijtimoiy malakalari, uzoqqa mo'ljallangan strategik, maqsadlarni ko'zlab yashashi va ishlashi katta ahamiyat kasb etdi. O'tish davrida inson omilini kuchaytirish kompleks holda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jabhalarda amalga oshirildi. Inson omilini rivojlantirish uchun ma'naviyat va ma'rifat tizimi orqali jamiyatni demokratlashtirish, jamiyatda o'zini o'zi boshqarish tamoyilini kuchaytirish, eng avvalo, odamlarning davlat qarorlarini ishlab chiqish, qabul qilish va bajarishda bevosita va bilvosita ishtirok etishiga; ular tomonidan o'z manfaatlari va mil-

lat manfaatlari uyg‘unligini to‘g‘ri tushunishga; halol va vijdongan mehnat qilishning axloqiy asoslarini shakllantirish, o‘z bilim va malakalarini tobora oshirib borishga yo‘naltirish lozim.

Inson omili har bir odamning imkoniyat va salohiyatini oshirish demakdir. Bu esa har bir kishiga xos biologik, psixologik va intellektual jihatlarni kuchaytirishni taqozo qiladi. Buning uchun ushbu jarayon pishiq va poydevor bo‘lishi, bir marotabaliq tadbir bo‘lib qolmasligi kerak. Shuning uchun u ilmiy asosga qurilmog‘i kerak. Ya’ni, inson omilini takomillashtirishning nazarini, empirik asoslarini yaratish, o‘zbekistonliklarning ijtimoiy va mehnat faolligini, ularni jamiyatni boshqarishga real jalg qilishning ijtimoiy mexanizmlarini ishlab chiqish, shaxs manfaatlarini ifodalashning oshkoraligini ta’minalash zarur.

Shaxs faol bo‘lmasa, millatimiz oldida turgan bironta ulkan vazifa amalga oshmaydi. Inson omili va uning ahamiyati, milliy taraqqiyotdagi o‘rni, deganda nimalar nazarda tutiladi? Bular odamlarning o‘z faoliyatida, munosabatlarida namoyon bo‘ladigan quyidagi sifatlardir: odamlarning kayfiyati; tuyg‘ulari; odatlari va ijtimoiy mo‘ljallari; qadriyatları; nima (kim)larga taqlid qilishi; e’tiqodi; qobiliyatları; tevarak-atrofga munosabati; odamlar orasidagi munosabatlar; jamoadagi ma’naviy muhit; bilimlari va boshqalar inson xarakteri asrlar davomida stixiyali shakllanib keldi. Bu hol yana shunday davom etaversa, unda islohotlarning eng muhim maqsadi — inson omilini faollashtirish samaradorligi kutilgan darajada bo‘lishi qiyin kechadi. Iqtisodiy, siyosiy islohotlar olg‘a ketib, inson omili esa ortda qoladi. Oqibatda kuchli davlatga zarurat saqlanib qolib, jamiyatni kuchaytirish imkoniyati susayadi.

Jahon tajribasida inson omiliga tayanish ulkan yutuqlar sharti sifatida o‘zini oqlagan. 1934-yili Genri Ford butun Amerika xalqiga qarata «Men shu paytgacha asosiy urg‘uni texnika omiliga berib kelgan edim, endi e’tiborni inson omiliga qarataman» degan edi. Ford ishchilar o‘rtasidagi tartib-intizom orqali samaradorlikni yaxshilashga urinib, mehnatkashlarning ishdan bo‘sh paytlarida ham ularning muammolari bilan qiziqib, o‘z faoliya-

ti ko'lamin kengaytirdi. U «besh dollarlik kuch» usulini ishlab chiqarishga keng joriy etishga harakat qildi. Unga ko'ra, o'z professional va shaxsiy fe'l-atvorlarini o'zgartirgan ishchilar ko'proq ish haqi ola boshladi. Ishchilarning mukofot va zayomlar olish imkoniyatlari ularning ratsional turmush tarzi yuritishiga bevosita bog'liq bo'lib, alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishlari mumkin qadar cheklanishi shart edi. Kompaniya hatto ishchilarning turmushini monitoring qilib borish uchun o'zining «sotsiologiya bo'limi»ni joriy qiladi. Fordizm usuli Fransiya, Italiya, buyuk Britaniya, keyinchalik Yaponiyaga ham kirib bordi. «Toyota» firmasini ham mashhur qildi. Shuningdek, taraqqiy etgan mamlakatlar erishgan muvafaqqiyatlar inson omili yadro xavfining oldini olish, terrorchilik, SPID, giyohvandlik kabi umuminsoniy, milliy darajadagi muammolarni hal etishda ham jiddiy rol oynashini ko'rsatadi. O'zbekistonda ana shu tamoyil ham umummilliylar miqiyosda sobitqadamlik bilan amalga oshirilayotgan ekan, milliy modelimiz inson omili masalasi iqtisodiyot, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, demografiya, fiziologiya, meditsina, menejment, texnik fanlar tarmoqlarining yangi, maxsus, umumiyy obyekti sifatida o'rganishiga, ham keng yo'l ochib beradi.

Shu bois taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida inson omiliga alohida e'tibor berilayotgani, butun jamiyatimiz uchun umummilliyl dastur vazifasini bajaradigan, yuqorida aytilgan inson omilini faollashtirish xizmatini yaratish uchun asos bo'ladigan g'oyani ro'yobga chiqarishda bir qator amaliy ishlarni taqozo qilgani barchamizga ayon. Shuningdek, jamiyatda sog'lom raqobat muhitini qaror toptirish, milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, jamoat tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi mavjud g'oya va qarashlar inson omilidan samarali foydalanishga qaratilgan. Boshqacha qilib aytganda, inson omilini faollashtirish tamoyili har bir o'zbekistonlikni uning o'z aqli, shijoati, g'ayrati va salohiyatini ishga solgan holda boy va farovon, baxtli va saodatli qilish mumkin degan sa-

volga javob topib, unga erishish amaliyotini yo'lga qo'yishni ifodalaydi. Binobarin, inson omili ijtimoiy taraqqiyotga ergonomik uslubda intilish mohiyatini o'zida aks ettiradi. Inson omilining faollashuvi shu tariqa fan va amaliyot, siyosat va hayot haqidagi nazariy qoidalarni hayotga tez va soz joriy qilishga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston bosib o'tgan mustaqillik davrda bozor islohotlari ma'lum darajadagi bir qancha hal qilish lozim bo'lgan ijtimoiy muammolarni keltirib chiqardi. Bu o'z navbatida, bir siyosiy va iqtisodiy tizimdan ikkinchisiga o'tishning o'zi yangi ijtimoiy muammolarni tug'dirishi mumkinligini isbotladi.

Istiqlolning dastlabki yillarda mamlakatni modernizatsiyalash va iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, pul muomalasi barqarorligini ta'minlash, iste'mol narxlarining keskin o'sishiga barham berish, aholini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan choralarни aniq belgilash, ayniqsa kishilar uchun qaror topgan turmush tarzining buzilishidan, hayotiy mo'ljallarning, fikrlash tarzi, ijtimoiy fe'l-atvor, boqimandalik kayfiyatining o'zgarishidan saqlash borasida ijtimoiy muammolar ko'lami vujudga keldi. Bunday muammolarni yengishda yoki barham toptirishda davlatning roli juda muhim hisoblanadi. Shu boisdan ham O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga asos qilib olingan yetakchi tamoyillardan biri kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iboratdir.

Davlat kuchli ijtimoiy siyosat olib borar ekan, uning asosiy yo'nalishlari quyidagichadir:

- davlatning ijtimoiy iste'mol fondlarini tashkil etish va ularidan jamiatning har bir a'zosining foydalanishni kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilishi;
- davlatning markazlashgan ijtimoiy sug'urta fondini tashkil etishi;
- ko'rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar;
- Ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi;

- ko‘p bolali oilalarga to‘lanadigan nafaqalar;
- kam ta‘minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko‘rnatish;
- bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo‘qtug‘unlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;
- talabalar uchun to‘lanadigan davlat stipendiyalari;
- ishsizlik nafaqasi;
- eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarini belgilangan narxlarda sotilishini ta‘minlash;
- ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjet hisobidan qoplash;
- ijtimoiy sohaning eng muhim tarmoqlari (sog‘liqni saqlash, ta‘lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash shular jumlasidandir.

Xalqimiz orasida mustaqillikning dastlabki yillarda chinakam mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. O‘tgan davr ichida esa Respublika iqtisodiyotida xususiy mulkdorlar shakli to‘liq shakllandidi va iqtisodiyotning barcha sohalarida keng faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti tizimida maxsus himoya va kafolotlardan asosan mehnat layoqati cheklanganlar foydalandilar, ya’ni nafaqaxo‘rlar, kasalmandlar yoshlar va ishsizlar uchun alohida imtiyozlar yaratildi va qonunchilik bu toifa kishilarning manfaatlarini himoya qildi. Davlat bosh islohotchi bo‘ldi. Ammo bu o‘rinda yana shunday bir muammo kelib chiqdi, ya’ni davlatning iqtisodiy jarayonlarga haddan tashqari aralashushi, qanday yo‘lda, maqsadda qilinmasin, baribir iqtisodiyotning samaradorligini pasaytirishga olib keldi. Chunki, bozor iqtisodiyotining shakllanishi ikki subyektning erkin bozor va uni davlat tomonidan tartibga solish o‘rtasidagi nisbatning optimal bo‘lishini talab qiladi.

Boshqa mamlakatlarning tajribasiga ko‘ra bozor munosabatlariiga qiyinchiliklarsiz va ijtimoiy ziddiyatlarsiz, silliqqina o‘tib bo‘lmaydi. Shu sababli bozor iqtisodiyotini joriy etishdan avval odamlarni ijtimoiy himoyalash bo‘yicha kuchli ehtiyyot chora-tad-

birlari oldindan ko'rib qo'yilishi kerak edi. Shuning uchun ham bozor iqtisodiyotiga o'tish davridan boshlab O'zbekistonda barcha aholini oldindan ijtimoiy himoyalashga e'tibor kuchaytirildi.

Hukumat vaziyatni nazorat qilish va ijtimoiy sohani mustahkamlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni ko'rishi tufayli odamlarning turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldi olindi, bu Respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlash omili bo'ldi.

Iqtisodiy ahvol murakkab bo'lishiga qaramay, moddiy va moliyaviy imkoniyatlar cheklangan sharoitda ham doimo ijtimoiy ahamiyatga loyiq bo'lgan eng muhim vazifalarni hal etish uchun zarur vositalar qidirib topildi. Islohotlarning butun birinchi bosqichi davomida ijtimoiy xarajatlar Respublika byudjetining salkam uchdan bir qismini tashkil etdi. Bunda aholini ijtimoiy himoya qilishning asosiy chora-tadbirlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- narxlarning erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi hisobga olingan holda daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasi muntazam oshirilib borildi;
- Respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va nooziq-ovqat mollari asosiy turlari itste'molini muayyan darajada saqlab turishga harakat qilindi;
- aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faol ijtimoiy siyosat o'tkazildi.

Bu borada mamlakatimizda ijtimoiy himoyalashni asosiz tenglashtirish tizimidan qat'ian voz kechilib, sharqda necha ming yillar davomida qaror topgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga, turmush tarzi va dunyoqarash xususiyatlariga muvofiq keladigan yo'l tanlab olingani muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shunga binoan aholini ijtimoiy himoya qilish mazmun-mohiyati tubdan o'zgartirildi. Ijtimoiy ko'mak berishning mutlaqo yangi ilg'or tizimi shakllantirildi. Bu esa ijtimoiy islohotlar sohasidagi o'zgartirishlarning eng muhim yutuqlaridan biri ekanligi shubhasiz.

7-mavzu. O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillari

Mavzuning asosiy savollari. Millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik – mamlakat taraqqiyoti va barqaror rivojlanish omili. Istiqlol davrida milliy hamjihatlik, dinlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish va bag‘rikenglikni ta’minlash jarayoni. Hozirgi davrda mamlakatimiz milliy siyosatining asosi tamoyillari va ustuvor yo‘nalishlari. Jamiyatimizning bugungi taraqqiyotida din omili va bu boradagi yangilanishlar jarayoni.

Mavzuning mazmuni. Har qanday jamiyat hayotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri turli millat va elat vakillari, xilma-xil dinga mansub kishilar o‘rtasida birlik va hamjihatlik muhitining mavjudligidir. Ayni paytda, muayyan mamlakatda hukm surayotgan do‘stlik, fuqarolar totuvligi yurtning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlaydi, bir makon va bir zamonda xilma-xil millatlarga mansub hamda turli dinga e’tiqod qiluvchi fuqarolarning bir butun xalq sifatida hayot kechirishining muhim shartiga aylanadi.

Shu jihatdan, amaliyotda milliy hamjihatlik bilan birga dinlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish va bag‘rikenglikni ta’minlash alohida e’tiborni talab qiladi. Jamiyat ma’naviy muhitida ushbu bebaho nehmatning qadriga yetish va bu borada amalgaloshirilishi zarur bo‘lgan barcha vazifalarni sidqidildan ado etish, shu Vatanda yashab, shu zamindan bahramand bo‘layotgan har bir fuqaroning, demakki, barchamizning muqaddas burchimiz ekanini anglatish kabi g‘oyalalar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda Yer yuzida 7 milliarddan ziyod kishi yashaydi. O‘zbekiston hududida 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda. Bu borada mavjud davlatlar ko‘p millatli (polietnik) va bir millatli (monoetnik) tarkibga ega bo‘lib, har biri o‘ziga xosligi bilan bir-biridan farq qiladi va har bir mamlakat-

da turli millat vakillarining mayjudligi azal-azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etadi. Har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham bor. Umumiy qadriyat va xususiy manfaatlar bir-biriga zid kelib qolishi yoki uyg'un bo'lishi mumkin. Bunday masalalarni tartibga solishda muayyan mamlakatdagi milliy siyosat muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha zamonlar va davlatlar uchun dolzarb bo'lgan bu masha-bizning mamlakatimiz uchun ham juda muhim. O'zbekiston hududida qadimdan ko'plab millat va din vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelgan. Ular o'rtaida asrlar davomida milliy va diniy nizolar bo'limgani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, butun Yer yuzidagi ikki mingga yaqin xalq va millatdan bor-yo'g'i 200 ga yaqini o'z davlatchiligiga ega, xolos. Bunday sharoitda butun dunyoda millatlararo totuvlikni ta'minlash uchun, ularning manfaatlari, ruhiyati, intilishlarini muttazam o'rganib borish, siyosiy-ijtimoiy hayotda buni doimo e'tiborga olish zarurligi allaqachon isbotlangan. Ayni shu nuqtayi nazardan, «Millatlararo totuvlik» tushunchasi insoniyat taraqqiyotining muhim sharti, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash omili, muayyan hudud yoki davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalaydi.

Bu o'z navbatida, mamlakatning taraqqiyoti va dunyodagi obro'-e'tibori, avvalo, tinchlik-osoyishtalikka, shu yerda yashayotgan barcha millat va elatlarning totuvligiga bog'liqdir. Shuning uchun ham respublikamizda mustaqillikning birinchi kundalaridanoq millatlararo munosabatlarga alohida e'tibor berildi. Eng muhimi, biron-bir kishi millati, irqi, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, jamiyat hayoti, taraqqiyoti, islohotlar jarayonidan chetda qolmasligi, aksincha, bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishiga erishish masalasi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi.

Mamlakatimiz milliy siyosatining asosi va ustuvor yo'nalishlari mamlakatimiz Konstitutsiyasida, davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risidagi Deklaratsiyada, davlatimiz qonunlarida

o‘z ifodasini topgan. Respublikamiz Konstitutsiyasida, «O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», deya ta’kidlangan. «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunda esa, barcha fuqarolarga ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqeい, irraqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma‘lumoti, tili, denga munosabati, mashg‘ulotining turi va xususiyatidan qat’i nazar, teng saylov huquqi belgilab qo‘yilgan.

Bu borada O‘zbekiston xalqi davlat hokimiyatining birdan-bir manbai bo‘lib xizmat qilishi Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan. «O‘zbekiston xalqi» tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo‘lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, do‘stlik va hamjihatlik uchun ma’naviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Bundan tashqari, Konstitutsiyamizda «O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an‘analarining hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi», deb ta’kidlangan.

Hozirda respublikamizning qator oliv o‘quv yurtlarida qardash tillarda faoliyat ko‘rsatayotgan fakultetlar va bo‘limlar, kurslar, maktablar ana shu siyosatning yana bir real ko‘rinishi, amaliy ifodasidir. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, bugun o‘quv yurtlarida 35 millatga mansub professor-o‘qituvchilar farzandlarimizga dars bermoqda. Ushbu oliv o‘quv yurtlari rahbarlari tarkibini esa qariyb 20 ga yaqin millat vakillari tashkil etadi. Oliy o‘quv yurtlarida 53 millatga mansub talabalar tahsil olmoqda. Ularning talabalar umumiyligi tarkibidagi ulushi 21,2 foizga teng bo‘lib, qator oliygoohlarda boshqa millat vakillarining salmog‘i bundan ham yuqori, ya’ni 32–45 foizni tashkil etadi. Shunisi alohida diqqatga sazovorki, respublikamizda ta‘lim o‘zbek va qoraqalpoq tillaridan tashqari, rus, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman tillarida ham olib borilmoqda.

Bunday misollarni teatr va boshqa shakllardagi badiiy-ijodiy uyushmalar faoliyatida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Ana shu uyushmalarning taxminan 25 foizida 20 ga yaqin turli millat va elat vakkilari o‘z ijodiy imkoniyatlarini namoyish etayotgani, milliy-madaniy qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish yo‘lda xizmat qilayotgani fikrimiz dalilidir.

Faqat bugina emas, mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari ham o‘zining ko‘p tillilik xususiyatini saqlab qolmoqda. Bunguni kunda nashr etilayotgan gazetalarning 70,4 foizi o‘zbek, 29,6 foizi boshqa milliy yoki aralash tillarda, jurnallarning 45,5 foizi ham milliy, ham aralash tillarda chop etilmoqda. Gazetalar umumiy sonining 54,4 foizi, jurnallarning 78,1 foizi mustaqillikka erishganimizdan keyin tashkil etilib, nashr qilina boshlangani milliy istiqlol siyosatining ma’naviyat sohasidagi o‘ziga xos salmoqli natijalarini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va xususiy studiyalar o‘zbek tili bilan birga, qoraqalpoq, qirg‘iz, qozoq, tojik, rus, ko‘reys, tatar, uyg‘ur va boshqa tillarda ko‘rsatuv hamda eshittirishlar olib bormoqda.

Alohiba ta’kidlash kerakki, bu borada 1992-yilda tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi mamlakatimizda millatlararo munosabatlarga bo‘lgan e’tiborning yorqin ifodasi bo‘ldi. Ushbu markaz O‘zbekiston hududida faoliyat olib borayotgan milliy madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirdi hamda ularga tashkiliy va metodik yordam ko‘rsatdi. Millatlararo totuvlik va hamjihatlikka xizmat qilib kelayotgan bunday tuzilmaning qo‘sni davlatlarning birortasida mavjud bo‘limgani O‘zbekistonda bu masalaga alohiba e’tibor qaratganidan dalolat beradi.

O‘tgan yillarda ushbu madaniyat markazi O‘zbekistonda yashayotgan turli millat farzandlarining uchrashuv joyi, o‘ziga xos do’stlik uyiga aylandi. Bu yerda muntazam ravishda turli xalqlarning bayramlari, festivallar, uchrashuvlar, taniqli madaniyat arboblarining chiqishlari, seminarlar, konferensiyalar o‘tkazib turildi. Bu boradagi faoliyatda «O‘zbekiston – umumiy uyimiz»

degan da'vatning ustuvorligi mamlakatimizda bir maqsad yo'llida yashab, mehnat qilib kelayotgan barcha millat va elat vakillarining umumi shiorigina emas, balki ularning asosiy maqsad — imuddaosining o'ziga xos ifodasi hamdir.

Bugun O'zbekistonda turli millat va elat vakillari bir oila bo'lib yashamoqda. Ular barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilib, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurishga va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga katta hissa qo'shmoqdalar. Mustaqillik yillarda milliy madaniy markazlarning 120 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor bo'ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga «O'zbekiston Qahramoni» yuksak unvonni berildi.

138 ta milliy madaniy markaz, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta do'stlik jamiyati faoliyati O'zbekistondagi barcha millatlar va elatlarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, an'ana hamda urf-odatlarini asrash va har tomonlama rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Ular «xalq diplomatiyasi» mexanizmidan faol foydalangan holda tinch va farovon hayotni asrash, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlар va madaniy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirish, chet eldag'i hamyurtlar bilan yaqin va o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qish 7 tilda olib borilmoqda. Teleradio ko'rsatuv va eshittirishlar 12 tilda efirga uzatilmoqda, gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tilda chop etilmoqda.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va amalga oshirilishi, biz yashayotgan bugungi davrning o'zi davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini

mustahkamlash, mamlakat atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ya-qin qo'shnichilik muhitini yaratishga qaratilgan puxta o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy siyosatni yuritish, shuningdek, aholi, ayniqsa, yoshlar ongida insonparvarlik qadriyatlarini, turli millat vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlikni yanada mustahkamlash, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-maydag'i PQ-2993-son «Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlash, fuqarolar ongida katta, ko'p millatli yagona oilaga mansublik tuyg'usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan.

Xususan, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur Qo'mita zimmasiga jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar siyosatni, mamlakat hayotining barcha sohalarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarni keng targ'ib qilish, xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, chet eldag'i hamyurtlarimiz diasporasi bilan do'stlikni mustahkamlashga doir davlat siyosatini izchil amalga oshirish vazifasi yuklanadi.

Qo'mita millatlararo totuvlik, do'stlik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, muvofiqlashtirish va rag'batlantirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shuningdek, milliy madaniy markazlar-

ga amaliy va metodik yordam ko'rsatadi, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, fuqarolar ongida ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, «O'zbekiston — umumiy uyimiz» tamoyilini amalgashirish choralarini ko'radi.

Xorijiy mamlakatlar bilan millatlararo munosabatlар va do'stona aloqalarni yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish va olib borishda bevosita ishtirok etishga ko'maklashish Qo'mitaning ustuvor vazifalari sifatida belgilangan. Bu boradagi ishlar xalqaro hamjamiyatda respublikaning nufuzi va maqomini yanada yuksaltirish, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurish borasida erishilgan yutuqlarni keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan. Qo'mita o'zbek xalqining mamlakatimiz tashqarisidagi tarixiy va madaniy meros obyektlarini asrab-avaylashni ta'minlash maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilish masalasiga ham alohida e'tibor qaratadi.

Farmonga muvofiq hududlarda millatlararo munosabatlarni rivojlantirish va xorijiy mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni yo'lga qo'yish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rinnbosarlari zimmasiga yuklatiladi.

Muxtasar aytganda, bu borada belgilangan tamoyillarning hayotga tatbiq etilishi mamlakatda millatlararo va konfessiyalararo totuvlik, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha yaxlit tizimni rivojlantirish, milliy madaniy markazlar uchun yanada qulay va keng imkoniyatlar yaratish, ularning bunyodkorlik tashabbuslari va intilishlarini qo'llab-quvvatlash, faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalarini yanada rivojlantirish, «xalq diplomatiyasi» vositasida chet eldag'i vatandoshlar bilan munosabatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Jamiyat ma'naviy hayot dinamikasini ta'minlash omili sifatida milliy siyosat tamoyillari millatchilik, irqchilik, boshqa millatlarni kamsitish hamda biror millatni boshqa bir millatga singdirib yuborish kabi g'ayriinsoniy va g'ayrimilliy siyosat ko'rinishlarini mutlaqo inkor etadi va u o'z navbatida umumbashariy inson huquqlarini e'tirof etishga asoslanadi. O'zbekiston Konstitutsiyasiga ko'ra, respublikamizda milliy, irqiy va diniy adovatga asoslanib siyosat yuritadigan partiyalar, tashkilotlar, harakatlarning faoliyat yuritishi qat'ian man etilgan.

Bugungi jamiyat ma'naviy hayotida har bir kishining bir mam-lakat doirasida milliy manfaatlarni teng qondirish, ular rivojini ta'minlash juda muhim ekanini anglashi bilan bog'liq tuyg'u ustuvorligi millatlararo masalani to'g'ri hal qilishga xizmat qila-di. Unga ko'ra, bir jamiyatda, ya'ni O'zbekistonda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga man-sub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy me'zonlariga ko'ra, har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratildi. Bunday sharoitda esa, o'z navbatida jamiyat ma'naviy hayot dinamikasini ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston jamiyat hayotida bugungi kunda millatlararo totuvlik bilan birga vijdon erkinligi va diniy bag'rikenglikka ham alohida e'tibor berilayotgani aslo bejiz emas, albatta. O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismiga aylangan diniy bag'rikenglik g'oyalariga ko'ra, asrlar osha bezavol yashab kelayotgani din omili xalqimiz ma'naviy hayotining tarkibiy qismiga aylangan, qon-qoniqa, ongu shuuriga singib ket-gan. Bu g'oya xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, ezgu niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Bugungi dunyoda din barcha xalqlar va millatlar orasiga yoyilib ketganidan bu g'oya umuminsoniy ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro munosabatlarda «bag'rikenglik» atamasi «tolerantlik» tushunchasi orqali ifodalananadi va o'z navbatida, jamiyatda vijdon erkinligi, dinlararo tenglik va totuv-

lukni ta'minlaydi. Bunda bir erkinlik asosida boshqa erkinliklarni qadrlash tamoyili amalga oshadi, ya'ni har bir shaxsning erkinligi boshqa kishilarning erkinligini hurmat qilib, unga daxl qilmasligi sharti namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda «Diniy bag'rikenglik» tushunchasi xilma-xil diniy e'tiqodda bo'lgan kishilarning oliyanob g'oya hamda niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyatni ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadi. Hozirda bu tushuncha ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari hamkorligini nazarda tutadi. Diniy bag'rikenglik jamiyatimizdagi tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, mam-lakatimizda ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

Qadimdan diyorimizda buddaviylik, zardo'shtiylik, nasroniylik, yahudiylilik, islom dinlari yonma-yon yashab kelgan, madaniyat markazlari hisoblangan shaharlarimizda masjid, cherkov, sinagogalar faoliyat ko'rsatgan. Ularda turli millat, elat va dinga mansub bo'lgan xalqlar, qavmlar o'z diniy amallarini emin-erkin ado etgan. Vatanimiz tarixining eng murakkab, ziddiyatli, og'ir davrlarida ham yurtimizdagi mavjud din vakillari orasida diniy asosda mojarolar bo'lgan emas. Bu — yurtimiz xalqlarining diniy bag'rikenglik borasida katta tajribaga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Vatanimiz hududida islom dini qaror topguniga qadar zardo'shtiylik, buddaviylik, moniylik, xristianlik, mazdakiylik, shomoniylilik kabi dinlar ham mavjud bo'lgan. Ular negizida o'sha davrda barchasining sintezi natijasida betakror madaniyat vujudga kelgan. Masalan, zardushtiylik ta'limoti bo'yicha ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi doimiy kurashda oraliq yo'l yo'q, shuning uchun har bir odam bu kurashning u yoki bu tomonida ishtirok etishga majbur. Bu dinning uch tayanchi bo'lib, ular fikrlar sofligi, so'z sobitligi, amallarning insoniyligidan iborat va ushbu jihatlar «ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» tarzida ifodalangan. Ushbu dinning asosiy manbai bo'lgan «Avesto» kitobiga ko'ra, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqeい orqali emas,

balki odamiylik, adolatparvarlik, haqiqatparvarlik, samimiyat kabi yuksak fazilatlar vositasida ma'naviy kamolotga erishish mumkin. Uning falsafasiga ko'ra, «Inson o'z hayotida nimaiki yomonlik qilsa, oqibatsiz qolmaydi, buning uchun, albatta, jazo oladi», degan hikmatda ifodalangan haqiqat har bir jamiyat ma'naviy hayotining asosiy qonuniyatidir.

Yurtimizda barcha dinlarning rivojlanishi uchun bab-baravar shart-sharoitlar yaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, dinlararo va millatlararo do'stona munosabatlar rishtasini yanada mustahkamlamoqda. Milliy davlatchiligidan xos bo'lgan dinlara-ro bag'rikenglik, fuqarolararo hamjihatlikni ta'minlash va uning tobora mustahkamlanib borishiga qaratilgan davlatimiz siyosati va uning inson shaxsini qadrlash, uning erkiga daxl qilmaslik, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash kabi tamoyillari faqatgina Markaziy Osiyonigina emas, balki uzoq xorij davlatlarining ham nazariga tushmoqda. Vatanimizda turli dinlar va din va killari o'rtasida umumbashariy qadriyatlar asosida birodarlikni mustahkamlashga muhim e'tibor berilmoqda. Toshkentda o'tkazilgan «Jahon dinlari tinchlik yo'lida» xalqaro anjumani buning amaliy isbotidir.

XX asr ajoyib ilmiy kashfiyotlar, inson tomonidan koinot sirlarini o'rganish, axborot sohasi rivoji va ulkan texnikaviy imkoniyatlar asri bo'ldi. Ayni vaqtida jamiyat taraqqiyotida dinlarning o'rni va roli faollandashib bordi, ularning sekulyarizatsiyasi, zamonga moslashuvi ro'y berdi. Dunyo xalqlari o'z dini va diniy qadriyatlarini asrab-avaylashga, yo'qotilgan jihatlarini tiklashga harakat qildi. O'tgan yuz yillik oxiri diniy qadriyatlarning yangidan tiklanishi davri bo'ldi, bu holat mutaxassislar orasida «qayta xristianlashish», «qayta islomlanish» kabi atamalar qo'llanishiga sabab bo'ldi.

Sobiq ittifoq davrida dinka qarshi faoliyat rag'batlantirilar edi. Bu boradagi «fan» ateizm deb nom oldi. O'sha davrda barcha oliy o'quv yurtlari talabalari, xoh u gumanitar bo'lsin, xoh tibbiyot yoki texnikaviy oliy dargohi bo'lsin, «Ilmiy ateizm» degan fandan

imtihon topshirishga majbur edi. Darslarda, ma'ruzalarda, asosan diniy qarashlarning puch, safsata ekanligi ta'kidlanar, dinalar tarixi ayovsiz tanqidga loyiq bo'lgan adashishlar tarixi sifatida talqin qilinar edi. Mabodo gap qadimgi yoki o'rta asr jamiyatlari haqida ketadigan bo'lsa, osongina va qulayroq tarzda dinni turli udum, uydirma, marosim, diniy urf-odat va rivoyatlar yig'indisi deb qarab, yuqori tabaqa manfaatini ko'zlab, mehnatkash xalqni ezish quroli o'rnida foydalilanilgan, deb talqin qilinardi. Bu davrda ateizm falsafa ilmining tarkibiy qismidan, uning deyarli asosiy va bosh masalasiga va shu yo'l bilan hukmron mafkuraning o'tkir quroliga aylantirildi. Amaliyotda esa aholini ateistlashtirish, mamlakatni ommaviy ateizm mamlakatiga aylantirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Din jamiyat uchun zararli sarqit, dushman hodisa deb uqtirildi, dinga ishonuvchilar esa har tomonlama qoloq, johil kishilar deb baholanadigan bo'ldi. 1925-yilda sobiq ittifоqda «Jangovor xudosizlar uyushmasi» tuzildi, uning a'zolari soni tez orada 3,5 mln. kishidan oshib ketdi. Jangovor xudosizlar «Dinga qarshi kurash» shiori ostida ish olib borib, din va dindorlarni «fosh» etuvchi, aslida esa ularni haqorat qiluvchi turli xil ommaviy tadbirlar uyuştirishga, adabiyotlar, jurnallar, plakatlar, kinofilm va san'at asarlari yaratib, keng aholi o'rtasida dinga nisbatan hurmatsizlik va nafrat uyg'otishga kirishib ketdilar. «Madaniy inqilobni amalga oshirish», «Odamlarni eskilik sarqitlaridan xalos qilish» va shu kabi shiorlar ostida, ko'pincha ma'muriy va o'zboshimchalik yo'llari bilan minglab cherkov, masjid, ibodatxonalar, maktab, seminariya, akademiyalar yopib qo'yildi, din peshvolari, ruhoniylar va ko'pgina dinga ishonuvchilar qatag'on qilindi.

Bunday mudhish jarayonlar, ayniqsa, chekka o'lkalarda, shu jumladan Markaziy Osiyoda g'oyat keskin va dahshatli tus oldi. Birgina O'zbekistonda 24 mingdan ortiq masjid yopildi, ularning binolari buzib tashlandi. Mahalliy aholi musulmonlar uchun aziz, muqaddas bo'lgan xalqning tarixiy va madaniy merosi hisoblangan yuzlab obidalar, maqbaralar, maktabu madrasalar xaro-

balarga aylantirildi. Toshkent shahridagi 26 madrasadan 23 tasi buzib tashlandi. Dindorlik uchun odamlar quvg'in qilindilar, ularning mol-mulklari musodara etildi. Qadimiy madaniyat va ma'rifat o'chog'i bo'lgan zamin, dunyoga mashhur olimu mafakkirlar yetishtirib bergen xalqlar endi «savodsiz», «qoloq», «madaniyatsiz»ga chiqarib qo'yildi.

Mamlakatimizning mustaqilligi davrida diniy qadriyatlar sohasida O'zbekistonda bu borada ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati umuminsoniy demokratik tamoyillar asosida, milliy an'analar, milliy madaniyat negizida qad ko'tarmoqda. Sho'rolar davridagi dingga bo'lgan salbiy munosabat rad etilib, fuqarolarning vijdon va e'tiqod erkinligi kafolatlangan. Konstitutsiyamizda O'zbekiston hududida yashovchi har bir fuqaroning manfaatlari, huquq va burchlari qonun asosida belgilab qo'yilgan.

Diniy qadriyatlarning zamonaliviy amaliyotiga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatayotgan tamoyillardan biri vijdon erkinligi masalasi ijtimoiy hayotda doimo muhim va murakkab masala bo'lib kelgan. Chunki uning zamirida shaxsning huquqi, demokratik, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar turadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, hamma mamlakatlarning Konstitutsiyasi va qonunlarida vijdon erkinligi masalasi o'z ifodasini topgan. O'zbekiston davlatining din sohasidagi siyosati ana shu deklaratsiyaning asosiy tamoyillari ga mos tushadi. Zero, 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z dini yoki e'tiqodiga o'zicha, shuningdek boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda va odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston istiqlolga erishgach, barcha din vakillari o'zлari xohlagancha toat-ibodatlarini emin-erkin ado etish mikoniga ega bo'ldi. Ayni vaqtida dinlararo nizolar, bir-birini kamsitish,

turufkashlik, mutaassiblarcha mazhabparastlikka ham yo'l qo'yilmaydi. Shu bois Vatanimizda turli diniy konfessiyalar bermalol faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolarning vijdon erkinligi haqida «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanaadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi» (31-modda) degan qoida belgilab qo'yilgan. Dunyoviy davlatimizning din sohasidagi siyosatida turli dunyoqarash, e'tiqodda bo'lgan kishilar o'rtasidagi, davlat bilan din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabat-larning amalda huquqiy ta'minlanishini nazarda tutadi. Davlat qonunlarida diniy e'tiqod har kimning xususiy ishi deb belgilangan. Ayni vaqtida «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarining faoliyatiga aralashmaydi» (61-modda).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18, 31, 57, 61-moddalarida insonlar uchun boshqa erk va huquqlar qatorida vijdon erkinligi, dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslik erki kafolatlangan. Davlatimiz din va vijdon erkinligiga katta e'tibor berib, xalqimiz ruhiyatiga mos keladigan imon-e'tiqod, adlu insof, diyonat, mehru oqibat, or-nomus, pokiza axloq belgilari bo'lgan iffat, hayo, halollik, rostgo'ylik kabi ezgu fazilatlarni rivojlantirish, mustahkamlashni asosiy vazifa qilib qo'ydi. Bundan tashqari, Vijdon erkinligi odatda jamiyatda dinlararo tenglik va totuvlikni ta'minlaydi. Bunda bir erkinlik asosida boshqa erkinliklarni qadrlash tamoyili amalga oshadi, ya'ni har bir shaxsning erkinligi boshqa kishilarning erkinligini hurmat qilib, unga daxl qilmasligi sharti mavjud.

Asosiy qonunimiz O'zbekiston fuqarosini millati, irqi, jinsi va dinidan qat'i nazar, teng huquqli deb biladi, shuningdek, o'z e'tiqodini erkin namoyon etish, ibodat qilish, urf-odat va milliy an'analarini davom ettirish va ularni hurmat qilishni kafolatlaydi. Konstitutsiyada belgilangan ushbu qoidalar 1998-yilda O'zbekis-

ton Respublikasi Oliy Majlisining 11-sessiyasida qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi (yangi tahrir) Qonunda yanada kengroq ifodasini topdi.

Ushbu hujjatlarda belgilangan qoidalar dunyoviy demokratik davlatimizning dinga munosabatini aks ettiradi. Ma’lumki, dunyoviy taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatlardagi davlatning dinga bo‘lgan munosabati demokratik plyuralizmga asoslanadi. Bunda din ijtimoiy hayotdagi madaniy va ma’naviy, ruhiy muhitni shakllantiruvchi xilma-xil qadriyatlar silsilasidagi teng huquqlı bo‘g‘in sifatida qabul qilingan.

O‘zbekistonda dinga nisbatan siyosatda bu demokratik tamoyillarga amal qilinmoqda. Mamlakatimizda bir necha ming masjid, cherkov va boshqa diniy ibodatgohlar faoliyat yuritmoqda. Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda 18 ta diniy konfessiya faoliyat yuritmoqda. Jami 2104 ta diniy tashkilot, jumladan, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O‘rta Osiyo yeparxiyasi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari ittifoqi, Rim katolik cherkovi, To‘liq injil xristianlar markazi, O‘zbekiston Bibliya jamiyati, 1906 ta masjid, 163 ta xristian cherkovi, 7 ta yahudiylar jamoasi, 7 ta bahoyilar jamoasi, 2 ta Krishnani anglash jamiyati va 13 ta diniy o‘quv yurti (1 ta islom mahadi, 10 ta madrasa, 1 ta pravoslav va 1 ta to‘liq Injil xristianlari seminariyasi) davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

Har yili bir necha ming kishi muqaddas shaharlar — Makka va Madinaga haj safariga borib qaytmoqda. Bu safarlarni tashkil etish, hojilarning haj amalini ado etib eson-omon vataniga qaytishini ta‘minlash davlat zimmasidadir. Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyin diniy bayramlar — Ramazon va Qurbon hajitlari keng miqyosda muntazam nishonlanib kelmoqda. Davlat ko‘magi bilan qadimiy obidalar, qadamjolar obod qilinib, ziyyaratgoh joylarga aylantirildi. Bularning hammasi dindan oqilona foydalanish, ma‘rifiy-madaniy ishlarda diniy qadriyatlarni istifoda etish, din falsafasini chuqur o‘rganib, ezgu xulq, ezgu so‘z va ezgu amal uchun intilish, yosh avlodga din va uning negizida

shakllangan qadriyatlarni o'zlashtirishni o'rgatish zarurligini taqozo etadi.

Hozirgi davrda butun dunyoda diniy bag'rikenglikka alohidu e'tibor berilmoqda. Bu jihatdan YuNESKOning bag'rikenglik muammosiga alohida e'tibor berib, 1995-yil Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan bag'rikenglik yili deb e'lon qilinishi va 16-noyabrdan YuNEsKO a'zolaridan 185 davlat ishtirokida «Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi» qabul qilinishi butun jahon xalqlari hayotida dinlararo bag'rikenglikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ana shu jihatdan hujjat mam-lakatimizda tarqalgan dinlarning har biriga xos bir necha o'nlab mazhab va oqimlar, ular o'rtasida hamjihatlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash bu sohada vijdon erkinligi qonunlariga rioxay qilishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, jahon dinlari ichida ko'plab oqimlar, yo'nalishlar bor, xususan, islomda 73 ta har xil mazhab va oqimlar mavjud. Ular orasida sunniylik, shialik, rofiziya, ismoiliya, jabariya, xorojiya, qadariya, jahimiya, murjiya oqimlari keng tarqalgan. Bular orasida, ayniqsa, sunniy mazhablar ko'pchilikni tashkil etadi va bugungi kunda yurtimiz musulmonlarining aksariyat qismi «ahli sunna val-jamoa» mazhabiga mansub bo'lib, hisoblanadi.

Hozirgi davrda respublikamizda ishlayotgan va musulmon bo'Imagan din vakillari, asosan, XIX asrning 70-yillarda pravoslaviye bilan bir qatorda kirib kela boshladi. O'sha davrdan boshlab yurtimizda turli sektalarga mansub dindorlar, masalan, baptistlar, adventistlar, katoliklar va boshqalar ham paydo bo'ldi. 1879-yil 27-martda Rossiya imperatorining maxsus qonuni e'lon qilingach, bu jarayon yanada faollahshadi. Rossiya armiyasi tomonidan Birinchi jahon urushida asir olingan nemis, polyak, eston, shved, litvalik, latish va boshqa g'arbiy yevropalik askarlar-ning Turkiston o'lkasiga surgun qilinishi ular e'tiqod qiladigan din yoki oqimlarga kirib kelishiga sabab bo'ldi. Bu, o'z navbatida, yevropalik asirlar orasida diniy jamoalar tuzish hamda cherkovlar paydo bo'lishiga olib keldi. Xorijliklarning bunday faoliyati

asrimizning taxminan 20–30-yillariga qadar davom etdi. XX asr boshlariga kelib Turkiston general-gubernatorligida 6,03 million musulmonga 391 ming pravoslav yoki 5340 masjidga 306 cherkov to‘g‘ri kelgan. Bundan tashqari, e’tiqod jihatidan 10,1 ming pravoslav oqimiga mansub staroobryadchilar, 8,2 ming lyuteranlar, 7,8 ming katoliklar, 26 ming yahudi ydiniga va 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlarga mansub dindorlar bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor.

Mana shunday turli din va mazhablarga e’tiqod qiluvchi, turli millatga mansub aholi O‘zbekistonda birgalikda yashab, Vatan ozodligi, taraqqiyoti va obodligi uchun ijod va yaratuvchi mehnat bilan band. Ular orasida chuqur nizolarga olib kelishi mumkin bo‘lgan tortishuvlar, tarafkashlik hollarini ko‘rmaymiz. Aksincha, turli din arboblarining o‘zaro muloqoti, uchrashuvlari, hammasi uchun umumiyligini bo‘lgan masalalarni muhokama etishda ishtirok etish dinlararo hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu, bir jihatdan, davlatimizning tinchliksevar siyosatining natijasi bo‘lsa, ikkinchi tarafdan, xalqimizning oliyjanobligi, tabiatan bag‘rikengligi tufayli yuzaga kelgan ijobiy hodisadir.

XX asrning oxirgi bir necha o‘n yilliklarida jahon hamjamiyatni xalqlari ijtimoiy hayotida ulkan o‘zgarishlar vujudga keldi, mustaqil davlatlar shakllandi. Bunday vaziyatdan foydalanib, jahon dinlari ta’limotini siyosatlashtirishga urinuvchi kuchlar, guruhlar ham paydo bo‘lib, ular o‘z g‘arazli niyatlarini amalga oshirish uchun diniy fundamentalistik, ekstremistik harakatni boshlab yubordilar. Bugungi kunda, bunday holat nafaqat islam dinida, balki yahudiylig, xristian konfessiyalari hamda rus pravoslav, rim-katolik, armyan-grigoryan, Lyuteran cherkovlarida, baptistik va boshqa yo‘nalishlarda ham muayyan darajada namoyon bo‘lmoqda. Binobarin, diniy g‘oyalarni o‘ziga quroq qilib olgan ekstremizm, diniy funtamentalizmga qarshi kurashish davring eng dolzarb vazifasi bo‘lib turibdi. Aholiga haqiqiy ma’rifiy din bilan ekstremistlarning zararli, buzg‘unchi g‘oyalari orasidagi farqni tushunib yetish va mohiyatini ochish bugungi kundagi

ma'naviy-mafkuraviy ishlarning eng dolzarb yo'nalishga aylan-gani shubhasiz.

Bugungi kunda davlat va diniy tashkilotlar orasidagi munosabatning quyidagi to'rt jihatni nihoyatda muhim ahamiyatga ega:

1) davlat diniy tashkilotlarga hech bir vazifa yuklab, uni bajarishni talab qilmaydi;

2) diniy tashkilotlarning ishlariga aralashmaydi va ularning qonunga zid bo'lмаган faoliyatini cheklamaydi;

3) diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi;

4) davlat diniy tashkilotlar faoliyatini mablag' bilan ta'minlamaydi.

Jamiyat hayotida yaqqol namoyon bo'layotgan ushbu tamoyillar davlat tomonidan diniy tashkilotlarning o'z mablag'ini, mulkini himoya qilish, ularning ibodatxonalarini (masjid, cherkov, senagog) qo'riqlash, ibodatlarni erkin ado etish bo'yicha barcha diniy tashkilotlarga qonun asosida ko'maklashishi uchun zamin hozirlaydi. Ayni vaqtda, dindorlar va ular jamoalarining qonunga zid faoliyati taqiqlanadi, shuningdek, dinga zo'r lab da'vat qilish, o'zini ulug'lab, boshqalarni kamsitish, tahqirlash, boshqa din va killariga zulm o'tkazish man qilinadi. Bunday hollarda davlat ushbu jarayonga aralashishga majburdir, zero u barcha fuqarolar hayotining osoyishtaligi, har bir inson huquqini himoya qilishga inajbur bo'ladi, albatta.

Jamiyat uchun diniy munosabatlardagi e'tibor qaratiladigan jihatlardan biri missionerlik va prozelitizm bilan bog'liq harakatlardir. Missionerlik (da'vatchilik) o'tgan asrning 80- va 90-yillarda avj olgan edi. Bir tomonidan, xorijiy Sharq mam-lakatlardan kelgan islom da'vatchilari faoliyati, vahhobiylik oqimi tarafdarlari faollashgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, boshqa dinlarning da'vatchilari ham mahalliy aholining turli qatlamlari orasida tashviqot ishlarini kuchaytirgan edi. Bu tashviqotchi — da'vatchilarning har biri o'z dinini maqtab, o'zga dinni haq din emas, deyish orqali tarafdar qidiradi. Ikkinchidan, xorijdan kelgan musulmon da'vatchilari bizning an'anaviy dindorlik rasm-ru-

asrimizning taxminan 20–30-yillariga qadar davom etdi. XX asr boshlariga kelib Turkiston general-gubernatorligida 6,03 million musulmonga 391 ming pravoslav yoki 5340 masjidga 306 cherkov to‘g‘ri kelgan. Bundan tashqari, e’tiqod jihatidan 10,1 ming pravoslav oqimiga mansub staroobryadchilar, 8,2 ming lyuteranlar, 7,8 ming katoliklar, 26 ming yahudiy diniga va 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlarga mansub dindorlar bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor.

Mana shunday turli din va mazhablarga e’tiqod qiluvchi, turli millatga mansub aholi O‘zbekistonda birgalikda yashab, Vatan ozodligi, taraqqiyoti va obodligi uchun ijod va yaratuvchi mehnat bilan band. Ular orasida chuqur nizolarga olib kelishi mumkin bo‘lgan tortishuvlar, tarafkashlik hollarini ko‘rmaymiz. Aksincha, turli din arboblarining o‘zaro muloqoti, uchrashuvlari, hammasi uchun umumiy bo‘lgan masalalarni muhokama etishda ishtirok etish dinlararo hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu, bir jihatdan, davlatimizning tinchliksevar siyosatining natijasi bo‘lsa, ikkinchi tarafdan, xalqimizning oliyjanobligi, tabiatan bag‘rikengligi tufayli yuzaga kelgan ijobiy hodisadir.

XX asrning oxirgi bir necha o‘n yilliklarida jahon hamjamiyatni xalqlari ijtimoiy hayotida ulkan o‘zgarishlar vujudga keldi, mustaqil davlatlar shakllandi. Bunday vaziyatdan foydalanib, jahon dinlari ta’limotini siyosatlashtirishga urinuvchi kuchlar, guruhlar ham paydo bo‘lib, ular o‘z g‘arazli niyatlarini amalga oshirish uchun diniy fundamentalistik, ekstremistik harakatni boshlab yubordilar. Bugungi kunda, bunday holat nafaqat islom dinida, balki yahudiylik, xristian konfessiyalari hamda rus pravoslav, rim-katolik, armyan-grigoryan, Lyuteran cherkovlarida, baptistik va boshqa yo‘nalishlarda ham muayyan darajada namoyon bo‘lmoqda. Binobarin, diniy g‘oyalarni o‘ziga quroq qilib olgan ekstremizm, diniy funtamentalizmga qarshi kurashish davring eng dolzarb vazifasi bo‘lib turibdi. Aholiga haqiqiy ma’rifiy din bilan ekstremistlarning zararli, buzg‘unchi g‘oyalari orasidagi farqni tushunib yetish va mohiyatini ochish bugungi kundagi

ma'naviy-mafkuraviy ishlarning eng dolzARB yo'nalishga aylan-gani shubhasiz.

Bugungi kunda davlat va diniy tashkilotlar orasidagi munosabatning quyidagi to'rt jihatni nihoyatda muhim ahamiyatga ega:

1) davlat diniy tashkilotlarga hech bir vazifa yuklab, uni bajarishni talab qilmaydi;

2) diniy tashkilotlarning ishlariga aralashmaydi va ularning qonunga zid bo'lмаган faoliyatini cheklamaydi;

3) diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi;

4) davlat diniy tashkilotlar faoliyatini mablag' bilan ta'minlamaydi.

Jamiyat hayotida yaqqol namoyon bo'layotgan ushbu tamoyillar davlat tomonidan diniy tashkilotlarning o'z mablag'ini, mulkini himoya qilish, ularning ibodatxonalarini (masjid, cherkov, senagog) qo'riqlash, ibodatlarni erkin ado etish bo'yicha barcha diniy tashkilotlarga qonun asosida ko'maklashishi uchun zamin hozirlaydi. Ayni vaqtida, dindorlar va ular jamoalarining qonunga zid faoliyati taqiqlanadi, shuningdek, dinga zo'r lab da'vat qilish, o'zini ulug'lab, boshqalarni kamsitish, tahqirlash, boshqa din va killariga zulm o'tkazish man qilinadi. Bunday hollarda davlat ushbu jarayonga aralashishga majburdir, zero u barcha fuqarolar hayotining osoyishtaligi, har bir inson huquqini himoya qilishga majbur bo'ladi, albatta.

Jamiyat uchun diniy munosabatlardagi e'tibor qaratiladigan jihatlardan biri missionerlik va prozelitizm bilan bog'liq harakatlardir. Missionerlik (da'vatchilik) o'tgan asrning 80- va 90-yillarida avj olgan edi. Bir tomonidan, xorijiy Sharq mam-lakatlaridan kelgan islom da'vatchilar faoliyati, vahhobiylirk oqimi tarafdarlari faollashgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, boshqa dinlarning da'vatchilar ham mahalliy aholining turli qatlamlari orasida tashviqot ishlarini kuchaytirgan edi. Bu tashviqotchi – da'vatchilarning har biri o'z dinini maqtab, o'zga dinni haq din emas, deyish orqali tarafdar qidiradi. Ikkinchidan, xorijdan kelgan musulmon da'vatchilar bizning an'anaviy dindorlik rasm-ru-

sumlar, milliy odatlarni nazar-pisand qilmasdan, o'zlarida shakl-langan odatlar, mazhablarni o'rnatishga intilardi. Ular nazarida, sho'ro zamonida yoppasiga hamma «dahriy», «kofir» bo'lib ket-gan emish. Holbuki, xalq o'sha dahriylik mafkurasi hukm sur-gan sharoitda ham o'z imon-e'tiqodini saqlab qolgan, ajdodlari an'analarini saqlab kelmoqda edi. Shu bois bunday «da'vatchilik» harakati aholining haqli noroziligiga uchradi.

Shularni hisobga olgan holda «Vijdon erkinligi va diniy tash-kilotlar to'g'risida»gi qonunning 5-moddasida bunday deb yozi-ladi: «Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi», deb belgilab qo'yilgan.

Albatta, davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosa-batlarni muvofiqlashtirish, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar-da qonun ijrosini nazorat qilib turish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita zimmasiga yuklatilgan.

O'zbekistonda ta'lim dindan ajratilgan. Ta'lim tizimining biror bo'g'inida diniy darslar majburan kiritilmaydi, ammo dindan xabardor bo'lishni xohlagan odamlar ixtiyoriy ravishda o'rga-nishi, diniy o'quv yurtlariga kirib, bilimlarini oshirishi mumkin. O'zbekistonda bir necha diniy o'quv yurtlari (madrasa, mahad, seminariy) faoliyat ko'rsatmoqda. Diniy o'quv yurtiga kiruvchilar o'rta ma'lumotga ega bo'lishi shart. Diniy o'quv yurtlarini bitir-ganlar diniy tashkilotlarda xizmat qiladi.

Toshkent islam mahhadini bitirgan talabalarning diplomi Vazirlar Mahkamasining 2003-yilgi qarori bilan boshqa dunyoviy oliy o'quv yurtlarining bakalavriat maqomiga tenglashtirildi. Endi ular o'z bilimlarini yanada oshirish imkoniga ega bo'ldi. Bu ham hu-kumatimizning yoshlarga ko'rsatayotgan g'amxo'rlikidan dalolatdir.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Toshkent islam universitetining tashkil etilishi ham yoshlarga nisbatan g'amxo'rlikning yana bir yorqin timsoli bo'ldi. Universitet qoshidagi gimnaziya va litsey ham shu yo'na-

lishda ta'lim berib, yoshlarni ulug' ajdodlarimizning islom ilmi rivojiga qo'shgan hissasi asosida tarbiyaladi. Xullas, bu universitetda tahsil olgan ko'plab talabalar zamonaviy mutaxassis bo'lib yetishdilar va din asoslarini o'zlashtirib, qadimgi manbalardan bemalol foydalana oladilar.

Bugungi kunda ushbu universitetning Islom akademiyasiga aylantirilishi, Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazining tashkil etilishi jamiyat ma'naviy hayotida katta voqeа bo'ldi, deyish mumkin.

2018-yilning 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida loyihasi O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan. «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsianing qabul qilinishi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Mazkur rezolyutsiya BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi va Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va boshqa qit'alarning ellikdan ziyod mamlakati bilan hammualliflikda qabul qilindi. Ayni paytda BMT Bosh Assambleyasini tomonidan qabul qilingan mazkur hujjatda a'zo davlatlarga milliy va xalqaro OAV, jumladan, internet tarmog'ida keng ko'lamli targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish, bag'rikenglik. Zo'rvonlikka barham berish, hamda din va e'tiqod erkinligiga doir ma'rifiy axborot tarqatish kabi tegishli kommunikatsion strategiyani joriy etish taklif qilinmoqda.

Bu misollar diniy bag'rikenglikka asos bo'lgan jamiyatimiz hayotining poydevori ma'rifat va ma'naviyat ekanligini ko'rsatadi. O'z navbatida bu, bugungi kunda jamiyat hayoti umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga xos e'tiqod, an'ana va urf-odatlar, rang-barang turmush tarzidan iborat an'anaviy mezonlarni o'ziga xos aks ettirayotganini anglatadi. Ayni paytda, yuksalib borayotgan jamiyat ma'naviy hayot dinamikasida yurtimizda yashayotgan barcha xalqlarning va din vakillarining ijtimoiy qiyofasi, o'tmishi, bugungi hayoti, kelajak bilan bog'liq orzu-umidlar asrlar osha yonma-yon yashash jarayonida shakllangan hamjihatlik, bag'rikenglik, qardoshlik tuyg'ulari uyg'unlashgan tarzda

namoyon bo'ladi. Aynan ana shu qadriyatlar esa yurtimizda osoyishtalik, tinch-totuv turmush tarzini ta'minlash, barcha millatlar va diniy konfessiyalar vakillari hamjihatligini yanada mustahkamlash, asrlar davomida shakllangan vazminlik, mehr-oqibat kabi umuminsoniy tamoyillarni barqaror qilishga yordam beradi.

Xullas, bugun jamiyatimiz hayoti Sharq va G'arb sivilizatsiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga xos e'tiqod, an'ana va urf-odatlar, rangba-rang turmush tarzidan iborat an'anaviy mezonzlarni o'zida aks ettiradi. Bu jihatdan, davlatning dindan, dinning davlatdan ajratilgani va vijdon erkinligi tamoyiliga amal qilinayotgani fuqarolik jamiyatiga muvofiq ekanini hayotning o'zi har qadamda tasdiqlamoqda.

Dunyodagi ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy masalalar murakkablashib, globallashib borayotgan bugungi kunda jamiyatimiz hayotida millatlararo muloqot, sabr-toqat, diniy tolerantlikni kuchaytirish har jihatdan dolzarb vazifaga aylandi. Ushbu jarayonda yurtimizda to'plangan asriy tajribalardan unumli foydalanish, bu borada zamonaviy realliklarni inobatga olgan holda mamlakatimizdag'i ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, barcha fuqarolarimizda yagona Vatan tuyg'usini shakllantirish, Yurt istiqlol va istiqboliga daxldorlik hissini kamol toptirishga xizmat qiluvchi omillar samarasini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

8-mavzu. O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida yoshlarga doir davlat siyosatining dolzarb vazifalari

Mavzuning asosiy savollari. Yoshlar jamiyatining faol harakatlantiruvchi kuchlarining biri. O'zbekistonning yoshlarga doir siyosati: tarix va bugungi kun «Kamolot Yoshlar ittifoqi»ga mamlakatimizning taqarriyoti strategiyadsida yoshlarga doir siyosatning rivojlantirilishi. Bugungi kun islohatlarida yoshlarning hayotdag'i rolini yanada oshirish vositasi.

Ma'lumki, istiqlol yillarda mamlakatimizda yoshlarning jamiyatdag'i o'rni va ular faoliyatining amalga oshirilayotgan islo-

hotlar jarayonidagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunga kelib bu sohadagi davlat siyosatini takomillashtirish borasi-da tub burilish yuz berdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning «Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga ay-lanib bormoqda» degan fikri ana shu jarayonning mazmun-mohiyatini yaqqol ifodalaydi.

Bu jihatdan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabrdagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasiining 72-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'layotgani va yoshlar omilining alohida e'tiborni talab qilayotgani haqidagi fikri, «Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. ... Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir» degan xulosasi BMTga a'zo davlatlar vakillarining diqqatini o'ziga qaratgani beziz emas¹. Prezidentimizning Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining 2018-yil 10-iyundagi majlisida ilgari surilgan «BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasi»ni ishlab chiqish va qabul qilish to'g'risidagi taklifi ham ayni shuning yechimiga xizmat qiladi, albatta².

Keyingi yillarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi yoshlari kunini belgilash to'g'risida»gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'rta maxsus,

¹ O'zbekiston Respubligasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi // <http://uz24.uz/uz/politics/shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-72-sessiyasidagi-nutqi>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi // «Xalq so'zi», 2018-yil, – 12-iyun, № 119 (7077).


kasb-hunar ta'lifi muassasalarini faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida», «Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida», «Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida», «Ma'naviy-ma'riyf ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi Qarorlari hamda «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida», «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida», «Istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish «Iste'dod» jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida», «Matbuot va axborot sohasida boshqaruvin yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmonlari bu sohadagi fikr-mulohazalarning nazariy va metodologik asoslarini belgilaydigan tayanch hujjatlar bo'lib hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, jamiyat hayoti va taraqqiyotining demografik holatiga ko'ra, O'zbekiston dunyo mamlakatlari orasida aholisi tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan davlatlar qatoriga kiradi, aholi orasida yoshlar sonining ko'pligi bo'yicha esa, Osiyo davlatlari orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Bu boradagi ko'rsatkichlar va mamlakatimiz demografiyasiga xos xususiyatlari, o'z navbatida, jamiyatimiz taraqqiyotining barcha yo'nalishlari, ayniqsa ma'naviy hayat dinamikasiga katta ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, alohida ta'kidlash joizki, har bir davlat va jamiyat kabi, bizning mamlakatimizning yoshlarga doir siyosatida ham, ushbu omilning o'rni va ahamiyatiga alohida ahamiyat qaratiladi. Ayni paytda, yurtimizda aholining muttasil o'sib borishi jamiyat ma'naviy hayatida ro'y berayotgan o'zgarishlar va yangi-


lanishlarda, muayyan darajada, o‘z aksini topadi hamda ijtimoiy si-yosatda muqarrar tarzda hisobga olinadigan jihatlar sirasiga kiradi.

O‘zbekistondagi aholi sonining o‘sishi (mln. kishi hisobida)




Ta’kidlash joizki yurtimizda aholi soni o’tgan davr bilan taqqoslaganda, ya’ni 1991-yilga nisbatan 1,5 barobarga, 2013-yilga nisbatan 5,3% ga o’sgan (31,5 million kishi). Shundan, 30 yoshgacha bo’lgan yoshlar 18,6 mln.ni yoki aholi sonining 59,1% ni tashkil etadi. Yoshlar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Samarkand (2,2 mln.) va Farg‘ona (2,02 mln.) viloyatlarida kuzatilgan bo‘lsa, past ko‘rsatkich Sirdaryo (0,48 ming) hamda Navoiy (0,53 ming) viloyatlarida qayd etilgan.

Aholi va yoshlar sonining hududlar kesimidagi ko‘rsatkichi (mln. hisobida)



Demografik ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2014-yilning yanvar oyi holatiga ko'ra yoshlar soni umumiyligi aholi sonining 59% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2015-yilda 58,5% ni, 2016-yilda 57,9% va 2017-yilning 1 yanvar holatiga 59,1% ni tashkil etgan.

Yoshlar sonining yillar bo'yicha taqposlama ko'rsatkichi (foiz hisobida)



Mazkur ko'rsatkichlardan kelib chiqib, ta'kidlash joizki, hozirgi davrda mamlakatimizni yangilash va yanada demokratlashtirish, jamiyat hayotining barcha sohalarini modernizatsiya va isloh qilish jarayonida yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirishning samarali yo'llari va usullarini izlab topish hamda ularni hayotga tatbiq etishga nisbatan talab va ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Bu jihatdan, hozirgi davrda davlatimizning yoshlarga oid siyosatini izchil amalga oshirish, uni hayotga tatbiq etishning samarali yo'llari va usullarini izlab topish, bu jarayonda faol ishtirok etadigan yosh avlodni tarbiyalashga nisbatan talab va ehtiyoj tobora ortib bormoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi dasturida «Biz yangicha va mustaqil fikrlaydigan, mas'uliyatli va tashabbuskor, ilg'or boshqaruvin usullarini puxta o'zlashtirgan, halol, o'z Vatani va xalqiga sodiq kadrlarni

tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratish ustida jiddiy ishlaymiz», degan fikri buning yaqqol isbotidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Yoshlar kuni arafasida «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi tasdiqlanib, barcha tuman va shaharlarda amalga oshirish boshlangani ham ushbu fikrimizning yaqqol dalili bo'ladi. Bu borada 2018-yil 27-iyundagi «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risidagi Farmon Yurtboshimizning mamlakatimiz yoshlari har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni hayotga faol jalb qilish uchun yangi istiqbollarni ochishni ko'zlaydigan tarixiy hujjatdir.

Mamlakatimiz aholisi sonining 60 foizini yoshlardan tashkil etishini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu Farmonning ahamiyatini tasavvur qilish qiyin emas. Mazkur hujjat faol va omilkor yoshlardan sonini yanada ko'paytirish bilan birga, ularni qiyayotgan muammolariga yechim topishida ham muhim ahamiyat kasb etadi¹.

Hozirgi davrda O'zbekiston yoshlarning bevosita huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlarning ishtirokchisi hisoblanadi. Davlatimizda BMTning yosh avlodning huquq va erkinliklarini ta'minlashga oid universal ahamiyatga ega bo'lgan muhim hujjatlari ratifikatsiya qilingan. Respublikamiz YuNESKO va Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan qabul qilingan muhim konvensiyalarining ishtirokchisidir.

Shu nuqtayi nazardan, 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bu borada muhim qadam bo'lganini ham alohida ta'kidlash lozim. Shuningdek, Asosiy qonunimiz bilan birga, Oila kodeksi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi, «Ta'lim to'g'risida»gi, «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi, «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi, «Voyaga yetmaganlar o'rtaida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi, «Vasiylik va

¹ Yoshlar kelajagi va bandligini ta'minlashga daxldor loyiha. — Jamiyat, 2018-yil 28-iyun.

homiylik to‘g‘risida»gi qonunlar o‘z navbatida, mustaqil mamlakatimizda istiqlolning ilk yillaridayoq ushbu sohaga oid davlat siyosati shakllanishi va uni amalga oshirish uchun mustahkam asos yaratilganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda yoshlarning qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga, ularning huquq va erkinliklarini kafolatlashga qaratilgan qonun hujjatlari tizimi shakllantirilgan. Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va davlat Dasturlari kabi yoshlarga oid jami 150 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindiki, bularning barchasi yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanganidan dalolat beradi. Ayni paytda, mamlakatimizda yoshlarni qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning huquqiy va siyosiy madaniyatini oshirish, o‘z hayotiy pozitsiyasi hamda mustaqil qarashlariga ega bo‘lgan ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishga ko‘maklashish maqsadida yoshlarga oid davlat siyosati yo‘nalishida 434 ta nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Shu ma’noda, mustaqillikning ilk davridayoq yurtimizning ravnaqi, gullab-yashnashi uchun, avvalo, fidoyi, intellektual jihatdan rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirish, farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega va XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi dolzarb masalalardan biri sifatida belgilab olingani aslo bejiz emas. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq, ya’ni, 1991-yilning 20-noyabrida sobiq ittifoq respublikalari orasida birinchilardan bo‘lib, «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi Qonunning qabul qilinganligi buning yaqqol dalilidir.

Bu nuqtayi nazardan, mamlakatimiz istiqlolga erishgan dastlabki yillarda qabul qilingan ushbu tarixiy hujjatlar, jamiyatimiz hayotining barcha sohalari kabi, bu borada ham bosh islohotchi bo‘lgan davlatimizning yoshlar masalasiga doir siyosatining strate-

gik yo‘nalishlarini mustaqil taraqqiyotimizning avval-boshidanoq belgilab olganligidan dalolat beradi. Endilikda, shu asosda, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining hozirgi amaliyotida yoshlarni ham jismonan, ham ma‘nan sog‘lom qilib voyaga yetka-zish yo‘lida olib borilayotgan islohotlarni yangi bosqichga ko‘ta-rish, bu sohada kelgusidagi asosiy vazifalarni belgilash hamda ij-timoiy yo‘naltirilgan dastur va chora-tadbirlarni ishlab chiqishga ko‘maklashish nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Ayni paytda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirishning samarali yo‘llari va usullarini hayotga joriy etishda O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish bilan bog‘liq masalalarni chuqur va har tomonlama tahlil qilish ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Istiqlol yillarida ushbu yo‘nalishda amaga oshirilgan ishlarning natijasi o‘laroq, iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida «Umid», keyinroq «Ustoz» va yana keyinroq esa «Iste’dod» jamg‘armalari, «Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» kabi sport musobaqalari tashkil etildi. «Nihol», Zulfiya Davlat mukofotlari ta’sis qilinib, «O‘zbekiston belgisi» ko‘krak nishoni Nizomiga tegishli qo‘srimcha va o‘zgartishlar kiritildi va ushbu mukofot bilan yoshlar ham taqdirlana boshladi. Yoshlarimizning o‘qishi va ishlashi, xalqaro tanlovlар va olimpiadarlar, sport va boshqa musobaqalarda faol ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratildi. Natijada ularni hayotimizning barcha sohalarida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritishi, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy va siyosiy, madaniy va ma‘rifiy, sport va harbiy vatanparvarlik kabi sohalarda faol ishtirok etishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratildi, deyishi uchun bugungi kunda barcha asoslar yetarli.

Shu bilan birga, hozirgi davrdagi bu sohadagi o‘zgarishlar va yangilanishlar, xususan 2017-yilda O‘zbekiston Yoshlar ittifo-qining tashkil etilishi, 2016-yilda yangi tahrirdagi «O‘zbekiston

Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuning qabul qilinishi hamda O‘zbekiston Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi 2017-yil 5-iyuldagagi Farmoni va «O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2017-yil 18-iyuldagagi Qarori o‘tgan yillarda bu sohada tadrijiy va tizimli tarzda amalga oshirilgan tub islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi, deyish mumkin.

Bu o‘z navbatida, bugungi kunga kelib yoshlar omilini yana-da faollashtirish, uning salohiyatini kengroq yuzaga chiqarish — yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish bo‘yicha boshlangan yaratuvchanlik ishlarining samaradorligiga erishish, ko‘zlangan maqsadlarga yetishning kafolati bo‘lib, hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikri ushbu dolzarb jabhaning asosiy mezonlarini belgilashda nihoyatda muhim ahamiyatga ega: «Yoshlarimiz o‘rtasida huquqiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzini, jismoniy tarbiya va sportni targ‘ib qilishga qaratilgan ishlarning samarasini oshirishni bugun davrning o‘zi tabab etmoqda. Bu boradagi dasturlarda belgilangan tadbirlarning ijrosi yaqinda yangidan qabul qilingan «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi qonun normalari asosida qat’iy davom ettiriladi.

Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘ildi. Biz ko‘plab dasturlarni qabul qilmoqdamiz, lekin ularni amalga oshiradigan, tashabbuskor va vatanparvar, yuqori malakali kadrlar yetarlimi? Oliy o‘quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislar oldimizga qo‘yilgan bunday ulkan vazifalarni bajarishga qodirmi? Ularga ta‘lim berayotgan o‘qituvchi va professorlarning bilim va malakasi davr talabiga javob beradimi? Ming afsuski, bu savollarga javob berish oson emas»¹.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma‘ruzasi. — «Xalq so‘zi», 2016-yil 8-dekabr.

Ushbu xulosa asl hayot haqiqatini aks ettirgan bo'lib, yana bir bor bugungi kundagi yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy mezonlarini, umumiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish, undan samarali foydalanish yo'llarini aniqlash, yosh avlod kamoloti bilan uzviy bog'liq bo'lgan va demokratik islohotlar samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan omillarni yana da faollashtirishga alohida e'tibor qaratish vazifalarining mohiyatini anglatadi.

Shu bilan birga, bugungi kunda mamlakatimizning jadal taraqqiy etishi va yanada obod bo'lishi, uning dunyodagi rivojlangan davlatlar safidan munosib joy olishini ta'minlaydigan, jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish bo'yicha dolzarb vazifalarni amalga oshirishning yangi bosqichi boshlanadi. Bu jihatdan, bugungi dorilamon davr talablariga mos yangi avlodni tarbiyalash, yurtimizning ravnaqi va gullab-yashnashi uchun xizmat qiladigan yoshlarni yetishtirish, farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamонавиј intellektual bilimlarga ega bo'lib yetishishi bu sohadagi davlat siyosatining dolzarb vazifalari sifatida belgilab olingani aslo bejiz emas. Prezidentimiz Farmoni bilan tasdiqlangan «2017–2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi harakatlar strategiyasi» ana shundan dalolat beradi.

Bu borada ayniqsa, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlar jarayonida yosh avlodni jismonan sog'lom va ma'nan barkamol qilib o'stirish, uni eng zamонавиј intellektual bilimlar bilan ta'minlash, ma'rifatlilik darajasini yana da kuchaytirish va mustahkamlashga alohida e'tibor qaratish ni hoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda, davlat va xalq hayotida yoshlarga yanada keng yo'l ochish, ularning jamiyatimizda mustahkam va munosib joy olishi uchun kerak bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib berish bu yo'ldagi asosiy vazifalar si rasiga kiradi.

Dunyo globallashib borayotgan hozirgi davrda jahon maydonlarida ro'y berayotgan turli voqeа va hodisalar, mafkuraviy

poligonlar va maydonlarda ishlab chiqilayotgan hamda bizga yot va begona bo'lgan buzg'unchi g'oyalar va vayronkor mafkuralar tahdidi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi faoliyat qadri va ahamiyatining sezilarli darajada oshib borayotgani, bu yo'nalishdagi vazifalarning yanada dolzarblashayotganidan dalolat beradi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim»¹.

Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, birinchi navbatda, yoshlarga, ularning amaliy faoliyatiga, axloqiy barkamolligiga, g'oyaviy-siyosiy yetukligiga, milliy o'zligini qanchalik chuqur va mukammal anglab olganliklariga ham bevosita bog'liq ekani shubhasiz. Mustaqil fikrlay oladigan, dunyoqarashi va tafakkuri keng haqiqiy insonlar davlatimiz va xalqimiz kelajagini belgilaydi. Bu esa, ana shunga mos bo'lgan jismoniy sog'lom va ma'naviy barkamol boy yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning muhim muammo-lari sirasiga kirishining sabablarini belgilaydi. Tez o'zgarayotgan va shiddat bilan odimlayotgan hayotning o'ziga xos talablari davlatdan bu sohada ham omilkor va faol islohotchi bo'lishni talab qilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi serqirra faoliyatida hayot talablariga javob berish va davr bilan hamqadam bo'lish tamo-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyening O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanalı marosimdagı ma'ruzasi. — «Xalq so'zi», 2016-yil 8-dekabr.

yillariga alohida e'tibor qaratish, istiqboldagi ustuvor vazifalarni aniq-tiniq belgilab olish va ularni ro'yobga chiqarish bo'yicha izchil choralarini ko'rish masalalari ham dolzarblashib bormoqda.

O'z navbatida, ta'kidlash joizki, mamlakatimizda bozor munosabatlari chuqurlashuvi, demokratik-huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining rivojlana borishi bilan bugungi ijtimoiy rivojlanishning yangi bosqichiga mos yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish, ularda davr talablariga xos zamonaviy tafakkurni shakllantirish masalasi yanada dolzarblashib borayotgaganidan dalolat beradi.

Bunday serqirra va murakkab jarayonda yoshlarga oid siyosatni izchil amalga oshirishning samarali yo'llari va usullarini izlab topishning dolzarbligi mamlakatimizda yangi jamiyatning shakllanishi, uning tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liq holda takomillashuvi, yosh avlodning ma'naviy, axloqiy, siyosiy, estetik, huquqiy qarashlarining zamonga mos tizimi tarkib topishi singari vazifalarni amalga oshirish ehtiyojlari nuqtayi nazaridan yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yoshlarni yangilanish va vorisiylik tamoyillari asosida tarbiyalash, ularni tarixiylik va zamonaviylik an'analarrini yaxshi anglaydigan kishilar qilib yetishtirish, shaxs sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi ushbu sohadagi faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu o'z navbatida mamlakat kelajagi va taraqqiyotini ko'p jihatdan belgilab beradi hamda shu asnoda, yoshlarning har tomonlama salohiyatli bo'lib tarbiyalanishi, ularning muayyan kasb-hunar yoki sohaning ustasi bo'lishi uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

Shu munosabat bilan, 2016-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun ushbu sohadagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini aniq-tiniq ifodalaydi. Unda bugungi kundagi

dolzarb vazifalarni izchil va tizimli ravishda, bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'llari aniq ko'rsatilib, quyidagilarga alohida e'tibor qaratilgan:

— yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishni tashkiliy-moddiy jihatdan ta'minlash va hukumat tomonidan yoshlarga doir qonunchilikda belgilangan chora-tadbirlarni yangilanish va islohotlar jarayoniga mos ravishda, bosqichma-bosqich amalga oshirish;

— yoshlar siyosatini yurituvchi davlat va nodavlat tuzilmalari tarmog'ini kengaytirish va takomillashtirish, ularning yoshlar tarbiyasidagi faoliyatini kuchaytirish;

— O'zbekistonning buyuk kelajagini qurish yo'lida yoshlarning ijodiy imkoniyatlarini to'laroq namoyon etishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirokini ta'minlash;

— yoshlarni siyosiy, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy jihatdan himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish va ular bilan bog'liq muammolarni hal etishga yoshlarning o'zlarini ko'proq jalb etish, ularda tashkilotchilik va tashabbuskorlik ko'nikmalarini shakllantirish.

Ushbu sohadagi vazifalarni bajarish borasida davlat yoshlar siyosatini amalga oshirar ekan, avvalo, millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqeい, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar, yosh avlodga g'amxo'rlik qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, milliy-madaniy an'analarning avloddan avlodga o'tishi, avlodlarning ma'naviy aloqalarini ta'minlash, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat qaratishi kabilar qonunda belgilab qo'yilgan. Unda yosh avlod hayotiga oid dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosita ishtirok etishini ta'minlash, ularning siyosiy faolligini yanada oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgani nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Bu jihatdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustda qabul qilingan «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lism-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori muhim ahamiyatga ega.

Avvalo, unda ta'kidlanganidek, mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'limga zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o'rta ta'limga joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta'limga muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Yoshlarning bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi qabul qilindi. Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda¹.

Bularning barchasi, ko'plab omillar bilan birga, mamlakatimizda yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lism-tarbiya berishda milliy g'oyalar tizimining substantsional asos sifatidagi ta'sirini, bu boradagi g'oyaviy-tarbiyaviy ishlar samarasini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Qarorda boshqa bir qator jihatlar bilan bir qatorda, (bu borada milliy g'oyalar tizimining antisubstansionallashish jarayoni qanday ro'y berayotganini yaqqol ko'rsatadi-

¹ «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lism-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2017-yil 23-may, <http://www.president.uz/uz/lists/view/966> 1/4

gan) ayrim muammolar saqlanib qolayotganligi ham qayd etilgan. Xususan:

— **birinchidan**, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada sama-ra bermayapti;

— **ikkinchidan**, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkam-lash, shuningdek, ekstremizm, terrorizm va boshqa buzg'unchi g'oyalarga nisbatan murosasizlikni shakllantirish yuzasidan davlat organlari va jamoat tashkilotlarining faoliyati hamon talab da-rajasida emas;

— **uchinchidan**, o'quvchi-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo'lgan madaniy-ko'ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta'lim to'garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog'lom ruhda tarbiyalanishiga va to'g'ri havot yo'llini tanlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

— **to'rtinchidan**, o'qituvchi va murabbiylarning ijtimoiy mavqeい va nufuzi pasayib ketganligi, ularni moddiy va ma'naviy rag'bat-lantirish tizimi bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermasligi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash hamda mustaqil dunyoqarashini shakllantirish borasida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda;

— **beshinchidan**, yoshlarning oliy ta'lim muassasalariga qamrab olinish darajasi pastligi, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik yetarlicha yo'lga qo'yilmaganligi malakali kadrlarning yetishmasligiga va olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadga to'liq erishilmasligiga sabab bo'lmoqda;

— **oltinchidan**, sohada qonun buzilishi holatlarining saqlanib qolayotganligi, shu jumladan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishida nazoratning ye-

tarli darajada emasligi tizimli muammolarni yuzaga chiqarmoqda¹.

Bugungidek globallashuv davrida bu taxlit omillar shunga olib kelishi mumkinki, ushbu yo'nalishda muayyan mafkuraviy im-munitetga ega bo'limgan yosh inson yagona maqsad va umumiy ideallariga erishish mo'ljallarini yo'qotib qo'yishi mumkin. Bu masalada faqat shaxs darajasidagi oddiy omillarnigina qayd etishning o'zi yetmaydi, balki bunday holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish va uni boshqarishning turli shakllari ham hisobga olinishi lozim bo'ladi. Bu sohadagi qonuniyat shundayki, bir millatga mansub aksariyat shaxslarga tegishli steriotiplar saqlanishi yoki siyqalanishi oqibatida yoshlар orasida ushbu sohadagi qadriyatlarning qadrsizlanishi va uning darz ketishi jarayoni ro'y berishidan dalolat beradi.

Ushbu masalada Z.Rasulovaning «O'zbeklarda oila-nikoh an'analarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi» mavzuidagi tad-qiqotlariga murojaat qilsak, bu masalada ham eski steriotiplar saqlanib qolayotgani, yangi avlodning ham ulardan xalos bo'la olmayotgani yaqqol namoyon bo'ladi. Bu jahhada nikoh to'yi bilan bog'liq ba'zi marosimlar, hatto unutilib ketgan ba'zi odatlarni (sinov udumlari, maslahat oshi, ko'rpa qavish marosimini bajarish, qiz oshi, sabzi to'g'rар, bayt aytish, challar kabilarni) ham o'tkazish shart, deb hisoblaydiganlarning bugungi kunda ham o'z o'rнига ega ekanligi ham ana shundan dalolat beradi.

Albatta, biz ushbu odatlar va rasm-rusumlarni butunlay salbiy xususiyatlar sifatida qoralash fikridan yiroqmiz, ammo ularning ayrimlari o'zbek xalqining ma'naviy yuksalishida qanchalik ijobjiy rol o'ynamasin, ularni o'tkazish bilan bog'liq ba'zi ortiq-

¹ «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish choratadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2017-yil 23-may, <http://www.president.uz/uz/lists/view/966> 1/4

cha rasm-rusumlar, odat tusiga kirib borayotgan udumlar ortida ortiqcha sarf-xarajatlar yotganini isbotlash shart bo'lmasa kerak.

Bu jihatdan, tantanali sanalarda ommaviy ziyofatlar uysushtirib, xalqni siylash, kichik yig'inlardan ko'ra katta yig'in va ja-moaviy tadbirlarni afzal ko'rish, yillar mobaynida borini yig'ib-terib elga tarqatishdan zavq-surur tuyish, barcha jabhalarda birinchi bo'lish, ortda yurmaslik, mashaqqatlarni yengib o'tish fazilatlari qadimgi odatlardandir. Shundan kelib chiqqan holda nikoh to'yi marosimlariga va unda shakllangan yangi rasm-rusumlarga, ulardagi isrofgarchiliklarga an'ana, odat sifatida amal qilib kelinmoqda. Bu yerdan stereotip kelib chiqadi, hamma amal qilgan odatni bajarmaslikning iloji yo'qligi shubhasiz¹.

Ma'lumki, sobiq ittifoq davrida bolalar va yoshlar davlat tomonidan kuchli nazorat ostiga olingan va oktyabryat, pioner, komsomol kabi ommaviy tashkilotlar a'zolariga aylantirilgan edi. Ushbu davlat tarqalib ketganidan so'ng uning o'rnida shakllangan mustaqil davlatlarning har birida yoshlar siyosatiga doir masalla-larga turlicha yondashuvlar ro'y berdi. Xususan, Respublikamizda yoshlar tashkiloti 1992–1996-yillarda O'zbekiston yoshlari ittifoqi nomi bilan atalar edi.

O'zbekiston Prezidentining 1996-yil 17-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi yoshlarining «Kamolot» jamg'armasi to'g'risida»gi PF-1425-sonli Farmoniga asosan mamlakatimiz yoshlarining «Kamolot» jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma o'tish davrida yoshlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularda mustaqillik tafakkuri va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish, ishbilarmonlik va tadbirkorlik ko'nikmalarini hosil qilish kabi ezgu g'oyalar asosida tuzilgan edi.

Ammo, jamg'arma o'z dasturlari bilan yoshlarning, ayniqsa, kundalik turmush tashvishlari bilan o'ralashib qolgan, dunyo-

¹ Rasulova Z. O'zbeklarda oila-nikoh an'analarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi. Psixolgiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: O'zMU, 2018. 26–27-betlar.

qarashi tor, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot va sport-sog'lomlashtirish o'choqlarida faol ishtirok etmaydigan qatlamlariga kirib bora olmadi, respublikaning chekka qishloq va tumanlarida o'z faoliyatini yetarli darajada tashkillashtira olmadi. Bu boradagi kemptiklarni bartaraf etish maqsadida 2001-yil 25-aprelda ta'sis qurultoyida O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati nodavlat notijorat tashkiloti sifatida ta'sis etildi. Harakat tarkibida uning homiyligi asosida ishlaydigan, 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarni birlashtiradigan «Kamalak» bolalar tashkiloti tuzildi. Ushbu yo'nalishdagi faoliyatta O'zbekiston Prezidentining 2006-yil oktyabrdagi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning samardorligini yanada oshirish to'g'risida»gi PQ-486-sonli qarori mazkur tashkilot faoliyatini isloh qilishda muhim ahamiyat kasb etishi lozim edi.

Afsuski, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev alohida ta'kidlagani kabi, o'tgan yillar «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati yoshlar masalalarini, avvalambor ularning dolzarb muammolarini yechish, jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirishda yo'l qo'yilayotgan sovuqqonlik, beparvolik va mas'uliyatsizlik holatlarini bartaraf etish, eng asosiysi, hayotga kirib kelayotgan avlodning ijtimoiy faolligini kuchaytirish masalalarini to'la-to'kis hal eta olmadi.

Bu esa, o'z navbatida, 2017-yilga kelib, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi tashkil etilishiga sabab bo'ldi. Ilgarigi tashkilotlardan mutlaqo farq qiladigan tamoyillar asosida ishlashi nazarda tutilgan mazkur tashkilot yoshlarning jamiyat bilan o'zaro munosabati yoshlarga oid siyosatning muhim bo'g'iniga aylanishi, ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonlariga yanada keng jalb etilishi, yoshlarda shubhasiz ravishda mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga alohida e'tibor berilishi lozim.

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyunda bo'lib o'tgan IV Qurultoyida, aynan ana shu masalalar, ayniq-

sa globallashib borayotgan bugungi dunyodagi murakkab vaziyatni hisobga olgan holda, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati qanday amalga oshirilyapti, bu sohada qanday muammojar bor, ularni qay tarzda hal qilish kerak, yoshlar tashkilotining jamiyatdagi o'rni qanday bo'lishi lozim, degan masalalar haqida atroficha fikr yuritildi.

Bu borada, ayniqsa, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning nutqi nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Nutqda ta'kidlanganidek, bundan 16 yil oldin tashkil etilgan «Kamolot» butun O'zbekiston yoshlarini birlashtirgan, tom ma'nodagi om-maviy harakatga aylana olmadi. U asosan o'z atrofida Harakat faoliyatiga xayrixoh bo'lgan yoshlarni uyuştirib, faqat ularni qiziqtirgan masalalar yuzasidangina ish olib bordi. Natijada yoshlarning keng qatlamlariga taalluqli bo'lgan dolzarb masalalar, avvalo, yoshlarning bandligini ta'minlash, ularni katta maqsadlar sari safarbar etish, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, qisqacha aytganda, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'zini haqiqiy yoshlar tashkiloti sifatida ko'rsata olmadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi vaqtida «Kamolot»ning 4 milionga yaqin a'zosi bor. Bu mamlakatimizdagi 10 milliondan ziyod yigit-qizlarning 40 foizini tashkil etadi. Bir qarashda, 4 million – salmoqli raqam bo'lib ko'rindi. Lekin xolisona aytganda, tashkilotga a'zolik ko'p hollarda faqat qog'ozda mavjud, amalda esa aksariyat a'zolar «Kamolot» to'g'risida aniq tasavvurga ega emas, uning maqsad va vazifalarini bilmaydi, o'z yetakchilarini tanimaydi, harakat faoliyatida ishtiroy etmaydi.

Natijada yurtimizdagi minglab yoshlar, ayniqsa, qishloq joylarda nafaqat «Kamolot»ning, ayni vaqtida davlat va jamiyatning e'tiboridan chetda qolmoqda. Buning oqibatida uyushmagan, ya'ni ishlamaydigan, o'qimaydigan, tayin bir mashg'ulotga ega bo'lmagan, salbiy ta'sirlarga beriluvchi yoshlar soni ortib bormoqda. Yoshlar o'rtasida jinoyat sodir etish, diniy ekstremistik oqimlarga, terrorchi guruhlarga qo'shilib qolish holatlari ko'payib borayotgani kuzatilmoqda. 2016-yilda yoshlar ishtiroyida 1 mil-

lion 740 mingga yaqin huquqbuzarlik, 23 ming 440 ta jinoyat sodir etilgani, yosh oilalar o'rtasida 8 mingdan ortiq ajralish holati qayd etilgani ana shunday salbiy holatlardan dalolat beradi¹.

Qurultolda ana shunday salbiy hollarni bartaraf qilish, yosh-larning orzu-intilishlari, hayotiy va kasbiy qiziqish doirasi, ijtimoiy maqsadlari bo'yicha uyuştirishga imkon beradigan, mam-lakat yoshlaring barcha toifa va guruhlarini qamrab oladigan, eng muhimmi, ularni demokratik prinsiplar asosida birlashtiradigan va o'z navbatida, yosh avlodning chinakam suyanchi va tayanchi bo'la oladigan mutlaqo yangi tashkilot – O'zbekiston Yoshlar ittifoqini tashkil etishga qaror qilindi.

Bu borada Qurultoada, avvalo bo'lg'usi tashkilotning huquqiy maqomi, asosiy maqsad va vazifalari, uning ijtimoiy hayotimizda-gi o'rni va nufuzini, obro'-e'tiborini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda O'zbekiston yoshlari ittifoqi rahbari ayni vaqtida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlari siyosati bo'yicha davlat maslahatchisi lavozimida faoliyat olib borishini huquqiy asosda belgilab qo'yish bilan birga, uning Prezident farmoniga binoan Oliy Majlis Senati a'zosi etib tayinlanishi ko'zda tutildi. Tashkilotning Qoraqalpog'istonidagi kengashi raisi Respublika Jo'qorg'i Kengesi raisining, viloyat, tuman va shahar bo'linmalarining rahbarlari esa tegishli hokimlarning yoshlari siyosati bo'yicha maslahatchilarini etib tayinlanishi maqsadga muvofiq, deb topildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Yoshlar ittifoqining tarkibiy tuzilishi ham mutlaqo yangicha tamoyillar asosida tuziladigan bo'ldi, shu munosabat bilan umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimida «Kamolot» nisbatan samarali faoliyat olib borganini hisobga olgan holda, ushbu tizimdagи «Kamolot» tashkilotlari negizida O'zbekiston yoshlari ittifoqining bo'limlari tashkil etilmoxda. Yoshlarning xohishi va intilishlariga ko'ra,

¹ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakatining IV Qurultoyidagi nutqi. – «Xalq so'zi», 2017-yil 1-iyul.

Yosh olimlar uyushmasi, Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish markazi, Yoshlar turizmi uyushmasi, Sport klublari va fitnes markazlari uyushmasi, Imkoniyati cheklangan yoshlar uyushmasi va boshqa tashkilotlar tuzilishi ko'zda tutilgani ham O'zbekiston yoshlar ittifoqining salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xullas, O'zbekiston yoshlar ittifoqi hozir mavjud bo'lgan va kelajakda tuziladigan bunday uyushmalarning barchasini birlashtirib, ularga nafaqat moliyaviy, moddiy-texnik nuqtayi nazaridan, avvalo, g'oyaviy-uslubiy, ma'naviy jihatdan amaliy yordam ko'rsatadigan, ularning ishini muvofiqlashtiradigan asosiy tashkilot sifatida faoliyat olib boradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi davlat va jamiyat uchun rahbar kadrlarni tayyorlab beradigan o'ziga xos markaz bo'lishi, zamonaviy tilda aytadigan bo'lsak, yoshlar uchun «sotsial lift» vazifasini bajarishi kerakligi, bilimli, tashabbuskor va tashkilotchi, fidoyi yosh rahbarlarning kadrlar zaxirasini yaratishi lozimligi ham bu sohadagi davr talabini ifodalaydi. Shu maqsadda Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tuzilishi bu ishni rejali va samarali tashkil etish imkonini beradi.

Ayni paytda, O'zbekistonning bugungi taraqqiyoti va Harakatlar strategiyasida ham ushbu masalaga alohida e'tibor berilayotganligi, jamiyat taraqqiyoti va yoshlar kamolotining iq-tisodiy, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy omillari bilan birga, uning ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy asoslarini yanada mustahkamlash bu sohadagi islohotlarning tarkibiy qismiga aylangani bejiz emas¹. Zero, globallashib va axborotlashib borayotgan bugungi dunyoda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

biror-bir mamlakat yoki Yer yuzining hech bir hududida yashayotgan aholi, ayniqsa yoshlarni yet va begona g'oyalar ta'siridan to'la-to'kis himoyalangan deyish qiyin.

Bu nuqtayi nazardan, alohida qayd etish joizki, yoshlarga doir davlat siyosati qotib qolgan va hech qachon o'zgarmaydigan konstantalarning oddiy yig'indisi emas, balki jamiyat taraqqiyoti va davr talablari ta'sirida muttasil yangilanib, zamonga moslashib boradigan usul va vositalar, amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, turli dasturlar majmuidir.

Shu ma'noda, har qanday davrda ham, uning amalga oshirilishi, chuqur dialektik jarayon bo'lib, muttasil o'zgarishlar va yangilanishlarni nazarda tutish zarurligini anglatadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikri yoshlarga oid davlat siyosatining bugungi kunlardagi eng asosiy maqsad-muddaolari va ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va anglashda nihoyatda muhim nazariy dasturulamal bo'lib hisoblanadi: «Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustozi-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yana-da oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga qulq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajodolarimizning boy merosiga tayanamiz. Farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarning zamonaviy bilim va kasb-hunararlarni, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lib, hayotdan munosib o'rinn topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi. — «Xalq so'zi», 2016-yil 8-dekabr.

Ushbu fikrdan ko‘rinadiki, aynan yoshlар siyosatini amalga oshirishda yuksak ma’naviyatli kishilarni, ya’ni ma’nan barkamol avlodni shakllantirmay turib, bugungi mustaqillik davriga mos yoshlarga xos bo‘lgan qadriyatlar, ideallar va tamoyillarni qaror toptirib bo‘lmaydi. Shu bilan birga, bu haqda fikr yuritganda, Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir» degan chuqur ma’noli so‘zлari bejiz aytilmagani yaqqol ko‘rinadi. Ushbu so‘zlar o’tgan asr boshida qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtida ham shunchalik muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda davlatimizning ushbu sohadagi siyosatida ma’naviy-ma’rifiy jabha va ta’lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, ma’muriy idoralar va mansabdar shaxslar, fuqarolik institutlarining bu yo‘nalishdagi tamoyillar va talablarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishiga erishish kabilar bu boradagi eng ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Bunda yoshlarga xos ijtimoiy xususiyatlar, ulardagi jismoniy va ma’naviy o‘zgarishlar, emotsional holatlар va xulq-atvor bilan bog‘liq jihatlarga alohida e’tibor qaratish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning qiziqish va ehtiyojlariiga mos turli-tuman o‘quvlar va mashg‘ulotlar, tashviqot va targ‘ibot tadbirlari, xilma-xil ko‘rinishdagi aksiyalar va reklama kompaniyalari tizimidан muayyan dastur va rejalar asosida majmuaviy tarzda foydalanish ma’naviy ta’sirning keng tarqalgan vositasi sifatida hozirgacha ham keng qo‘llangan va bundan keyin ham o‘z ahamiyatini saqlab qolaveradi.

Xullas, hozirgi islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida yoshlар bilan ishslashda barcha tashkilotlar va muassasalar oldiga butunlay yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Yangi jamiyat va demokratik davlat qurishning strategik maqsadlari ular faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini inson haq-huquqlarini va uning farovonligini ta’minlashga qaratishni taqozo etmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, faoliyati yoshlarga doir siyosatni amalga oshirish bilan bog‘liq

bo‘lgan barcha kishilarning yangicha qarashlarga ega bo‘lishini, zamonaviy ish usullarini egallashni, o‘z burchi va mas’uliyatini chuqur his etishi lozimligini anglatadi.

9-mavzu. O‘zbekistonning ta’lim sohasidagi strategiyasi va kadrlar tayyorlashning zamonaviy tamoyillari

Mavzuning asosiy savollari. Komil inson va barkamol avlodni tarbiyalash — O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismi. Mustaqillik davrida mamlakatning yangi ta’lim tizimiga o‘tishi va uning milliy g‘oya negizlariga asoslanganligi. Ta’limda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratik tamoyillar uyg‘unligi. Bu boradagi natija va yutuqlar, muammolar va yechimlar, barkamol avlodni tarbiyalashning ustuvor yo‘nalishlari va dolzarb vazifalari.

Mavzuning asosiy mazmuni. Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar umumiyligi aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 65 foizni tashkil etadi. Respublikamizda 1milliondan ziyod yosh oila mavjud bo‘lib, yurtimizdagagi jami oilalarining 20 foizini tashkil qiladi. Eng zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, bilim va tafakkur dunyosi keng bo‘lgan ana shu yoshlarsiz O‘zbekistonning kelajagini, jahon hamjamiyatidagi mustahkam o‘rnini tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu ortiqcha izoh talab etmaydigan haqiqat ekanligi barchaga ayon.

Shu sababdan ham, yangi jamiyat sari demokratik prinsiplarni amalga oshirish orqali ildamlayotgan davlatimiz uchun yoshlarning ma’naviy barkamol bo‘lib tarbiyalanishi muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, ular bugun qaysi g‘oya ruhida tarbiya topsalar, faoliyatlarini ham shu g‘oya asosida olib boradilar. Ta’kidlash joizki, o‘sib kelayotgan yosh avlod milliy g‘oya asosida tarbiya topsa, mamlakat kelajagi buyuk bo‘lishi muqarrardir.

Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda 1997-yilda O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Ushbu tarixiy hujjatlarda,

shuningdek, milliy dasturning ikkinchi sifat bosqichida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta’lim muassasalarini maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to‘ldirish, ularning moddiy texnika va axborot bazalarini mustahkamlash, o‘quv jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollariga muvofiq rahbar kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi hayotiy muammolar ko‘ndalang qilib qo‘yilgan edi.

Ta’lim sohasidagi milliy dasturlarni hayotga tatbiq etish boshlanganidan keyingi o‘n yilda 4 ming 680 tadan ziyod umumta’lim maktablari yangidan qurildi va kapital ta’mirlandi, zamonaviy mebel, laborotiriya uskunalari bilan jihozlandi, ularda kompyuter sinflari va lingafon xonalari tashkil etildi.

Oliy ta’lim sohasida ham tub islohotlar amalga oshirildi, bakalavr va magistrler tayyorlashning Yevropa tizimiga o‘tildi, mamlakatimizning 65 ta oliy o‘quv yurtida 850 yo‘nalish va mutaxassislik bo‘yicha 300 mingga yaqin talaba bilim ola boshladi.

Farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. 2008-yilga «Yoshlar yili», 2010-yilga «Barkamol avlod yili», 2010-yilga «Sog‘lom bola yili», 2016-yilga esa «Sog‘lom ona va bola yili», deb nom berilishi shu maqsadlarni amalga oshirish uchun qo‘yilgan muhim qadamlardir.

Bu boradagi dolzarb masalalar qatorida mamlakatimizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan umummilliy davlat dasturlarining ijrosini yangi bosqichga ko‘tarish, markaz va joylardi bunga javobgar bo‘lgan idoralarning mas’uliyatini oshirishga harakat qilindi. Keyingi yillarda bu masalada davlat idoralari bilan birgalikda qator nodavlat tashkilotlar ham faol ish olib borayotganini alohida ta’kidlash zarur. Ana shunday hamkorlik

natijasida yurtimizda o'tkazilayotgan «Nihol» va «Zulfiya» mu-kofoti tanlovlari, «Yangi avlod» va «Kelajak ovozi» ko'rik-tan-lovlari ming-minglab yosh iste'dod egalarini kashf etdi. Yosh-larimizning madaniy saviyasini yuksaltirish, ma'naviy olamini boyitish, san'at va go'zallikka intilishini kuchaytirish maqsadi-da yangi yilda respublikamizdagi bolalar musiqa va san'at mak-tablari faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009–2014-yillar-ga mo'ljallangan davlat dasturi ishlab chiqildi. Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekistonda ommaviy jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. O'quvchi va talabalar uchun uch bosqichli sport o'yinlari – «Umid nihol-lari», «Barkamol avlod» va «Universiada»lar tobora ko'proq om-maviy ko'lam kasb etdi.

Mustaqillik yillarida o'quvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash yuzasidan amalga oshirilgan ishlar, yaratilgan shart-sharoitlardan oqilona foydalangan ko'plab yoshlarimiz 1995–2011-yillar davomida kimyo, biologiya, fizika, matematika, informatika va rus tili fanlaridan xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, 20 ta oltin, 49 ta kumush va 175 ta bronza, jami 244 ta medalni qo'lga kiritdilar.

Har bir inson mehnatining samarasini ko'rishni orzu qila-di. Yurtimizda olib borilgan keng ko'lamli ishlar qisqa fursatlar ichida o'z samarasini ko'rsatmoqda. 1991-yilda respublikada xalq ta'limi tizimidagi barcha sport inshootlari, maktab sport zallari va suzish havzalari soni 5490 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2011-yil-ga kelib bu ko'rsatkich 7777 taga ortdi. Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan o'tgan davr mobaynida jami 1 204 ta sport inshooti, Maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasi to-monidan esa jami 3690 ta maktab sport zallari foydalanishga top-shirildi. Yaratilgan shart-sharoit va imkoniyalar bois sport bilan shug'ullanish istagidagi yoshlar soni tobora ortib bormoqda. Buni bugungi kunda sport bilan shug'ullanayotgan o'g'il-qizlar soni-ning 1991-yilga nisbatan qariyb o'n barobarga oshib, 1 615 103

nafarga yetganida ham ko‘rish mumkin. E’tiborli jihat shundaki, sport qizlar orasida ham tobora ommalashmoqda. Ayni damda 700 ming nafardan ziyod qizlar sportning ko‘pgina turlari bo‘yicha mashg‘ulotlarda doimiy ishtirok etmoqdalar.

Mamlakatimizda bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyati ham davlatimiz rahbarining nazaridan chetda qolgan emas. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 8-iyulidagi «Bolalar musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha 2009—2014-yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi to‘g‘risida»-gi Qarorining qabul qilinishi ushbu yo‘ldagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Mavjud 301 ta bolalar musiqa va san’at maktabi hamda 2 ta respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyida 44560 nafar o‘quvchiga 7445 nafar malakali o‘qituvchi va konsertmeyster 13 yo‘nalish bo‘yicha ta’lim berib kelmoqda.

Shu asosda 2009—2010-yillarda 52 ta bolalar musiqa va san’at maktablari qurilib, foydalanishga topshirildi, 139 nomdagи zamonaviy va milliy musiqa cholg‘u asboblari, mebel va uskunalar bilan ta’minlandi. Bundan tashqari, turli nomdagи o‘zbek va jahon kompozitorlari hamda mualliflarining asarlari, o‘quv qo’llanma va notalari, jami 35440 nusxadagi manba xarid qilinib, bolalar musiqa va san’at maktablariga yetkazib berildi.

Mustaqillik arafasidayoq yurtimizda ta’lim maskanlari, shuningdek, musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan siyosatning haqqoniyligini mustaqillik yillari to‘la isbotladi.

Xullas, istiqlol yillarida O‘zbekiston davlati faoliyatining eng ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri barkamol avlodni tarbiyalash masalasi bo‘lib kelmoqda. Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli aniq yo‘naltirilgan

chora-tadbirlarni amalga oshirish bu boradagi faoliyatning strategik maqsadi hisoblanadi.

Hozirgi kunda davlatimiz bor kuch-qudratini demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini qurishga yo'naltirgan. Mustaqillikni mustahkamlash bиринчи navbatda, yoshlarga, ularning amaliy faoliyatiga, axloqiy barkamolligiga, g'oyaviy-siyosiy yetukligiga, milliy o'zligini qanchalik chuqur va mukammal anglab olganliklariga ham bevosita bog'liq. Mustaqil fikr-lay oladigan, dunyoqarashi va tafakkuri keng haqiqiy insonlar davlatimiz taqdirini hal qiladilar. Shuning uchun ham kelajakka munosib ma'naviy boy yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning muhim muammolari sirasiga kiradi.

So'nggi yillarda yoshlarning ijtimoiy faolligi o'sib borayotganini kuzatish mumkin. Bu borada ularda shakllanayotgan ijtimoiy va mafkuraviy tushuncha va g'oyalarning ahamiyati kattadir. Yoshlar tafakkurida milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni Vatanga muhabbat, ajdodlarimiz merosiga, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Shu ma'noda, bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ushbu sohada amalga oshirilayotgan tub islohotlar ham mazkur jabhadagi ezgu intilishlarning mantiqiy dovomi bo'immoqda, deyish mumkin. Davlatimiz rahbari tomonidan «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanтиrishning Harakatlar strategiyasi to'g'risida»ni 2017-yil 7-fevralda imzolangan Farmoni va u bilan tasdiqlangan Harakatlar strategiyasida aks etgan va bevosita yoshlar tarbiyasiga bag'ishlangan g'oyalarining mazmun-mohiyati va asosiy yo'nalishlari ham buni yaqqol isbotlaydi.

Bu jihatdan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabrdagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'layotgani va yoshlar omilining alohida e'tiborni talab qilayotgani, «Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi

farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. ... Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir» degan fikri BMTga a'zo davlatlar vakillarining diqqatini o'ziga qaratgani aslo bejiz emas. Prezidentimiz tomonidan Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining 2018-yil 10-iyundagi majlisida ilgari surilgan «BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasi»ni ishlab chiqish va qabul qilish to'g'risidagi taklif ham bu jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining keyingi 2 yilda qabul qilingan «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida» va «O'zbekiston Respublikasi yoshlari kunini belgilash to'g'risida»gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi Qarorlari, «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida», «Istiqlolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish «Iste'dod» jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida», «Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Farmonlari kabi muhim hujjalarni mavzumizning nazariy va metodologik asoslarini belgilaydi, uning huquqiy asoslarini yana da mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz yosh avlodining katta qismi ta'lim tizimi bilan qamrab olingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrda qabul qilingan «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi va «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» Qarorlari ushbu yo'nalishdagi

huquqiy asoslar doirasini yanada kengaytiradi, albatta. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lifi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018-yil 26-yanvarda qabul qilgan Farmoni to'g'risida ham ana shunday deyish mumkin.

Ushbu tizimda oliy ta'lif bosqichi nihoyatda muhim davr hisoblanadi. Bu davrda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir yoshlarni tarbiyalashda oliy ta'lif sohasida yagona davlat siyosati amalga oshiriladi, pirovard natijada, mamlakat va xalq manfaatlarini ro'yogha chiqarishga qodir bo'lgan yosh avlod shakllantiriladi. Keyingi yillarda ushbu sohani har tomonlama rivojlantirish, oliy ta'lif tizimini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi «Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2017-yil 27-iyuldagagi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3151-sonli Qarori, 2017-yil 26-sentyabrdagi «Oliy ta'lif muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-3290-sonli Qarori kabi muhim hujjatlar qabul qilingani bu sohada muhim yangilanishlar ro'y berayotgанинning yaqqol misolidir.

Ana shu jihatdan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustda qabul qilingan «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorini ham alohida ta'kidlash lozim. Ushbu soha uchun muhim ahamiyat kasb etgan mazkur hujjatda, jumladan oliy ta'lif tizimidagi tarbiya jarayoniga ham aloqador bo'lgan ba'zi muammolarni bartaraf etish, yosh avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirishga alohida ahamiyat qaratilgan. Mazkur Qaror bilan «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ular-

ga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar Dasturi» tasdiqlangan esa, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlan-tirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategi-yasiga muvofiq tarzda, ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko’tarishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida bu soha-da ham chuqur mazmundagi islohotlar olib borilmoqda, oliv ta’lim tizimi va undagi tarbiyaviy jarayonlar yangi bosqichga ko’tarilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori buning yaqqol misolidir.

Ana shu sohadagi dolzarb vazifalarni to‘g‘ri idrok qilish va o‘z vaqtida bajarish uchun mamlakatimizni isloh etish va yangilash-ga qaratilgan tub o‘zgarishlarni amalga oshirishda ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Qarorlari va Farmonlari, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Davlatimiz rahbarining 2018-yil 7-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 26 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan majlisdagi nutqi bilan birga Vazirlar Mahkamasi qaror-lari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining ma’naviy-ma’rifiy masalalar bo‘yicha qabul qilgan hujjatlarini talabalarga o‘z vaqtida yetkazish va ularda belgilangan vazifalarning bajarilishini ta’minalashi alohida ahamiyat kasb etadi, albatta.

Bu jihatdan, 2017-yilda O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi tashkil etilishi, 2016-yilda yangi tahrirdagi «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun, 2017-yil 5-iyulda O‘zbekiston Prezidentining «Yoshlarga oid davlat siyosati sa-maradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi Farmoni va 2017-yil 18-iyulda «O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir

kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilinishi keyingi yillarda bu sohadagi islohotlarning tadrijiy va tizimli tarzda amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

Ma’lumki, mamlakatimizda eng kichik yoshlarga ham davlat g‘amxo‘rligi maktabgacha ta’lim sohasidagi butun faoliyatni qamrab oladi va bu boradagi ishlar uzlusiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanadigan ushbu sohaning rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha ta’lim sohasida milliy g‘oyaning instituallashuvi va substantsional lashuviga katta ta’sir ko‘rsatayotgan mazkur tizim oila va boshqa ta’lim-tarbiya sohasi tashkilotlari bilan birga yurtimizda har tomonlama sog‘lom va barkamol avlodni, maktabgacha bo‘lgan kichik bolalarni tarbiyalash va ularni maktabga tayyorlash uchun tizimli faoliyat olib boradi.

Mutaqillik yillarida bu sohada ko‘plab ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan, «...o‘tkazilgan tahlillar maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasи va natijasi yetarli darajada emasligini ko‘rsatmoqda» deyiladi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrda qabul qilingan «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida. Ushbu Farmonda alohida ta’kidlanganidek, so‘nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta’lim muassasalari soni 45 foizdan zi-yodroq kamaygan bo‘lib, bugungi kunda respublika bo‘yicha bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etadi.

Farmonda alohida ta’kidlanganidek, maktabgacha ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talabga javob bermaydi. Maktabgacha ta’lim tizimida variativ dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan hamda taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo‘naltirilgan maxsus davlat ta’lim dasturlari tatbiq qilinmagan. Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida faoliyat yuri-

tayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bu bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermaydi¹.

Ana shu qayd etilgan kamchiliklarga barham berish uchun qabul qilingan «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident Farmoni bilan, «uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari hamda ularning tuman (shahar)lardagi bo'limlari» tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoniga binoan, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari belgilab berilgan bo'lib, ular orasida maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish asnosida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdag'i bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish

¹ «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2017-yil 3-oktyabr, <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

uchun shart-sharoitlar yaratishga alohida ahamiyat berish lozimligi ta'kidlangan.

Ushbu ta'kidlanganlar bo'yicha faoliyatni tizimli tashkil qilish va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 16-avgust kuni o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini so'zsiz ta'minlash, mактабгача та'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, tizimning boshqaruв tuzilmasini tashkil etish, mактабгача та'lim muassasalariga 5–6 yoshli bolalarni 100 foiz qamrab olish choralarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Mактабгача та'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda mактабгача та'lim tizimini isloh qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qarorda keng ko'lamlı tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Mактабгача та'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Qaroriga sharhda ta'kidlanganidek, mактабгача та'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, mактабгача та'limni har tomonlama rivojlan-tilish, tarbiyalanuvchilarning bilimi va ma'naviy-axloqiy darajasini yanada yuksaltirish hamda «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini mактабгача та'lim qismi bo'yicha amalga oshirishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va ularga rioya etilishini nazorat qilish bu yo'naliшhdagi ustivor vazifalar sirasiga kiradi.

Shu bilan birga, mактабгача та'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyati samaradorligini oshirish, pedagog va rahbar xodimlarning malakasi ni oshirish jarayonini samarali tashkil etish, bunda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, xorijiy mamlakatlar ning ilg'or tajribasidan foydalanish, ta'lim muassasalarini yuqori malakali, zamonaviy bilimga ega kadrlar bilan ta'minlash ham ushbu yo'naliшhdagi faoliyatning tarkibiy qismidir. Bu o'z navbatida,

mazmun va sifat jihatidan zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, maktabgacha ta'lif muassasalarida davlat talablari bajarilishi-ning tizimli monitoringini olib borish, mamlakatimizning ta'lif sohasida erishgan yutuqlarini xalqaro darajada keng targ'ib qiliш, nodavlat maktabgacha ta'lif muassasalari tarmog'ini rivojlantirish ham bu sohadagi muhim vazifalar sirasiga kiradi¹.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi, «Ta'lif va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi Qarorlari hamda «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lifi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martda qabul qilingan «Umumiy o'rta ta'lif to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» va 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifining davlat ta'lif standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2017-yil 21-apreldagi «Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori², «Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorlari esa mazkur yo'nalishdagi islohotlarni amalga oshirish bo'yicha faoliyatning davomli jarayon sifatida tizimli tashkil qilin-ganini yaqqol isbotlaydi. Ana shu vazifalar yana o'quv-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, yangi peda-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi Qaroriga sharh. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2017-yil 3-oktyabr, <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

² «Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. — www.xs.uz. 2017-yil 21-aprel, №79(6773)

gogik va axborot texnologiyalarini, ta’lim-tarbiyaning samarali shakl va usullarini joriy etish, mактабгача та’лим muassasalarida yosh bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik va yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga mustaqillik, milliy o’zlikni anglash g’oyalarini yanada chuqur singdirish, «ommaviy madaniyat» ko‘rinishidagi yot g’oyalarga qarshi immunitetini mustahkamlashga yo’naltirilgan tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladi.

Shu bilan birga, alohida ta’kidlash joizki, ta’limning uzviy qismi va maktabgacha ta’limdan yuqori bosqich bo’lgan xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimi ham o’smirlar qalbi va ongiga milliy g’oya va uning tamoyillarini singdirishning eng muhim vositalardan biridir. Ushbu ta’lim bosqichlari mактаб va oliy ta’lim yoshidagi bolalar va o’smirlarning ta’lim-tarbiyasini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish, o’sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko’tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o’quv-tarbiya jarayonida ta’limning innovation shakllari va usullarini qo’llashga ko’maklashadi¹.

Bu jihatdan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi «Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi Qarori muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu qarorda ta’kidlangani kabi, mazkur sohadagi ishlar holatini tanqidiy tahlil qilish xalq ta’limi tizimi boshqaruvini tashkil etish, davlat umumiyl o’rta ta’lim muassasalarining faoliyatini amaliy jihatdan muvofiqlashtirish, ularning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo’yicha tadbirlarni moliyalashtirishda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjud.

¹ «Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida» O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori – O’zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 6-sentyabr 2018, <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

Holbuki, mamlakatimizdagi mavjud umumta'lim muassasalarini va ushbu muassasalardagi o'quvchilar va o'qituvchilar soni hamda salmog'i nihoyatda katta va bu omilning jamiyatimiz ha-yoti va milliy g'oya amaliyotidagi o'rni juda muhim. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi «Xalq ta'lmini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarorida umumta'lim muassasalarining moddiy-texnik holatini yaxshilash, shu orqali xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish, o'quv-tarbiya jarayoniga boshqaruvning yangi mexanizmlarini va sifat standartlarini joriy etish, jamiyatda o'qituvchi kasbining nufuzini oshirishga alohida ahamiyat qaratilgan.

Mazkur qarorda ushbu sohadagi dolzarb vazifalarni bajarish uchun umumiyligi o'rta va maktabdan tashqari ta'limni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalash, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash, ushbu sohada yagona davlat siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining muvofiqlashtiruvchi roli va mas'uliyatini kuchaytirish, shuningdek, vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mazkur yo'nalishdagi vazifalari, funktsiyalari va vakolatlarini aniq belgilash va tartibga solish kabilalar xalq ta'limi tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilangan.

Shu bilan birga, qarorda xalq ta'limi muassasalarini xodimlarini moddiy rag'batlantirishni va ijtimoiy muhofaza qilishni yaxshilash, ularning samarali ishlashi uchun munosib sharoitlarni yaratish, zarur tashkiliy-huquqiy va texnik-iqtisodiy sharoitlarni yaratish yo'li bilan umumiyligi o'rta va maktabdan tashqari ta'lim sohasida nodavlat xizmatlarni ko'rsatishga oid faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar (keyingi o'rinnlarda — nodavlat umumta'lim tashkilotlari) tarmog'ini yanada rivojlanterish, ushbu sohaga davlat-xususiy sheriklikning turli shakllarini samarali joriy etish bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlar ham belgilab

berilgan. Xalq ta'limi tizimiga ilg'or xorijiy tajribani, o'quv-tarbiya jarayoniga zamонавиј педагогик тeхнологијаларни, шу jumladan, ta'lim berishning innovatsion usullarini joriy etish, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish, fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish ham Qarorda ko'zda tutilgan ustuvor yo'nalishlar qatoriga kiradi¹.

Mamlakatimizda keyingi yillarda kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va mazmunini yangilashni ta'minlash maqsadida qator tizimli chora-tadbirlar ko'rildi. Bularni qayd etish bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Umumi o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga sharhda yana bir bor ta'kidlanganidek islohotlar amalga oshirilgan yillarda umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini rivojlantirish, 12-yillik majburiy ta'limga o'tish natijalarini har tomonlama tahlil qilish hozirgi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi bugungi kun talablariga javob bermasligini va tubdan isloq qilishga muhtoj ekanligini ko'rsatdi².

Ushbu sohadagi mavjud muammolarni tizimli hal etish, ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribasi asosida kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish, mavjud kasb-hunar kollejlarining moddiy bazasidan oqilona va maqsadli foydalanishni ta'minlash, shuningdek, tegishli vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari va yirik korxonalarga idoraviy bo'ysunuvchi kasb-hunar kollejlarida malakali va mehnat bozori talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash

¹ «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 6-sentyabr 2018-yil. <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

² «Umumi o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga sharh. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 26-yanvar 2018-yil. <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, aholi barcha qatlamlarining ehtiyojlarini hisobga olish va bandligini oshirish maqsadida 2017-yil 25-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lifi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmonda umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi rivojlanishini tahlil qilish natijalari tizimda muayyan kamchiliklar borligidan dalolat beradi. Bunda avvalo, kasb-hunar kollejlari aholi yashash joylariga yaqin bo'limgan masofada joylashtirilganligi, ayniqsa, hududlarda transport infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda ob-havo sharoitlari tufayli o'quvchilarning vaqtiga bilan ommaviy ravishda dars mashg'ulotlarini qoldirishlariga sabab bo'layotgani qayd etilgan. Kasb-hunar kollejlari moddiy-texnik jihozlanishining o'rtacha darjasini atigi 56 foizni tashkil etishi, 31 ta kasb-hunar kollejida o'quv ustaxonalari umuman mavjud emasligi va ularning moddiy-texnika bazasini shakllantirishning mayjud amaliyoti mazkur ta'lim yo'nalishlariga javob bermasligi ham bu boradagi umumiy kamchiliklardan bo'lib hisoblanadi¹.

Farmonga ko'ra, 2017–2018-o'quv yildan boshlab 11 yillik majburiy umumiy o'rta ta'lif tizimiga o'tilishi jamoatchilik, ota-onalar va 9-sinflar bitiruvchilari tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi. 2019–2020-o'quv yildan boshlab kasb-hunar kollejlariga o'qishga qabul qilish umumta'lif maktablarining 11-sinflari bitiruvchilari hisobidan, ixtiyorilik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo'lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo'lgan o'qitish muddatlarida amalga oshiriladigan bo'ldi².

¹ «Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lifi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga sharh. – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 26-yanvar 2018-yil, <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

² O'sha manba.

Ushbu Farmonning qabul qilinishi mayjud kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika bazasidan oqilona va maqsadli foydalishni ta'minlash, malakali va mehnat bozori talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, aholi bandligini ta'minlash va umuman kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, Farmonda ko'zda tutilganidek, yoshlarni har tomonlama barkamol qilib, vatanparvarlik va milliy mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashga, shuningdek, o'quvchilarda boy ilmiy, madaniy va ma'naviy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni yangi pedagogik shakllar va usullar asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

Bu jahhada yana, davlat tomonidan bugungi kunda amalga oshirilayotgan ishlarning isboti sifatida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2017-yil 27-iyuldaggi «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3151-sonli Qarori, 2017-yil 26-sentyabrdagi «Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PQ-3290-sonli Qarori kabi o'zining alohida ma'naviy-ma'rifiy mazmun-mohiyatiga va institutsional xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar qabul qilinganini misol tarzida ko'rsatish mumkin.

Ma'lumki, mamlakatimizdagi mavjud oliy ta'lim muassasalari ta'lim bilan birga, tarbiya sohasidagi umumiyligda pedagogik faoliyatdan tashqari, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni, ya'ni keng fikrli, zamонавиyligda tafakkurga ega, yuksak iqtidorli yosh avlodni tarbiyalashga munosib hissa qo'shamoqdalar. Bu sohada OTMlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy maqsadi yuksak ma'naviyat tamoyillari va milliy qadriyatlarga sadoqat bilan xizmat qiladi-

gan, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir yoshlarni tarbiyalashta qaratilgan, deyish uchun barcha asoslar bor¹.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida bu sohada ham chuqur ma'zmundagi islohotlar olib borilmoqda, milliy g'oya targ'iboti yangi bosqichga ko'tarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori buning yaqqol misolidir. Mazkur qarorga ko'ra, OTMlarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori lavozimi o'rninga yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektori lavozimi joriy etilgani va g'oyaviy tarbiya masalalari bilan shug'ullanish uning xizmat faoliyatining tarkibiy qismiga aylangani ham fikrimizning daliidir².

Shu bilan birga, fan va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari bilan ta'labo yoshlarni, yosh olim va professor-o'qituvchilarni tizimli tanishtirish uchun xalqaro va mahalliy ilmiy-texnik axborot bazalari, xorijiy va milliy davriy ilmiy nashrlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish, yoshlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati olib borishi uchun ilmiy munozara-klublar, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish guruhlarini shakllantirish, ularning samarali faoliyatini ta'minlash uchun tegishli sharoitlarni yaratish kabilar ham respublikamiz OTMlarning faoliyat doirasiga kiradi.

Ayni paytda, fanlarning zamonaviy tendensiyalari, ilmiy-texnik muammolari bo'yicha yoshlarni tadqiqot ishlariga jalb etish,

¹ Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi. – T.: O'zbekiston, 2006. – 45-bet.

² «Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. – <http://uza.uz/oz/documents/oliy-talim-muassasalaridatalim-sifatini-oshirish>.

ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlantirish sohasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek dolzarb mavzularda ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlar, ilmiy-ma'rifiy yo'nalishdagi tanlovlardan tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq faoliyatda OTMlar keng qamrovli faoliyat olib bormoqdalar. Oliy ta'lim tizimida milliy g'oya ta'sirchanligini oshirish va g'oyaviy tarbiyaning imkoniyatlarini yanada kuchaytirishga qaratilgan hujjatlar orasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Talabalar ilmiy-ma'rifiy markazini tashkil qilish haqidagi 697-sonli qarori muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu sohada barcha oliy o'quv yurtlari uchun umumiy mezonlar asosida shakllanadigan dasturlarda nazarda tutiladigan keng qamrovli faoliyat yo'nalishlari yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining mazmun-mohiyati, hozirgi davrda xalqimizning qanday islohotlar va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirayotgani bilan uzziy bog'liq ekani shubhasiz.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bugungi murakkab davrda tarbiya jarayonini optimallashtirish va uning samarasini yana oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan muammolarni hal etmasdan, ushbu yo'nalishdagi targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilonan foydalanmasdan turib bu boradagi dolzarb vazifalarni amalga oshirib bo'lmaydi, albatta. Ayni paytda, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadigan ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy jabha bilan birga, ushbu sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlash masalalari ham o'z ahamiyatini saqlab qolaveradi.

Bu boradagi dolzarb masalalar qatorida mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan umummilliy davlat dasturlarining ijrosini yangi bosqichga ko'tarish, markaz va joylardagi bunga javobgar idoralarning mas'uliyatini oshirishga harakat qilindi. Ta'kidlash zarurki, mazkur yo'nalishda yigit-qizlarimizning olgan bilimi va kasbini amaliy hayotda namoyon etishi

va ishlatishi uchun, o'quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yoshlari-mizning hayotda o'ziga mustahkam o'rin egallashi uchun ko'mak va keng imkoniyatlar tug'dirib berish masalasi muhim ahamiyatga ega.

Yoshlar kamoloti haqida gapirganda, uni amalga oshirishda hukumat tomonidan ularning ijtimoiy-iqtisodiy himoyalanishi-ga ham alohida e'tibor berilib kelinayotganini ta'kidlash lozim. Jumladan, umumiy o'rta ta'lif maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining bepul o'quv qurollari bilan ta'minlanishi, ishsiz yoshlarni mehnat birjalari orqali kasbga yo'naltirish, qayta tayyorlash va ish bilan band qilish, kam ta'minlangan oila farzandlari, nogironlar va mehribonlik uylaridagi bolalarni ijtimoiy himoyalash va boshqa o'nlab tadbirlar shular jumlasidadir. Shuningdek, qonunda yoshlarning ta'lif olishi, xalqaro alo-qalardagi ishtirokining muhofaza qilinishi, voyaga yetmaganlar bilan ishslash, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash masalalari xususida ba'zi me'yorlar belgilab olindi.

Yoshlarning chet el ta'lif muassasalarida o'qishi, malakasini oshirishi, ishlashi, xalqaro sport va boshqa musobaqalar, tanlovlar, olimpiadalarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratib berildi. Bu borada yoshlarning ulkan yutuqlarni qo'lga kiritib, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, sport va harbiy vatanparvarlik kabi sohalarida ishtirok etib, uning rivoji uchun o'z hissasini qo'shib kelayotgani yuqoridagi tadbirlar mevasi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xullas, istiqlol yillarida O'zbekiston davlati faoliyatining eng ustuvor strategik yo'nalishlaridan biri barkamol avlodni tarbiyalash masalasi bo'lib kelmoqda. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini yangi asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish boyicha keng ko'lamli aniq yo'naltiril-

gan chora-tadbirlarni amalga oshirish bu boradagi faoliyatning strategik maqsadi hisoblanadi.

Bugungi kunda komil insonni tarbiyalash va barkamol avlodni voyaga yetkazish bo'yicha faoliyat strategiyasi o'zining yangi bos-qichiga qadam qo'ydi. Endilikda ushbu strategiyani hayotga joriy etishda davlatning innovatsion va investitsion faoliyatini yo'lga qo'yish mexanizmlarini ishlab chiqish, uni maqsadli, muntazam va davomiy tashkillashtirish dolzarb vazifaga aylanadi.

Bu davr mamlakatni modernizatsiya qilish, jamiyatni demokratlashtirish va boshqaruvni liberallashtirish bilan birga islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadlari bilan uziyi bog'langan bo'lib, yoshlar tarbiyasi va ta'lim islohotlari ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi va davlatimiz faoliyatining dolzarb vazifalari qatoridan o'rinni olgani bejiz emas.

Shuning uchun ham yangilanayotgan jamiyatimizda jismonan sog'lom va baquvvat, ma'nан barkamol avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali komil insonlarni voyaga yetkazishga alohida e'tibor berilmoqda. Vatanimizda sog'lom avlod harakatining keng tus olgani, kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor maqsad va bu boradagi taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamlardir.

10-mavzu. Mamlakatimizning Harakatlar strategiyasida barqaror taraqqiyot va informatsion xavfsizlikni ta'minlash vazifalari

Mavzuning asosiy savollari. Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti va jamiyat xavfsizligini ta'minlash strategiyasining asosiy yo'nalishlari. Tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlash, hududlar va chegaralar daxlsizligi, inson salomatligi, ekologiya va oziq-ovqat xavfsizigini ta'minlash strategiyasi. Milliy xavfsizlik tizimida iqtisodiy-ijtimoiy, harbiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy xavfsizlikni ta'minlash vazifalari. Axborotlashayotgan jamiyat va aholini informatsion himoyalashning

strategik tamoyillari. Milliy manfaatlarni himoyalash va milliy xavfsizlikni yanada kuchaytirishning dolzarb vazifalari.

Mavzuning asosiy mazmuni. Har bir mustaqil davlat uchun o‘zi mansub jamiyatni ichdan mustahkamlash, unda yashayotgan fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash ushbu mamlakatning barqaror taraqqiyotiga erishish borasidagi faoliyatning bosh yo‘nalishi va asosiy mezonidir. Ana shu sababdan ham, istiqlolning ilk yillardanoq yurtimizning istiqbolini belgilashda mamlakatimiz hayotida barqarorlik va xavfsizlik masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» Farmonida ham bu masalalarga alohida ahamiyat berilgani ham aslo tasodif emas.

Bugungi kunda mamlakatimizning rivojlanish istiqbollarini ta’minlash vazifalari tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash borasidagi faoliyatda chuqur o‘rin olishi bilan xarakterlanmoqda. Dunyoni mafkuraviy jihatdan egallash uchun tinimsiz harakat qilinayotgan hozirgi sharoitda kimning g‘oyasi mustahkam poydevorga ega, kuchli, fikrlari tiniq, hayotiy, zamon bilan ham-nafas bo‘lsa o‘sha g‘alaba qozonishini ko‘rsatmoqda.

Keyingi yillarda xavfsizlik va barqarorlikka tahdid soluvchi aqidaparastlik, xalqaro terrorizm va narkobiznes kabi global muammolar bir yoki ikki mamlakat doirasida hal bo‘ladigan masala emasligini ko‘pchilik anglab yetmoqda. Har qanday umumbashariy muammolar kichik-kichik illatlardan boshlanishi mumkinligi, bu illatlar noto‘g‘ri xatti-harakat yoki harakatsizlik oqibatida yuzaga kelishi, o‘zi bilan boshqa illatlarni yetaklab keluvchi boqimandalik, beparvolik, loqaydlikning salbiy oqibatlari bilan bog‘liq hayotiy misollar ko‘p.

Har qanday qudratli davlat o‘z ichki muammolarini o‘zi hal qila oladi, ammo umuminsoniy ba’zi muammolar o‘zidan dahshatliroq boshqa umumbashariy illatlarni ham yetaklab kelmoqda. Bugungi kunda ularning narkobiznes, xalqaro terrorchilik va shu

kabilar bilan bog'lanib ketgani hech kimga sir emas. Bu esa har bir oilada, mahallada, butun jamiyatda hushyorlikni oshirishni talab qilmoqda. Keng ma'noda ana shunday illatlarni davlatlararo hamkorlik asosida izchillik bilan bartaraf qilish zamon tala-bi bo'lib qoldi.

Mustaqilligimizga raxna solishi mumkin bo'lgan turli kuch va oqimlar mavjudligi bugun hammamizga ayon. Istiqlolga erish-ganimizdan beri mamlakatimiz har xil shakldagi turli tahdidlarni ham boshidan kechirdi. 1991-yil dekabrda Namanganda, 1999-yil 16-fevralda Toshkentda ro'y bergen fojiali voqealar, o'sha yili Yangiobodda, 2000–2001-yillarda Surxondaryoning Sariosiyo va Uzun tumanlarida sarhadlarimizga qilingan tajovuz va xurujlar unchalik uzoq tarix emas.

Xalqaro terrorizm tahdidi tobora kuchayib borgani sari, o'sha davrdayoq, O'zbekiston tashabbusi bilan terrorchilikka qarshi bir qator davlatlar uyusha boshladi. 2000-yil 20–21-aprel kunlari Toshkentda Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyatining davlatlararo kengashi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston rahbarlari mintaqaviy xavfsizlik va mamlakatlararo munosabatlarga doir masalalarni muhokama qildilar hamda «Terrorchilik, siyosiy va diniy ekstremizm, xalqaro uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash va mintaqqa davlatlariga tahdid soladigan boshqa xavf-xatarning oldini olishga qaratilgan hamkorlik to'g'risida»gi shartnomani imzoladilar. Bu Markaziy Osiyodagi mavjud vaziyatdan kelib chiqqan muhim va oqilona qadam edi.

Terrorchilik, aqidaparastlik, narkobiznes kabi jamiyat uchun yet bo'lgan yaramas illatlarni va uning kirdikorlarini deyarli butun dunyo tushunib yetdi. 2001-yil 14–15-iyun kunlari Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlarining sammitida terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi «Shanxay konvensiyasi» imzolandi. Ayni paytda bar-cha davlatlar chegara bilmaydigan bu muammolarni bartaraf qilish maqsadida birlashmoqdalar.

Terrorizm, xalqaro jinoyatchilik va ekstremizmnning kuchayib borishi, kamikadze guruhlarning tayyorlanishi eng qudratli harbiy sanoat majmulariga ega davlatlarning ham xavfsizligiga raxna sola boshlagan edi. Terrorizmga qarshi kurashda barcha davlatlar yakdil fikr bildirgan bo'lsalar-da, amaliy faoliyatda ayrim davlatlar qat'iyatsizlik qilgan bo'lsalar, ayrimlari ochiqdan-ochiq o'zlarining siyosiy manfaatlari yo'lidagi tor maqsadlarni ko'zlaydilar. Holbuki, terrorizmni tag-tomiri bilan qo'porib tashlashga qaratilgan urush aslida, uzoq muddatli kompleks siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi.

Yurtimizda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning kafolati sifatida millatlararo totuvlik va diniy konfessiyalararo ham-jihatlikni saqlab olish va rivojlantirishning shartligi ta'kidlagan. Ayni paytda mamlakatimizda umummiliy manfaatlarga har tomonlama mos keladigan siyosat yuritish va tashqi maf-kuraviy tahdidlarga qarshi kurashish, mamlakatimiz barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashning muhim sharti sifatida qaralmoqda.

Har qanday ijtimoiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishning ma'lum bir bosqichi, ya'ni o'tish davrida jinoyatchilik va korrupsiya kabi illatlar yuzaga kelishi mumkin. Jinoyatchilikning ko'payishi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy islohotlar yo'liga ham jiddiy to'siqlar qo'yadi. Qolaversa, mamlakat taraqqiyoti va belgilangan maqsadlarga erishishga qarshi tahdidlar tug'dradi. Jinoyatchilikning o'sishi va avj olishi, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik illatlarini yuzaga keltiradi. Bunday jarayon o'z navbatida demokratik islohotlarni amalga oshirishga ma'lum bir to'siqlarni qo'yadi. Fuqarolik jamiyatiga o'tish avvalo jamiyat-dagi korrupsiya, millatchilik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, tanish-bilishchilik kabi illatlardan imkon qadar tezroq xoli bo'lishni taqozo etishi bois, hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va jinoyatchilikka qarshi qat'iy kurash olib borish maqsadida bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Har qanday jamiyat va tuzum o'zini o'zi himoya qila olsagina ko'zla~~n~~gan maqsadga erishadi. Himoya — qurollar kuchining salohiyati bilan bog'liq muhim strategik masaladir. Markaziy Osiyo mi ntaqasidagi harbiy siyosiy-beqarorlik mamlakat mudofaasiga al~~ch~~ida ahamiyat berilishini talab qilganligini hayotning o'zi tasdiqladi. Turli etnik va diniy guruhlardan iborat millionlab aholi yashaydigan mintaqamiz XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qurol-aslahalar to'plangan yerga aylanib qolgan edi. Harbiy-siyosi~~y~~ vaziyatda beqarorlik, terrorizm xavfi kuchaygan edi. Mamlaka~~t~~ timizning janubiy va janubi-g'arbiy tomonida rivojlangan armi~~y~~aga ega bo'lgan va davlatlar o'rtasidagi o'zaro va fuqarolik urus~~hl~~ari kuchayib, bizga o'z ta'sirini o'tkazishi real holatga aylanib borayotgan edi. Masalaning yana bir xavfli tomoni dastlabki siyosiy bo'ronlar davrida yosh O'zbekiston Respublikasi ga turli yo'llar bilan ta'sir o'tkazishga, uni demokratik, dunyoviy rivojlanis~~h~~ yo'lidan qaytarib, diniy davlat tuzishga harakat qiluvchi kuch~~l~~ar paydo bo'la boshlagan edi.

Minta~~q~~adagi notinch harbiy-siyosiy vaziyat O'zbekistonga o'z mudofaa tizimini vujudga keltirishni hayotiy zarurat sifatida namoyon etdi. Respublika Oliy kengashining 1991-yil 31-avgustida bo'lib o'tgan navbatdan tashqari 12-chaqiriq 6-sessiyasida qabul qilin~~g~~an «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida»gi bayonotda «Davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi va erkinliklarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasida Mudofaa ishlari vazirligi va Milliy gvardiya tuzildi. Respublika hudудida joylas~~h~~gan SSSR ichki ishlar vazirligi, SSSR davlat xavfsizlik komiteti hamda ichki qo'shnlari O'zbekiston Respublikasi yurisdiks~~s~~iyasiga olinadi», deb ko'rsatilgan edi. Bu o'sha kuniyoq «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslarini to'g'risida»gi qonun bilan mustahkamlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentyabrdagi Farmoni bilan Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktyabrdagi Qaroriga

asosan Mudofaa ishlari vazirligining huquqiy maqomi, tuzili-shi va Nizomlari tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasini xalqaro huquqning subyekti sifatida o'z armiyasini tuzishga qaror qilishi, mamlakat hududidagi davlat harbiy mashinasi barbod bo'lishi-ning oldini oldi, yangi vujudga kelgan davlat xavfsizligining hi-moyasi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarining vujudga ke-lishida O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashini 1992-yil 14-yan-vardagi «O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv muassasalari to'g'risida»gi Qarorning qa-bul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'tgan yillar davo-mida «Mudofaa to'g'risida»gi Qonun (1992-yil 3-iyul), Oliy Majlisning «Harbiy qasamyod to'g'risida»gi Qarori (1992-yil 3-iyul), «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi (1992-yil 3-iyul), «Muqobil xizmat to'g'risida»gi (1992-yil 3-iyul) Qonunlar, mamlakat Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari harbiy qismining jangovar bayrog'i to'g'risida»-gi (1993-yil 22-noyabr), «Milliy xavfsizlik kengashini tashkil et-ish to'g'risida»gi (1995-yil 1-may) Farmonlari, Oliy Majlisning «O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasi to'g'risida»-gi qarori (1995-yil 30-avgust), «O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarining Nizomlari» (1996-yil dekabr), «O'zbekiston Res-publikasi milliy xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Qonun (1997-yil 29-avgust), O'zbekiston Respublikasining bosh-qa qonunlari, Prezident farmonlari shu tariqa yuzaga keldi.

Islohotlarning ikkinchi davri 2000–2010-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda Mudofaa vazirligining Bosh shtabi qurolli kuchlar birlashgan shtabiga aylantirildi; 2000-yil 3-fevralda milliy xavf-sizlik kengashida davlat harbiy siyosatining asosiy yo'naliishlarini belgilab beruvchi harbiy Doktrina qayta ko'rib chiqilib, mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyat hamda qurolli kuchlari islohotlari vazifalardan kelib chiqqan holda Mudofaa doktrinasi qabul qilindi; Mudofaa vazirligi va birlashgan shtab vazifalari ajratildi; Mudofaa vazirligi, Chegara va ichki qo'shinlar qo'shilmasi va qismlarining

tubdan yangi jangovar, texnik, ta'minot tizimi joriy etildi; Jangovar harakatlarni olib borish yuzasidan asosiy nizomiy hujjatlar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar yaratildi va qayta ishlandi; Serjantlar tayyorlash maktabi tashkil etildi.

«Mudofaa to'g'risida»gi Qonun (2001-yil 11-may)da mudofaani tashkil etishning hamda O'zbekiston qurolli kuchlarini boshqarishning huquqiy asoslari, mamlakat mudofaasini ta'minlashda davlat tashkilotlarining vakolatlari, shuningdek fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning davlat mudofaasini ta'minlashdagi vakolatlari belgilab berildi. «Mudofaa to'g'risida»gi Qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti — Qurolli kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonidir.

Mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyat, qurolli kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, mamlakatimiz yoshlarining harbiy xizmatga qiziqishini kuchaytirish hamda davlat mudofaa qudratini yanada mustahkamlash maqsadida «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonun (2002-yil 12-dekabr) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи sessiyasida tubdan qayta ishlangan asosda qabul qilindi. Qonunga ko'ra harbiy xizmatni tashkil etish masalalari takomillashtirildi.

Butun dunyo davlatlari qatori, bizning mamlakatimizda ham, hozirgi globallashuv sharoitida axborotning tez sur'atlar bilan o'sishi, axborot texnologiyalari sohasining shiddat bilan rivojlaniishi hamda ijtimoiy hayotning turli sohalarini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish darajasining ortib borayotgani bilan bog'liq jarayonlar jamiyat hayotining barcha sohalariga nihoyatda katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Aynan ana shu omilning ahamiyati ortib borishi mazkur jaryonning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lgan axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanish barobarida milliy axborot tizimlarini yanada takomillashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash sohasini tartibga solish bilan bog'liq masalalarga istiqlolning dastlabki davrlaridanoq katta ahamiyat qaratilishi-

ga sabab bo'ldi. Jumladan, «Telekommunikatsiyalar to'g'risida» (20.08.1994; №822-1); «Aloqa to'g'risida» (13.01.1992; №512-XII), «EHMLari va ma'lumotlar bazasi dasturlarini huquqiy muhofazalash to'g'risida» (26.05.1994; 25.04.2002 №364-11 va 30.08.2002. №405 P Qonunlar bilan o'zgartirilgan), «Pochta aloqasi to'g'risida» (31.08.2000), «Axborot erkinligining tamoyillari va kafolatlari to'g'risida» (07.02.2003), «Elektron raqamli imzo to'g'risida» (05.2004), «Axborotlashtirish to'g'risida» (05.02.2004), «Elektron tijorat to'g'risida» (05.2004); «Elektron hujjat aylanishi to'g'risida» (05.2004) kabi O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining qabul qilinishi buning yaqqol dalilidir. Ushbu qayd etilgan qonunlarda aholi, xususan yosh avlod, jumladan, o'quvchilar va talaba yosh-larning axborot xavfsizligini ta'minlash jarayonlarining huquqiy asoslari ham belgilab berilgan.

Bugungi dunyodagi globallashuv sharoitida axborotlashuv jarayoni va uning aholi, ayniqsa yosh avlod kamolotiga ta'siri bilan bog'liq muammolar ko'pgina xorijlik va o'zbekistonlik mutaxassislarining diqqat markazida alohida o'rinni egallayotgani aslo beziz emas. Negaki, hozirgi kunda butun jahonda global axborot jamiyatini shakllantirish shiddat bilan kechayotganligi, bu jarayonda tobora ko'proq mamlakatlar faol ishtirok etayotganligi ma'lum. Ayni paytda, bizning mamlakatimiz ham uzoq istiqboldagi rivojlanish strategiyasi asosida yuksak darajada axborotlashgan va axborot tizimlari keng rivoj topgan, aholisining intellektual qobiliyati va ilmiy salohiyati yuqori darajada rivojlangan jamiyat, taraqqiy etgan davlatlar qatoriga kirish maqsadlarini amalga oshira boshladi.

Aytish mumkinki, hozirgi global dunyoda yagona axborot mакони shakllandı. Shu makondan munosib o'rın egallahash uchun bo'ladigan kurash O'zbekistonni ham chetda qoldirmaydi. Chunki zamonaliv dunyoda jurnalistlar geosiyosatchilar kasbiga qiyoslanmoqda. Qanchadan-qancha mablag' axborotni qayta ishlash, axborotlarni belgilangan makonga yetkazish, yetkazganda ham birinchi bo'lishga qaratilayotgani beziz emas. Zero, odam-

larda, axborotni eng avval berolgan, doimo haq bo'ladi degan qarash mavjud bo'ladi. Bu sohaga nisbatan bunday fikr bildirilishi aslo bejiz emas. Zero dunyoga tarqatilayotgan 80 % axborotni sa-noqli axborot agentliklari yetkazib bermoqda. Bu ularga xohlagan axborotni o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda tarqatish imkonini beradi.

Ammo har bir yangilik va kashfiyotlarning ijobiylari salbiy oqibatlari bo'lganidek, internetning ham yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi nomaqbul tomonlari ham yo'q emas. Bugungi yoshlarimizning barchasi internet tarmog'idan faqat ilm yo'li-da va dunyo axborot yangiliklaridan foydalanishmoqda desak, biroz yanglishamiz. Ushbu soha bilan shug'ullanadigan ko'plab klublarga kirganda, yoshlar bilan gavjum ekanini ko'rib xursand bo'lsan kishi, ammo ular yoniga borib nima bilan shug'ullanayotganligini zimdan kuzatsangiz, aksariyat qismi oila davrasida ko'rolmayotgan parnografik va vahshiyona videofilmlar ko'rish, har xil mintaqalardagi qizlar va bolalar bilan sevgi nomalarini almashish, o'zlarini sur'atlarini kiritib reklama qilish bilan bandligiga guvoh bo'lasiz. Bu kabi noxush holatlardan so'ng yoshlarining kelajakda qahri qattiq, mehrsiz, hayosiz bo'lib yetishmaydi deb hech kim kafolat bera olmaydi.

Hozirgi axborotlashuv va globallashuvning yoshlar tarbiyasiga o'tkazayotgan salbiy ta'siri quydgilarda namoyon bo'ladi:

— **birinchidan**, informatsion vositalarning yuksak ruvojanishi natijasida Internet, uyali telefon, telekommunikatsiyalar va turli axborot nashrlarining kirib kelishi. Bu vositalar orqali taklif etilayotgan «qadiriyatlar» ko'p hollarda yoshlarimizni o'zimizning milliy qadiriyatlarimizdan uzoqlashtirib qo'yemoqda, boshqacha qilib aytganda o'ziga xos «ildizi yo'q individ»larning shakllanishi-ga, o'z tarixiy ildizlaridan uzoqlashuviga olib kelmoqda.

— **ikkinchidan**, «ommaviy madaniyat» turli xil ko'rinishlari-ning yoshlar orasida tobora keng tarqalishi. Bular, asosan kiyinishda, qiziqishlarda, bo'sh vaqtini o'tkazishda, didlarning sayozlashuvida, milliy qadiriyatlarga munosabatda namoyon

bo'lmoqda. Yot madaniyat qadiriylarini o'zida ifoda etayotgan «ommaviy madaniyat» yoshlarimizda g'arbona individualizm, egotsentrizm, nigelizm, andishasizlik, behayolik va zo'ravonlik, milliy qadriyatlarga va ijtimoiy manfaatlarga bepisandlik bilan munosabatda bo'lish kabi illatlarni keltirib chiqarmoqda.

— **uchinchidan**, yoshlar orasida taqlidchilik, g'arbona ide-allarga ko'r-ko'rona ergashish kabi holatlar ham kuzatilmogda. Bunda, xorjda keng tarqalgan axloqiy va ma'naviy yurish-turish andozalarning kinofilmlar, moda va turli xil reklamalar orqali yoshlarimizning ongini chulg'ab olayotganini sezish qiyin emas. Oqibatda, yoshlar o'rtasida kitob o'qishdan ko'ra kompyuter o'yinlari bilan vaqtini o'tkazish, mazmunan sayoz bo'lgan turli xil janrdagi filmlarni tomosha qilish odad tusiga kirib bormoqda.

Afsuski, aksariyat hollarda yoshlarni bosqichma-bosqich milliy o'zligidan ayirish, milliy an'analari va urf-odatlariga zarba berib, tarixiy xotirasini qirqish, shu orqali millatlar ustidan hukmronlikka erishish tamoyili kuchaymoqda.

Bugungi kunda axborotning aksariyat qismi internet orqali dunyoga tarqalmoqda. Darhaqiqat, internet XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri, o'zaro ma'lumotlar almashish imkoniyatini beruvchi katta informatsion magistral hisoblanadi. Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda foydalanish mumkin. Bugungi kunda aksariyat yoshlar bo'sh vaqtlarini internet-klublarda o'tkazib, u yerdan rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Bu esa bir tomondan yoshlarning ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlarni yaratса, ikkinchi tomondan bu tizim orqali kirib kelayotgan milliy mafkuramizga yot bo'lgan g'oyalar ular ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugun telefon orqali kompyuterga ulanib dunyoning xohlagan burchagidagi insonlar bilan muloqotda bo'lish va o'ziga kerakli axborotni olishi mumkin. Axborot inson hayotiga turli yo'naliishlar orqali ta'sir o'tkazadi. Axborot asrida «mavhumlashuv» yuz bermoqda, ya'ni axborot — qudratli vositaga aylanib butun

dunyoni tashvishlantiradigan muammolarni kelib chiqishiga turt-ki bo'lmoqda. Masalan, sobiq Ittifoq tuzumida insoniyat yadroviy xurujlardan «cho'chigan» bo'lsa, axborotlashgan global tarmoq tizimi inson hayotiga katta imkoniyatlar ochib berishdan tashqa-ri jiddiy tashvishlarni ham tug'dirmoqda.

Bugungi kunda Internet orqali mafkuraviy ta'sir o'tkazish ni-hoyatda o'tkir quronga aylanib kelayotgani turli xil siyosiy kuchlar gegemon davlatlarning manfaatlariiga xizmat qilayotganini va global jarayonda Internetning roli katta ekanini yoshlarimizga tushuntirishimiz kerak. Buning uchun avvalambor oliygohlarda Internet jurnalistikasiga oid fanlarni o'qitishni yo'lga qo'yish va kengaytirish lozim. Bugungi kunda davlat xavfsizligini ta'minlashda, xalq manfaatlariiga zid bo'lgan axborot tarqatilishining oldini olish eng muhim vazifa ekanligini anglab, ayrim mamlakatlarda global tizimda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Xitoy mamlakatida maxsus «Vatanparvar xakerlar» deb nomlangan Internet xavfsizligini ta'minlovchi tashkilot mavjud. Ushbu tashkilotda 20 mingdan ortiq kompyuter mutaxassislari faoliyat yuritadi. «Vatanparvar xakerlar» mamlakatga xavf soluvchi «noma'qul» axborot xurujlarining oldini olishadi. Hozirgi paytda, dunyoning 30dan ortiq mamlakatida «Internet himoyachilar» guruhi tashkil etilgan va «himoyachi»larga 1,5 milliard AQSH dollaridan ortiq mablag' sarflanadi. Bu esa global jarayonda o'z mamlakatida «nomaqbul» axborot olishni cheklaydi. Bundan tashqari, Hindiston davlatining Texnika institutidagi Elektron xavfsizlik fakultetida «Internet himoyachilar»i faoliyat yuritmoqda har yili ushbu fakultetni muvaffaqiyatli tugatgan 10 nafar talabalar «Internet himoyachilar»i safiga ishga qabul qilinadi.

Internet tarmog'idan foydalanuvchilar sonining 64% yoshlar bo'lgani uchun «nomaqbul» axborot xurujidan saqlanishimiz kerak. Chunki, bunday ma'lumotlar milliy qadriyatlarimizga, urf-odatimizga, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy dunyosiga, tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayrim yoshlar beixtiyor axborot

olish, shuningdek, tarqatish subyektiga aylanganini sezmagan holda, Internetdan videolavhalar va milliy ma'naviyatimizga to'g'ri kelmagan ma'lumotlarni ko'chirib olib, do'stlariga tarqatmoqda. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tarkibidagi mamlakatlarda sodir bo'lgan rangli inqiloblarni harakatga keltiruvchi kuchlari bo'lgan shaxslar, aynan shunday informatsion urush qurbanlaridir. Statislikaga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, 1665-yil — 10 ta, 1800-yil — 100 ta, 1850-yil — 1000 ta, 1900-yilda — 10000 ta, 1965-yilga kelib 100000 ta jurnal dunyo bo'yicha nashr qilindi. XXI asrga kelib, 1 millionga yetdi. Sputnik antennalarni hayotimizga kirib kelishi, «Internet» tizimining rivojlanishi informatsiya uzatishni nihoyatda tezlashtirdi. Buni hatto tasavvur qila olish ham qiyin bo'lib qoldi. Masofa informatsiya uchun ahamiyatli bo'lmay qoldi.

Agar bunda milliy matbuotimiz ojizlik qilsa, axborot maydonidagi iqlimni boshqalar belgilaydigan holga tushadigan bo'lsak, axborot urushida yengilib qolamiz, bu go'yoki «erkinlik», «demokratiyani olg'a siljitish» qabilidagi safsata bilan yurtimizga ta'sir etishni mo'ljallayotgan kuchlar uchun ayni muddao bo'ldi. Bunga yo'l qo'yib bo'lmasligini barchamiz bilamiz. Shunday ekan, yurtboshimiz aytganlaridek, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish maqsadga mufoviq bo'ladi.

Afsuski, dunyodagi noplak kuchlar va g'arazli kimsalar buni xohlashmaydi. Ularning maqsadi turli yo'llar bilan yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirish, o'ziga jalb qilish va nihoyat buning oqibatida mo'may daromad olish. Misol uchun, bu sohadagi onlayn pornografiyasini olaylik. Biz uni kompyuter virusiga o'xshatamiz. Bu viruslar odamlar ongini zaharlab ularda shahvoniy nafsni uyg'otadi. O'z navbatida pornografik saytlarni yaratgan shaxslar antivirus sifatida fokishabozlikni targ'ib qiluvchi filmlarni sotunga chiqaradi. AQSHdagi xuddi shunday «antivirus»larni sur'atga olish bilan shug'ullanuvchilarning umumiyligi yillik daromadi 97,3 milliard dollarni tashkil etadi. G'arbiy Yevropadagi 10 ta dav-

latda pornografik mazmunga ega bo'lgan gazeta, jurnal va film-lar uchun 130 milliard yevro ajratiladi. Mazkur holatlar bugungi kunda ba'zi yoshlarning qiziqqonligi va internetda ko'p ishlashi ularning tarbiyasiga va ma'naviyatiga juda katta ta'sir etishini ko'rsatadi.

Bugungi kunda yurtimizda barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish masalasi o'ta dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilayotganligi, ayni shu axborot xurujlariga qarshi yetarli im-munitetga ega bo'lgan, sog'lom fikrli insonlarni maydonga chiqarish, zamonaviy o'zbek jamiyatining asosiy funksiyasi ekanligi olimlarimiz tamonidan asoslab berilmoqda. Ma'rifatparvar Abrurauf Fitrat «Oila» risolasida axloq-odobda namunali avlodni tarbiyalash nafaqat bir millat yoki xalq uchun, ayni paytda butun insoniyat uchun g'oyatda muhim ekanligini zikr etib, «Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi» deb yozgan edi. Bunda asosiy e'tibor oiladagi sog'lom ma'naviy-axloqiy muhit hamma zamonalarda ham ma'naviyat qo'rg'oni bo'lib kelganligini, ayniqsa, hozirgi zamonda bu juda dolzabr ekanligi anglanadi. Oiladagi muhit sog'lom bo'lsa undan albatta mustaqil fikrlovchi, ertangi kun uchun qayg'uruvchi insonlar voyaga yetadi.

Binobarin bugun har bir davlat xalqining tinch-totuv yashashi yo'lida siyosat olib borar ekan, mamlakatimiz ham informatsion xavfsizlikni ta'minlashga jiddiy e'tibor berib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi tomonidan «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi Qonunni qabul qilinishi ham davlatimiz xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qilishi muqarrardir.

Aslida axborot sohasidagi globallashuv jamiyat uchun, dunyoning barcha joylaridagi odamlarning o'zaro muloqoti uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni o'zlashtirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir. Lekin axborot globallashuvining salbiy jihatlari borligini ham esdan chiqarmasligimiz kerak. Biron-bir

hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis yaqin manbalardan tarqaladigan turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda.

Bunday vaziyatda o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, mustahkam iroda va dunyoqarashiga ega bo'limgan odam goh oshkora, goh pinhona ko'rinishda namoyon bo'layotgan mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera olmaydi. Axborot globallashuvi va bozor yordamida inson ongini bozor qadriyatlari tomon burishga harakat qilmoqdaki, boshqa davrga nisbatan axborot davri agressiv, chunki barcha masofa va chegaralarni olib tashlab inson ongiga yetib bordi. Natijada axborot manbalari jamlanmasi millat birligini yengib bevosita shaxslar bilan ishlay boshladи, oxiri oqibat axborot asri xorijiy g'oyalarni va ommaviy madaniyatni oddiy odamga juda yaqin qilib qo'ydi. Mafkuraviy axborot yozma yoki og'zaki tarzda yetkazilishi mumkin. Agar birinchisiga gazeta, jurnallar, kitob va darsliklar, yozma manbalarda mujassamlashgan ma'lumotlar kirsa, ikkinchisiga ma'ruza o'qish, darsni bayon etish, munozara va suhbatlar o'tkazish kiradi. Bundan tashqari, mafkuraviy g'oyalar turli badiiy va hujjatli filmlar, bolalar yoki kattalar uchun yaratilgan multfilmlar orqali ham yetkazilishi mumkin. Muhimi, ular xalq ma'naviyati, o'lmas merosimiz, kelajakka ishonch uyg'otuvchi ma'no-mazmun bilan yo'g'rilgan bo'lishi kerak.

Bugungi hayotimizni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilishimiz qiyin. Yoshlarimiz dunyo haqida, asosan ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumotga ega bo'lishadi. Internet ham asosiy axborot bazasi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ammo G'arb madaniyatiga asoslangan ba'zi ko'rsatuv va saytlar borki, bular axloqqa ziddir. Bundan tashqari televedeniye seriallar bilan to'lib toshganligiga ham salbiy fikr bildirish mumkin. Chunki, yoshlarning asosiy vaqtlarini televizor ko'rishga sarflashi ta'limning sifatiga ta'sir qiladi. Bu bir tarafi, matbuot gazeta va jurnallarda

beriladigan ma'lumotlarning ham sayozligi yoshlarimiz fikrlash doirasiga salbiy ta'sir qiladi.

Shunday ekan, ayrim yoshlarimizning internet tarmoqlari orqali berilayotgan har xil yot g'oyalarni xolis axborot manbai sifatida qabul qilayotganlarini aslo nazardan qochirmaslik kerak. Bu esa, o'z navbatida, hozirgi dunyodagi mavjud murakkab mafkuraviy vaziyat yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni tarbiyalash ishlarini yanada faollashtirish kerakligini talab qiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 30 daqiqadan keyin axborotning 60 foizi, kun oxiriga kelib 40 foizi, hafta oxiriga kelib bor yo'g'i 10 foizi esda qoladi. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy fikrga ta'sir o'tkazishga qaratilgan, turli g'oyaviy mazmun bilan sug'orilgan axborotlarni vaqtı-vaqtı bilan takrorlab turishga ham alohida e'tibor berilayotganini ta'kidlash zarur. OAV bu so'z, obrazlar, musiqa va shu kabi shakllarda axborotlarning tezlikda uzatilishi va ommaviy tarqatilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday vositalarga ommaviylik, davriylik, tinglovchi yoki o'quvchilar auditoriyasining kengligi kabi xususiyatlar xosdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, hozirgi davrda OAV imkoniyati va qamrovining keskin darajada o'sganini qayd etish lozim. OAVning qamrov darajasi, bosh-qacha aytganda, mahalliy, umummilliy, mintaqaviy yoki xalqaro (global) miqyosda faoliyat ko'rsatishi ham uning ta'sir doirasini ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalarining eng faol tarkibiy qismlaridan biri televideniye o'zida namoyish etilayotgan ko'rsatuvlar, dasturlar, jamiyatdagi mavjud muammolarning nechog'liq aks etishi bilan va kishilar ongiga qay darajada katta ta'sir qilish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Televideniyeda voqelikni bir yoqlama yoritilishi ba'zan ijtimoiy-siyosiy beqarorlikka, turli ziddiyatlarga sabab bo'lishi hamda natijalarga olib kelishi mumkin.

Ma'lumki, mamlakatimizda davlat televideniyeleri bilan bir qatorda xususiy telekanallarning faoliyat olib borishiga imkoniyat yaratildi. Bu telekanallardagi dasturlar ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy kabi bo'limlarga bo'linadi. Unda jamiya-

timizning barcha jabhalari aks etgan teleko'rsatuvlar namoyish etiladi. Yuqorida aytib o'tilgan telekanallar bugungi kun tomoshabinlarini nechog'liq qoniqtirishi haqida Respublika «Ijtimoiy fikr» Jamoatchilik fikrini o'rganish markazi olib borgan tadqiqot natijalarining ayrimlariga e'tiborimizni qaratamiz. «Telekanallarda namoyish etilayotgan ko'rsatuvlar nechog'liq sizni qoniqtiradi?» degan savolga respondentlarning 47,5 foizi qoniqtiradi, 36,1 foizi ahamiyatli, 6,0 foizi, ahamiyatga ega emas, 10,4 foizi esa javob berishim qiyin degan javoblarni aytib o'tishdi. Ak-sariyat zamонави yoshlar (83,6 %) televideniye kishi dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatadi deb ta'kidlashdi. Ularning bor-yo'g'i 4,0 foizi televideniyening ahamiyatga ega ekanligini inkor qilishadi. «Teleko'rsatuvlarning aholiga salbiy ta'siri bormi?» degan savolga respondentlarning deyarli uchdan bir qismi (31,6 %) «bunday ko'rsatuvlar yo'q», 16,0% «bunday ko'rsatuvlar uchrab turadi», 10,9% «bunday ko'rsatuvlar ko'p», 10,7% «judu ko'p», 30,8% respondentlar esa «javob berishga qiynalaman» deb javob bergenlar. 76,9% yoshlarning fikriga ko'ra, axloqsiz dasturlar chet el film-larida ko'p uchraydi. Bunday fikr bildirgan respondentlarning 72,5% ini shaharlik yoshlar, 71,4% oliy ma'lumotli yoshlar, 68% oliy o'quv yurtlari talabalari tashkil qiladi. Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik tomoshabinlar turli xil kanallarni tomosha qilar ekan. «Yoshlar» telekanalini 87,6%, «O'zbekiston» telekanalini 70,5%, «Sport» kanalini 36,5%, «TV Markaz» kanalini 27,7%, NNT kanalini 20,5%, «Toshkent» kanalini 13,2%, birinchi kanal (Rossiya) 14,1% va mahalliy televideniyelarni 11,3% tomoshabinlar muntazam kuzatib boradilar. Ijtimoiy muammolarini televideniyeda aks etishini tadqiq etish asosida quyidagicha fikrlarni tasniflaymiz:

Huquqiy axloqiy muammolar; jinoyatchilik, giyohvandlik, odam savdosi kabi illatlar ko'pincha «O'zbekiston» kanali va «Yoshlar» telekanallarining ijtimoiy siyosiy dasturlari orqa-li yoritiladi. Oilaviy-diniy munosabatlarga doir; ota-onasi va farzand, qaynona-kelin, to'y-hashamlar, urf-odatlar kabi masala-

lar madaniy-ma'rifiy dasturlarda namoyish etiladi. Axloqsiz xatti-harakatlar va me'yordan og'ish hollari ko'pincha xususiy televizionlarda uzatiladigan musiqiy kliplar va kinofilmarda uchrab turadi. Shunga qaramay, yuqoridagi tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ldiki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan telekanallar o'z teletomoshabinlariga ega. Ularda namoyish etilayotgan ko'rsatuvlarga ko'pchilik tomoshabinlar befarq emaslar. Xulosa qilib aytdigan bo'lsak, televideniye aynan tezkorligi, xolisligi bilan jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarning oshkora va ochiqligini amaliy jihatdan ta'minlab, tomoshabinlarga informatsiya bilan birga ma'naviy-ma'rifiy ozuqa beradi. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hayotga ta'siri haqida gap ketganda, uning kuchi jamiyat hayotidagi dolzarb masalalarni ko'tarib chiqishida, mavjud muammolarga jamiyat a'zolari diqqatini jalb qilishida, davlat organlari faoliyatini nazorat qilib borishida ko'rindi. Shu ma'nda u xalqni hokimiyat bilan bog'lovchi vosita-mexanizm hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarini haqiqiy «to'rtinchı hokimiyat»ga aylantirish muammosi yuzaga qalqib chiqmoqda. Ularni mustaqil ijtimoiy kuchga, siyosiy tizimning to'laqonli bo'g'iniga va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ta'sirchan vositaga aylantirish vazifasi dolzarb bo'lib qolmoqda. G'arbda ommaviy axborot vositalariga qo'pol bo'lsa ham jamiyat manfaatlarini «qo'riqlovchi ko'ppak», deb nisbat beradilar. Yetuk demokratik davatlarda ular jamiyatning «ko'zlari», «qulqlari» vazifasini bajaradilar. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil ko'tarib chiqib, ularning turli yechimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan.

Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqlol g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihat mavjud. Bu jihat — axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish, ma'naviy-mafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy im-

munitetni shakllantirish bilan bog'liq. Ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini ko'rsatadigan shunday bir gap bor: «Har qanday puch g'oya, uydirma haftasiga uch martadan to'rt yil davomida takrorlansa — «haqiqat» tayyor bo'ladi, odamlar unga chippa-chin ishonadilar». Aslida axborot maqsadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi. Haqiqatan ham, informatsion xurujlar uyushtirish uchun u qadar ko'p mehnat, u qadar ko'p harakat, u qadar ko'p xarajat talab etilmaydi.

G'oyaviy hamda axboriy xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarimizni mafkuraviy immunitetini va tafakkurida sog'lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish eng muhim vazifadir. Bunday murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-mafkuraviy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish quyidagilarga bog'liq:

- aholining asosini tashkil etuvchi yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish;
- vatandoshlarimizni hayotga ongli munosabatini shakllantirish;
- atrofimizda yuz berayotgan voqeа-hodisalarga daxldorlik hissini oshirish;
- diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, «rangli inqiloblar», «erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish» doktrinasini zo'rlik bilan joriy etish oqibatida xalqaro maydondagi ziddiyat va qarma-qarshiliklar kuchayib borayotgan bir vaziyatda o'zimizning kelajak strategiyamizni aniq belgilab olish;
- mafkuraviy tahdidlarni aynan nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab olish va keng jamoatchilikka yetkazish;
- davlatimiz suvereniteti, tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish;
- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy g'oya targ'iboti va mafkuraviy jarayonlarning amaliy ishlari va ijobiliy nati-jalarini yoshlarga tushuntira bilish;
- mafkuraning ijtimoiy hayotdagи o'rni va ahamiyatini hayotiy misollar bilan izohlab berish.

Respublikamizning aholisini katta qismini aynan yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun ham kelajak yoshlar qo'lida ekanligini unutmasligimiz zarur. O'sib kelayotgan yosh avlodni irodali, iymon-e'tiqodli, mustaqil va erkin fikrli, har qanday xurujlarga dadil qarshi bora oladigan qodir inson bo'lib yetishishlarida ta'lim muassasasi, oila, mahalla hamkorligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yuksak turmush tarzining ahamiyati katta.

Alovida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi O'RQ-406-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli, 2017-yil 5-iyuldagagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-sonli Farmonlarida bu boradagi ishlarning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagagi «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi PQ-3160-sonli Qarori g'oyat muhim qadam bo'ldi.

Bugun yoshlarimiz o'zlarining kim ekanligini, hech kimdan kam emasligini, ajdodlari kim bo'lganini anglab yetdilar. Lekin ayni paytda xalqimizning ma'naviy birligiga rahna solishga, yoshlarimizning yurtimizga bo'lgan ishonch-e'tiqodini buzishga urinayotgan kuchlar ham bor. Ular turli xil vayronkor, aldamchi g'oyalarni pesh qilib, yovuz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, ayrim irodasi zaif yoshlardan o'z yurtiga, ona Vataniga, hatto ota-onasiga qarshi bo'lgan dushmanlarni tayyorlashga urinmoqdalar.

Bunday sharoitda yot g'oyalarga qarshi kurashni bir daqiqa ham susaytirib bo'lmaydi. Targ'ibotchi-tashviqotchi, tarbiyachi, o'qituvchi, olim, shoиру-yozuvchilar yoshlar bilan suhbat va uchrashuvlarda, ommaviy axborot vositalari oqali mamlaka-

timizga qarshi qaratilgan mafkuraviy tahdidlarni, xurujlarni, uydirmalarni fosh qilish, yosh avlod qalbi va ongida ezgu g'oyalariga sadoqat tuyg'usini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratishlari lozimligi bugungi davrning talabiga aylangani shubhasiz.

Hozirgi davrda mamlakatimizda shakllangan qonunchilik tizimida yoshlarni, jumladan o'quvchi va talabalarni ham yet va begona g'oyalar oqimidan, nosog'lom axboratlardan himoyalash mexanizmlari belgilab qo'yilgan. Xususan, «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunda esa pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tax-qirlovchi, bolalar ongiga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbu-zarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanishi belgilangan.

Bu yo'nalishda ta'kidlash joizki, mamlakatimizda keyin-gi yillarda bu borada ham muhim hujjatlar qabul qilinmoqda va rejali ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo'nalishda ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan 2017-yil 15-avgustda qabul qilingan va Senat tomonidan 2017-yil 24-avgustda ma'qullangan «Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida»gi Qonun nihoyatda muhim ahamiyatga molikdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 8-sentyabrda imzolangan № O'RQ-444 sonli ushbu Qonunning maqsadi bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, u shu sohadagi tayanch tushuncha va tamoyillarni ta'riflash va tavsiflash uchun asosiy manbalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Bu jihatdan, qonunda ta'kidlanganidek, ommaviy axborot vositalarining bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtiroy etishi, ushbu yo'nalish-

dagi davlat siyosatini amalga oshirish, shu jumladan aholining axborotga oid va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarni yoritishi muhim ahamiyatga molikdir. Shu bilan birga, OAVning mazkur sohadagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi va bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi hamda ushbu faoliyatda ishtirok etuvchi organlar va tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi bu boradagi kutilgan natijalarni berishi mumkin.

Xullas, bularning barchasi, davr talablari kechagi zamonga xos mezonlaridan butkul farq qiladigan bugungi kunda, globallashuv va axborotlashuv xurujlariga dosh beradigan, zamonaviy fikrlaydigan va eng so‘nggi yangiliklar bilan hamnafas yashaydigan, kun sayin dunyoqarashini boyitib boradigan, ogoh va hushyor, tahdid bardosh avlodni tarbiyalashga qaratilgani bilan muhim ahamiyatga egadir. Shu o‘rinda ma’ruza, suhbat, munozara, rolli o‘yinlar, treninglar, ijodiy mashg‘ulotlar, yakka maslahatlar, kinofilmlar namoyishi kabilardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrdagi aholining ma’naviy kamoloti, xususan uning axborot tarbiyasi, ushbu yo‘nalishdagi axborot xavflariga qarshi immunitetini shakllantirish axborot profilaktikasi tadbirlarini olib borish bilan bog‘liq faoliyatning samarasiga har jihatdan bog‘liqidir. Ana shuni hisobga olgan holda 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida bu borada belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirishga yordam beradigan chora-tadbirlar belgilangan va ularni amalga oshirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Mazkur sohaga bag‘ishlangan Qarorlar va Farmonlar hamda boshqa hujjatlarda, nafaqat bu boradagi muhim ahamiyatga molik talablar, balki jahoning yetakchi muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, yangi texnologiyalar va samarali uslubiy dasturlarni joriy etish, yuqori malakali mutaxassislar va olimlarni faol jalg etish va boshqa shu kabi masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, hozirgi zamon taraqqiyotining axborotlashuvi va inson faoliyatining barcha jabhalariga fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarining keng tatbiq etilishi, ahaolining qalbi va ongi uchun turli xarakterdagi axborot-psixologik kurash olib borishda sifatli boshqaruv metodlaridan oqilona foydalanishning ahamiyatini yanada oshirib yubormoqda.

Bularning barchasi, bugungi kunda ijtimoiy tarbiyaning ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish, turli axborot vositalari orqali kirib kelayotgan yot g'oya va mafkuralarga nisbatan im-munitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish nihoyatda dolzarb vazifalardan biriga aylanganidan dalolat beradi.

11-mavzu. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi: manfaatli hamkorlik tamoyillari va rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilish istiqbollari

Mavzuning asosiy savollari. Mustaqil O'zbekiston — globallashib borayotgan bugungi dunyodagi xalqaro munosabatlarning faol va ishonchli subyekti. Hozirgi davr global muammolar va inqirozlar mohiyatini, uning insoniyatga, millatga, xalqlarga va mamlakatlarga tahdidini anglab yetishda milliy g'oyaning o'rni. Uning asosiy yo'naliishlarini milliy g'oya kontekstida tahlil qilish zaruriyati hamda aholi, ayniqsa yoshlar ongiga singdirish masalalari. Integratsiya tushunchasini mantiqiy mazmuni va integratsiyalashuv jarayonining genezisi, rivojlanish bosqichlari va moddiy-texnika asoslari. XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jarayonlarida O'zbekistonning o'rni va taraqqiyot strategiyasi. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi va rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilish istiqbollari.

Mavzuning asosiy mazmuni. O'zbekiston Respublikasi 1991-yilda istiqlolga erishgandan so'ng, xalqaro munosabatlar tizimida o'z o'rni va nufuzini belgilash borasida faol tashqi siyosat olib bora boshladi. Bu davrda xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish dolzarb vazifaga aylandi. Xalqaro hamkorlik esa dunyo davlatlari hamda

turli xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro teng huquqli va manfaatli hamkorlikni talab etadi. Mamlakatimiz mustaqillikning birinchi yillardan nufuzli xalqaro va moliyaviy tashkilotlarga a'zo bo'ldi. Qisqa vaqt ichida O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini 180 dan ortiq mamlakat tan oldi, ulardan 120 tasi bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi. Hozirgi kunda Toshkentda dunyoning 42 ga yaqin davlatlarining elchixonasi va konsulxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda. Dunyoning 30 ga yaqin mamlakatida O'zbekistonning elchixonasi, konsulxonalarini ishlab turibdi.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martdan buyon BMTning, ko'plab xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, xalqaro moliyaviy va iqtisodiy tuzilmalarning a'zosidir. Birlashgan millatlar tashkiloti (OON) va uning ixtisoslashgan muassasalari YuNISEF, YuNESKO, Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ), Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE), Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO), Yevropa ittifoqi (EI), iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (ESO), Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH), Shaxnay hamkorlik tashkiloti kabi nufuzli tuzilmalar shular jumlasidandir. Milliy va harbiy xavfsizlikni to'liq ta'minlashga siyosiy, iqtisodiy, axborot hamda davlat faoliyatining boshqa sohalarida olib boriladigan keng qamrovli chora-tadbirlar bilan erishilishini inobatga olib, mamlakat rahbariyati, jumladan, mudofaa sohasida ham me'yoriy bazani barpo etishga e'tiborni kuchaytirdi.

Mamlakat manfaatlariga mos keladigan, uning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini mustahkamlashga xizmat qiladigan tashqi siyosat yo'nalishlarini ishlab chiqish dolzarb vazifaga aylandi. Mustaqillikning dastlabki yillardanoq birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari va asosiy tamoyillari belgilandi hamda og'ishmay amalga oshirila boshlandi. O'zbekiston tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri – mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va uning barqrarligiga tahdid solayotgan xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkobiznes kabi tahdid-

larning har qanday ko‘rinishiga qarshi qat’iy kurash olib borishdan iborat.

Yadro xomashyo zaxiralariga ko‘ra dunyoda oldingi o‘rinlarda turadigan O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan boshlab, ommaviy qирғин qуollarini tarqatmaslik borasida izchil siyosat yuritmoqda. Yadroviy davlatlar – Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Hindiston va Pokiston bilan bevosita chegaradosh bo‘lgan Markaziy Osiyo uchun mazkur masala juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun yadro qurolini tarqatmaslik borasidagi siyosat mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta’minlash borasidagi O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan sanaladi. 1998-yilda Hindiston va Pokistonda o‘tkazilgan yadro quroli sinnovlari Respublikamiz rahbariyatining mintaqaga yadroviy xavfsizligiga tahdidlar borasidagi bashoratlari to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatdi. Chunki O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti 1993-yilda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish tashabbusi bilan chiqqan edi.

Ma‘lumki, bugungi kunda dunyoda beshta yadrosiz hudud mayjud bo‘lib, u o‘z ichiga 100 dan ortiq davlatlarni qamrab oladi va dunyo xaritasini deyarli yarmini qoplaydi. Markaziy Osiyoda mazkur hududning tashkil etilishi esa o‘ziga xos bir qator xususiyatlarga egadir. Birinchidan, bu hudud yadro quroliga ega bo‘lgan davlatlarni qamrab oladi; ikkinchidan, bu hudud birinchi bo‘lib dunyoning shimoliy yarim sharida tashkil etiladi; uchinchidan, mazkur shartnoma xavfsizlik sohasida barcha mintaqaga davlatlarni birlashtiruvchi ko‘p tomonlama kelishuv hisoblanadi. Va nihoyat, dunyo tajribasida birinchilardan bo‘lib yadro quroliga ega bo‘lgan davlatlar (Rossiya, Xitoy) bilan chegaradosh mintaqada tashkil etiladi (hududning umumiyligi maydoni 3 mln. 882 ming kv.km.).

Mazkur shartnomaning imzolanishi mintaqaga davlatlariga yadro quroli va uning qismlarini hududda ishlab chiqarish, sotib olish va joylashtirmaslik majburiyatini yuklaydi. Ammo yadrodan

tinchlik yo‘lida foydalanishni man etmaydi. Darhaqiqat, shartnomaga xalqaro terrorizmga qarshi kurashda va terroristlarning yadro texnologiyalariga ega bo‘lishining oldini olishda katta ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston mazkur tashkilot doirasida xalqaro terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha ham faol hamkorlik olib bormoqda. Zero, xalqaro terrorizmga qarshi kurash milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda ustuvor hisoblanadi. O‘zbekiston BMTning terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha 12 ta konvensiyasining ishtirokchisi hisoblanadi.

O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar doirasidagi yana bir muhim yo‘nalishi Yevropa ittifoqi davlatlari bilan munosabatlari- dir. 1996-yil fevral oyida Yel kengashi O‘zbekiston Respublikasi bilan hamkorlik va sheriklik to‘g‘risidagi kelishuvni imzolash borasida tashqi ishlar vazirlari darajasida muzokaralar olib bordi. Shu yilning iyul oyida Italiyaning Florensiya shahrida bu bitim imzolandi. Bu mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash yo‘lidagi muhim qadamdir. Tomonlar o‘zaro munosabatlarning huquqiy asosini yaratib, hamkorlikning yangi bosqichiga olib chiqdilar. Ushbu kelishuv O‘zbekiston va mintaqqa davlatlari uchun iqtisodiy, san-texnika, madaniy, siyosiy aloqalarni mustahkamlash uchun keng imkoniyatlarni oolib berdi.

O‘zbekiston Respublikasi NATO bilan 1991-yil 21-dekabrdan, Alyansning hamkorlikni rivojlantirish borasidagi tashabbusi nati-jasida tashkil etilgan shimoliy Atlantika kengashiga qo‘shilganidan buyon hamkorlik qilib kelmoqda. 1994-yil 13-iyulda O‘zbekiston NATOning «Tinchlik yo‘lida hamkorlik dasturi»ga a’zo bo‘ldi. 1995-yil 8-avgustda NATOda O‘zbekistonning mazkur tashkilot faoliyatidagi ishtirokiga bag‘ishlangan anjumanda Alyans bilan bo‘lajak hamkorlikning samarali bo‘lishi uchun zarur jihatlar, maqsadlar belgilab olindi va ularni amalga oshirish yo‘llari ishlab chiqildi. 1996-yil 24-iyulda O‘zbekiston «Tinchlik yo‘lida hamkorlik dasturi» shartnomasini imzoladi. NATO bilan O‘zbekiston o‘zarо aloqalari mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash yo‘nalishida

o'rnatilgan bo'lib, «Tinchlik yo'lidagi hamkorlik» va «Yevro-Atlantika hamkorligi kengashi» dasturlari asosida olib borilmoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatida mustaqil davlatlar hamdo'stligi (SNG), Shanxay hamkorligi tashkiloti (ShOS), Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (YevrAzeS), Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB) kabi mintaqaviy uyushmalar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish ham ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shuni ta'kidlash lozimki, bu tashkilotlar bilan hamkorlik mintaqada xavfsizlik, tinchlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikning birinchi yillaridanoq xavfsizlik masalasi bo'yicha MDH davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligini yoqlab chiqdi¹. Bu harakatlar nati-jasida 1992-yil 15-mayda Toshkentda MDHning 6 ishtirokchisi (Armaniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya va Tojikiston) o'rtasida kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma (KXSh) imzolandi. 1993-yilda ular safiga Gruziya va Ozarbayjon ham qo'shildi.

Hozirda O'zbekiston Respublikasining kollektiv xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan olib borayotgan faoliyati Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShXT) doirasida amalga oshirilmoqda. Mazkur masala yuzasidan ular o'rtasida «Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risidagi Shanxay konvensiyasi» imzolandi. Shanxay hamkorligi tashkilotini tuzish haqidagi deklaratsiyaning 8-bandida: «Shanxay hamkorlik tashkiloti mintaqaviy xavfsizlikka ustuvor ahamiyat qaratgan holda, uni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlar va harakatlarni qo'llaydi» deb ko'rsatib o'tiladi.

2002-yil 7-iyunda Sankt-Peterburg shahrida tashkilotga a'zo davlatlar tomonidan mazkur tashkilotning Xartiyasi (nizomi) qabul qilindi. Shundan so'ng, tashkilot xalqaro yuridik maqom-

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston. 1997. 320–321-betlar.

ga ega bo'ldi. 2003-yil 29-mayda tashkilotning Moskva sammitida 2004-yilning yanvar oyidan ShXTning Pekindagi Kotibiyati va Toshkentdag'i mintaqaviy antiterroristik tuzilmasining ijroiya qo'mitasi ish boshlashi borasida qaror qabul qilindi. Bugungi kunda yadroviy, kimyoviy, biologik, axborot terrorizmi kabi ho-disalarga qarshi kurashga zarurat tug'ildi. Bu holatni hisobga olgan holda, ShXT doirasida mintaqaviy xavfsizlik tahdidlarning oldini olish va ta'minlash maqsadida mintaqaviy xavfsizlik tizimi vujudga keltirildi.

O'zbekiston xalqaro terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamjamiyat bilan faol hamkorlik olib bormoqda. Zero, xalqaro terrorizmga qarshi kurash milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda ustuvor hisoblanadi. O'zbekiston bu borada xalqaro huquq me'yorlariga asosan faoliyat olib borish pozitsiyasida turadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi 2000-yil 15-dekabr kuni «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi qonun qabul qildi.

Mazkur qonunning 2-moddasiga ko'ra, terrorizm «kuch ishlatish, tahdid solish va turli salbiy ta'sir ko'rsatish bilan shaxs halyoti, sog'lig'iga xavf solish va davlat va jamiyatning manfaatlariga tahdid solish»dir. U siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi. Shu sababli bunday sharoitda davlatning kuch ishlatishdan tiyilishi mushkul.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydonda olib borayotgan ko'p tomonlama munosabatlarida xavfsizlikni ta'minlash masalasi markaziy o'rinni egallaydi. O'zbekiston tashqi siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va uning barqarorligiga tahdid solayotgan terrorizm, narkobiznes, diniy ekstremizm kabi tahdidlarning har qanday ko'rinishiga qarshi qat'iy kurash olib borishdan iborat.

Bu jihatdan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyası 72-sessiyasidagi nutqi hech mubolag'asiz, g'urur va iftixor bilan aytish mumkinki, mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan qisqa davr ichida mamlakatimizning dunyo hamjamiyatida mu-

nosib o'rinni egallaganini yana bir bor yaqqol namoyon qildi, de-yishimiz uchun barcha asoslar bor.

O'zbekistonning butun dunyodagi o'rni va nufuzini yaqqol namoyon etgan ushbu nutq, bir tomondan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning maqsad-muddaołari va yo'nalişlarini yaqqol ifodalagan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, davlatimizning ichki va tashqi siyosat tamoyillari, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT bilan munosabatlari aniq-tiniq belgilab berilgan, ulkan nazariy va amaliy ahamiyatga molik tarixiy hujjatdir.

Prezidentimiz nutqida mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi, O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va uning ustuvor yo'nalişlari, ushbu tamoyillar asosida amalga oshirilayotgan faoliyatning maqsad-muddaołari bilan bog'liq masalalarga alohida ahamiyat qaratilgan. Darhaqiqat, ushbu hujjatga tayanib fikr yuritadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining istiqlol yillardagi taraqqiyoti va bugungi rivojlanish davrining eng muhim xususiyatlaridan biri, mamlakatimizning jahon hamjamiyati, uzoq va yaqin davlatlar bilan do'stona munosabatlari o'rnatib, o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillariga asoslangan tashqi siyosat olib borayotganidir.

Bu tamoyillar davatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, hududlar va chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davatlarning ichki ishlariga aralashmaslik kabi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga tayanadi.

Shu bilan birga, Prezidentimizning 2017-yil 19-sentyabrdagi nutqida mamlakatimizning bu boradagi siyosatining ustuvor tamoyili quyidagicha ifodalab berildi: «O'zbekiston hech qanday blokka qo'shilmaslik maqomini saqlab qolgan holda, ochiq mu-loqotga tayyordir. Biz barcha sheriklarimiz bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaat-dormiz».

Ushbu tayanch fikrga asoslanadigan bo'lsak, bugungi O'zbekistonning tashqi siyosatida, unga mos ravishda, quyidagi muhim tamoyillar asos qilib olingenini ta'kidlash lozim:

- milliy manfaatlar ustuvorligini saqlagan holda, boshqa davlatlar bilan o'zaro tenglik asosida manfaatli hamkorlik qilish;
- xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlik, turli mamlakatlardagi ziddiyatlarni tinch yo'l bilan hal qilish tarafdori bo'lish;
- hech qanday harbiy bloklarga kirmaslik, shuningdek, munozarali muammolarni kuch yoki kuch orqali tahdid qilish yo'li bilan hal qilishdan tiyilish;
- tashqi siyosatning boshqa davlatlarning ichki ishiga aralashmaslik, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillari ga asoslangan holda amalga oshirilishi;
- ichki davlat me'yorlariga nisbatan xalqaro huquq me'yorlarining ustuvorligini tan olish va barcha xalqaro huquq normalari va umuminsoniy andozalarga rioya qilish;
- uzoq va yaqin mamlakatlar bilan o'zaro ishonch asosida, ikki tomonlama va ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik qilish.

Mustahkam xavfsizlik, barqaror iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, aholi turmush darajasini ko'tarish, konstitutsion tuzum asoslarini mustahkamlash, millatlar axilligini, xalqlar do'stligini ta'minlash, fuqarolar erkinliklari va haq-huquqlarini muhofaza qilish respublikamiz tashqi siyosating asosiy maqsadlari hisoblanadi.

Bu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning jahondagi obro'-e'tibori yuksalib borayotgani, eng avvalo, quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lda «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilga asoslangan demokratik islohotlarni amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilayotgan ulkan ijobiyl o'zgarishlarning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilayotgani;
- davlatimizning jahon ahliga yaxshi ma'lum bo'lgan, butun dunyoda, ayniqsa mintaqamizda barqarorlik va xavfsizlikni

mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarining amaliy samarasi-da o‘z ifodasini topayotgani;

— mamlakatimizning xalqaro siyosat maydonida olib borayotgan har tomonlama puxta ishlangan, chuqur o‘ylangan tashqi siyosatining amaliy natijalari yuksalib borayotgani.

Mustaqillik yillarida ana shu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish jarayonida jahon hamjamiyati bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun tashqi siyosiy faoliyatning milliy mexanizmlari yaratildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida diplomatiya, xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida malakali kadrlar tayyorlashning davlat tizimi yaratildi. Tashqi aloqalar sohasini malakali milliy kadrlar bilan ta’minalash maqsadida Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil etildi. Ko‘plab qonunlar, shuningdek, Konsullik ustavi, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy doktrinasi, O‘zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik konsepsiysi kabi muhim hujjatlar qabul qilindi.

O‘zbekiston tashqi siyosatining bosh tamoyili — mamlakat suverenitetini himoya qilish va ta’minalashdan iboratdir. Ushbu tamoyillar O‘zbekiston Konstitutsiyasining 17-moddasi hamda «O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to‘g‘risida»gi Qonunda mustahkamlab qo‘yilgan. Konstitutsiyaga binoan, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, nizolarni tinch, muzokara yo‘li bilan hal etish, boshqa mamlakatlar ichki ishlariiga aralashmaslik, xalqaro huquqning boshqa davlatlararo tuzilmalariga a’zo bo‘lish, shuningdek, davlat va xalqning oliv manfaatlari, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqib bunday ittifoq va tuzilmalardan chiqishi mumkin.

Prezidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasiga 72-sessiyasidagi nutqida davlatimiz tashqi siyosatining bugungi ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilarni belgilab berdi:

Birinchidan, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, xavfsizlikni ta’minalash, millatlararo totuvlik va mintaqal-

miz xalqlari hamda davlatlarining an'anaviy do'stligiga, hamjihatligiga tahdid soluvchi va jiddiy xavfni bartaraf etish bo'yicha qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikda zarur chora-tadbirlar ko'rish;

Ikkinchidan, ko'p yillar davomida cho'zilib kelayotgan afg'on muammosini tinchlik yo'li bilan hal qilish;

Uchinchidan, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga keng miq-yosda integratsiyalashuvini ta'minlash, Amerika Qo'shma Shtatlari, yetakchi Yevropa davlatlari, Osiyo mintaqasidagi davlatlar bilan, avvalo, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya kabi davlatlar bilan va Yevropa Ittifoqi bilan yaqindan aloqa o'rnatish, tenglik, o'zaro manfaatdorlik asosida qurilgan, ikki davlat orasidagi ko'p tomonlama hamkorlik, strategik sheriklikni kuchaytirish zarurdir.

Yuqorida zikr etilgan tamoyil va me'yorlar xalqaro huquqning asosini tashkil etadi. Ular tabiatи jihatidan universal, umume'tirof etilgan va imperativ tamoyillardir. Bu ularning xalqaro hayotdagи o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi hamda BMT Ustavida majburiy huquqiy me'yor sifatida e'tirof etiladi. Shu bois xalqaro huquqning boshqa tamoyillari va xalqaro shartnomalar ushbu majburiy me'yorlarga zid kelmasligi kerak.

XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida jahonda yuz bergan jarayonlar nafaqat dunyo geosiyosiy xaritasini, balki xalqaro munosabatlar tizimining ham tubdan o'zgarishiga olib keldi. Bugungi kunda zamонави xalqaro munosabatlarning globallashuvi va uning transformatsiyasi sharoitida xalqaro hayotning barcha sohalarida keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Buning natijasida davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar shaffoflashib, integratsiyalashuv jarayonlarini tobora kuchayishi kuzatilmoqda. Zamонави xalqaro munosabatlarning an'anaviy ishtirokchisi bo'lmish davlatlar bilan birga uning yangi ishtirokchilari sifatida jahon siyosiy maydoniga xalqaro hukumatlararo moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar, nodavlat, nohukumat tashkilotlari hamda transmilliy korporatsiyalar, kompaniya va firmalar chiqmoqda. Xalqaro tashkilotlarning rivojla-

nishi, ayniqsa hukumatga tegishli bo'lмаган xalqaro nodavlat, nohukumat tashkilotlari faoliyatining tobora kuchayishi oqibatida xalqaro munosabatlarning mazmun va mohiyatini, uning o'ziga xos xususiyatlarini chuqr o'rganishga ehtiyoj ortib bormoqda.

Mazkur holat ushbu jarayonda ishtirok etayotgan subyektlar faoliyatining mazmun va mohiyatini belgilashni, ularning maqsadini aniqlab beruvchi omillar, shart-sharoitlar, tendensiyalarni anglashga bo'lgan qiziqishni kuchaytirmoqda.

Ma'lumki, jahon siyosatida yangi «kuch markazlari»ning yuzaga kelishi, geosiyosiy kuchlar muvozanatining o'zgarishi, ayrim davatlarning dunyo hukmronligi uchun ochiqdan-ochiq da'volarini mintaqaviy va etnik mojarolar sonining ortishiga olib keldi. Ayni paytda global miqyosdagi muammolar borgan sari keskinlashib, ular doirasi kengaymoqda. Xalqaro terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm, separatizm, noqonuniy qurol savdosi, uyushgan jinoyatchilik, narkobiznes kabi tahdidlar; ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, axborot sohalaridagi turli xavf-xatarlar ham mintaqaviy, ham xalqaro miqyosda namoyon bo'lmoqda.

Ayniqsa, bugungi kunda xalqaro maydonda turli siyosiy kuchlar o'zining milliy va strategik rejalariga erishish uchun «Erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish» niqobi ostida amalga oshirayotgan, uzoqni ko'zlagan siyosatning asl mohiyati va maqsadlarini o'z vaqtida sezish, anglash katta ahamiyat kasb etadi. Shu borada ayrim qudratli davlatlar tomonidan muayyan mamlakatlarga, avvalambor, yer osti, yer usti boyliklariga ega bo'lgan hududlarga nisbatan olib borilayotgan ana shunday g'arazli siyosatni dunyoning ayrim mintaqalarida tinch hayotning izdan chiqishi, hokimiyat tepasiga aynan o'sha davatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarning kelishi bilan bog'liq misollarda ko'rish qiyin emas.

Xalqaro munosabatlarning globallashuvi, bir tomondan, yangi mustaqil davlatlarga xalqaro maydonga erkin chiqish va turli davatlardan bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, o'z milliy manfaatlarini himoya qilishda keng imkoniyatlar yaratayotgan bo'lsa,

ikkinchi tomondan, davlatlarning bir-biriga yaqinlashuvi hamda ular o'rtasidagi bog'liqlikning kuchayishi natijasida bu jarayonda ma'lum bir mintaqadagi turli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va moli-yaviy muammolar dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalmoqda va o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Vaziyat tashqi tahdid-larning ichki tahdidlar, ya'ni noan'anaviy tahdidlarning an'anaviy tahdidlar bilan o'zaro uyg'unlashuvi tufayli murakkablashmoq-da. Bunday vaziyatda yuzaga kelgan siyosiy vogelikni chuqur il-miy tahlil etish, geosiyosiy jarayonlarda mamlakatimizning o'rni va ahamiyatiga to'g'ri baho berish, milliy xavfsizlikni ta'min-lash bilan bog'liq muammolar, ularning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish hamda mamlakat xavfsizligiga tah-did solayotgan tashqi va ichki omillarini aniqlash muhim vazifalardan biridir.

Bugungi kunda mamlakatimiz xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyektiga aylandi. Ko'plab Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni o'rnatdi. Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va bir qator davlatlararo va nohukumat xalqaro tashkilotlar, Xalqaro moli-yaviy istitutlar bilan keng qamrovli aloqalarni izchil rivojlantirib kelmoqda. Bu boradagi ilk qadam 1992-yili Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zolikka qabul qilinishdan boshlandi. Mazkur tashkilot doirasidagi o'zaro aloqalar mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va o'zaro hamkorlikka qaratilgan bo'lib, unda xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilik, no-qonuniy qurol savdosi kabi omillarga birgalikda qarshi kurashish ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining barcha hamkorlari bilan munosabatlari qonuniy va ustuvor tamoyillar asosida amalga oshiriliishi davlat Konstitutsiyasining 17-moddasida kafolatlangan. Xususan, «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida: «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati uchun mas'ul bo'lgan idoralarning asosiy vazifasi bu — Birlashgan Millatlar Tashkilo-

ti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning, Yevropa, Osiyo va xalqaro xavfsizlikni ta'minlovchi tuzilmalar faoliyatida faol ishtirok qilishidir» — deb belgilab qo'yilgan.

Ma'lumki, mamlakatimiz BMTning teng huquqli a'zosi sifatida uning ixtisoslashtirilgan, ya'ni Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot banki, Sog'liqni saqlash tashkiloti, fan, ta'lim va madaniyat bo'yicha xalqaro tashkiloti — YuNESKO va boshqa qator tashkilotlarning a'zosi hisoblanadi. Ushbu tashkilot bugungi kunda o'z safida 193 ta davlatni birlashtirgan holda mintaqaviy mojarolarni hal qilishda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun shart-sharoit yaratishda va atrof-muhitni muhofaza etisha da muhim o'rinni tutadi.

BMTning Bosh Assambleyasi sessiyasida Prezidentimiz nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo uchun dolzarb bo'lgan muammolarni ushbu tashkilot bilan birgalikda hal etish tashabbusi bilan chiqishi respublikamiz tashqi siyosatning tinchlik-parvar ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, bu borada ma'ruzada quyidagilar alohida ta'kidlandi:

- BMTning bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o'rinni tutishiga erishish yo'lida barcha choralar ni ko'rish;
- Dunyo davlatlarining xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik bo'yicha BMTning doimiy shafeligidagi ishlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- BMTning tinchliksevar faoliyatini, ayniqsa mojarolar chiqadigan joylarda tinchlik o'rnatish faoliyatini yanada kuchaytirish;
- O'zbekistonning rivojlantirishning Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bo'yicha ishlarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to'la hamohangligini ta'minlash;
- O'zbekistonning ushbu tashkilotning bosqichma-bosqich isloh etilishi tarafidori sifatida BMT Xavfsizlik Kengashini bugungi

kun talablariga mos ravishda kengaytirish taklifini qo'llab-quvvatlash;

- inqirozli vaziyatlarning oldini olish va ogohlantirish maqsadida BMTning mintaqaviy tashkilotlar bilan munosabatlarini faollashtirish, BMT mintaqaviy tuzilmalarini rivojlantirish.

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining yangi rahbariyati tomonidan tashkilotni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo'llab-quvvatlash;

- O'zbekistonning BMT tuzilmalari bilan hamkorlikni bundan keyin ham izchil davom ettirishi; .

- Bosh kotib Antoniu Guterreshning yaqinda O'zbekistonga tashrifi yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan «yo'l xaritasi»ning amaliy ijrosini ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rish.

Przidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasiga 72-sessiyasidagi nutqida ta'kidlangan ushbu yo'nallishlardagi islohotlarning BMT doirasida olib borilishi oxir-oqibat tashkilot faoliyatini kuchaytirishga olib kelishi shubhasiz.

Bugungi kunda mamlakatimiz mazkur tashkilot doirasida xalqaro terrorizmga qarshi kurash bo'yicha ham faol hamkorlik olib bormoqda. Zero, xalqaro terrorizmga qarshi kurash milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda ustuvor hisoblanadi. O'zbekiston BMTning terrorizmga qarshi kurash bo'yicha konvensiyalarining ishtirokchisi hisoblanadi.

Mazkur masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi 1999-yil YeXHTning Istambul sammitida BMT tuzilmalarida terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha «Xalqaro markaz» tuzish taklifi bilan chiqqan va uzoq yillar davomida xalqaro terrorizmga qarshi kurashda xalqaro hamjamiyat kuchlarini birlashtirish tashabbusini ilgari surgan davlat hisoblanadi. Ushbu harakat bir qator xalqaro hujjalarda, jumladan, BMT doirasida ham mustahkmalab qo'yilgan. 2001-yil 13-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi AQSHda sodir etilgan terroristik akt bilan bog'liq holda BMT Bosh kotibiga terrorizmga qarshi kurash bo'yicha «Xalqaro markaz» tuzish uchun zudlik bilan choralar

ko‘rish taklifi bilan chiqdi. Siyosiy ma’noda mazkur markazni tuzish haqidagi g’oya 2001-yil BMT Xavfsizlik Kengashining 1373-rezolyutsiyasiga muvofiq 2001-yil tashkil etilgan terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha Qo‘mita tomonidan amalga oshirildi. Shunga bog‘liq holda, O‘zbekiston BMTning barcha a’zo davlatlarga 1373-rezolyutsiya qoidalarini bajarish bo‘yicha o‘z milliy ma’ruzasini jo‘natib turadi. Bu O‘zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashda global kuchlarni birlashtirish uchun qilayotgan yuksak xizmatlarini namoyon qiladi.

2017-yil iyunda BMTning Antoniu Guterresh O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashdi. Uchrashuvda terrorizmga qarshi kurash, mintaqaviy xavfsizlik, O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi hamkorlik masalalari batafsil muhokama qilindi. Antoniu Guterresh mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlashga qaratilgan O‘zbekiston tashqi siyosatiga, ushbu yo‘nalishdagi xalqaro hamjamiyat bilan faol hamkorlikka yuqori baho berdi.

O‘zbekiston tashqi siyosatining yana bir muhim yo‘nalishlaridan biri – mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash va uning barqarorligiga tahdid solayotgan tahdidlarning har qanday ko‘rinishi ga qarshi qat’iy kurash olib borishdan iborat. Prezidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiya sidagi nutqida ta’kidlanganidek: «O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu – har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston ushbu mintaqaga barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘snnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir. Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir».

Bugungi kunda xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash dunyo mamlakatlarini birlashtiradigan asosiy omil bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ana shu maqsad yo‘lida mustaqillikni birinchi yilidanoq mintaqada

tinchlik, xavfsizlik va barqarorlik masalalariga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Zero, mintaqqa xavfsizligi bu shu mintaqqa davlatlarining xavfsizligi demakdir. O'zbekiston Prezidenti bu sohani ustuvor vazifa sifatida e'tirof etgan holda, O'bekiston Respublikasi milliy xavfsizligining asosi mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik deb ko'rsatib o'tgan. Ma'lumki, xavfsizlikni ta'minlash hamkorlik orqali amalga oshiriladi. Hamkorlik esa eng avvalo mintaqqa va dunyoning rivojlangan davlatlari, xalqaro va nodavlat tashkilotlar o'rtasida integratsiya jarayonlarini rivojlatirish hisobiga olib boriladi.

Bugungi kunda O'zbekiston bir qator xalqaro tashkilotlar – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (EXHT) bilan esa maxsus bitimlar asosida samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Mazkur tashkilotlar doirasidagi aloqalar mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgandir.

Mamlakatimiz har doim ko'p asrlar davomida yuzaga kelgan «Qo'shning tinch – sen tinch» tamoyiliga amal qilib kelmoqda. Nutqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mintaqadagi xavfsizlik nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osyoning barcha davlatlari uchun zarurligi va ular tashqi siyosatining asosiy vazifasi ekanligini ta'kidlandi. Bu fikr bilan mamlakatimiz tashqi siyosati tinchlikparvar siyosat ekanligi dunyo hamjamiyatiga yana bir bor ko'rsatib berildi.

Hozirgi davrda mamlakatimiz tashqi siyosatida xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni saqlash masalalari ustuvor yo'naliш hisoblanib, Davlatimiz rahbari tomonidan barqaror rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan tahdid va xavf-xatarlarni bartaraf etish borasida qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Ular orasida tarixan qisqa vaqt ichida ilgari surilgan siyosiy tashabbuslar va izchillik bilan olib borilayotgan tashqi siyosat alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida O'zbekiston tashqi siyosati-

da xalqaro xavfsizlik va manfaatli hamkorlik masalalari alohida ahamiyatga molik yo'nalish ekanligi ta'kidlandi.

Ma'lumki, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalasi insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ustuvor hisoblangan. Bugungi dunyodagi, jumladan XXI asr boshida jahonda yuz bergen siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni dolzarb vazifalar qatoriga ko'tardi. Bu yo'nalishda har bir davlatning tashqi siyosatidagi asosiy vazifa – dunyo davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan ko'p tomonlama o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iboratdir. Bu esa ularning dunyo hamjamiyatiga kirib kelishiga, butun jahonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda o'z hissalarini qo'shishlariga imkon yaratadi. Zero, mintaqaviy muammlarning turkum omillari yalpi xavfsizlikka asosiy tahdid solayotgan bir davrda, mazkur masalalar strategik ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillari-danoq xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni dunyo mamlakatlarining hamjihatligi bilangina samarali ta'minlash mumkinligini e'tirof etdi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydonda olib borayotgan ko'p tomonlama munosabatlarida xavfsizlikni ta'minlash masalasi markaziy o'rinni egallaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mazkur muammoni o'ta jiddiyigini juda ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasidagi yig'ilishlarda alohida qayd etib, bu masala yuzasidan jahon hamjamiyatining o'zaro manfaatli hamkorligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'p bora ta'kidlagan. Xususan, Prezidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyası 72-sessiyasidagi nutqi va Davlatimiz rahbarining boshqa mamlakatlar rahbarlari bilan uchrashuvlarida ham xavfsizlik nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo va Markaziy Osiyoning barcha davatlari uchun zarurligi va ular tashqi siyosatining asosiy vazifasi ekanligini yana bir bor ta'kidlagani aslo bejiz emas.

O'zbekistonning YeXHT bilan bo'lgan munosabatlari mintaqada tinchlikni mustahkamlashga, xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, 1992-yil 30-yanvarda Pragada bo'lib o'tgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashining Tashqi ishlar vazirlari darajasidagi yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi ushbu tashkilot tarkibiga qabul qilingan edi.

Bugungi kunda YeXHT rahnamoligi hamda O'zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan xalqaro tadbirlar o'tkazilmoqda, ularda ishtirok etayotgan ko'plab davlatlar va xalqaro tashkilotlarning vakillari Ombudsman instituti faoliyati, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, qonun chiqaruvchi tizimlarning faoliyatini mukammallashtirish borasida muhokamalar olib boradilar, bu yo'nalishda turli takliflar kiritadilar.

Mamlakatimizning xalqaro tashkilotlar doirasidagi yana bir muhim yo'nalishi Yevropa ittifoqi davlatlari bilan munosabatlari- dir. Davlatimizning NATO bilan o'zaro aloqalari ham mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash yo'nalishida o'rnatildi.

O'zbekiston Respublikasi va mintaqaga davlatlarining bu tashkilotning mazkur dasturlarida ishtirok etishi o'zining mustaqilligini mustahkamlash, zamonaviy harbiy-texnika yutuqlariga erishish, harbiy kadrlarni tayyorlashda imkoniyatlarning kengayishi kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimiz tashqi siyosatida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDX), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShOS) kabi mintaqaviy uyushmalar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatish ham ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada xalqimiz asrlar davomida shakllangan «Qo'shning tinch – sen tinch» degan hayotiy naqlga doimo amal qilib kelmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, bu tashkilotlar bilan hamkorlik mintaqada xavfsizlik, tinchlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mamlakatimizning xalqaro maydondag'i hamkorligi, birinchi navbatda, uning xalqaro munosabatlari tizimida o'z o'rniiga ega bo'lish, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, geosiyosiy muvozanatni saqlash maq-

sadida olib borilayotganidan dalolat beradi. Zero, bugungi kunda xalqaro hamkorlik xavfsizlikning muhim sharti sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro munosabatlar tizmida xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni olib borish esa nafaqat mintaqada, balki dunyoda xavfsizlikni ta'minlashga keng imkoniyatlar yaratadi. Bu borada xalqaro tashkilotlar davlatlarning milliy manfaatlarini uyg'unlashtirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanishi — mavjud xavf-xatarlarni anglab yetish, ularni o'z vaqtida aniqlash va samarali chora tadbirlarni amalgalash oshirishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Prezidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida O'zbekistonning mintaqadagi siyosat va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi tashabbuslari ham aks etgan. Bu borada alohida ta'kidlash joizki, hozirgi vaqt-da mintaqaviy tashkilotlar xalqaro aloqalar va ko'p tomonlama diplomatiyaning eng mukammal mexanizmi hisoblanadi. Yildan-yilga ularning soni ortib, vakolat va vazifalari kengayib, tashkiliy tuzilmasi murakkablashib bormoqda. Ular o'rtasidagi aloqalar va hamkorlikning rivojlanishi xalqaro miqyosdagi yaxlit tizimni shakllanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni dunyo mamlakatlarining hamjihatligi bilangina samarali ta'minlash mumkinligini e'tirof etgan holda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT), Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (KXShT) kabi mintaqaviy uyushmalar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatishni ustuvor vazifalar sifatida belgiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bu tashkilotlar bilan hamkorlik mintaqada xavfsizlik, tinchlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasidagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirishda mustaqillikni saqlab qolish, sobiq ittifoqning qanday shaklda bo'lishidan

qat'i nazar, qayta shakllanmasligining kafolati bo'lishi zarurligini ta'kidlagan holda, sobiq ittifoq mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarning keskin uzilishi har tomonlama jiddiy umumiyligi inqirozga olib kelishi mumkinligi haqida bir necha bor ta'kidlagan. MDH doirasida O'zbekiston o'z mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, davlatning hududiy yaxlitligi va chegaralari himoyasini ta'minlashga intilib, zarur xomashyoni sotib olish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish, texnologiyalar, telekommunikatsiya, transport tarmoqlari, dengiz portlariga chiqish imkoniyatlarini ta'minlashga alohida ahamiyat qaratadi. So'nggi yillarda tashkilotni isloh qilish kengroq muhokama qilinadigan masala bo'lib, unda O'zbekiston hamdo'stlik tashkil etilgandan boshlab uning doirasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish va yangicha asosda xo'jalik aloqalarini ushbu jarayonlarga siyosiy tus bermagan holda amalga oshirish tarafdori hisoblanadi. O'zbekiston MDH barcha ishtirokchi davlatlar uchun maksimal ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishish maqsadida xo'jalik jarayonlarini tartibga solishda muvofiqlashtiruvchi rolini bajarishi kerak, deb hisoblaydi.

Xavfsizlik omili har qanday taraqqiyotning asosidir. Bugun hech bir mamlakat hozirgi zamonnинг global xavf-xatar va tahlidlaridan o'zini mutlaqo forig', deb kafolat bera olmaydi.

Hozirda mamlakatimizning mintaqada xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan olib borayotgan faoliyati Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) doirasida ham faol amalga oshirilmoqda. Mazkur tashkilot doirasida tashkilot a'zolari, eng avvalo, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash borasida hamkorlik olib bormoqda. Mazkur masala yuzasidan ular o'rtasida «Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida»gi Shanxay konvensiyasi imzolandi. Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish haqidagi Deklaratsiyaning 8-bandida: «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti mintaqaviy xavfsizlikka ustuvor ahamiyat qaratgan holda, uni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlar va harakatlarni qo'llaydi», deb ko'rsatib o'tiladi.

Bugungi kunda rivojlanib borayotgan ShHT bilan hamkorlikning ildizlari baquvvat, xususan, 2002-yil 7-iyundayoq Sankt-Peterburg shahrida tashkilotga a'zo-davlatlar tomonidan mazkur tashkilotning Xartiyasi (nizomi) qabul qilindi. Shundan so'ng tashkilot xalqaro yuridik maqomga ega bo'ldi. 2003-yil 29-mayda tashkilotning Moskva sammitida 2004-yilning yanvar oyidan ShHTning Pekindagi Kotibiysi va Toshkentdagi mintaqaviy anti-terroristik tuzilmasining ijroiya qo'mitasi ish boshlashi borasida qaror qabul qilindi.

ShHT va uning organlari faoliyatini takomillashtirish, tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va guumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirish, terrorizm, diniy ekstremizm va ayirmachilikka, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga, ommaviy qirg'in quollarining tarqalishiga qarshi birgalikda kurashish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari, Afg'onistonidagi vaziyatga alohida ahamiyat berilmoqda.

Shu bilan birga, o'tgan vaqt mobaynida O'zbekiston ShHTning xalqaro aloqalarini rivojlantirish, me'yoriy-huquqiy asosini mustahkamlash, ShHT Xartiyasidagi maqsadlar, vazifalar va tamoyillarga muvofiqlikni saqlagan holda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq tashabbuslarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish orqali tashkilot faoliyati samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratdi. Unda xususan, O'zbekiston Prezidenti ShHT doirasida qarorlar qabul qilish mexanizmlarini, tashkilot va uning tuzilmalari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qator takliflarni ilgari surdi.

Prezidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasiga 72-sessiyasidagi nutqida O'zbekistonning tashabbusi bilan ShHT bilan BMT o'rtasidagi hamkorlikning rasmiylashtirilishi ikki tomon uchun muhim masalalarni yechishda bahamijihat harakat qilishga keng yo'l ochadi. BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESKATO), Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha qo'mitasi, Markaziy Osiyo-

da preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi kabi tuzilmalari ShHT bilan anchadan buyon hamkorlik qilib kelmoqda. qabul qilingan qo'shma deklaratsiya bu hamkorlikning imkoniyat va salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston ShHTga a'zo davlatlarning 2020-yilgacha mo'ljalangan ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturini ijro etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, ShHT uchun transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish ustuvor masalalardan sanaladi. Xalqaro marshrutlarni rekonstruksiya qilishni imkon qadar tez yakuniga yetkazish barcha a'zo davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega ekanini inobatga olib, O'zbekiston bu yo'lning o'z hududidagi qismi bo'yicha majburiyatlarini to'la bajarib bo'ldi. Ayni paytda mamlakatimiz Ye-40 xalqaro marshrutining markazida avval «Navoiy», endilikda esa bir necha erkin industrial-iqtisodiy zonasini barpo etildi. Shubha yo'qki, Markaziy Osiyoda yangi qo'shma loyihalar amalga oshirilgani sayin, ya'ni ishlab chiqarish korxonalari va yo'llar barpo etish ko'paygani sari ShHT mamlakatlari uchun «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasining ahamiyati oshib boraveradi.

Przidentimiz tomonidan ShHTga a'zo davlatlar va kuzatuvchi mamlakatlar manfaatlariga xizmat qilishini ta'kidlangani beziz emas. Prezidentimiz ShHT tuzilganidan buyon o'tgan davrdagi butun faoliyatiga baho berar ekan, tshkilotning ochiqlik, blokka aylanmaslik xususiyati mustahkamlanib borayotganini, mintaqaviy va xalqaro rivojlanishning dolzarb muammolarini hal etishda ziddiyatli yondashuvlarga yo'l qo'yilmayotganligini alohida qayd etdi.

Afg'onistondagi murakkab vaziyatni hal etish bo'yicha O'zbekiston eng nufuzli xalqaro minbarlardan muhim amaliy tashabbuslarni doimiy ravishda bayon qilib kelmoqda. Przidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasи 72-sessiyasidagi nutqida ushbu nihoyatda dolzarb muammo ham o'z aksini topgan.

Unda ta'kidlanganidek, Afg'oniston bugungi kunda nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligiga, balki butun dunyoga tahlid soluvchi asosiy manbalardan biriga aylandi. Shuning uchun ham, Prezidentimiz fikricha, «Afg'oniston masalasi global miy-yosdagi masalalar markazida bo'lishi lozim. Xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlari, birinchi navbatda, Afg'onistondagi o'tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilishi kerak».

Bu borada avvalambor jafokash afg'on xalqiga jahon hamjamiyati tomonidan iqtisodiy-moliyaviy, ijtimoiy-gumanitar yordam ko'rsatilishi va bu ishlarning barchasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahnamoligida amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda dunyodagi ko'pgina davlatlar tomonidan Afg'onistonga ana shunday yordam ko'rsatilmoqda. Albatta, bu mamlakatda tinchlik va barqarorlik o'rnatishdan avvalo unga qo'shni bo'lgan davlatlar manfaatdordir.

Ma'lumki, bugungi dunyo siyosatida din omili o'ziga xos o'ren egallaydi va bu borada ham ko'plab muammolar bor. Xususan, ba'zi uzoqni ko'ra olmaydigan mafkurachilarning «sivilizatsiyalar urushi» bilan bog'liq nazariyalarida din omilining asos qilib olinishi, ayniqsa, islom diniga nisbatan salbiy qarashlarni shakllantirish, uni ekstrimizm, terrorchilik va jaholatparastlikning tayanchi bo'lgan eng asosiy omil, deya ko'r-ko'rona va bir tomonlama ayblash holatlari sodir bo'lmoqda.

Prezidentimiz o'z nutqida ushbu masalaga o'z munosabati ni bildirar ekan «Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadi-ganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz», deya ta'kidlagani bejiz emas.

Prezidentimiz o'z nutqida bizning yurtimizda tarix silsilalari jarayonida toblangan qadriyatlar va an'analar borligi, ayniqsa islom dinida Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas kitob hi-

soblangan «Sahihi Buxoriy»ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingen Imom Buxoriy kabi allomalarning merosini o'rganish bu borada kutilgan natijalar berishi mumkinligiga butun jahon jamotchiligi diqqatini qaratdi. Samarqandda tashkil qilinayotgan Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Toshkentda barpo etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qilishini alohida ta'kidladi. Sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qildi. Ushbu rezolyutsiya 2018-yil dekabrida BMT tomonidan qabul qilindi.

Bu borada o'tkaziladigan tadbirlar, targ'ibot va tashviqot ishlari, bir tomondan, O'zbekistonning jahondagi o'rni va nufuzini yaqqol tasavvur qilish, bugungi dorilamon kunlarning shukronasi va uning qadriga yetish, ikkinchidan, Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar va o'zgarishlar jarayonining mazmun-mohiyati va ahamiyatini o'rganish, uchinchidan bu borada alohida ahamiyat berilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar va mas'uliyatli vazifalarimizni yanada chuqrroq anglab olishga imkon beradi.

XULOSA

Mazkur uslubiy qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar» strategiyasi to'g'risida Farmoni asosida so'nggi yillarda jamiyatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirish, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish borasida erishilgan yutuq va natijalar tahlil etilgan. Jumladan, davlat hokimiyyati va boshqaruvni demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'tasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalari tizimini shakllantirish, shuningdek boshqaruva sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vakolatlarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazish, ikki palatali parlamentni shakllantirish, ko'ppartiyaviylar tizimini joriy etish va mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor berildi¹.

Qo'llanmada Harakatlar strategiyasida alohida e'tibor qaratilgan sud-huquq tizimini liberallashtirish va mustaqilligini ta'minlash hamda uni inson hamda fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya etishga xizmat qiladigan tom marsh masalalari ustuvor yo'nalishlardan bosh, axborot sohasini isloh eti nodagi institutga aylantirish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash sohasida fuqarolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini, ommaviy axborot vositalari rivojini ta'minlaydigan, demokratik talab va standartlarga to'la nos keladigan mustahkam qonunchilik bazasini yaratish hamda O'zbekistonda saylov huquqini rivojlantirish sohasida mamlakatimizda samarali, demokrati k saylov tizimini shakllan-

¹ Mazkur qo'llanmada D.O'rionboyev tomonid foydalanildi.

an tayyorlangan materiallardan

Ma'lumki Harakatlar strategiyasida fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish sohasida aholi barcha qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan fuqarolik institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish va samarali faoliyat yuritishi uchun institutsional, tashkiliy-huquqiy baza yaratish, mazkur tashkilotlarni davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan nazoratini amalga oshirishdagi rolini kuchaytirishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberalallashtirishni yanada chuqurlashtirish sohasida asosiy e'tibor markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyoti asoslarini, avvalambor, qonunchilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratish bo'yicha dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgani bejiz emas.

Mustaqillik davrida mazkur sohalarda erishilgan ulkan yutuq va natijalarni sarhisob qilib, shu bilan birga, yutuqlarga mahliyo bo'lib qolmaslik, xotirjamlik kayfiyatiga berilmaslik hamda globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholash, hayot talablariга javob berish, davr bilan hamqadam bo'lish, istiqboldagi ustuvor vazifalarni aniq-tiniq belgilab olish va ularni amalga oshirish bo'yicha izchil choralarни ko'rish masalalariga ushbu qo'llanmada alohida o'rin berilgan.

Qo'llanmada O'zbekistonning hozirgi davrdagi strategiyasida har tomonlama puxta o'yangan, mamlakat milliy manfaatlariga asoslangan tashqi siyosat strategiyasi shakllangani va jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilib, mamlakatimiz obro'-e'tiborini mustahkamlashga xizmat qilishi alohida ta'kidlangan. Shu bilan birga, O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining yangi marralarga chiqishi, mamlakatimizning hozirgi zamon xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni va rolini yanada mustahkamlash, jahon siyosati va iqtisodiyotida yuz berayotgan shiddatli o'zgarishlar davlatimiz tashqi siyosatining kontseptul asoslarini yana-da takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Bu nuqtayi nazardan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabrdagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasiining 72-sessiyasidagi nutqining mazmun-mohiyati ni o'rganish nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur qo'llanmada unga alohida mavzu bag'ishlangan. Zero, O'zbekistonning butun dunyodagi o'rni va nufuzini yaqqol namoyon etgan ushbu nutq, bir tomondan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning maqsad-muddaolari va yo'nalishlarini yaqqol ifodalagan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, davlatimizning ichki va tashqi siyosat tamoyillari, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT bilan munosabatlari aniq-tiniq belgilab berilgan, ulkan nazariy va amaliy ahamiyatga molik tarihiy hujjatdir.

Xullas, mamlakatimizning barqaror taraqqiyot tamoyillarini yaqqol aks ettirgan O'zbekistoni rivojlantirishning 2017–2021-yil-larga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini har bir zamondoshimiz qalbi va ongiga singdirish bugungi ma'naviy-ma'rifiy ishlarmizning asosiy yo'nalishiga aylandi. Bu esa, aholining turli qatlamlari, ayniqsa, yosh avlod tafakkurida mustaqil taraqqiyotimiz davomida erishilgan natijalarni his qilib yashash, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini shakllantirish borasidagi ishlarni amalga oshirishda barchamizning zimmamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent: «O'zbekiston», 2015. — 56-b.
2. «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlash-tirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 2007. №4. 161-modda.
3. «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosating asoslari to'g'risida»gi Qonuni. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-yil.
4. «O'zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Prezidentining Qarori — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil.
5. «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob muto-laasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi Qarori // «Xalq so'zi» gazetasi, 2017-yil 13-sentyabr.
7. «Obod qishloq» dasturini 2018-yilda amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018-yil.
8. «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida». O'zbekiston Prezidentining Qarori. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018-yil.

9. «Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. — «Xalq so'zi» gazetasi, 2016-yil 30-dekabr.

10. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2017-yil 23-may, <http://www.president.uz/uz/lists/view/966> 1/4

11. «O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Abdug'aniyevich Karimov tavalludining 80 yilligini nishonlash to'g'risida» O'zbekiston Prezidentining Qarori. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2017-yil 27-noyabr, <http://www.president.uz/uz/lists/view/966> 1/4

12. «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy mersini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlарini tashkil etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2018-yil 15-may, <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

13. «O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2018-yil 5-aprel, <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

14. «Yoshlarni ma'nnaviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2018-yil 15-avgust, <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sog‘lom avlod» davlat dasturi to‘g‘risida»gi Qarori. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2002-yil, 24-son, 200-modda.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasining dasturlari bo‘yicha kadrlarni o‘qitishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. – 2019-yil 4-yanvar.

17. «Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektor faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. – 2019-yil 8-yanvar.

18. «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlari ga jamoat tartibini tahminlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Qonuni – 2019-yil 9-yanvar.

19. «O‘zbekiston Respublikasi monopoliyaga qarshmi kurashish qumitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. – 2019-yil 24-yanvar.

20. «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiya si huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. – 2019-yil 2-fevral.

21. «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida» O‘zbekiston Prezidentining Farmoni. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-yil.

22. «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni – «Xalq so‘zi» gazetasi, 2017-yil 4-fevral.

23. «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi

si Prezidentining Farmoni. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.

24. «Ahолига давлат хизматлари ко‘рсатишning миллий тизимини тубдан ислоҳ қилиш чора-тадбирлари то‘г‘рисида» О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018-yil.

25. «O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil.

26. «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni давлат томонидан qo‘llab-quvvatlash тизимини тубдан takomillashtirish чора-тадбирлари to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. — «Xalq so‘zi» gazetasi, 2-dekabr.

27. «Ikkinchи Jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaga O‘zbekiston xalqining qo‘shegan munosib hissasiga bag‘ishlangan kitob-albomni nashr etish чора-тадбирлари to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2018-yil 1-iyun, <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

28. «O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy ислоҳотлар консепсијасини tasdiqlash to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, 2017-yil 9-sentyabr, <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

29. «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash тизимини тубдан takomillashtirishga doir чора-тадбирлар to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. — «Xalq so‘zi» gazetasi, 2016-yil 29-dekabr.

30. «Ahолига давлат хизматлари ко‘рсатишning миллий тизимини тубдан ислоҳ қилиш чора-тадбирлари to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

31. «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – 2019-yil 9-yanvar.

32. Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – 2019-yil 10-yanvar.

33. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – 2019-yil 17-yanvar

34. Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 1994. – 574-bet.

35. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: «Ma’naviyat», 2008.

36. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston. 2015. – 126-bet.

37. Mirziyoyev Sh.M. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII syezdidagi ma’ruza / «Xalq so‘zi», 2016-yil 18-oktyabr.

38. Mirziyoyev Sh.M. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutq // «Xalq so‘zi». 2016-yil 19-oktyabr.

39. Mirziyoyev Sh.M. Millatlararo do‘stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir. – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

40. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, 07.12.2018, <http://www.president.uz/uz/lists/view/1328> 2/16

41. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: «O‘zbekiston», 2016-yil. — 56-bet.

42. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyunda bo‘lib IV qurultoyidagi nutqi. — «Xalq so‘zi», 2017-yil 14-iyul.

43. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. — Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. — 104-b.

44. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. — 488-b.

45. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ni ta’minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. — Toshkent: «O‘zbekiston», 2017-yil. — 48-b.

46. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. — Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017-yil.

47. «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga sharh. — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti, <http://www.president.uz/uz/lists/view/>

MUNDARIJA

K I R I S H	3
1-mavzu. «Milliy g‘oya va O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» maxsus o‘quv kursining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	6
2-mavzu. O‘zbekiston taraqqiyoti va Harakatlar strategiyasining milliy g‘oya nazariyasi va amaliyoti bilan uyg‘unligi	20
3-mavzu. Mustaqil taraqqiyotning strategik tamoyillari va uning milliy g‘oyaviy asoslari	36
4-mavzu. O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot tamoyillari – Harakatlar strategiyasining muhim asosi	57
5-mavzu. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi – faoliyatimiz dasturulamali	79
6-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, inson omili va kuchli ijtimoiy siyosat	98
7-mavzu. O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillari	119
8-mavzu. O‘zbekistoni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida yoshlarga doir davlat siyosatining dolzarb vazifalari.	138
9-mavzu. O‘zbekistonning ta’lim sohasidagi strategiyasi va kadrlar tayyorlashning zamonaviy tamoyillari	161
10-mavzu. Mamlakatimizning Harakatlar strategiyasida barqaror taraqqiyot va informatsion xavfsizlikni ta’minlash vazifalari.	181
11-mavzu. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi: manfaatli hamkorlik tamoyillari va rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilish istiqbollari	202
XULOSA	226
FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI	229

Qiyom Nazarov, Akbar Safarov, Abdumalik Rahmonov,
Komil Haydarov, Nodira Alimuxamedova,
Davlatjon O'rionboyev, Bahodir Qandov

MILLIY G'OYA VA O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI

O'quv qo'llanma

Muharrir *M.Tursunova*
Musahhih *M. Turdiyeva*
Dizayner *D. Ermatova*

«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti,
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel./faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.
Bosishga ruxsat etildi 10.02.2019. «Uz-Times» garniturasi. Of-
set usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Shartli bosma
tabog'i 14,75. Nashriyot bosma tabog'i 15,0. Adadi 1000 nusxa.
Buyurtma №4

«FAYLASUFLAR» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.